

Y-262
600
M-260

O. MAKSUMOVA, S. TUROBJONOV

ORGANIK SINTEZ MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI



436.2

661 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M.26

O.S. MAKSUMOVA, S.M. TUROBJONOV

ORGANIK SINTEZ MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan darslik sifatida taysiya etilgan*

B 14363

TOSHKENT-2010

40.2

M80

O.S. MAKSUMOVA, S.M. TUROBJONOV. Organik sintez mahsulotlari texnologiyasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2010, 232 bet.

Darslikda organik sintez mahsulotlari kimyosi va ularni olish texnologiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Organik sintez mahsulotlari olish uchun xomashyo hisoblangan parafinlar, olefinlar, aromatik uglevodorodlar, atsetilen, uglerod oksidi va sintez-gaz olish texnologiyasi, galogenlash, gidroliz, gidratatsiya, eterifikatsiya, alkillash, sulfatlash, sulfirlash, oksidlash, degidrirlash va gidrirlash jarayonlari asosida organik birikmalar, efirlar, karbon kislotalar va ularning hosilalari, vinil monomerlari, kaprolaktam, spirt va fenollar, aldegid va ketonlar, atsetallar, sirt-faol birikmalar, nitrobirikmalar, ftal, malein va boshqa yopiq zanjirli angidridlar, etilenoksid, stirol, butadien va izopren ishlab chiqarish texnologiyasi va nazariy asoslari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Darslik oly o'quv yurtlarining kimyo-texnologiya bakalavr yo'nalishi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, magistrantlar, aspiranlar va ushbu sohada ishlovchi ilmiy-xodimlar foydalanishlari mumkin.

BBK 40.2873

УДК: 631.62(075)

TAQRIZCHILAR:

A.T.JALILOV – k.f.d., professor;

A.S.RAFIQOV – k.f.d., professor

ISBN 978-9943-10-373-3

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2010.

SO‘Z BOSHI

Ushbu darslik bakalavr yo‘nalishining kimyoviy texnologiya 5522400- Organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarish, 5222100- Tabiiy energiya tashuvchilar va uglerodli materiallarni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi va magistraturaning 5A522402-Og‘ir (yoki asosiy) organik sintez mahsulotlari kimyoviy texnologiyasi mutaxassisligi bo‘yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, aspirantlar, ilmiy xodimlar va ushu sanoat korxonalari xodimlarini ishlarida yaqindan yordam beradi. Hozirgi vaqtga kelib, dunyo bo‘yicha juda ham ko‘p miqdorda noyob asosiy organik va neft kimyosi sinteziga taalluqli bo‘lgan organik birikmalar sintez qilinadi. Ularga bo‘lgan ehtiyoj respublikada yildan-yilga ortib bormoqda.

Organik va neft kimyosi sintezi tarmog‘ining asosiy vazifasi turli xil monomerlar, erituvchilar, dorivor preparatlar, o‘simliklarni himoya qiluvchi vositalar va ularni sintez qilish uchun qo‘llaniladigan xomashyo mahsulotlarini eng oddiy, arzon usullar bilan olish texnologiyasini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, ishlab chiqarish ko‘p tonnali bo‘lgani uchun texnologiyalar ekologik tomonidan zararsiz bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, asosiy organik va neft kimyosi sintezi yetakechi tarmoqlardan biri bo‘lib, kimyo sanoatining rivojlanishda muhim o‘rinni egallaydi. Asosiy organik sintez sanoati chiqaraotigan mahsulotlar sifati boshqa tarmoqlarda sotuvga va oraliq mahsulotlar chiqarish sifati bilan belgilanadi. Biroq, yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun arzon xomashyo va sifatli mahsulot sanoat texnologiyasi talab qilinadi.

ASOSIY ORGANIK SINTEZ TEXNOLOGIYASI HAQIDA

Organik moddalar ishlab chiqarish qadim zamondan ma’lum bo‘lib, xomashyo sifatida o‘simlik va hayvonotdan foydalilanigan. Masalan, shakar, yog’,sovun, spirt va h.k. ishlab chiqarish. Oddiy moddalar asosida murakkab organik moddalar sintez qilish XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi. Toshko‘mir smolasidan aromatik uglevodorodlar sintez qilina boshladi. Keyinchalik XX asrga kelib, organik birikmalar olishda, xomashyo manbai sifatida, neft va tabiiy gaz muhim o‘rinni egalladi.


Shunday qilib, yuqorida uchta xomashyo: toshko'mir neft, gaz asosida organik sintez sanoati rivojlanmoqda va takomillashmoqda. Shu uchta xomashyoning fizik bo'linishi, kokslanishi asosida bir necha minglab boshqa kimyoviy birikmalar sintez qilishda qo'llaniladigan quyidagi beshta asosiy xomashyo moddalari olinadi:

- 1) parafinlar (metan CH_4 -dan boshlab $\text{CH}_{15}\text{-CH}_{40}$ -gacha);
- 2) olefinlar (C_2H_4 , C_3H_6 , C_4H_8 , C_5H_{10} va h.k.);
- 3) aromatik uglevodorodlar (benzol; toluol; ksilol, naftalin va h.k.);
- 4) atsetilen ($\text{CH}=\text{CH}$);
- 5) uglerod oksid va sintez gaz (CO va H_2 aralashmasi).

Rivojlanish natijasida organik sintez bir nechta tarmoqlarga bo'linadi (bo'yoqlar texnologiyasi, dori moddalari, plastmassalar, kimyoviy tolalar texnologiyasi va h.k.). Bu tarmoqlar orasida asosiy organik va neft kimyosi sintezi sanoati muhim o'rinni egallaydi. Asosiy yoki og'ir organik sintez degan iborani ma'nosi – bu ko'p tonnali mahsulot ishlab chiqarish bo'lib, ular boshqa organik mahsulotlar olish texnologiyalari uchun asos hisoblananadi.

Asosiy organik sintez sanoati mahsulotlarining turli xil tuzilishga, xossalarga egaligi va ko'p sohalarda qo'llanilishi bilan boshqa sanoat mahsulotlaridan farq qiladi. Asosiy organik sintez sanoati mahsulotlari – bu turli xil uglevodorodlar, xlor va florli birikmalar, spirtlar va fenollar, oddiy eflirlar, aldegidlar va ketonlar, karbon kislotalar va ularning hosilalari, aminlar va nitrobirikmalar, oltингugurt, florli va h.k. moddalardir. Qo'llanilishi bo'yicha yuqorida birikmalar ikki guruhga bo'linadi: oraliq mahsulotlar (boshqa moddalarni sintezi uchun qo'llaniladi) va turli tarmoqlarda qo'llaniladigan maqsadli mahsulotlar.

Oraliq mahsulotlar. Ular xalq xo'jaligida biror maqsadlar uchun qo'llanilmaydi, lekin ular asosida boshqa kerakli birikmalar sintez qilinadi. Bunday mahsulotlarni – organik sintez oraliq mahsulotlari deyiladi. Masalan, etilenden 1,2-dixloretan, uni degidroxlorlash bilan esa vinilxlorid olish mumkin:



Oraliq mahsulotlar assortimenti juda keng, chunki oddiy va murakkab organik birikmalar sintezida oraliq mahsulotlar hosil bo'ladi.

Monomer va polimer materiallari uchun xomashyolar. Organik sintez va neft kimyosi sintezida bu birikmalar eng muhim o'rinni egallaydi. Ular plastmassalar, sintetik kauchuk, sintetik laklar, kleylar, plyony-

ka materiallari, sintetik tolalar olishda xomashyo sifatida qo'llaniladi.

Barcha sintetik polimerlar asosan ikki usul – polimerlanish va polikondensatsiya yo'li bilan olinadi. Polimerlanish reaksiyalari uchun monomerlar qo'llaniladi. Monomerlar issiqlik, yorug'lik, nurlanish, katalizator, initsiator ishtirokida o'zaro birikishi natijasida elementlar zvenosi monomerga o'xshash yuqori molekulalari birikma hosil qiladi.



Sopolimerlanish reaksiyasida 2 va undan ortiq monomerlarni o'zaro birikishi natijasida hosil bo'lgan yuqori molekulalari birikmani quyidagi ifodalash mumkin:






Polikondensatsiya reaksiyasida funksional guruhlarni o'zaro birikishi natijasida polimer va past molekulalari modda hosil bo'ladi.






Hosil bo'lgan polimerlar tarkibi reaksiya uchun qo'llaniladigan reagentlar tarkibidan farq qiladi.

Monomerlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Vinil monomerlari



2. Allil monomerlari:





3. Olefinlar: $\text{CH}_2 = \text{CH}_2$; $\text{CH}_2 = \text{CH}-\text{CH}_3$; $\text{CH}_2 = \text{C}(\text{CH}_3)_2$

eten; propilen; izobutilen

4. Dienlar:



5. Polikondensatsiya reaksiyasi uchun qo'llaniladigan monomerlar, ularga quyidagi moddalarini misol qilish mumkin:



Polimer materiallari uchun plastifikatorlar. Plastifikator (yoki yumshatgichlar) deb, ba'zi bit polimerlarni plastik, elastik xossalarni yaxshilash uchun 30–40% gacha qo'shiladigan moddalarga aytildi. Bu plastifikatorlar, asosan presslash, valslash va boshqa usullar yordamida polimerlarni qayta ishlash jarayonlarida qo'llaniladi, chunki ishlov berishda polimerlar yetarli darajada oquvchan bo'lishlari, tayyor mahsulotlar elastik xususiyatlari yuqori bo'lishi kerak.

Plastifikatorlarning eng muhim vakillariga misol qilib yuqori haroratda qaynovchi murakkab esirlardan dibutil-dioktil ftalatlarni, yuqori spirlarni dikarbon yoki yuqori karbon kislotalar bilan hosil qilingan esirlarni olish mumkin.

Sintetik faol va yuvish vositalari. Tarkibida gidrofil va gidrofob guruhlari bo'lgan organik moddalar sirt-faollik xususiyatlarini namoyon qiladi. Oddiy sovun-stearin yoki palmitin kislotaning natriyli tuzida RCOONa bunday sirt-faollik xususiyatini karboksilat guruhi bajaradi. Suvli eritmalarda sirt-faol moddalardagi gidrofob guruhi sistemasidagi yog'-moy komponenti, gidrofil guruhi esa suvgaga tomon qaratilgan bo'ladi. Sirt-faol va yuvish vositalari ikki turga bo'linadi: noionogen va ionogen. Ionogenlar suvli eritmalarda dissotsiatsiyalanadi.

Ionogen moddalar ham o'z navbatida anion va kation aktiv moddalarga ajraladi. Anion aktiv moddalarga misol qilib sovunni, alkilarensulfonatlar – $RC_6H_4SO_2ONa$, alkilsulfonatlar – RSO_2Na va alkilsulfonatlarni R^2SO_2Na olish mumkin.


Kationaktiv yuvish vositalariga misol qilib, aminlar yoki to'rtlamchi tuzlarni olish mumkin. Asosiy organik va neft-kimyoси sintezining ko'pchilik mahsulotlari avtomobil taransporti, aviatsiya, raketa texnikasi va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Bu mahsulotlarga sintetik motor va raketa yoqilg'ilar, antifrizlar, motor va tormoz suyuqliklari kiradi.

Hozirgi vaqtida raketa texnikasida sintetik yoqilg'idan keng foydalaniadi (metanol, etanol, etilaminlar, metallorganik birikmalar) Surkov moylari, asosan neftdan olinadi. Turli prisadkalar yoqilg'i va moylarni ekspluatatsiya xossalarni yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Erituvchi va ekstragentlar. Ilgari erituvchilar sifatida benzin, benzol va etanol ko'p qo'llaniladigan. Sanoat xalq xo'jaligi rivojlanishi bilan erituvchi va ekstragentlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Sintetik erituvchilar arzon, zararsiz bo'lishi kerak. Ularni qaynash temperaturasini juda ham past yoki baland bo'lmasi lozim. Hozirgi davrga kelib, erituvchi va ekstragentlar, neft mahsulotlaridan aromatik uglevodorodlar ajratishda; azeotrop haydashda; tabiiy moddalardan yog' va moylarni

ajratishda keng qo'llanilmoqda.

Kimyo sanoatida esa erituvchi va ekstragentlar qayta kristallah va tozalash jarayonlari uchun polimerlar olishda qo'llaniladi.



TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Asosiy organik sintez texnologiyasi, asosiy organik sintezining muhim mahsulotlari, organik moddalar, toshko'mir neft, gaz asosida organik sintez, parafinlar, olefinlar, aromatik uglevodorodlar, toluol, ksilol naftalin, atsetilen, uglerod oksid, sintez gaz, monomerlar, polimerlar materiallari, vinil monomerlari, olefinlar, dien uglevodorodlari, allil monomerlari, polikondensatsiya, plastifikator, ionogen moddalar, kationaktiv moddalar, anionaktiv moddalar, erituvchi va ekstragentlar.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR

1. Asosiy organik sintez mahsulotlari uchun qanday xomashyo manbalarini bilasiz?
2. Asosiy organik sintez mahsulotlari qanday sohalarda qo'llaniladi?
3. Parafinlarga ta'rif bering va misollar keltiring.
4. Olefinlarga ta'rif bering va misollar keltiring.
5. Arculanga ta'rif bering va misollar keltiring.
6. Oraliq mahsulotlar.
7. Monomerlarga ta'rif bering va sinflarga ajrating.
8. Plastifikatorlar va qu'llash sohalari.

I bob. ASOSIY ORGANIK SINTEZ JARAYONLARI UCHUN XOMASHYOLAR

Yuqorida aytiganidek, organik moddalar ishlab chiqarish uchun xomashyo manbalari – bu toshko'mir, neft, tabiiy gaz hisoblanadi. Ulardan organik sintez uchun kerakli bo'lgan moddalar: parafinlar, olefinlar, aromatik birikmalar, atsetilen va sintez gaz olinadi.

Parafinlar. Organik sintez uchun texnik jihatdan muhim bo'lgan to'yingan uglevodorodlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Past parafinlar (C_1 dan C_5 gacha).
2. Yuqori parafinlar (C_{10} dan C_{40} gacha).

Past parafinlar. Parafin uglevodorodlari: metandan (CH_4) to butangacha bo'lgani (C_4H_{10}) oddiy sharoitda gazsimon moddalar, pentanlar C_5H_{12} to C_{16} chasi past temperaturada qaynaydigan suyuqliklardir. Ularni xossalariini quyidagi 1-jadvaldan ko'rish mumkin.

Past parafinlarni xossalari

I-jadval

Parafinlar nomi	Formulasi	Qaynash temperaturasi, °C
Metan	CH_4	-161,6
Etan	C_2H_6	-88,6
Propan	C_3H_8	-42,1
n-butan	$CH_3-CH_2-CH_2-CH_3$	-0,5
Izobutan	$CH_3-CHN-CH_3$ CH_3	-11,7
Izopentan	$CH_3 - CH - CH_2 - CH_3$ CH_3	27,8

Jadvaldagagi raqamlardan ko'rinishicha, metandan boshqa uglevodorodlar bosim ostida suv bilansovutilganda kondensatsiyalanish xossasiga ega. n-butan va izobutanolarni qaynash temperaturasi bir-biridan katta farq qilganligi sababli, izomerlarni rektifikatsiya usuli yordamida ajratish mumkin.

Past parafinlar suvda va qutbli erituvchilarda yomon eriydi, lekin boshqa uglevodorodlar va qattiq adsorbentlarga yutilish xususiyatiga

ega. Ularning molekula massasi ortishi bilan yutilish xususiyati ham ortib boradi, shuning uchun C₁,C₂,C₃,C₄ parafinlarni adsorbsiya yo'li bilan ajratish mumkin. Past parafinlar havo bilan portlovchi aralashma hosil qiladi, shuning uchun ularni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish sexlari A kategoriyasiga mansub bo'ladi.

Organik sintez uchun xomashyo sifatida, asosan metan, n-butan, izobutan, izopentan ko'proq qo'llaniladi.

Yuqori parafinlar. To'g'ri zanjirli uglerod atomidan iborat parafinlar organik sintezda xomashyo sifatida muhim o'rinni egallaydi. Ularni C₁₆-gacha bo'lgan vakillari xona sharoitida suyuqlik, C₁₆-dan yuqorilari esa qattiq moddalar hisoblanadi. Ularni suyuqlanish temperaturasi uglerod zanjiri ko'payishi bilan ortib boradi, n-parafinlarni suyuqlanish temperaturasi tarmoqlangan izomerlarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Neft mahsulotlaridan ajratish vaqtida n-parafinlar aralashma holida ajraladi. Ular orasida yumshoq va qattiq parafinlar muhim ahamiyatga ega. Yumshoq parafinlarning tarkibi C₁₁-C₂₀ uglevodorodlardan iborat bo'lib, ular 200 dan 320-350°C orasida qaynaydi.

Qattiq parafin C₂₀-C₃₅ uglevodorodlaridan iborat bo'lib, ular 300-350 dan 450-500°C qaynaydi.

Past parafinlarni ajratish. Past parafinlarning (C₁-C₅) asosiy manbai tabiiy va yo'ldosh gazlar, neft zavodlarida hosil bo'ladigan gazlardir.

Tabiiy gazlar deb, gaz konlaridan olinadigan gazlarga aytildi. Yo'ldosh gazlar deb, neft konlaridan neftni qazib olish vaqtida ajralib chiqadigan gazlarga aytildi. Bu gazlarning bir qismi separatorlar yordamida ajratiladi, qolgan qismi esa neftda erigan holda qoladi va neftni stabillash jarayonida ajratiladi, ya'nı uchuvechan komponentlarni haydab olinadi. Turli gazlar tarkibi 2-jadvalda ko'rsatilgan.

2-chi jadvaldan ko'rinish turibdiki, tabiiy gaz asosan, metan olish uchun manba bo'lishi mumkin. Tabiiy gaz va gaz-kondensati konlaridagi gaz tarkibi bir-biriga yaqin. C₃-C₅ parafinlarni olishda yo'ldosh gazlar muhim ahamiyatga ega.

Gazlarni fraksiyalarga ajratish moslamalari. Yo'ldosh gazlarni ajratish uchun absorbsiya, adsorbsiya, kondensatsiya va rektifikatsiya usullaridan foydalaniladi. Ular orasida eng ko'p qo'llaniladigani rektifikatsiya bo'lib, bu usul yordamida 2-4 MPa bosim ostida sovuqda yo'ldosh gazlar individual komponentlarga ajratib olinadi.

Uglevodorod gaziari tarkibi (hajm %)


2-jadval

Gaz	CH_4	C_2H_6	C_3H_8	C_4H_{10}	C_5H_{12}	H_2 va h.k.
Tabiiy gaz	70-97,5	0,1-8	0,1-4	0,001-1	0-0,3	1-15
Gaz kondensat konlaridagi gaz	75-90	3-9	1-3	0,5-1	0,5-1	1-4
Yo'ldosh gaz						
Separatordan so'ng	35-90	4-20	3-30	2-13	1-4	0,5-11
Stabillangan-dan so'ng	1-5	5-15	20-30	30-40	15-25	-

Metan, etanni boshqa uglevodorodlardan ajratishda past haroratdagи rektifikatsiya bilan adsorbsiya usuli birgalikda qo'llaniladi. Yo'ldosh gazlarni qayta ishlash korxonalarida gazlarni ajratish uchun gaz fraksiyalovchi qurilmalardan (GFK) foydalilaniladi.

Bu qurilmalar 6-10 kolonnadan iborat bo'lib, ulardagи tarekkalarning miqdori 400 dan 700 gacha yetadi. $\text{C}_1\text{-}\text{C}_5$ uglevodorodlarini ajratish sxemasi bilan tanishamiz (1-rasm). Yo'ldosh gaz 1-kompressorda suv yordamidasovutilgandan so'ng 2-rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi, u yerda $\text{C}_1\text{-N}_3$ uglevodorodlar ajratiladi. Flegma hosil qilish uchun 3-deflegmatorda sovutish vositasi sifatida suv yoki qaynovchi propandan foydalilaniladi. Yengil fraksiya 5-kolonnada rektifikatsiya jarayoniga yuboriladi. U yerda flegma hosil qilish uchun sovutish jarayonida qaynovchi propandan foydalilaniladi. Kolonnaning yuqori qismida gaz, qoldiq qismida esa suyuq propan qoladi.

C_4H_6 dan iborat og'ir fraksiya 2-kolonnadan 0,8 MPa bosim ostida 6-kolonnaga yuboriladi va u yerda C_4 fraksiya haydaladi va 7-kolonnaga rektifikatsiya jarayoniga yuboriladi. Natijada 98% (mass) normal va izobutan fraksiyalarini hosil bo'ladi. 6-kolonnadagi kub suyuqligi 0,3 MPa bosimgacha drossellanadi va rektifikatsiyalanish uchun 8-kolonnaga keladi. U yerda C_5 uglevodorodlar boshqalaridan ajratiladi. 9-rektifikatsiya kolonnasida esa C_5 fraksiyalar n-pentan va izopentanga ajratiladi. Pentan va butanlar izomerlarini qaynash temperaturasi bir-biriga yaqin bo'lganligi sababli, ularni ajratish uchun kolonnalarga 100-180 tagacha tarelka o'matiladi.



1-rasm. C_1 - C_5 uglevodorodlarini ajratish texnologik sxemasi:

1- kompressor; 2,5,6,7,8,9-rektifikatsiya kolonnalari;

3-deflegmatorlar; 4- qaynatgichlar 10-drossel ventili.

Yuqori parafinlarni ajratish. Suyuq va qattiq parafinlarni olish manbai neft hisoblanadi. Neftning tarkibi parafin, naften va aromatik uglevodorodlardan, kislorodli, oltингugurtli aralashmalardan iborat. Neftidagi uglevodorodlarning har bir sinfi normal va tarmoqlangan izomerlardan iborat, naftenlar besh va olti halqali, bir yoki bir nechta alkil guruhli, normal va tarmoqlangan parafinlar; aromatik uglevodorodlar esa benzol va uning gomologlari (toluol, ksilollar) holida bo'ladi; shuningdek, naftalin va boshqa aromatik uglevodorodlardan tashkil topgan.

Neftni qayta ishlashning dastlabki bosqichi – atmosfera bosimida to'g'ri haydashdir. Bu jarayon natijasida neftdan quyidagi fraksiyalar ajratib olinadi: benzin ($40\text{--}200^{\circ}\text{C}$); turli normal va tarmoqlangan alkan uglevodorodlari aralashmasi; ligroin ($150\text{--}250^{\circ}\text{C}$), tarkibi alkanlardan iborat; kerosin ($180\text{--}300^{\circ}\text{C}$), tarkibi alifatik alkanlar, naftalin, aromatik uglevodorodlardan iborat; gazoyl ($250\text{--}360^{\circ}\text{C}$) - dizel yoqilg'isi; mazut (qoldiq) – suyuq yoqilg'i.

Mazutni vakuum haydash natijasida turli qovushqoqlikdagi surkov moylari (solyar, transformator moylari va h.k.) olinadi. Surkov moylari, gazoyl va kerosin fraksiyalarini tarkibi 30% gacha n-parafinlardan iborat.

Benzinning sifati uning oktan soni bilan aniqlanadi. U benzindagi izooktanni (2,2,4-trimetilpentan) hajmiy % miqdorini ko'rsatadi.

Lìgriin fraksiyasining uglevodorod tarkibi


3-jadval

Uglevodo- rodlar	Uglerod atom soni					Miqdori, %
	5	6	7	8	9	
n-alkanlar	13	7	7	8	5	40
Tarmoqlanga n alkanlar	7	6	6	9	10	38
Sikloalkanlar	1	2	4	5	3	15
Aromatik birikmalar	-	-	2	4	1	7

Neftdagi har bir uglevodorodlar sinfi ko'p sonli gomolog va izomerlar ko'rinishida: parafinlar to'g'ri zanjirli va tarmoqlangan izomerlar holida; naftenlar – 5 va olti burchakli, turli uzunlikdagi bir yoki bir nechta alkil guruhli; aromatik uglevodorodlar benzol va uning gomologlari (toluol, ksilollar va h.k.); shuningdek, kondensirlangan burchakli turli aromatik uglevodorodlar (naftalin, antrotsen, ularning gomologlari) bo'ladi.

Seolitlar yordamida n-parafinlarni ajratish yangi ilg'or usullardan hisoblanadi. Uni qo'llash bilan n-parafinlarni toza holda (98,0–99,2%) ajratishda yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkin (80–98%). Jarayon ikki bosqichdan iborat: n-parafinlar adsorbsiyasi va desorbsiyasi. Uni gaz va suyuq fazada 300–350° C turli bosimda olib borish mumkin. Parafinlar desorbsiyasini bosimni pasaytirgan, temperaturani oshirgan, boshqa moddalar yordamida siqib chiqargan (n-pentan, ammiak bilan) holda yoki ushbu usullarni birgalikda qo'llash bilan olib borish mumkin. Ushbu jarayonlardan biri (Pareks usuli) bilan tanishamiz (2-rasm).

Xomashyo neft fraksiyasi gaz-tashuvchi (azot) bilan aralashtiriladi va uning ishtirokida isitiladi va 1-chi isitgichda bug'latiladi. Hosil bo'lgan bug'-gaz aralashmasi seolit bilan to'ldiri'gan uchta 2-adsorbsiya apparatlaridan birortasiga yuboriladi, u yerda n-parafinlar adsorbsiyasi sodir bo'ladi. Adsorberdan chiqayotgan aralashma 3-sovutgichda sovutiladi, 4-separatorda deparafinlangan kondensat gaz tashuvchidan ajratiladi, oxirgisi xomashyo bilan aralashtirish uchun qaytariladi.











2-rasm. Pareks usuli bilan n-parafinlarni ajratish texnologik sxemasi:
1,5-isitgichlar; 2-adsorber-desorberlar; 3,6-sovutgichlar;
4,7-separatorlar; 8-gaz purkagich.

Adsorbent parafin bilan to'siq to'yinganda gaz-tashuvchi bilan dastlabki fraksiya birgalikda desorbsiya bosqichi o'tkazilgan ikkinchi adsorberga yuboriladi. Birinchi adsorberga 5-chi isitgichda isitilgan gaz-desorbent (ammiak) yuboriladi. Desorbsiyadan so'ng desorbent aralashmasi bilan parafin 6-sovutgichda sovutiladi va 7-separatorda ajratiladi, ammiak esa yana desorbsiyaga yuboriladi. Uchta adsorbsiya moslamalaridan bittasi adsorbsiya, ikkitasi desorbsiya uchun qo'llaniladi, ogimtarni birligida o'tishi avtomat tarzda sodir bo'ladi.

OlefİNlAR (alkenlAR).

Asosiy organik va neftkimyosi sintezi uchun xomashyo sifatida qo'llaniladigan olefinlarni ikki asosiy guruhg'a ajratish mumkin:

1) gazsimon yoki past hareratda qaynovchi olefinlar - etilendan pentangacha (C_2 - C_5) bo'lgan uglevodorodlar:



2) Yuqori olefinlar - C_6 dan to $C_{12}\text{-}C_{18}$ gacha bo'lgan uglevodorodlar (asosan $C_7\text{-}C_{15}$).

Past olefinlar. Etilendan butengacha bo'lgan olefinlar oddiy sharoitda gaz, pentenlar boshlab (C_5C_{10})-rangsiz suyuqlik. Past olefinlarni ba'zi bir xossalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadvaldan ko'rini turibdiki, yuqori bosim va past temperaturada etilenni suyuq holga keltirish mumkin (buning uchun qaynovchi ammiak yordamida sovutiladi). Boshqa gazsimon olefinlar bosim ostida siqilib suv yordamida sovutilganda suyuq holga keladi. Olefinlarni yuqoridagi parafinlar bilan taqqoslansa, ko'rini turibdiki, etilen etandan 15°C past haroratda qaynaydi. Bu ko'rsatgichlar ularni qayta ishlash jarayonida muhimdir. Olefinlarning parafinlardan farq qiladigan xususiyatlaridan biri, u'arni yaxshi eruvchanligi va yaxshi yutiluvchanligidir, chunki ularda to'yinmagan uglerod bog'i mavjud. Olefinlar parafinlarga nisbatan qattiq moddalarga yaxshi adsorbsiyalanadi, eritmalarga yutiladi. Ushbu xususiyatlarni mavjudligi sababli, ularni maxsus usullar bilan ajratish mumkin.

Past olefinlarning xossalari

4-jadval

Nº	Olefinlar turi	Kondensatsiya temperaturasi, $^{\circ}\text{C}$	Kritik temperatura, $^{\circ}\text{C}$	Kritik bosim, $^{\circ}\text{C}$	Havo bilan portlovchi aralashma hosil qilish chegarasi, % (hajm)
1	Etilen	-103,7	9,9	4,95	3,0-32
2	Propilen	-47,7	91,8	4,47	2,2-10,0
3	Buten-1	-6,3	146,2	3,80	1,6-9,4
4	Sis-buten-2	-3,7	157,0	4,02	1,6-9,4
5	Trans-buten-2	+0,9	-	-	1,6-9,4
6	Izobuten	-7,0	144,7	3,85	1,8-9,6
7	n-penten	30-37	-	-	1,3-8,8
8	Izopentenlar	20,1-38,6	-	-	1,3-8,8

Yuqori olefinlar. $C_6\text{-}C_{18}$ olefinlar suyuqlik bo'lib, ularning qaynash temperaturasi uglerod atomlari soni va zanjir tuzilishiga bog'liq. To'g'ri zanjirli olefinlarni qaynash temperaturasi:

$n\text{-}C_6N_{12}$ $63,5\text{-}68^{\circ}\text{C}$; $n\text{-}C_8N_{16}$ $121\text{-}126^{\circ}\text{C}$

$n\text{-}C_7N_{14}$ $93,8\text{-}98,2^{\circ}\text{C}$; $n\text{-}C_{10}N_{20}$ $170\text{-}175^{\circ}\text{C}$

Tarmoqlangan tuzilishli olefinlar to'g'ri zanjirli olefinlarga

nisbatan past temperaturada qaynaydi. Reaksiyaga kirishish qobiliyati yuqori bo'lganligi sababli olefinlar organik sintezda xomashyo sifatida muhim o'rinni egallaydi. Ulardan eng muhimlari etilen va propilen hisoblanadi.

Sanoatda olefinlarni olishni asosiy yo'li bu neft fraksiyalarini yoki uglevodorod gazlarini parchalashdir.

Piroлиз ва kreking jarayonlari texnologiyasi

Piroлиз jarayoni. Piroлиз – grekcha so'zdan olingen bo'lib, «rur»-olov va «lysis»- parchalanish degan ma'noni bildiradi, ya'ni kimyoviy birikmalarni qizdirish natijasida parchalanish jarayonini ifodalaydi.

Organik kimyoda «piroliz» so'zining ma'nosи – organik birikmalarni yuqori temperaturada parchanishi natijasida kichik molekula massaga ega bo'lgan mahsulotlar hosil bo'lishidir. Piroлиз yo'li bilan yoqilg'i va moylar yoki neftkimyosi sintezi uchun xomashyolar olinadi.

Piroлиз jarayoni 19-asr oxiridan boshlab qo'llanila boshladi. Bunda neftni kerosin fraksiyasidan gaz oлindi. 20-asrning 50-yillaridan esa piroлиз natijasida etilen, propilen, butenlar, butadien, siklopentadien, benzol, toluol ksilollar va h.k olna boshlandi. 1980-yilga kelib, piroлиз yo'li bilan dunyo miqyosida olinadigan neft va gazning 6%, 2000-yilga kelib, 20% dan ortiq turli xil uglevodorodlar olna boshlandi. Piroлиз jarayonining asosiy xomashyosi neftni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan gazlar, neftning benzin va gazoyl fraksiyalarini hisoblanadi.

Piroлиз natijasida hosil bo'lgan mahsulot chiqimi, destruksiyaga uchratish darajasi xomashyoning uglevodorod tarkibiga bog'liq. C₂-C₄ tarkibli gazlar va benzin fraksiyasidagi n-parafinlarni piroлиз qilish natijasida, asosan pirogaz hosil bo'ladi (5-jadval).

Piroлиз jarayoni isitiladigan reaktorlarda olib boriladi. Jarayonga quyidagi texnologik parametrlar ta'sir etadi: temperatura, xomashyoni reaktorga kelish vaqtি va suv bug'i konsentratsiyasi (suyultirgich). Temperatura ko'tarilishi bilan reaksiya tezligi ortadi. Piroлиз jarayoni unumdorligi xomashyoni reaksiya zonasiga kelish vaqtiga bog'liq.

Suv bug'ini piroлиз reaktorlariga yuborishdan asosiy maqsad, uglevodorodlarni parsial bosimini pasaytirish va oraliq reaksiyalar tezligini kamaytirishdir. Suv bug'i konsentratsiyasi ortishi bilan etilen, buten, butadien hosil bo'lishi ko'payadi, aromatik uglevodorodlar chiqimi kamayadi.

**Hosil bo'layotgan pirogazni uglevodorod xomashyosi
tarkibiga bog'liqligi**


5-jadval

Uglevodorod xomashyosi	Hosil bo'lish miqdori, % (massasiga nisbatan)			
	C ₂ H ₄	C ₃ H ₆	C ₄ H ₈	C ₄ H ₆
C ₂ -C ₄	51,3	10,8	0,8	5,0
n-parafinlar	47,2	14,0	1,2	4,7
C ₅ va undan yuqori monometilli parafinlar	12,5	27,1	11,4	2,0
Dimetilli parafinlar – C ₇ va undan yuqori	11,7	20,7	14,6	2,8
Alkilsiklopetantanlar	20,5	11,5	1,9	4,5
Alkilsiklogeksanlar	26,2	6,1	0,4	9,6
Alkilbenzollar	4,0	9,2	-	0,3

Suv bug'ini piroliz reaktorlariga yuborishdan asosiy maqsad, uglevodorodlarni parsial bosimini pasaytirish va oraliq reaksiyalar tezligini kamaytirishdir. Suv bug'i konsentratsiyasi ortishi bilan etilen, buten, butadien hosil bo'lishi ko'payadi, aromatik uglevodorodlar chiqimi kamayadi.

Trubkasimon piroliz pechi 3-rasmida ifodalangan. Piroliz jarayoni 850–870°C sodir bo'ladi.

Suyuq yoki gazsimon yoqilg'i 2-gorelkaga yuboriladi va yoqiladi. Piroliz pechining 3-seksiyasi 4-vertikal trubalardan tashkil topgan. Trubalarda piroliz jarayoni sodir bo'ladi va shu yerda temperatura rejimiga alohida e'tibor beriladi. Qisman sovutilgan gaz 5-konveksiya kamerasiga keladi. Bu yerdagi trubalar seksiyasida xomashyo va bug'-ajratgich kerakli temperaturagacha qizdiriladi, shundan so'ng ular trubalarning radiant seksiyasiga boradi va piroliz mahsulotlari keyingi qayta ishlash bosqicheiga ketadi.




3-rasm. Piroliz pechinining sxemasi:

1-korpus; 2-panel gorelkalar; 3-radiant kameralar;
4-vertikal trubalar; 5-konveksion kamera.

Zamonaviy piroliz qurilmalari quvvati yuqori bo'ladi (3-rasm). Piroliz jarayoni trubkasimon pechlarda olib boriladi, uning gorelkasiga yoqilg'i va havo yuboriladi. Yonuvchi gazlarning konveksiya seksiyalaridan chiqadigan issiqligi 2,3 va 4-issiqlik almashtirgichlarda piroliz jarayoniga kelayotgan uglevodorod xomashyosini bug'latish va isitish, suv kondensatini isitish uchun foydalaniladi.

Piroliz mahsulotlarini 1-trubkasimon pechdan chiqish temperaturasi $850\text{--}870^{\circ}\text{C}$. Olefinlarni polimerlanishini oldini olish uchun, ular sovutiladi, natijada temperatura $500\text{--}700^{\circ}\text{C}$ ga tushiriladi, ya'ni chiniqtirishga uchratiladi. Chiniqtirishda bug'latish apparatlari qo'llaniladi. Ular gaz trubkali 5-utilizator qozonlaridan iborat. Piroliz mahsulotlarini trubalarda harakatlanish tezligi yuqori bo'lganligi natijasida, og'ir zarrachalarni devorga yopishish ehtimoli yo'qoladi, issiqlik uzatish koeffitsiyenti ko'payadi va $350\text{--}400^{\circ}\text{C}$ gacha sovush jarayoni tezlashadi. ZIA apparatiga kelayotgan suv kondensatining issiqligi hisobiga, yuqori bosimdagи ($11\text{--}13 \text{ MPa}$) bug' hosil bo'ladi, u 6-chi yig'gichda to'planadi, so'ngra 1-pechning birorta seksiyasida 450°C gacha isitiladi.

Qisman sovutilgan piroliz mahsulotlari 7-birlamchi fraksiyalash kolonnasiga yuboriladi. U yerda yengil moy va og'ir moy hisobiga flegma hosil bo'ladi. Birinchi moyni bug'lanishi va ikkinchini isishi hisobiga piroliz mahsulotlarini $100\text{--}120^{\circ}\text{C}$ gacha sovushi sodir bo'ladi; ulardan og'ir moy kondensatsiyalanadi, u esa 7-chi kolonnaning pastki qismida koks va sajani yig'adi.



4-rasm. Benzinni piroliz qilish texnologik sxemasi:

1-piroliz pechi; 2-4, 11-issiqlik almashtirgichlar; 5,8-utilizator qozonlar;
6-bug' yig'gich; 7-og'ir fraksiya kolonnasi; 9-nasoslar; 10-filtrlar;
12-yengil fraksiya kolonnasi; 13-separator; 14-aylanma suvni tozalash
bloki; 15-aylanma suv issiqligini reko'peratsiya qilish bloki;
16- sovutgich.

Ushbu aralashmadan 10-filtrda koks ajraladi, og'ir moyning issiqligidan (filtratning) aylanma suvlarni isitish uchun 11- issiqlik almashtirgichda foydalilanadi. 7-kolonnaning pastki qismidagi tarekadan og'ir moy ajratiladi, undan ajralayotgan issiqlik bug' hosil qilish uchun 8- utilizator qozonga yuboriladi. Hosil bo'tgan bug' 2-issiqlik almashtirgichda isitiladi, u esa piroliz uchun qo'llaniladigan ulgivedorod xomashyosiga qo'shiladi.

100–120 °C gacha sovutilgan piroliz mahsulotlari bilan suv bug' 12-kolonnaga yuboriladi. Natijada piroliz gazidan suv kondensatsiyalanadi, uni yengil moy deyiladi, piroliz gazi esa ajratish qurilmasiga yuboriladi. Yengil moy 13-separorda suvdan ajratiladi, bir qismi 7-kolonnaga flegma hosil qilishga yuboriladi, qolgan qismi esa qurilmadan chiqariladi va keyingi ishlab chiqarish jarayoniga yuboriladi. 13-separordagi issiq suv 14-tozalash tarmog'idan o'tadi va bir qismi 11-issiqlik almashtirgich orqali 8-utilizator qozonga qaytib keladi, so'ngra bug' holida piroliz jarayoniga yuboriladi.

Kreking. Kreking jarayonida yuqori temperaturada qaynaydigan neft fraksiyasingin katta molekulalari kichik molekulalarga ajraladi, natijada benzin va alkenlar hosil bo'ladi. Kreking 3 turga bo'linadi: gidrokreking, katalitik kreking va termik kreking.

Gidrokreking. Bu jarayonda krekinglanayotgan fraksiya juda yuqori bosim va vodorod ishtirokida qizdiriladi. Buning natijasida yirik molekulalar parchalanadi, vodorod birikishi sodir bo'ladi va kichik o'chamdag'i to'yigan molekulalar hosil bo'ladi. Gazoyl va og'ir fraksiyalardan benzin olish uchun gidrokreking jarayoni qo'llaniladi.

Termik kreking. Yumshoq yoki qattiq parafinlarni termik krekingi sanoatda $n\text{-C}_5\text{-C}_{20}$ uglevodorodli olefinlar olish uchun qo'llaniladi. Texnologiyasi bo'yicha bu ishlab chiqarish neft mahsulotlari pirolizi va termik krekingiga o'xshaydi. Parchalanish trubkali pechlarda 550 °C da olib boriladi. Olefinlarni hosil bo'lishini ko'paytirish uchun suv bug'i qo'llaniladi. Oraliq reaksiyalarni oldin olish uchun kreking jarayoni 20–25% parafinlar hosil bo'lguncha olib boriladi va yengil fraksiyalar ajratilgandan so'ng, yana jarayonga qaytariladi.

Kreking jarayonida 20% gacha gaz va suyuq uglevodorodlar (C_3 va yuqori) shuningdek, 1–2% koks hosil bo'ladi. Suyuq uglevodorod mahsulotlari katta qiziqish uyg'otadi, ularni gazdan ajratish va haydash natijasida turli fraksiyalar olinadi.

Parafinni kreking jarayoni natijasida hosil bo'lgan suyuq mahsulotlar fraksiya tarkibini quyidagi ma'lumotlar orqali ko'rish mumkin, %:

140°C ($C_5\text{-C}_8$).....20; 180–240°C ($C_{11}\text{-C}_{13}$).....11–13

140–180°C ($C_9\text{-C}_{10}$)...10–15; 240–320°C ($C_{14}\text{-C}_{18}$)...14–16

Usbu fraksiyalardagi olefinlar miqdori 70–80% tashkil qiladi. Ulardan 90–95% zanjir oxirida qo'shbog'i bo'lgan olefinlar, ya'ni α-olefinlar tashkil qiladi, sirt-faol moddalar sintezida ular muhim o'rinni egallaydi.

Katalitik kreking. Kichik molekula massali mahsulotlar olish uchun neft xomashyosini termokatalitik qayta ishlash jarayoniga katalitik kreking deyiladi. Katalitik kreking natijasida yuqori oktanli benzinlar, yengil gazoyl, $C_3\text{-C}_4$ uglevodorod gazlari olinadi (to'yigan va to'yinmagan mahsulotlar aralashmasi). Katalitik kreking nisbatan past temperaturada katalizator ishtirokida olib boriladi.

Katalitik kreking jarayonida uglevodorodlarni parchalanishi alyumosilikat katalizatorlari ishtirokida sodir bo'ladi. Bu katalizatorlar

ishtirokida parchalanish reaksiyasi ionli mexanizm asosida sodir bo'ladi. Termik kreking esa erkin radikal mexanizm bo'yicha sodir bo'ladi.

Katalitik kreking jarayonining maqsadi oktan soni 90–92% bo'lgan yuqori sifatli benzin olish. Katalitik krekingda, asosan butan-butilen fraksiyasidan iborat gazlar hosil bo'ladi. Katalitik kreking natijasida olingan gazoyldan saja va naftalin, og'ir gazoyldan esa yuqori sifatli «ignasimon» koks olinadi.


Alyumosilikat katalizatorlari tabiiy va sintetik bo'ladi: tabiiyga loylar misol bo'ladi, sintetik katalizatorlar sintez yo'li bilan olinadi.

Alyumosilikat katalizatorlari g'ovaksimon moddalar bo'lib sirt yuzasi 100–600 m²/g iborat.

Dastlab, tabiiy faol loy-montmorillonitdan ($H_2Al_2Si_4O_{12} \cdot 2H_2O$) foydalaniłgan. Sintetik alyumosilikat katalizatorlar amorf strukturaga ega. Ularni sintez qilish uchun suyuq shisha $Na_2O \cdot 3SiO_2$ va $Al_2(SO_4)_3$ bir-biriga ta'sir ettiriladi. Buning natijasida alyumosilikat natriy Na_2O .

$Al_2S_3 \cdot 2SiO_2$ hosil bo'ladi, keyinchalik u gidrogel holiga o'tadi.

Alkilaromatik uglevodorodlarni katalitik krekingi termik krekingdan farq qiladi. Bunda alkil zanjiri uzilmaydi, balki dealkillash natijasida aromatik uglevodorod va olefin hosil bo'ladi. H-propilbenzolni katalitik krekingi natijasida benzol va propilen, termik krekingda esa toluol va etilen hosil bo'ladi:




Katalitik kreking jarayoniga quyidagi asosiy omillar ta'sir etadi: katalizator xossasi, xomashyo sifati, temperatura, katalizator va xomashyonini o'zaro ta'sir vaqtin, katalizatorni qo'llash muddati.

Katalitik kreking jarayonining sanoat qurilmalari bir necha turga bo'linadi: 1) harakatchan qatlardan iborat yirik granulalangan katalizatorli (o'rtacha o'lchami 2–5 mm); 2) poroshoksimon katalizator qatlamlili (120–150 mkm); 3) to'g'ri reaktorli (lift turidagi).

Sanoatda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri 2-chi usuldir. Bu usulni flyuid-jarayon deyiladi. Bu jarayonda mikrosferik katalizator qo'llaniladi, u havo yoki bug'da muallaq holatda turadi.

Mikrosferik katalizator ishtirokida, ya'ni flyuid kreking jarayoni texnologik sxemasi bilan tanishamiz (5-rasm).



5-rasm. Flyuid-kreking jarayoni reaksiya tarmog'i sxemasi:

1-reaktor; II-regenerator; 1,5-siklonlar; 2-katalizator trubaları;
3,7-taqsimlash panjaralari; 4-oqim trubasi; 6-ko'taruvchi moslama.

Bu jarayonda 1-reaktor 2-regenerator bilan ustma-ust joylashgan bo'ladi, kolonnaning balandligi 60–70 metrdan iborat. 6-markaziy ko'targich yordamida issiq havo oqimi yordamida kokslangan katalizator II-regeneratorga chiqariladi. U yerga koksni tushirish uchun 3-chi taqsimlanish panjaralari orqali isitilgan havo yuboriladi. Regeneratorni sovutish uchun sovuq suvdan foydalaniлади, hosil bo'lgan bug' shu ishlab chiqarishda texnologik maqsadilar uchun foydalaniлади. Is gazlari bilan qo'shilib chiqqan katalizator zarrachalari 1-siklon yordamida ajratiladi va ular 2-truba orqali orqaga qaytariladi. Tozalangan katalizator 4-truba orqali 1-reaktorga yuboriladi, u yerda 7-taqsimlovchi panjaralar orqali uglevodorod xomashyosi bug'lari ham keladi. Kreking mahsulotlari 5-siklondan o'tadi, u yerda ular katalizator zarrachalaridan ajratiladi va keyingi ishlab chiqarish bosqichiga yuboriladi. Ishlatilgan katalizatorga suru bug'i yordamida ishlov beriladi, so'ngra uni qayta tiklash uchun yuboriladi.

Turli kreking va piroliz jarayonlarida olinadigan gazlar tarkibiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ularni uch guruhg'a ajratish mumkin:

1. Tarkibida C_3 va C_4 uglevodorodlar ko'p, lekin etilen kam bo'lgan termik va katalitik kreking gazlari. Ulardan propilen va butenlar olinadi.

2. Piroliz gazlari, ulardan etilen va propilen ajratiladi.
3. Suyuq neft mahsulotlarini piroliz gazlari. Ularning tarkibida C₂-C₄ olefinlar ko‘p bo‘ladi.

Aromatik uglevodorodlar

Organik sintez sanoatida aromatik uglevodorodlar olefinlardan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallaydi. Tabiiy manbalardan olinadigan aromatik uglevodorodlar orasida benzol, ksilollar katta ahamiyatga ega. Ba’zi bir aromatik birikmalarni fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari bilan tanishamiz (6-jadval).

Aromatik uglevodorod xossalari

6-jadval

Uglevodorod nomi	0,1 MPa bosimida qaynash temperaturasi, °C.	Suyuqlanish temperatura-si, °C	Chaqnash temperatura-si, °C
Benzol	80,1	+5,5	-14
Toluol (metilbenzol)	110,6	-95,0	+5
o-ksilol (1,2-dimetilbenzol)	144,4	-25,2	+29
m-ksilol (1,3-dimetilbenzol)	139,1	-47,9	+29
n-ksilol (1,4-demetylbenzol)	138,3	+13,3	+29
Pseudokumol (1,2,4-trimetilbenzol)	169,3	-43,8	-
Durol (1,2,4,5-tetra-metilbenzol)	196,8	+79,2	-
Naftalin	218,0	+80,3	-

6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ksilol izomerlarining qaynash temperaturasi bir-biriga yaqin, ularni qisman rektifikatsiya yo‘li bilan ajratish mumkin. n-ksilol va durol boshqa izomerlarga nisbatan yuqori temperaturada suyuqlanadi, shuning uchun ularni aralashmalardan qayta kristallash usuli bilan ajratiladi. Bu usul naftalinni ajratish uchun ham qo‘llaniladi.

Aromatik uglevodorodlar qutbli erituvchilardan dietilenglikol, fenolda yaxshi eriydi. Ular qattiq sorbentlarga (aktivlangan ko‘mir, silikagel) yaxshi yutiladi. Ushbu xossalari hisobiga aromatik

uglevodorodlarni sanoatda ekstraksiya, ekstraktiv haydash va adsorbsiya yo'li bilan ajratish mumkin. 6-jadvaldan ko'rinishi bo'yicha aromatik uglevodorodlar benzol, toluol va ksilollarni chaqnash temperaturasi ancha past, shuning uchun ularni alanglanishi oson. Aromatik uglevodorodlar boshqa uglevodorodlar sinfiga nisbatan zaharli hisoblanadi. Qonni zaharlash xususiyatiga ega.

Aromatik uglevodorodlarni olish man'bai neft mahsulotlarini piroliz va riforming jarayoni hamda toshko'mirni kokslashdir.

Neft mahsulotlarini aromatlashtirish. Avval aytilganidek, pirolizning suyuq mahsulotlari tarkibida aromatik uglevodorodlar bo'ladi, keyin ular ajratib olinadi.

Benzinni piroliz qilish natijasida 20–25% smola hosil bo'ladi, smola tarkibi 85–95% aromatik uglevodorodlardan iborat. C₃–C₄ uglevodorod gazlarini piroliz qilish natijasida esa 5–8% smola hosil bo'ladi. Piroliz natijasida olingan suyuq mahsulotlarni birlamchi qayta ishlash natijasida 4 ta fraksiya ajraladi:

1) «bosh» fraksiya, uning tarkibi C₅ dan iborat parafin va olefinlardan iborat;

2) «yengil» moy fraksiyasi (75–180°C), uning tarkibi monosiklik aromatik uglevodorodlar bilan olefin va parafinlar aralashmasidan iborat;


3) «o'rtacha» moy fraksiyasi (180–300°C);

4) qoldiq, benzol koxsi olish uchun qo'llaniladi.


Katalitik riforming. Riforming jarayoni, haydalgan benzinni oktan sonini oshirish va aromatik uglevodorodlar olish uchun qo'llaniladi. Katalitik kreking jarayonida alyumosilikat katalizatorlar qo'llanilsa, katalitik riformingda esa bifunksiyali katalizatorlar qo'llaniladi. Ular orasida g'ovaksimon alyuminiy oksidga shimdirlig'an platina katalizatori platformingda muhim ahamiyatga ega, oxirgi vaqtarda esa kislota turidagi tashuvchiga shimdirlig'an platina-reniy katalizatorlari qo'llanilmoqda. Ushbu ikki jarayon 470–540°C da bosim ostida, vodorod ishtirokida olib boriladi. Aromatik uglevodorodlar katalitik riforming sharoitida izomerlanish va dealkillash reaksiyalariga uchraydi. Bosim ortishi bilan ushbu reaksiyalar tezlashadi.

Katalitik riforming jarayonida sodir bo'layotgan kimyoiv uzgarishlar katalizatorning bifunktionallik xususiyati bilan bog'liq. Kislota markazlarida, asosan izomerlanish reaksiyalarini sodir bo'lishi hisobiga parafinlar izoparafinlarga, besh halqali naftenlar siklogeksan gomologlariga aylanadi. Boshqa tomondan olganda Rt yoki Pt + Re metallida bir qator gomolitik o'zgarishlar rivojlanadi, ular orasida olti


halqali naftenlarni degidrirlash reaksiyasi muhim ahamiyatga ega.



Olti halqali naftenlar dastlab siklogeksan va uning gomologlariga aylanadi, keyingi degidrirlash natijasida aromatik uglevodorodlar hosil bo'лади:



Siklik birikmalar hosil bo'lishida parafinlarni degidrosikllanish reaksiyasi muhim o'rinni egallaydi.



Beshta S atomidan tashkil topgan izoparafinlar ham aromatlashish xususiyatiga ega.

Riforming jarayonida qo'llaniladigan katalizatorlar. Ushbu katalizatorlar ikkita asosiy: degidrirlash-gidrirlash va kislota vazifasini bajaradi. Katalizatordagagi degidrirlash-gidrirlash vazifasini VIII guruh metallari bajaradi. Platina komponenti degidrirlash-gidrirlash reaksiyalari tezligini eng ko'p oshiradi, chunki reaksiya tezligining ortishi aromatik uglevodorodlar hosil bo'lishiga olib keladi, koks hosil bo'lishiga sabab bo'luchchi oraliq mahsulotlarni qisman yo'qotadi. Katalizatordagagi platina miqdori 0,3–0,6% tashkil qiladi. Platina miqdori kam bo'lsa, zaharga bardoshlilik xususiyati kamayadi, platina ko'p bo'lsa, demetillash reaksiyalari kuchayishiga sabab bo'лади.

Kislota funksiyasini katalizator tashuvchi-alyuminiy oksid bajaradi. Kislota funksiyasini kuchaytirish uchun katalizator tarkibiga galogen kiritiladi, asosan xlor, fluor. Katalizatordagagi platinani boshqa metallarga (Re,Ge,Pb,Sn,Cd va h.k.) almashtirish aromatik uglevodorodlar olish unumдорligini ancha ko'taradi. Bu katalizatorlar qo'llanilganda kokslanish jarayoni sekinlashadi, oraliq reaksiyalar kamayadi, parafinlarni degidrosikllanish reaksiyasi ortadi, aromatik uglevodorodlar chiqimi ko'payadi.

Katalitik riformingdagi asosiy texnologik parametrlar. Katalitik riformingda temperatura bosim va xomashyoni kelish tezligi jarayonga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tanlangan katalizatorni xossalari va jarayon kimyosi ham hisobga olinadi. Katalitik riformingni

o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, naftenlarni degidrirlash reaksiyalari issiqlik yutilishi hisobiga sodir bo'ladi. Bosimni ortishi katalizatorni tez zaharlanishini oldini oladi, lekin aromatik uglevodorodlarni hosil bo'lishini kamaytiradi va gidrokreking va dealkillash reaksiyalarini tezlashtiradi.

Bosimni pasayishi natijasida aromatik uglevodorodlar hosil bo'lishi tezlashadi, lekin katalizatorni kokslanishi tezlashadi. Shuning uchun riformingni polimetall katalizatorlari ishtirokida 1,5 MPa bosimda olib borish, jarayon temperaturasini 20°C pasaytirish va aromatik uglevodorodlar miqdorini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi.

Temperaturani ortishi katalitik riformingda katalizatorda aromatik uglevodorodlar hosil bo'lishini ko'paytiradi, shuningdek, katalizatorda koks hosil bo'lishi ham tezlashadi.

Xomashyoni kelish tezligi ortishi bilan aromatik uglevodorodlar hosil bo'lish kamayadi, benzinni oktan soni ham kamayadi. Shuning uchun aniq bir temperatura va bosimda xomashyoni kerakli tezlikda berish uchun shart-sharoitni aniqlash kerak.

Yuqorida ko'rilgan omillardan ko'rinib turibdiki, riforming jarayonida bosim va temperatura muhim o'rinni egallar ekan.

Katalitik riforming texnologiyasi. Hozirgi vaqtida sanoatda riforming jarayoni ikkita asosiy maqsad uchun: 1) motor yoqilg'ilarini oktan sonini oshirish va 2) individual aromatik uglevodorodlar olish uchun qo'llaniladi.

1. Birinchi holatda xomashyo sifatida ligroin fraksiyasi yoki og'ir benzinlar qo'llaniladi. Ularni oktan soni 35–40 tashkil qiladi, riforming natijasida 80–90 ga yetadi.

2. Aromatik uglevodorodlar olish uchun xomashyo manbai neft fraksiyalarini hisoblanadi. Ularning tarkibi C_6 va undan yuqqori uglerod atomi bo'lgan parafin va naftendan iborat.

Benzol olish uchun $60\text{--}85^{\circ}\text{C}$ qaynovchi neft fraksiyalarini, toluol olish uchun 85 dan $105\text{--}110^{\circ}\text{C}$ da qaynovchi, ksilollar uchun esa 110 dan $130\text{--}135^{\circ}\text{C}$ da qaynovchi neft fraksiyalarini qo'llaniladi.

Takomillashib borishi natijasida katalitik riforming jarayoni texnologiyasi bir nechta bosqichga ajratish mumkin:

1. Alyumoplatica katalizatorini turli turlari bilan ishlaydigan qurilmalar (AP-56, AP-64);


2. Leningrad neftekimyo tomonidan ikki turdag'i qurilmalar ishlandi. Birinchi turdagilari $62\text{--}85$ va $62\text{--}105^{\circ}\text{C}$ olingan benzinlardan benzol, toluol olish uchun mo'ljallangan-bo'lib, 2MPa bosimda ishlaydi;

ikkinci turdagı qurilmalar 4MPa bosimda ishləydi; unda əktən soni 78–80 teng bo'lgan avtomobil benzinləri olinadi. Xomashyo sıfatida 85–180 va 105–180°C qaynaydigan neft fraksiyaları qo'llanıladı.

3. Modifikatsiyalangan alyumoplatina katalizatori AP-64 bilan ishlaydigan qurilma (promotor xlor). Bu qurilmada oktan soni 95 bo'lgan aytomobil benzinlari olinadi.

4. Reniy katalizatori ishtirokida 1MPa bosimda ishlaydigan qurilmalar.

Endi platforming jarayoni texnologiyasi bilan tanishhamiz (6-tasm).



6-rasm Platforming jarayoni texnologik sxemasi:

1,13-separatorlar, 2,11-sovutgichlar, 3-nasos, 4- reaktor gidrotozalash uchun, 5,10,17- issiqlik almashtirgichlar, 6- trubkasimon pech, 7-9-reaktorlar, 12-sirkulatsiya kompressori, 14- stabillash kolonnasi, 15- kondensator, 16-yig'gich, 18- qaynatgich.

Xomashyo neft fraksiyasi 5-issiqlik almashtirgichda isitiladi, vodorod bilan aralashtiriladi va oltingugurtdan tozalash uchun kerakli temperaturada 6-trubkali pechda qizdiriladi. Katalizator solingan 4-reaktorda gidrotozalash jarayoni olib boriladi. 4-apparatdagagi issiq gazlar 2sovutgich apparatida sovutiladi. 1-separatorda kondensat H_2 va H_2S dan ajratiladi va 3-nasos yordamida riforming bosqichiga uzatiladi. 10-issiqlik almashtirgichga kelishdan ilgari xomashyo vodorod bilan aralashtiriladi, so'ngra 10-issiqlik almashtirgichda va 6-trubkali pechda

isitiladi. Platforming jarayoni adiabat turdag'i 7,8 va 9-reaktorlarda olib boriladi. Issiq gazlarni issiqligidan 10-issiqlik almashtirgichda, riforming jarayoniga kelayotgan aralashmani istish uchun foydalaniadi, so'ngra gazlar 11-sovutgichda sovutiladi. 13-separatorda kondensat vodoroddan ajratiladi va stabillash bo'limiga yuboriladi. 13-separatordan kelayotgan past parafinli vodorod aralashmasi uchta oqimga ajraladi. Bitta oqimni 12-sirkulatsiya kompressori yordamida riforming jarayoniga yo'naltirilgan toza langan neft fraksiyasi bilan birgalikda yuboriladi, qolganini sistemadan chiqarib yuboriladi.


Riforming suyuq mahsulotlarini stabillash past uglevodorodlarni (C_4H_{10} , C_3H_8 va C_2H_6) haydash deganidir 13-separatordan kelayotgan kondensat 17-issiqlik almashtirgichda isitiladi va 14-stabillash kolonnasiga yuboriladi. U yerda past uglevodorodlar haydaladi, ularni bug'lari 15-kondensatorda kondensatsiyalanadi va 16-idishda yig'iladi. Uning bir qismi kolonnaning yuqori qismiga flegma sifatida yuboriladi, qolgan miqdori esa qurilmadan chiqariladi. 14-kolonnada stabillangan mahsulot o'z issiqligini 17-issiqlik almashtirgichdagi kondensatga uzatadi va keyingi ishlab chiqarish bosqichiga yuboriladi.

Toshko'mirni kokslash. Aromatik uglevodorodlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida toshko'mirni kokslash mahsulotlari (koks gazi, toshko'mir smolasi) va neftni qayta ishslash mahsulotlari qo'llaniladi. 1 tonna toshko'mirni kokslash va uni qayta ishslash natijasida 200 kg organik sintezda qo'llaniladigan mahsulotlar olinadi.


Maxsus turli toshko'mir yoki ko'mir aralashmalar maxsus kokslash pechlarida havo ishtrokkisiz $1900^{\circ}C$ da qizdiriladi. Kokslash ko'mirdagi organik massada chuqur kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan boradi. Unda neft mahsulotlarini termik parchalanishidek, koks, kokslashni suyuq mahsulotlari va gaz hosil bo'ladi. Ko'mirda neftga nisbatan vodorod miqdori oz bo'lgani uchun 75–80% koks, 4–5% suyuq mahsulotlar hosil bo'ladi.

Ko'mirning organik massasi tarkibida uglevodorodlar, kislород, oltingugurt va murakkab tuzilishga ega bo'lgan azotli birikmalar mavjud. Kislород oltingugurtli va azotli birikmalar kokslash jarayonida suv, uglerod oksidlari, vodorod sulfid, ammiak va quyi kislородli, oltingugurt va azotli organik birikmalar (fenol, tiofen, piridin va h.k.) va kondensirlangan yadroli murakkab moddalar hosil bo'ladi. Ko'mirdagi uglevodorodlarni kokslash jarayoni natijasida quyidagi aromatik uglevodorodlar hosil bo'ladi: benzol, toluol, ksilollar, uch va tetrametilbenzollar, naftalin, antratsen va ularni gomologlari. Kokslash

harorati yuqori bo'lganligi sababli suyuq mahsulotlar to'liq aromatlanadi va boshqa sinf birikmalar 3-5% miqdorda hosil bo'ladi. Koks gazi tarkibida ≈ 60% vodorod, 25% metan va 2-3% etilen bo'ladi. Koks gazi vodorod olishda yoqilg'i sifatida qo'llaniladi.




Koks pechlari. Ko'mirni kokslash jarayoni kamerali pechlarda olib boriladi (7-rasm).



7-rasm. Koks pechingining sxemasi: 1-o'tish kanallari; 2-truba; 3-kokslash kameralari; 4- isitish moslamalari; 5- regeneratorlar.

Kokslash pechida balandligi 4,3 va uzunligi 14 metr bo'lgan bir nechta parallel koks kameralari joylashgan. Har bir isitish moslamasida ikkitadan 5-regenerator joylashgan (ulardan biri havo va boshqasi esa yoqilg'i gazlar uchun). Nasadka yordamida isitiilan havo va yoqilg'i gazlar vertikal koks kameralarining pastki qismida yonadi, hosil bo'lgan gazlar yuqoriga harakat qiladi va o'tish kanali orqali qo'shni xonaga o'tadi va pastga tushadi. Regeneratorlarda gazlar nasadkani isitadi va umumiy yo'nalish bo'yicha koks pechidan chiqib ketadi. Uchuvchan mahsulotlar koks kameralaridan 2-trubalar orqali chiqariladi. Ko'mirni kameralarni ustki qismidan maxsus vagonetkalar yordamida tushiriladi, koks pechlardan koks tashuvchi mashinalar yordamida ajratiladi.

Piroлиз pechidan chiqayotgan koks gazining tarkibida uchuvchan organik birkimlar, suv, ammiak bo'ladi. Koks gazining qayta ishlashni texnologik sxemasi bilan tanishamiz (8-rasm). Koks gazi 1-pechdan 2-gaz yig'gichga keladi. U yerdagi ammiakli suv maxsus purkagichlar orqali trubaga yuboriladi. Ammiakli suvning bug'lanishi hisobiga gazni birlamchi sovush va kondensatsiya jarayoni sodir bo'ladi.




8-rasm. Toshko'mirni kokslash mahsulotlarini kondensatsiyalash va yengil mahsulotlarini ajratishni texnologik sxemasi:

- 1-kokslash pechi; 2- gaz yig'gich trubasi; 3,8,12- sovutgichlar;
- 6- separator; 7- ammiak va piridinlarni yig'ish moslamasi; 9- adsorber;
- 10- isitish vositasj; 11- desorber; 13- deflegmator; 14 -qaynatgich.

Natijada kokslash mahsulotlari $85-90^{\circ}\text{C}$ gacha sovuydi va ularni bir qismi kondensatsiyalanadi. Shundan so'ng koks gazi $30-35^{\circ}\text{C}$ gacha 3-sovutgichda sovutiladi, u yerda smolaning qo'shimcha miqdori kondensatsiyalanadi. Sovutgichdan chiqayotgan gaz tarkibidagi smolani

ajratish uchun 4-elektrfiltrdan o'tkaziladi, so'ngra 5-gaz purkagich orqali keyingi bo'limga yuboriladi. Kondensat 2-gaz yig'uvchi trubalar, 3-sovtgich va 4-elektrfiltrdan o'tib 6-separatorga keladi. U yerda organik va suv qismalariga ajratiladi. Organik qismi toshko'mir smolasidan tashkil topgan bo'lib, uning tarkibi yuqori qaynovchi organik moddalardan iborat, ushbu smolani haydash sexiga yuboriladi. Suvli qismning (ammiakli suv) bir qismi gaz yig'ish trubalariga koklash mahsulotlarini birlamchi sovitish uchun, qolgan qismi esa ammiak va piridinti moddalarni yig'ish uchun 7-moslamaga yuboriladi. U yerga kelgan gazning tarkibida uchuvchan organik birikmalar (benzol, toluol) bo'ladi, ularni yig'ish uchun 8-sovtgich orqali 9-adsorberga yuboriladi. Adsorber yutish moyi bilan sug'oriladi. Absorberdan chiquvchi «qaytar» koks gazidan koks pechlarini isitish uchun foydalaniladi. To'yingan yutilish moyi absorberning pastki qismidan 10-isitish moslamasiga keladi, isigandan so'ng 11-desorberga yuboriladi. U yerda rektifikatsiya jarayoni natijasida yengil aromatik birikmalar haydaladi (xom benzol). Xom benzoldan tozalangan yutilish moyi o'z issiqligini 10-isitgichga uzatadi; 12-sovtgichda sovuydi va yana koks gazidagi benzol uglevodorodlarini absorbsiyalash uchun foydalaniladi.



9-rasm. Aromatik uglevodorodlarni ekstraksiya usuli bilan ajratish texnologik sxemasi:

1,4 rektifikatsiya kolonnalari; 2-skrubber; 3- issiq almashtirgich; 5-separator; 6-ekstragentni rekuperatsiyalash kolonnasi; 7- deflegmatorlar; 5-qaynatgichlar.

Aromatik birikmalarni ajratish va tozalash. Katalitik riforming jarayonida olinadigan katalizatdan aromatik uglevodorodlar olish uchun foydalaniлади. Sanoatda aromatik uglevodorodlarni ajratish uchun ekstraksiya usulidan foydalaniлади (9-rasm).

Uglevodorod fraksiyasini 1-ekstraksiya kolonnasining pastki qismiga yuboriladi, u yerda uglevodorod yuqoriga ekstragent tomonga harakat qiladi. Ekstragent kolonnaning yuqori qismidan yuboriladi.

Oqimlarni usti va tagida hosil bo'lgan bo'shilik separator vazifasini bajaradi. Kolonnaning tepasidan keladigan rafinat o'zi bilan ekstragentning bir qismini olib keladi, uning rekuperatsiyasi uchun rafinat 2-skrubberda suv bilan yuviladi, shundan so'ng u yoqilg'i sifatida foydalaniлади.

1-kolonnaning pastidagi to'yingan ekstragent 3-isitgichda issiq regenirlangan ekstragent yordamida isitiladi va 4-kolonnaga yuboriladi, u yerda aromatik uglevodorodlarni suv bilan ekstraktiv haydash jarayoni sodir bo'ladi. 5-separatorda suv ajratiladi va uni 4-kolonnaga qaytariladi, aromatik uglevodorodlar aralashmasi esa oxirgi rektifikatsiyaga jo'natiladi. Ekstragent sovutilgandan so'ng 4-kolonnaning pastki qismidan ekstraksiya uchun yuboriladi, uning bir qismi esa regeneratsiya (qayta tiklash) uchun 6-kolonnaga chiqariladi. U yerda ortiqcha suv haydab olinadi va kondensatsiya mahsulotlaridan tozalanadi. Ushbu usul yordamida ajratilgan aromatik uglevodorodlar miqdori 93–99% tashkil qiladi.

Kondensirlangan sikli aromatik uglevodorodlar ajratish uchun, asosan kristallanish usulidan foydalaniлади.

Toshko'mir smolasining $270\text{--}350^{\circ}\text{C}$ fraksiyasini kaliy gidroksid bilan o'zaro ta'siri va keyingi hidroliz reaksiyasi orqali organik sintez uchun muhim bo'lgan modda – karbazol olinadi:



Aromatik uglevodorodlar fraksiyalari. Aromatik xomashyoning ikki asosiy turi mavjud: koks kimyoviy va neft kimyoviy. Ular bir-biridan, otingugurt organik birikmalar miqlori jihatidan farq qiladi. Neft kimyoviy mahsulotlar tarkibida otingugurt faqat 0,0001–0,002% bo'ladi, koks kimyoviy mahsulotlar tarkibida taxminan 100 marta ko'p S bo'ladi. Otingugurt miqdorining ko'pligi sababli katalizator ko'p sarflanadi yoki uning tez zaharlanishi sodir bo'ladi. Boshqa aralash-malarga olefinlar va parafinlar kiradi.

Ksilol fraksiyalari ksilol izomerlari va etilbenzol nisbatlari jihatidan farq qiladi.

Turiga qarab benzol va toluol tartibida 99,0 dan 99,9% gacha asosiy mahsulot bo'ladi.

Ksilol fraksiyalarining taxminiy tarkibi quyidagicha:

% mass:	Etilbenzol	o-ksilol	m-ksilol	n-ksilol
Koks kimyoviy ksilol.....	10-12	52-60	14-20	8-12
Neft ksiloli.....	20-24	40-45	18-20	14-16

Ushbu fraksiyalarini ajratish rektifikatsiya yo'li bilan amalgamashiriladi, aslida ksilollarning izomerlanishi bilan birgalikda olib boriladi va n-ksilol kristallanish yoki boshqa usullar bilan ajratiladi.

Uchmetil benzol riforming katalizatları va piroliz mahsulotlarining 160-180 °C da olingan fraksiyalarini tarkibida bo'ladi. Bu fraksiyalar tarkibida uchmetil benzol izomerlaridan tashqari, etiltoluol izomerlari va boshqa aralashmalar mavjud bo'ladi. Shuning uchun fraksiyalaridan individual moddalar ajratish qiyin bo'lganligi uchun sanoatda kam qo'llaniladi.

Tetrametil benzol kokslash, piroliz va riforming mahsulotlarining 180-210 °C da olingan fraksiyalarini tarkibida bo'ladi. Bu fraksiya murakkab tarkibga ega bo'lganligi sababli, sanoatda uni ajratish kamdan-kam holatlarda amalgamashiriladi.


Naftalin. Naftalin toshko'mir smolasining 210-230°C fraksiyalaridan olinadi. Uni suv bilan sovutiladigan barabanli kristallizatorlarda kristallanadi va barabandan maxsus pichoq yordamida tushiriladi. Ho'il mahsulotni moydan ajratish uchun gidravlik presslarda qizdiriladi va presslangan naftalin olinadi (kristallanish temperaturasi 78 °C dan past bo'lmaydi, naftalin miqdori 96-98 %). Sulfat kislota bilan ishlov berilgandan so'ng, haydash natijasida nisbatan toza naftalin kristallari hosil bo'ladi ($t_{krist} = 79,6-79,8^{\circ}\text{C}$ natijasida 99,0-99,5% naftalin olinadi).

Aromatik uglevodorodlarni izomerlanish va dealkillash reaksiyalarini bilan olish

Aromatik uglevodorodlarni izomerlanishi. Toshko'mir yoki neftni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlardan ajratilgan ksilol fraksiyalarini tarkibida o- va n-ksilollar miqdori ancha kam bo'ladi.


Shuning uchun qo'shimcha bu uglevodorodlarni olish uchun sanoatda benzol gomologlarini izomerlash usulidan foydalaniлади.

Benzol gomologlarini izomerlash qaytar jarayon bo'lib, ksilollar uchun muvozanat barcha uchta izomerlar orasida qaror topadi:




Muvozanatlari aralashma tarkibini ($25\text{--}75^{\circ}\text{C}$) $\approx 60\%$ meta, 24% para va 16% orta - izomerlar, $400\text{--}500^{\circ}\text{C}$ da esa 52% meta-, 23% para va 25% orta - izomerlar tashkil qiladi. M-ksilollar miqdori ancha ko'p, chunki ular termodinamik jihatdan yuqori barqarordir.

Izomerlanish reaksiyasi kislota turidagi katalizatorlar ishtirokida sodir bo'ladi. Ular orasida alyuminiy xlorid eng faol hisoblanadi, u 50°C suyuq fazada izomerlanish reaksiyani olib borish xususiyatiga ega. Geterogen alyumosilikat katalizatori ishtirokida ancha yuqori temperatura ($400\text{--}500^{\circ}\text{C}$) talab qilinadi va jarayon gaz fazasida olib boriladi. Hozirgi vaqtida seolitli katalizatorlar qo'llanilmoqda. Qanday katalizator qo'llashdan qat'i nazar, izomerlanish reaksiyasining birinchi bosqichida aromatik birikma va kislota protonini o'zaro birikishi natijasida oraliq π - kompleks hosil bo'ladi. Keyingi bosqichda π -kompleks hosil bo'ladi va CH_3 guruhi protonni uzatadi va qo'shni uglerod atomi tomonga siljiydi:



Ksilollarni qayta ishlash natijasida 3% past gomologlar (benzol va toluol) va $2\text{--}3\%$ polimetilbenzollar hosil bo'ladi.

Endi, izomerlanish reaksiyalari bilan birgalikda olib boriladigan ksilol fraksiyalarini ajratish jarayoni bilan tanishamiz (10-rasm). 1-rektifikatsiya kolonnasida ksilol fraksiyasidagi eng uchuvchan etilbenzol haydaladi. 2-kolonnaga kelayotgan va izomerlangan ksilollarning birgalikdagi rektifikatsiyasi sodir bo'ladi. Kolonna kubida eng kam uchuvchan o-ksilol yig'iladi, u tayyor mahsulot holida chiqadi.



10-rasm. Izomerlanish bilan birlgilikda olib boriladigan ksilol fraksiyalarini ajratish texnologik sxemasi: 1-etyl benzolni haydash kolonnasi, 2-o-ksilolni ajratish kolonnasi, 3-yengil va og'ir fraksiyalarni ajratish kolonnasi, 4,5-ta 2 bosqichli kristallash moslamalari, 6-izomerlanish qurilmasi, 7-deflegmatorlar 8-qaynatgichlar.

2-kolonnaning yuqori qismidan m-va n-ksilollar aralashmasi 4-qurilmaga I-kristallizatsiyaga yuboriladi, u yerda aralashmani minus 50–70°C sovutiladi. Cho'kmadagi kristallar sentrifuga yordamida ajratiladi. Filtrlash natijasida hosil bo'lgan eritma tarkibida 75–85% m-ksilol bor. Uni izomerlash uchun 6-qurilmaga yo'naltiriladi. Izomerlangan mahsulotdan 3-rektifikatsiya kolonnasida oraliq mahsulotlar ajratiladi (benzol, toluol, polimetilbenzollar), ksilollar esa 2-kolonnaga yuboriladi. Shunday qilib, mahsulotning asosiy qismi 2-4-6-2 bosqichlarda hosil bo'ladi.

Birinchi kristallanishdan hosil bo'lgan qattiq mahsulot tarkibida faqat 70–80% n-ksilol bo'ladi. U suyuqlashtiriladi va qayta kristallash uchun 5-qurilmaga yuboriladi, sentrifugalangandan so'ng 98% n-ksilol hosil bo'ladi. Ikkinchi kristallanishdan keyingi eritma tarkibida qisman para izomerlar bortigi sababli, ular yana birinchi bosqichli kristallanishga jo'nataladi.

Benzol va naftalin gomologlarini dealkillash. Hozirgi vaqtda dealkillash reaksiyalar bilan benzol va naftalin olinmoqda. Dealkillash reaksiyalar natijasida aromatik uglevodorodlarni destruktiv gidrogenizatsiya jarayoni sodir bo'ladi. Bu jarayonda aromatik yadro va alkil guruhi orasidagi C-C- bog'larni parchalanish sodir bo'ladi. Dealkillash reaksiyalarini 2 xil yo'l bilan olib borish mumkin: 1) termik dealkillash 2) katalitik dealkillash (geterogen fazada):



Toluolni termik dealkillash reaksiyasi $700\text{--}760\ ^\circ\text{C}$ da $4\text{--}5\ \text{MPa}$ bosim ostida olib boriladi, bunda vodorod toluolga nisbatan $4\text{:}1$ nisbatda olinadi.

Katalitik dealkillashda katalizator sifatida molibden, kobalt, xrom osidlari ishlataladi. Ular orasida, xrom oksidi ishlab chiqarishda o'z aksini topdi. Katalitik dealkillash jarayonida bosim $3\text{--}10\ \text{MPa}$, temperatura $580\text{--}620\ ^\circ\text{C}$ ga teng. Toluoldan benzol olish 95% tashkil qiladi.

Aromatik uglevodorodlar olish usullarini taqqoslash. Kokslash, piroliz va riforming jarayonlarida hosil bo'ladijan aromatik uglevodorodlar chiqimi quyigicha ($1\ \text{t}$ qazib olinadigan xomashyoga nisbatan kg miqdorida):

	Benzol	Toluol	Ksilollar	Naftalin
Ko'mirni kokslash.....	6,0-6,5	1,5	0,3	2,0-2,5
Ligroin pirolizi.....	7-9	4-6	1,5-2,5	2-3
Ligroin platformingi...	5-10	5-7	1-3	-

Xomashyo neft fraksiyasiga nisbatan hisoblanganda aromatik uglevodorodlar chiqimi ko'rsatilgandan taxminan 10 marta ko'p bo'ladi.

Har bir jarayoning ahamiyatini belgilanganda shunga e'tibor berish lozimki, kokslash va pirolizda aromatik uglevodorodlar koks va olefinlar olishda oraliq mahsulot sifatida hosil bo'ladi va ortishishga olib ketadi. Shuning uchun hozirgacha $\approx 10\%$ benzol uglevodorodlari va naftalin kokskimyoviy usul bilan olinadi.

Tayanch so'z va iboralar

Neft mahsulotlarini aromatlashtirish, benzol, toluol, ksilol izomerlari, rektifikatsiya, qayta kristallash, sorbentlar, ekstraksiya, piroliz, riforming, benzin, katalitik riforming, katalitik kreking, bifunksional katalizatorlar, naftenlar, gidrirlash-degidrirlash, izomerlash, dealkillash reaksiyasi, texnologik parmetrlar, xomashyon kelish tezligi, parafin va naftenli neft fraksiyalari, alyumoplatina katalizatorlari, platforming jarayoni, kondensat, toshko'mirni kokslash pechlari, koks, koks gazi, toshko'mir smolasi, adsorbsiya, kondensatsiya mahsulotlari, uch metil benzol, tetrametil benzol, naftalin.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Neft mahsulotlarini aromatlashtirish nima?
2. Aromatik uglevodorodlar va ularni xossalari.
3. Katalitik riforming jarayoni haqida nima bilasiz?
4. Aromatik uglevodorodlar olishda qanday reaksiyalardan foydalaniladi?
5. Riforming jarayonida qanday katalizatorlar qo'llaniladi?
6. Katalitik riformingdagи asosiy texnologik parametrlar.
7. Platforming jarayonining texnologik sxemasi.
8. Riforming jarayonining maqsadi nima?
9. Toshko'mirni kokslash natijasida qanday birikmalar hosil bo'ladi?
10. Toshko'mirni organik modda tarkibi qanday?
11. Kokslash pechliari.
12. Toshko'mirni kokslash texnologiyasi.
13. Rektifikatsiyani ekstraksiyadan farqi nimada?
14. Aromatik uglevodorodlar fraksiyalari.
15. Aromatik uglevodorodlarni izomerlash.
16. Aromatik uglevododlarni dealkillash.

ATSETILEN

Atsetilen—rangsiz gaz bo'lib, toza holda efir hidiga ega; $-83,8^{\circ}\text{C}$ temperaturada ($0,102 \text{ MPa}$ bosimda) kondensatsiyalanadi. Atsetilennenning havo bilan $2,0\text{--}8,1\%$ aralashmasi; kislorod bilan $2,8\text{--}78\%$ aralashmasi portlash xavfiga ega. Atsetilen parchalanish natijasida katta miqorda issiqqlik ajraladi:



Ushbu parchalanish kislorodsiz muhitda kerakli initsiatorlar ishtirokida sodir bo'ladi. $0,2 \text{ MPa}$ bosimda sodir bo'ladigan parchalanish uncha xavfli bo'lmaydi. Yuqori bosimdagi parchalanish reaksiyasi 1000 m/s tezlikdagи detonatsiya to'qinida portlash bilan sodir bo'ladi. Portlashni oldini olish uchun reaksiyani $0,2 \text{ MPa}$ bosim ostida olib boriladi. Bosim ostida ishlash vaqtida atsetilen azot bilan suyultiriladi. Atsetilenni siqish uchun maxsus atsetilen kompressorlari qo'llaniladi.


Atsetilenni yana bir muhim texnik xossalardan biri, uning boshqa uglevodorod gazlariga nisbatan yaxshi erish xususiyati hisoblanadi. Masalan, 20°C haroratda 1 hajm suvda 1 hajmga yaqin atsetilen eriydi,

60 °C da esa 0,37 hajm eriydi. Atmosfera bosimi va 20 °C da atsetilenning eruvchani ligi quyidagicha, %: metanolda-11,2; atsetonda-23, dimetilformamidda-32; N-metilpirrolidonda-37. Atsetilenni olish va boshqa gazlar aralashmasidan ajratishda atsetilenning eruvchanligi muhim ahamiyatga ega.

Atsetilen ishlab chiqarishning ikki usuli mavjud:

1. Kalsiy karbiddan olish.
2. Uglevodorodlardan olish.

Atsetilenni kalsiy karbiddan olish texnologiyasi. Bizga ma'lumki, kalsiy karbidi kalsiy oksidi va koksdan olinadi. Reaksiya kuchli ekzotermik bo'lib katta elektrenergiya sarfini talab etadi, bu esa ishlab chiqariladigan atsetilenning tan narxida o'z aksini topadi.



Kalsiy karbidga suv ta'sir ettirilsa, atsetilen hosil bo'ladi (reaksiya ekzotermik tarzda sodir bo'ladi):



1 kg texnik kalsiy karbiddan (tarkibida koks, kalsiy oksid va boshqa aralashmalar) 230–280 litr atsetilen olinadi. Nazariy jihatdan olganda esa 1 kg toza CaC₂dan 380 litr atsetilen olish mumkin.

Kalsiy karbidni parchalanish reaksiyasida jarayonni yaxshi sodir bo'lishi uchun ma'lum bir shart-sharoitlarga amal qilish kerak. Reaksiya geterogen bo'lganligi sababli, uning tezligi kalsiy karbidning yirik yoki maydaligiga bog'liq. Kalsiy karbid qancha mayda bo'lsa, reaksiya tezligi shuncha katta bo'ladi. Reaksiya aralashmasini aralashtirib turish kerak, chunki karbidning sirtida ohak qatlami hosil bo'lishi mumkin; u esa CaC₂ ni to'liq parchalanishiga xalaqit beradi. Reaksiya muhitida hosil bo'lgan issiqlikni tashqariga chiqarib turish kerak, chunki atsetilen polimerlanishi yoki parchalanishi mumkin.

Atsetilen generatorlari. Kalsiy karbidni suv ta'sirida parchalanishi sodir bo'ladi dan apparatlarni atsetilen generatordan deyliladi. Issiqlikni chiqarish bo'yicha generatorlar ikki turga bo'linadi:


1. Ho'l turdag'i generatorlar, bu generatorlardagi reaksiya issiqligi ortiqcha suv yordamida sovitildi. Generatorlarda 1kg CaC₂ ga 10kg suv sarflanadi, bunda kalsiy gidroksid suvda suspenziya ko'rinishida hosil bo'ladi uni tiklash mumkin emas.

2. Quruq turdag'i generatorlar. Ulardagi issiqlik ortiqcha olingan suvning bug'lanishi natijasida reaksiya muhitidan chiqariladi. Bu usulda kalsiy gidroksid quruq holda hosil bo'ladi va uni qurilish materiallari olishda qo'llash osonlashadi.

Ho'l turdag'i generatorlar reagentlarni solish bo'yicha quyidagi sistemalarga bo'linadi: «suvga karbid», «karbidga suv» va kontaktli (suv va karbid o'zaro ta'sirda).

Sanoatda ko'p miqdorda atsetilen olish uchun «Suvga karbid» turidagi generatorlarni qo'llash xavfsiz hisoblanadi. Bu apparatlarda karbid bo'laklari ortiqcha olingan suvga solinadi. Bu apparatni qizib ketishini oldini oladi va reaksiya issiqligini chiqarish uchun shart-sharoit yaratadi, «suvga karbid» turidagi atsetilen generatorlari bilan tanishamiz (11-rasm). Apparatning taxminan $\frac{1}{4}$ qismi kalsiy gidroksidning suvli suspenziyasi bilan to'ldiriladi. 50–80 mm o'lchamdagagi CaC_2 dastlab, 1-oraliq bunkerga keladi, u yerdagi havoni siqib chiqarish uchun azot yuboriladi.

Se'ngra 2-konussimon qopqoq ochiladi va kalsiy karbid 2-bunkerga tushadi. Kalsiy karbidni kelishini avtomat tarzda 4-sektorli baraban boshqaradi. Sektorli baraban tezligini atsetilenga bo'lgan ehtiyojga qarab boshqarib turiladi. Kalsiy karbid bo'lakchalarini 6-trubadan o'tib 5-konusga keladi va karbidning parchalanishi 10-aratlashtirgich yordamida 9-tuynukchalarda sodir bo'ladi. Aralash-tirgich yordamida kalsiy karbid bo'lakchalaridagi ohak qatlani tozalanadi.




11-rasm. Suyga karbid turidagi atsetilen generatorining sxemasi:

1,3-kalsiy karbid solish bunker; 2-qopqoq; 4-sektor barabani;
5-taqsimlovchi konus; 6-yutuvchi truba; 7-gidravlik idish; 8-qobiq;
9-tuyukchalar; 10-arashtirgich; 11-shlyuzli zatvor.


Kalsiy karbid suv ta'sirida parchalanishi natijasida kalsiy gidroksidining suvdagi suspenziyasi (ohakli sut), chuminodek. koks.

ferrosilitsiy aralashmasidan iborat shlam hosil bo'ladı. Shlam generatorming tagida cho'kadi va 11-shlyuzli zatvorda yig'iladi. Ohakli sut uzlusiz ravishda generatorming pastki qismidan chiqariladi va tindiriladi. Tindirilgan eritmaga suv qo'shiladi va CaC_2 ni parchalash uchun generatorga yuboriladi. Hosil bo'lgan atsetilenni generatordan tashqariga chiqariladi. Bosim ortib ketsa (400–450 MPa) ortiqcha hosil bo'lgan gaz 7-gidravlik zatvor yordamida atmosferaga chiqariladi. «Suvga karbid» turidagi generatorlarda soatiga 500 m³ atsetilen ishlab chiqariladi.

Atsetilen aralashmalarini va ularni tozalash. Generatordan chiqayotgan atsetilen yuqori konsentratsiyaga ega (99%) bo'lib, uning tarkibida 1% quyidagi aralashmalar mavjud: NH_3 , H_2S , PH_3 va h.k. Bu moddalar kalsiy karbid tarkibidagi birikmalarni suvda parchalanishi natijasida hosil bo'ladı:




Bu moddalar (NH_3 , H_2S) zararli bo'lib, atsetilenni qayta ishlash jarayonida qo'llaniladigan katalizatorni zaharlash qobiliyatiga ega (masalan, ikki valentli simob tuzlarini qaytaradi), shuning uchun karbid usuli bilan olingen atsetilenni tozalash jarayoni eng zarur bosqichlardan biri hisoblanadi. Buning uchun, ya'ni atsetilenni tozalash uchun natriy gipokloritning suvli eritmasidan foydalaniadi, u aralashmadagi birikmalarni kerakli kislotalarga oksidlaydi, masalan:



Endi ho'l usul yordamida kalsiy karbiddan atsetilen olish texnologiyasi bilan tanishasiz (12-rasm). Kalsiy karbid 1-vagonetkalarda 2-monoreksdar «bo'sh» turidagi 6-generator bunkeriga tushiriladi. Kalsiy karbidni parchalanishi natijasida hosil bo'lgan ohakli sut uzlusiz harakatlanuvchi aralashtirgichli 5-tindirgichga yuboriladi. Aralashtirgich hosil bo'lgan ohak loyqasini markaziy tushirilish shtutseri tomoniga suradi. Ohak loyqasi maxsus nasoslar yordamida tindirish o'ralariga yuboriladi. Tindirilgan kalsiy gidroksidning suvli eritmasi 5-tindirgichdan 4-sovitgich orqali 3-bakka qaytib keladi, u yerda unga kerakli miqdorda suv qo'shiladi va 6-generatorga yuboriladi. Generatorda hosil bo'lgan atsetilennenning temperaturasi 50–60°C bo'lgani sababli, uni 7-sovitgichda sovutiladi, kondensatdan ajratiladi va sulfat kislota eritmasi bilan namlangan 8-nasadkali skrubberdan o'tkaziladi. U yerda atsetilen ammiak qoldiqlaridan tozalanadi, so'ngra atsetilen gazi natriy gipoklorit solingen 9-skrubberga yuboriladi. Oxirida atsetilen 10-ishqor solingen skrubberga yuboriladi, u yerda gipoklorit kolonnasidan

ilashgan xlordan tozalanadi. Barcha yutuvchi eritmalar sirkulatsiyasi nasoslar yordamida bajariladi; ishlatalib bo'lingan eritmaning bir qismi sistemadan chiqariladi va tozasi bilan aralashtiriladi. Tozalangan atsetilen 11-ho'l gazgolderda yig'iladi, 12-yong'inni oldini oluvchi to'siqdan o'tadi va 13-kompressor yordamida iste'mol uchun yuboriladi.

Atsetilenni quruq usuldaqi generatorlar yordamida olish texnologiyasida tindirgich va sovutgich bo'lmaydi.





12-rasm. Kalsiy karbiddan atsetilen olish texnologiyasi:

1-vagonetkalar; 2- monorels; 3- bak; 4-7- sovutgich; 5- tindirgich;

6- atsetilen generatori; 8-10- skrubberlar; 11-gazgolder;


12- yong'inni to'suvchi apparat; 13- kompressor.

Uglevodorodlardan atsetilen olish. Metan va boshqa parafinlardan atsetilen olish uchun yuqori temperaturada piroliz qilish jarayonidan foydalaniladi:




Ushbu reaksiyalar endotermik bo'lib, ularning muvozanati faqat 1000–1300 °C temperaturada o'ng tomonga siljiydi. Biroq, sanoatga ta'biq qilishda jarayonni tezlashtirish uchun undan ham yuqori temperaturada eritiladi: metan uchun 1500–1600 °C; suyuq uglevodorodlar uchun 1200 °C.

Piroliz natijasida olefinlar hosil bo'lishga o'xshab, atsetilennenning hosil bo'lish reaksiysi radikal – zanjirli mexanizm asosida sodir bo'ladi. Metan va etanni piroliz jarayoni quyidagi ko'rinishga ega:



Hosil bo'lgan atsetilen tarkibida quyi parafinlar va olefinlardan tashqari, ozgina miqdorda benzol va atsetilen uglevodorodlari-metilatsetilen $\text{CH}_3\text{-C}\equiv\text{CH}$, shuningdek, vinilatsetilen- $\text{CH}_2=\text{CH-C}\equiv\text{CH}$, diatsetilen $\text{CH}\equiv\text{C-C}\equiv\text{CH}$ va h.k. bo'ladi.

Yuqoridagi usul bilan atsetilen olishda oraliq reaksiyalar sodir bo'lishi natijasida atsetilen uglerod va vodorodga parchalanadi:



Parchalanishing kamaytirish uchun, 50% atsetilen hosil bo'lganda reaksiya kamerasidagi gazlarni suv bilan purkash kerak, natijada harorat kerakli temperaturagacha pasayadi va atsetilenni parchalanishi sodir bo'lmaydi.

Uglevodorodlardan atsetilen olishda piroлиз usullari

Uglevodorodlardan atsetilen olishda yuqori endotermik piroлиз reaksiyalarining 4 turi mavjud:

1. Regenerativ piroлиз. Bu jarayon olovga chidamli nasadkali pechlarda olib boriladi. Pechlar avval yoqilg'i gazlar bilan isitiladi, so'ngra qizitilgan nasadkalarga piroлиз xomashyosi yuboriladi.


2. Elektrokreking. Bu jarayonda uglevodorod xomashyosi, volt yoyli pechlarda olib boriladi, elektrodlar orasidagi kuchlanish 1000 V. I t atsetilen olish uchun 13000 kWt soat elektr energiyasi sarf bo'ladi.

3. Gomogen piroлиз. Bu piroлиз jarayonida metanni kislerodli muhitda yonishi natijasida 2000°C temperaturagacha qizdirilgan yoqilg'i gazlar oqimiga xomashyo kiritiladi. Ushbu usulni piroлиз boshqa jarayonlari bilan birgalikda olib borish mumkin. Bunda piroлизning birinchi bosqichi issiq gazlariga suyuq uglevodorod bug'lari kiritiladi, ularni atsetilenga parchalanish uchun ancha past temperatura kerak bo'ladi. Atsetilenni birgalikda olish ham mumkin.


4. Oksidlanish piroлизи. Bu jarayon uglevodorodlarni ekzotermik yonish reaksiyalarini va endotermik piroлиз jarayonlari bilan birgalikda bitta apparatda olib boriladi.

Uglevodorodlar piroлизining ushbu usullari sanoatda keng qo'llaniladi, lekin ular orasida eng tejamlisi oksidlanish piroлизи hisoblanadi.

Kislerod yetishmaganda va yuqori temperaturada metanning yonishi asosan quyidagi reaksiya asosida sodir bo'ladi:




U juda tez sodir bo'ladi va atsetilenning hosil bo'lishini kislorodsiz muhitda sodir bo'ladi. Shu yerda uglerod oksidi konversiyasi ham ro'y beradi:



Tajribada taxminan 1/3 kislorod suv; 10–15% CO_2 va 50–55% CO hosil bo'lishi uchun sarflanadi.

Jarayon avtotermitik sharoitda sodir bo'lgani sababli, metanni parchalanishi uchun kerakli $\approx 1500^\circ\text{C}$ temperaturani ushlab turishi uchun CH_4 va O_2 boshlang'ich hajmlari nisbati 100 : (60+65) bo'lishi kerak. Metanni o'z-o'zidan bir necha yonishi induksiya davri orqali sodir bo'ladi, bu induksiya davrining davomiyligi temperatura va bosimga bog'liq. Metan-kislorodli aralashmalar uchun atmosfera bosimi va 600°C da induksiya vaqtiga ≈ 2 .

Metanning oksidlanish piroliz reaktorlarini ko'rib chiqamiz (13-rasm). 13-rasmida ifodalangan 2-reaktorning qobig'i yuqori haroratga chida:nlı material bilan qoplangan. Metan va kislorod 1-aratashirish kamerasiga 3-saqlovchi membranalı 8-diffuzordan o'tadi va 7-yondiruvchi plitaning naychasiga keladi, u yerga stabillangan kislorod yuboriladi. 4-kamerada metanni chala yonishi natijasida, atsetilen va saja hosil bo'ladi. 6-forsunkalar orqali suv sepiladi, natijada piroliz mahsulotlari o'sha zahoti sovuydi. Hosil bo'lgan piroliz gazi 5-kameraning pastki qismidan chiqariladi, u yerda hosil bo'lgan koks ham yig'iladi. Koks suv bilan birlgilikda tashqariga chiqariladi. Oksidlanish pirolizining normal sharoitida yonish uchun 55% metan; atsetilen olish uchun 23–25%; saja hosil bo'lishi uchun $\approx 4\%$ metan sarf bo'ladi, kislorodni konversiya darajasi 99% ortadi.




13-rasm. Metandan atsetilen olishda qo'llaniladigan oksidlanish piroliz reaktorining sxemasi: 1-aratashirish kamerasi; 2-korpus; 3-saqlovchi; 4-yonish kamerasi; 5-pastki kamera; 6-purkagich 7-yondirish plitasi; 8- diffuzor.

Piroлиз газларининг таркibi va уларни ажратиш. Пиролиз натијасида хосил бо'лган реаксиya газларининг таркibi murakkab bo'lib, фаqat oksidlanish va gomogen piroлизда 7–9% elektrokreking va regenerativ piroлизда esa 11–14% atsetilen хосил бо'лади. Газлarning асосиy компонентлари quyidagicha: H_2 -45–55%; CH_4 -5–25%; oksidlanish va gomogen piroлизда CO 26–27%; CO_2 3–4%; atsetilen gомologлari oksidlanish piroлизда 0,2–0,3% boshqa hollarda esa 1,0–1,5% tashkil qiladi.

Atsetilen metanolda, atsetonda ($-70^{\circ}C$ gachasovutilganda), dimetilformamidda va N-metylpirrolidonda yaxshi eriydi. Dastlab, atsetilen sajadan tozalanadi, соngra aromatik бирималардан va atsetilen gомologларидан ажратилиди, shundan соnг atsetilen tozalandi. Tozalash bosqichli desorbsiya usuli bilan amalgа oshiriladi.

Metandan oksidli piroлиз yo'li bilan atsetilen olishning texnologik sxemasi bilan tanishamiz (14-rasm).



14-rasm. Metandan oksidli piroлиз yo'li bilan atsetilen olish texnologik sxemasi:

- 1,2-trubkasimon pechlar; 3-reaktor; 4-saja ushlovchi skrubber;
- 5-elektrofiltr; 6-sovutgich; 7-forabsorber; 8-gazgolder;
- 9-tindirgich; 10-kompressorlar; 11-absorber; 12–15-skrubberlar;
- 13-droselli ventil; 14,18- desorberlar; 16-olovni to'suvchi to'usiq;
- 17-issiqlik almashtirgich; 19-qaynatgichlar.

Kislород va metan 1 va 2 trubkasimon pechlarda $600–700^{\circ}C$ da qizdiriladi va 3-reaktorga yuboriladi. U yerda piroлиз jarayoni sodir bo'лади, suv bilan purkalangandan keyin хосил бо'лган газлар $80^{\circ}C$ temperaturada reaktordan suvli 4-skrubber orqali 5-nam plyonkali elektrofiltriga keladi. U yerda sajadan tozalanadi. Газлар 6-sovutgichida

suv bilan sovutiladi. Keyingi bosqichda gazlarni 7-forabsorberda oz miqdordagi dimetilformamid yoki N- metilpirrolidon bilan yuviladi va 8-gazgolderga jo'natiladi. Reaktorning gidravlik zatvori va sajau-shlovchi apparatdan kelayotgan suv tarkibida 2–3% saja va kam uchuvchan aromatik birikmalar bo'ladi. Ularni 9-tindirgichga yuboriladi, uning tepe qismidan saja va smolalar yig'ib olinadi va yoqish uchun yuboriladi. Tindirgichdagi suv reaktorga qaytariladi, undan gazlarni purkab sovutishda qo'llaniladi, ortiqcha suv tozalashga yuboriladi. Shu tariqa, oqova suvlardan foydalananishning yopiq tarmog'i, ya'ni chiqindisiz texnologiya paydo bo'ladi.

8-gazgolderdagagi gaz 10-kompressor yordamida ≈1 MPa bosimgacha siqladi, sovutgichlar orqali o'tib sovutiladi va separatsiya qilinadi. 11-absorberda dimetilformamid yoki N-metilpirrolidan bilan yuvitadi, yutilmagan gazlar (H_2 , CH_4 , CO , CO_2) esa 12-skrubberdan o'tadi, u yerda suvli kondensat bilan yuvilganda ular bilan birga kelgan erituvchi ajratib olinadi. Shundan so'ng gazni yoqitg'i yoki sintez-gaz sifatida qo'llash mumkin. 11-absorberdagagi eritma atsetilen va uning gomologlaridan iborat, shuningdek, uning tarkibida ozgina CO_2 va boshqa gazlar aralashmasi ham mavjud. U 13-drossel ventildan o'tadi va birinchi bosqichli 14-desorberga keladi. Kubdagagi bosimni 0,15 MPa gacha pasayishi va haroratni 40 °C ko'tarilishi natijasida eritmadiagi atsetilen va kam eruvchan gazlar desorbsiyalanadi. Atsetilen yuqoriga harakatlanayotganda eritmadiagi CO_2 ni yuqoriga siqib chiqariladi, CO_2 oz miqdordagi atsetilen va boshqa gazlar bilan birgalikda desorberning tepe qismidan chiqib ketadi. Chiqish vaqtida suvli kondensat bilan yuviladi va erituvchidan xalos bo'ladi. Ushbu gazlar kompressorga qaytariladi.

Konsentrangan atsetilen 14-desorberning o'rta qismidan chiqariladi, 15-skrubberda suv bilan yuviladi va 16-olovni to'suvchi moslama orqali tashqariga chiqariladi. 14-desorberdagagi kub suyuqligi (tarkibida ozgina atsetilen va uning gomologlari) ikkinchi bosqichli 18-desorberga jo'natishdan avval 17-isitgichda isitiladi. Kubning 100 °C gacha isishi natijasida eritma tarkibidagi barcha gazlar haydaladi, bunda kolonnaning o'rta qismidan chiqadigan atsetilen gomologlari yoqishga yuboriladi, kolonnaning tepasidan atsetilen va uning gomologlari aralashmasi 1-bosqichli desorberga qaytariladi. Shu tariqa olingan konsentrangan atsetilen tarkibida 99,0–99,5% asosiy modda bo'ladi. Qolganlari metilatsetilen, CO_2 va h.k. (0,1–0,3%).

Erituvchida asta-sekin suv va polimerlar yig'iladi, ulardan tozalanish uchun erituvchi regeneratsiya qurilmasiga yuboriladi.

Atsetilen olish usullarini taqqoslash. Karbid usuli bilan atsetilen olishning asosiy kamchiliklardan biri, kalsiy karbid olish uchun ko'p elektr energya sarfi va xomashyo hosil bo'lishining ko'p bosqichligi ($\text{Ca CO}_3 \rightarrow \text{CaO} \rightarrow \text{CaC}_2 \rightarrow \text{C}_2\text{H}_2$) hisoblanadi.

Usulning afzalligi shundan iboratki, bunda konsentrangan atsetilen olinadi, aralashmalardan tozalash uncha kamchil bo'lmagan torshko'mir asosida olinadi.

Uglevodorodlarni pirolizi bilan atsetilen olishda jarayon bir tomonga boradi, kapital qurilish kam va elektr energiyasi kam mablag' sarflanadi (elektrokrekingdan tashqari). Lekin bu usulda atsetilen suyultirilgan holda olinadi va uni ajratish va tozalash uchun murakkab tarmoq kerak bo'ladi.


Uglerod oksid va sintez gaz. Organik sintezda toza uglerod oksid bilan bir qatorda uning vodorod bilan aralashmasi (sintez gaz) 1:1 dan 2-2,3:1 hajmiy nisbatda qo'llaniladi. Uglerod oksidi CO rangsiz qiyin suyultiriladigan gaz (atmosfera bosimida kondensatsiyalanish temperaturasi -192°C). Havo bilan 12,5-74% konsentratsiyada portlovchi aralashmalar hosil qiladi. Uglerod oksid ancha zaharli modda, uning konsentratsiyasi 20 mg/m^3 tashkil qiladi. Uglerod oksidi faqat qattiq jismlargagina emas, balki suyuqliklarga ham kam yutiladi. Biroq ba'zi bir tuzlar u bilan kompleks hosil qiladi, shu nuqtayi nazardan uglerod oksidi sorbsiya uchun bir valentli mis tuzlarini suv ammiakli eritmalari qo'llaniladi.

Vodorod sintez gazning ikkinchi komponenti qiyin suyuqlanuvchi gaz (atmosfera bosimida $T_{\text{kond.}} = -252,8^{\circ}\text{C}$). Havo bilan 4,0-75% portlovchi aralashma hosil qiladi. Shu sababli sintez-gaz ishlab chiqarish korxonalarida texnika xavfsizligi qoidalarga qat'iy rivoja qilshni talab etadi.

Sintez-gaz ishlab chiqarish uchun dastlab ko'mirdan foydalanilgan. Keyinchalik uglevodorodlarni konversiyalash usuli muhim o'rinni egallaydi. Ushbu jarayonni ikki xil yo'l bilan: katalitik va yuqori temperaturada amalga oshirish mumkin. Uning xomashyosi sifatida metan yoki tabiiy gaz, shuningdek, neftning suyuq fraksiyalari qo'llaniladi.

Uglevodorodlarni katalitik konversiyasi


Ushbu usul asosini tashkil etuvchi asosiy reaksiya uglevodorodlarni suv bug'i yordamida Al_2O_3 ga shimdirlilgan Ni katalizatori ishtirokida konversiyalashdan iborat:




Reaksiya kuchli ekzotermik tarzda sodir bo'ladi va muvozanatni o'ng tomonga silishi faqat temperaturani ko'tarilishi hisobiga boradi.

Metanning konversiya darajasini ko'paytirish uchun jarayonni 800–900°C ortiqcha olingan suv bug'i ishtirokida olib boriladi. Atmosfera bosimida ortiqcha olingan suv bug'i miqdori uncha ko'p emas (2:1), lekin bosimning ortishi muvozanat holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi, shu sababli, bunday hollarda bug'ni metanga hajmiy nisbatini taxminan 4:1 bo'lishi lozim.


Metan konversiyasidan tashqari uglerod oksidi konversiyasi ham sodir bo'ladi:





Usibu reaksiya ekzotermik bo'lib, uning muvozanati temperatura ko'tarilishi bilan o'ng tomonga siljiydi (15-rasm, 3 egri chiziq), bunda ortiqcha olingan suv bug'i hisobiga uglerod oksidining hosil bo'lishi ko'payadi. Uglerod oksidi konversiyasi tez sodir bo'ladi va konversiyalangan gaz tarkibi uning muvozanati orqali aniqlanaadi.



15-rasm. Konversiya reaksiyalarining temperaturaga bog'liqligi:



Suv bug'i bilan metan konversiyalashda hosil bo'lgan gaz H_2 : CO katta nisbatda (kamida 3:1) bo'ladi, lekin organik sintez uchun sintez-gaz $H_2:CO$ nisbati 1:1 dan to $(2,0 \div 2,3):1$ talab etadi. Bunday nisbatda sintez-gaz olish uchun, birinchidan suyuq uglevodorodlarni konversiyalash lozim, ikkinchidan konversiyalashda suv bug'iga uglerod to'rt oksidi qo'shish kerak, u uglevodorodlarni konversiyalaydi;



Oxirgi reaksiya ekzotermik bo'lib, uning muvozanati ancha yuqori temperaturada o'ng tomonga siljiydi. (15-rasm, 2-egri chiziq). Suv bug'i bilan konversiyalashga nisbatan u sekinroq ketadi.

Yuqori endotermikligi sababli uglevodorodlar konversiyasi trubkasimon pechlarda (15a-rasm) olib boriladi. Geterogen katalizatorlar bilan to'ldirilgan yonishdan hosil bo'ladigan gazlar bilan isitilgan trubalarga xomashyo yuboriladi. Ushbu tarmoqning kamchiliklari-olovbardosh trubalar va pechning foydali qo'llanish hajmining kichikligi, bunda katalizator uncha katta bo'lмаган qismini egallaydi.

Ushbu sabablarga ko'ra boshqa taromq yaratilgan bo'lib, ularda konversiyalash endotermik reaksiyalari ekzotermik jarayonlar bilan birga olib boriladi, shu sababli, umumiy jarayon ozgina ekzotermik tarzda sodir bo'ladi. Hisoblashlar natijasida ma'lum bo'ldiki, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun konversiyaga beriladigan aralashma CH_4 va O_2 1,0:0,55 nisbatda olish kerak. Kislorodni metanga nisbatan hajmiy nisbatini qo'llanilayotgan bosimga bog'liq holda ancha kam olish mumkin, ya'ni 1:1 dan to $(2,5+3,0):1$. Ushbu oksidlanish yoki avtotermin konversiya jarayoni keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Bu usulda issilikni tashqariga chiqarish talab etilmaydi va katalizator qatlami shaxtali pechlarda olib boriladi.


Konvertor qobig'i olovbardosh g'isht bilan muhofaza qilinadi va suvli sovutish tarmog'iga ulatiadi. Konvertor tepe qismida aralashtingich mayjud bo'lib, u yerga $\text{CH}_4+\text{H}_2\text{O}$ va $\text{O}_2+\text{H}_2\text{O}$ aralashmalari yuboriladi. Aralashtingich aralashmalarini gomogenizatsiyalanishini ta'minlaydi. Metanni yonishi konversiyalashiga nisbatan taxminan 10 marta tezroq sodir bo'ladi, shu sababli, katalizatorning ustki qatlamlarida temperatura maksimumgacha tez ko'tariladi ($1100-1200^{\circ}\text{C}$) va pechdan chiqish vaqtida pasayadi ($800-900^{\circ}\text{C}$ gacha). Trubkasimon pechlarda konversiyalashga nisbatan ushbu usulda olovbardosh trubalarga bo'lган ehtiyojga barham beriladi, reaktor konstruksiysi juda oddiy va uning ko'p qismi katalizator joylashtirish uchun foydalaniladi. Oksidli konversiyalashda hosil bo'lган gaz tarkibida CO miqdori birmuncha ko'payadi.

Jarayon texnologiyasi. Jarayon bir nechta bosqichda boradi: xomashyonи tayyorlash. Xomashyonи tayyorlash vaqtida nikel katalizatorini oltингуртли organik birikmalar bilan zaharlanishini e'tiborga olish lozim, chunki ularning miqdori uglevodorodlarda 1 m^3 da 1 mg C dan ortmasligi kerak. Ushbu shartlarga javob berilmaydigan

xomashyoni tozalash uchun katalitik gidrooltingurgurtsizlantirish jarayoniga yuboriladi va vodorod sulfid ajratib olinadi. Xomashyoni tayyorlash bosqichida, shuningdek, gaz komprimirlanaadi, ya'ni suv bug'i bilan aralashtirilmaydi va aralashma isitiladi.

Uzoq yillar davomida katalitik oknversiyalash qurilmalari atmosferabosimiga, ya'ni bosimda ishladi va bunday qurilmalar hozirgi vaqtgacha mavjud. Oxirgi paytlarda yuqori, aynan 2-3 MPa bosimda ishlashga o'tilgan bo'lib, unda bir qator afzalliklar mavjud, birinchidan bosim ostida reaksiya tezligi ortadi natijada jarayon jadallahadi, jihoz va truboprovodlar o'lchash kichiklashadi, katta quvvatga ega bo'lgan qurilmalar yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchidan, energiya sarfi pasayadi va qaynoq gazlar issiqligi foydali ishga sarflanadi. CO va H₂ dan sintez-gaz sintezi aslida bosim ostida olib boriladi va konversiyalanuvchi gazning hajmi dastlabki moddalar hajmiga nisbatan ko'p bo'lganligi uchun iqtisodiy tormondan olganda tabiiy gazni konversiyalash foydali hisoblanadi, shu bilan birga kislorod bosim ostida bo'ladi. Issiqlikdan foydalanish tarmog'i, shuningdek, konvertirilgan gazdag'i ortiqcha suv bug'ini kondensatsiyalanish hisobiga ajralayotgan issiqlikdan yuqori bosimdag'i bug'ni yuzaga keltirishda va undan truboprovod privodlarida gazlarni siqish uchun foydalanish mumkin.

Metanni yuqori bosimda kondensatsiya sxemasi (tabiiy gazdan) 16-rasmida ifodalangan.




16-rasm. Tabiiy gazni yuqori bosimda oksidli konversiyalash texnologik sxemasi:

1-turbokompressor; 2,3,10-issiqlik almashtirgichlar; 4-utilizator-qozon;
5.5-bug' yig'gich; 6-konvertor; 7-skrubber; 8-sovutgich; 9-absorber;
11-desorber; 12-drossel ventil; 13-qaynatgichlar.

Tozalangan metan 1- truboprovodda 2–3 MPa bosimda siqiladi va kerakli miqdordagi suv bug'i va CO₂ bilan aralashtiriladi. Aralashma konversiyalangan gaz bilan sovutilgan 2- issiqlik almashtirgichda 400° C isitiladi va konvertorming 6-aralashtirgichga yuboriladi.

U yerga kislorod bilan teng hajmda olingen suv bug'i ham beriladi. Konvertor qaynovchi kondensat bilan sovutiladi, shu paytda 2-3 MPa bosim ostida bug' hosil bo'ladi, uni 5-bug' yig'gichda ajratiladi. Konvertordan 800–900° C chiqayotgan konversiyalangan gaz issiqligi yuqori bosimli bug' hosil bo'lishida 4-utilizator qozondan foydalaniлади. Hosil bo'lgan bug' kompressorga yuboriladi. Qisman sovutilgan gaz issiqligidan 2- va 3-issiqlik foydalaniлади. Gazni oxirgi sovutish jarayoni 7-skrubberda 8-sovutgichdagi suv yordamida olib boriladi.

Ushbu bosqichda olingen sintez gaz CO va H₂ nisbatan CO miqdordi 15–45% tashkil qiladi, H₂ 40–75%; CO₂ 8–15%; CH₄ 0,5%; H₂ va AR-0,5–1%. Ushbu gazni CO₂dan tozalash uchun bosim ostida suv bilin absorbsiya, monoetanolamin suvli eritmasi yoki kaliy karbonat xemosorbsiyasi qo'llaniladi. Isitishda va bosimni kamaytirishda teskari o'zgarish sodir bo'ladi va CO₂ ajraladi, eritma esa tiklanadi:



Konversiyalangan gaz 9-absorberga keladi, u yerda uglerod to'rt oksidi yutiladi, tozalangan gazni iste'molchilarga yuboriladi. To'yingan absorbent 10-issiqlik almashtirgichda issiq tiklangan eritma yordamida isitiladi va 11-desorberga yuboriladi, uning past tomonidan absorbent 10-issiqlik almashtirgich orqali, ya'ni CO₂ ni yutish uchun 9- absorberga keladi. Uglerod to'rt oksid 11-desorberning yuqori tomonidan kerakli bosimgacha siqiladi va konversiyalashga qaytariladi, unda 2-issiqlik almashtirgichga yuborishdan avval tabiiy gaz va suv bug'i bilan aralashtiriladi.

1 m³ tozalangan sintez-gaz olish uchun 0,35–0,40 m³ tabiiy gaz, 0,2 m³ texnik kislorod va qo'llaniladigan bosimga qarab 0,2–0,8 kg CO₂ qo'shiladi.

Tayanch so'z va iboralar

Atsetilen, kalsiy karbid, ekzotermik, polimerlanish, atsetilen generatorlari, xul turdag'i generatorlar, quruq turdag'i generatorlar, katalizator, parafinlar, piroliz, radikal-zanjir mexanizm, regenerativ piroliz, elektrokreking, gomogen piroliz, oksidlanish pirolizi, piroliz gazlari.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Atsetilenning fizik-kimyoviy xossalari.
2. Atsetilen ishlab chiqarishning nechta turi mavjud?
3. Kalsiy karbiddan atsetilen olish.
4. Ho'l turdag'i atsetilen generatorlari.
5. Suvga karbi'd turidagi atsetilen generatorlari.
6. Atsetilen generatorlarining nechta turi mavjud?
7. Atsetilen aralashmalari va ularni tozalash.
8. Kalsiy karbiddan atsetilen olish texnologiyasi.
9. Uglevodorodlardan atsetilen olish.
10. Piroliz usuli bilan atsetilen olish.
11. Oksidlantish piroliz usuli bilan atsetilen olish.
12. Piroliz gazlarining tarkibi.

II bob. GALOGENLASH JARAYONLARI

Asosiy organik sintez texnologik jarayonlarda sodir bo'ladigan muhim kimyoiy reaksiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Galogenlash reaksiyalari;
2. Gidrolizlanish reaksiyalari;
3. Gidratatsiya;
4. Degidratatsiya;
5. Eterifikatsiya;
6. Alkillash;
7. Sulfatlash;
8. Sulfirlash;
9. Oksidlash;
10. Gidrirlash;
11. Degidrirlash va h.k.

Organik birikmalarga galogen atomlarini kiritish jarayonlarini galogenlash deyiladi. Galogenlash reaksiyalariiga: ftorlash, xlorlash, bromlash va yodlash kiradi.

Galogenlash organik moddalar sintezida muhim o'rinn tutadi. Bu usul bilan quyidagi mahsulotlar olinadi:


1) xlororganik oraliq mahsulotlar (1,2-dixloretan, xlorgidrinlar, alkilxloridlar) molekula tarkibiga harakatchan xlor atomini kiritish bilan bir qator muhim moddalar olish mumkin;

2) xlor va ftororganik monomerlar (vinil xlorid, vinilidenxlorid, tetraftoretilen); 3) xlororganik erituvchilar (metilen xlorid, uglerod to'rtxlorid, uch va to'rtxloretilen); 4) xlor va bromorganik pestitsidlar (geksaxlorsiklogeksan, kislota va fenollarni xlorli hosilalari) Undun tashqari, galogenli hosilalarni sovutish vositalari (xforftor hosilalar, freonlar deyiladi), meditsinada (xloral, xloretan), plastifikatorlar, moylovchilar va h.k. sifatida qo'llaniladi.



Galogenlash reaksiyalari 3 turga bo'linadi:

o'rin almashish; biriktirish; parchalanish.

O'rin almashinish galogenlash reaksiyasida uglevodorod molekula-sidagi vodorod atomi yoki reaksiya guruhi galogen bilan o'rin almashadi.






Galogen tutgan uglevodorodlardagi bir galogen atomini boshqa galogen atomiga almashinishdan brom, ftor va yodli hosilalarni olish mumkin:





Organik birikmadagi OH-guruhi galogenga almashinishi natijasida kislotalarning xlor angidridlari olinadi:




Biriktirish bilan galogenlash reaksiyaları to'yinmagan uglevodorođga galogen birikishi bilan boradi. Erkin galogenlar C=C, C-C va C_{Ar}-C_{Ar} bog'larga birikish qobiliyatiga ega:



Galogenvodorođlar qo'shbog' va uchbog'ga birikadi, shuningdek, olefinlar ham xlorgidrinlash reaksiyasiga kirishadi:



Ba'zi hollarda additiv xlorlash past valentlik holatida ham ro'y beradi. Masalan, uglerod oksid va xlordan fosgen olish mumkin:




Xlorli hosilalarni reaksiyaları muhim ahamiyatga ega.

Xlorli hosilalarni parchalanish reaksiyalarini bir nechta turi mavjud: a) degidroxlorlash HCl birikishning parchalanishi; b) dextorlash; d) xloroliz e) xlorinoliz; yoki yuqori temperaturada piroliz;


Degidroxlorlashga misol keltiramiz:




Dextorlash reaksiyaları esa yuqori temperaturada keladi



Xloroliz yoki xlorinoliz reaksiyaları xlor ta'sirida uglerod uglerod bog'ini uzilishi bilan boradi:




Yuqori temperaturada piroliz:



Galogenlash reaksiyaları termodynamikasi.

Galogenlash reaksiyaları energetik xarakteristikaları jihatidan katt farq qiladi, bu esa ularni o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etad Moddalarning ideal gazsimon holatini ifodalash uchun fтор, xlor, brom va yod ishtirokidagi reaksiyalarning issiqqlik samarasini taqqoslovchi ma'lumotlar quyida keltirilgan:



X=F	460	X=F	546
X=Cl	105	X=Cl	184
X=Br	34	X=Br	92
X=J	-50	X=J	17

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'riniib turibdiki, issiqlik effekti $F_2 > Cl_2 > Br_2 > I_2$ qator bo'yicha kamayib boradi, bunda fторlash va yodlash reaksiyalari alohida o'rinni egallaydi. Birinchidan juda katta issiqlik ajralishi bilan boradi, bunda C-C va C-H bog'larni uzilishi energiyasidan ko'ra ko'proq bo'ladi. Alohida choralar ko'tilmasa, buning oqibatida organik moddalarni chuqur parchalanishi sodir bo'lishi mumkin. Shu sababli, texnologiyasi jihatidan fторlash xlorashga nisbatan ancha farq qiladi va alohida o'r'in tutadi. Boshqa tomondan qaraganda, yodlash juda katta bo'lmasan yoki mansiy issiqlik effekti bilan sodir bo'ladi va fторlash, xlorash va bromlashga nisbatan farqli ravishda qaytar tarzda ketadi. Bu esa yodning past faoliyatlari reagent ekansigini e'tiborga olgan holda yodli hosilalarini boshqa ususlar bisan olish imkoniyatlarini qidirish kerakligini ko'rsatadi. Shunday bo'lganligi sababli, ular kam miqdorda ishlab chiqariladi, asosiy organik va neftkimyosi sintezi mahsuloti hisoblanadi.

Moddalarning ideal gazzimon holatda galogenvodorodlar ishtirokida boradigan ayrim reaksiyalarni issiqlik effekti bilan tanishamiz:



$C_2H_4 + HF \rightarrow C_2H_5F$	42	$C_2H_4 + HJ \rightarrow C_2H_5J$	78
$C_2H_4 + HCl \rightarrow C_2H_5Cl$	71	$C_2H_5OH \xrightarrow[+H_2O]{+HCl} C_2H_5Cl$	21
$C_2H_4 + HBr \rightarrow C_2H_5Br$	78		

Yuqorida keltirilgan barcha reaksiyalar ekzotermik bo'lib, erkin galogenlarga nisbatan taqqoslaganda ΔH farqi uncha katta emas. Muhim, galogenvodorodlar ishtirokida barcha reaksiyalar qaytar tarzda sodir bo'ladi.

Galogenlovchi agentlar. Eng muhim galogenlovchi agentlar - bu erkin galogenlar va suvsiz galogenvodorodlari. Atmosfera bosimi ostida ularning qaynash temperaturasi quyidagicha, $^{\circ}C$:


$F_2 \dots -188,0$; $HF \dots +19,4$

$Cl_2 \dots -34,6$; $HCl \dots -83,7$


$Br_2 \dots +58,8$; $HBr \dots -67,0$

Ushbu galogenlar organik erituvchilarda yaxshi eriydi $Br_2 > Cl_2 > F_2$ va $HBr > HCl > HF$. Bu xususiyatlari ularni suyuq fazada galogenlashda muhim ahamiyatga ega. Ular o'tkir hidli bo'lib, ko'zni, nafas olish organlarini yallig'lantiradi, erkin galogenlar bo'g'ish xususiyatiga ega.

Cl_2 olishda $NaCl$ suvli eritmasi elektroliz qilinadi, natijada bir vaqtning o'zida vodorod va ishqor hosil bo'ladi:




Yuqori temperaturada vodorod va xlomi o'zaro birikishi natijasida vodorod xlорид sintez qилинади:




Radikal-zanjirli xlorlash. Barcha galogenlash jarayonlari, ularning sodir bo'lishi mexanizmi bo'yicha 2 guruhg'a bo'linadi: radikal-zanjirli va ion-katalitik.

Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalarida parafin, olefin va aromatik uglevodorodlardagi vodorod atomi hisobiga o'r'in almashinadi, shuningdek, galogenlarni $C=C$ ya C_A-C_A , bog'larga birikishi sodir bo'лади.

Parafin uglevodorodlari faqat o'r'in almashinish reaksiyasi orqali molekuladagi vodorod atomini bitin-ketin galogengga almashtiradi.




Olefinlar radikal-zanjirli xlorlanadi. Reaksiya gaz muhitida ion katalizatorlarisiz davom etadi va reaksiya xlorni qo'shbog'ga birikishi va yodorod atomini almashishi bilan boradi:




Olefirlarning xlor bilan reaksiyasi davomida temperatura oshishi bilan birikish reaksiyasi sekinlashadi, o'rin olish reaksiyasi esa tezlashadi.

Aromatik uglevodorodlar ham radikal-zanjirli mexanizm asosida xlorlash reaksiyasiga kirishadi. Olefinlar singari reaksiya 3 xil yo'nalishda borishi mumkin. Yon zanjirni o'rin almashinishi, aromatik halqada o'rin almashinish va halqadagi C-C bog'ga birikish hisobiga sodir bo'ladi. Benzol qatori uglevodorodlarida yon zanjirdagi vodorod atomi o'rinnini birin-ketin xlor atomi olishi mumkin:



Agar aromatik halqaga ulangan zanjir uzun bo'lsa, o'rın olish aholatda boradi, masalan, etilbenzoldan α -xloretilbenzol $C_6H_5-CHCl-CH_3$ hosil bo'лади.


Temperatura pasayishi ($<30^{\circ}\text{C}$) bilan benzol gomologlarini xlorlashda halqadagi C-C bog'ga xlor birikishi ko'payadi, temperatura ortishi bilan esa C-H bog'dagi vodorodning xlorga almashishi ko'payadi. Masalan, past temperaturada ($<30^{\circ}\text{C}$) benzoldan geksaxlorsiklogeksan, yuqori temperaturada esa xlorbenzol hosil bo'ladi:




Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari mexanizmi va kinetikasi

Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari uch bosqichda sodir bo'ladi: zanjir paydo bo'lishi; zanjirni davom etishi (zanjirni o'sishi); zanjirni uzilishi.


Zanjir paydo bo'lishi. Buni har xil yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. Radikal-zanjirli xlorlash jarayonlari tarmoqlanmagan zanjirli reaksiyalar turiga mansub bo'lib, reaksiya natijasida oraliq xlor atomlari va erkin radikallar hosil bo'ladi. Gaz fazasida termik xlorlashda yuqori temperatura ta'sirida xlor molekulalarining idish devorlari yoki nasadkaga urilishi natijasida xemosorbsiya orqali Cl-Cl bog'larning uzilishi osonlashadi:




Ba'zi hollarda, termik xlorlash reaksiyası past temperaturalarda ($100\text{--}200^{\circ}\text{C}$) boshlanadi (xlor molekulasi bu temperaturada atomlarga ajrala olmaydi), bunda atom va radikallarni hosil bo'lishi xlorni organik modda bilan o'zaro ta'siri orqali amalga oshadi:




Fotokimiyoviy xlorlashda xlor molekulاسining atomlarga bo'linishi kvant nur energiyasini yutish hisobiga sodir bo'ladi. Masalan, ultrabinafsha nurlar yordamida xlor molekulasi xlor radikallariga parchalanadi (simob-kvars lampasi yordamida):




Kimyoviy initsirlashda initsiatorlar qo'shiladi, ya'ni mo'tadil haroratda erkin radikallarga parchalanuvchi moddalar. Xlorlashda ko'pincha benzoil peroksidi yoki 2,2-azo-bis(izobutironitril) (porofor) initsiatorlari ishlataladi:




Hosil bo'lgan fenil radikallari xlor molekulasiga birikishi natijasida xlor radikallari vujudga keladi:




Zanjirni davom etishi (zanjirni o'sishi) paydo bo'tishida hosil bo'lgan xlor atomlari yordamida amalgalashadi:



Olefinlarga xlorni birikishi quyidagicha bo'ladi:



Aromatik uglevodorodlardagi xlorni birikish reaksiyasi ancha qiyin tarzda amalgalashadi:




Zanjirining uzunligi, ya'ni zvenolarning soni o'ta toza moddalarini xlorlashda bir necha o'n mingtaga yetishi mumkin. Agarda texnik moddalar ishlatalisa, zanjir bir necha yuz zvenolardan iborat bo'ladi.

Zanjirning uzilishi. Gazli muhitda xlorlashda ko'pincha chiziqli zanjir uzilishlari sodir bo'lishi mumkin:


1) nasadka yoki reaktor devoriga urilishdan:




2) uglevodorod radikallarining bir-biri bilan to'qnashishidan:



3) xlor radikallarining o'zaro birikishi orqali:



4) uglerod radikalining xlor radikali bilan to'qnashishidan:



5) ingibitorlar ta'sirida (fenollar, kislorod, oltingugurt birikmalari orqali).

Zanjir paydo bo'lishi va uzulishi usuliga bog'liq holda xlorlash reaksiyalarining turli kinetik tenglamalari kuzatiladi. Gaz fazasida zanjirli chiziq paydo bo'lishi va uzilishida ikkala reagent bo'yicha

birinchi tartib kuzatiladi:

$$r = K_p H_2 p_{Cl_2}$$

Suyuq fazada xlorlashda uch turdag'i kinetik tenglamalar kuzatiladi:

$$r = k [J]^{0.5} P_{Cl_2}; \quad r = k [J]^{0.5} P_{Cl_2}^{0.5} C_{RH}^{0.5}, \quad r = k [J]^{0.5} C_{RH}$$

bu yerda, $[J]$ – initsiator konsentratsiyasi yoki nurlanish intensivligi, reaksiya massasi tomonidan uni to'liq yutishda.

Ingibitor ishtirokida tezlik ularning konsentratsiyasiga teskari proporsional bo'ladi, masalan,

$$r = K_p^2 C_{Cl_2} P_{O_2}$$


Bundan ko'rinish turibdiki, radikal-zanjirli xlorlashda toza moddalar qo'llanilishi lozim, shuningdek, xlor ham. unda kislorod bo'smasligi kerak, ya'ni suyuq xlori bug'latib olinadi. Kislorodni ingibitorlik ta'siri 350°C gacha seziladi, undan yuqori temperaturada ta'sir yo'qoladi.

Xlorlash jarayonlarining faoliyat energiyasi zanjir paydo bo'lishiga bog'liq. Termik xlorlashda ushbu energiya $125-170$ kDj/mol, kimyoviyda ≈ 85 kDj/mol va fotokimyoviy reaksiyalarda $20-40$ kDj/mol teng.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari termokatalitik usul ham mavjud. Ushbu jarayonda geterogen katalizator (masalan, faollashtirilgan ko'mir) qo'llaniladi. Ular ishtirokida faoliyat energiyasini pasayishni kuzatishadi va xorashni termik xorashiga nisbatan $100-150^{\circ}\text{C}$ past temperaturada olib borish mumkin.

Mahsulotlar tarkibi va reaksiya selektivligi.

Parafinlar va ularning galogenli hosilalari, tegishli polimerlari ham (polietilen, polivinilklorid va boshqalar) faqat vodorod atomini xorgia almashtirish xususiyatiga ega. Turli vodorod atomlari parallel holda almashinishi mumkin. Natijada izomerlar aralashmasi hosil bo'ladi:



Borchha radikal zanjirli xlorlash reaksiyalarida mahsulotlar tarkibi va reaksiya selektivligi xlor atomi ishtirokida boradigan elementar reaksiyalar tezligi nisbatiga bog'liq bo'ladi, ayni holda turli vodorod atomlari uzilishiga ($\text{Cl}^- + \text{RH} \rightarrow \text{R}^- + \text{HCl}$). Ushbu reaksiyalari bir xil molekularligi parallel aylanishlarga nisbatan olganda selektivlik quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Phi = \frac{1}{1 + k_2/k_1 + k_3/k_1 + \dots} = \frac{1}{1 + (k_{2,0}/k_{1,0}) e^{-(E_2 - E_1)k_B T} + \dots}$$

Faollik energiyasi C-H bog'ni uzilish energiyasiga bog'liq, ya'ni quyidagi qator bo'ylab o'zgaradi. Bir-C-H> ikkilamchi -C-H> uchlamchi -C-R. Teskari tarkibida tezlik konstantasi o'zgaradi, ya'ni K_i/K birl.

Suyuq muhitda xlorlash texnologiyasi va olinadigan mahsulotlar

Suyuq muhitda radikal-zanjirli xlorlash nisbatan past temperaturada olib boriladi ($40\text{--}150^{\circ}\text{C}$) va har doim initsiator yoki aralashmani nurlatish talab qilinadi. Bu esa, termik xlorlashda ortiqcha iqtisodiy mablag' sarf bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun, suyuq muhitda xlorlash usuli termik beqaror moddalar olishda, ya'ni HCl ni ajratuvchi moddalar sintezida o'zini oqlaydi (monoxlorparafinlar, polixloridlar S₂ va undan yuqori). Suyuq muhitda xlorlash molekulaga ikkita, uchta va undan ortiq xlor atomini kiritishda qulay hisoblanadi. Bu usul bilan ko'p moddalar olinadi.

Etanning polixlorli birikmalari. 1,1,2-trixloretan Cl₂CH-CH₂Cl suyuq modda, t_{kayn}=113,9⁰C (1,2-dixloretandan olinadi, qo'shimcha 1,1,2,2, va 1,1,1,2-tetraxloretan hosil bo'ladi).

1,1,1-trixloretan yoki metilxloroform CH₃-CCl₃ suyuq modda t_{kayn}=74,1⁰C (1,1-dixloretandan olinadi, qo'shimcha 1,1,2-trixloretan va tetraxloretan hosil bo'ladi). Ko'p miqdorda ishlab chiqariladi va yaxshi erituvchi hisoblanadi.

Pentaxloretan CCl₃-CHCl₂, suyuq modda, t_{kayn}=186,8⁰C (1,2-dixloretan yoki 1,1,2,2-tetraxloetanni xlorlab olinadi). Qimmataho erituvchi-tetraxloretilen CCl₂=CCl₂ olish uchun ishlatiladi.

Geksaxloretan CCl₃-CCl₂ kristall modda, (xloretanlarni xlorlab olinadi). Erituvchi: trifortrixlor etan Cl₂CF-CF₂Cl va freon trifortxloretilen CCIF=CF₂ olish uchun ishlatiladi. Xlorparafinlar har xil markalarda chiqariladi va turli sohalarda ishlatiladi. Xlorparafin-13, tarkibida 12–14% xlor mavjud (kerosin yoki parafinli neftning (C₁₂–C₁₆) fraksiyasidan olinadi). Sirt faol moddalar sintezi uchun ishlatiladi.

Suyuq parafinlar (tarkibida 40 dan 49% xlor tutgan) plastifiqatorlar sifatida qo'shiladi.

Qattiq parafinlar tarkibida 70–72% xlor bo'ladi, plastmassa va kauchuklarga olovbardosh qo'shimcha sifatida qo'shiladi. Xlorli polimerlarga xlorkauchuk, xlorlangan polietilen, polipropilen va xlorlangan polivinitxlorid (xlor 70% gacha) kiradi. Polimerlar tarkibiga xlor kiritish bilan ularning elastikligi ko'payadi, adgeziya xususiyatlari yaxshilanadi.

Xlorli aromatik uglevodorod mahsulotlari. Benzil xlorid - $C_6H_5-CH_2Cl$, suyuqlik, $t_{\text{kayn}}=179,3^{\circ}\text{C}$; turli xil moddalar tarkibiga benzil guruhini kiritish uchun ishlataladi -benzilsellyulozalar, benzil esirlari, benzil spiriti, benzilsianid, butilbenzilftalat va h.k. olishda qo'llaniladi. Toluoln xlorlash yo'li bilan olinadi.

m-geksaxlor va n-geksaxlor-ksilotlari $Cl_3C-C_6H_4-CCl_3$ kristall moddalar bo'lib, m- va n-ksilotni xlorlash orqali olinadi. Ular izoftal va tereftal kislotalarning dixlorangidridlarini olish uchun ishlataladi. Undan tashqari geksaxlor-n-ksilol meditsinada dorivor modda sifatida qo'llaniladi.

1,2,3,4,5,6-geksaxlorsiklogeksan yoki geksaxloran $C_6H_6Cl_6$. Kristall modda $t_{\text{kayn}}=112-113^{\circ}\text{C}$. Benzofni xlorlash bilan olinadi, oraliq moddalar gepta- va oktaxlorsiklogeksanlar hosil bo'ladi. Texnik mahsulot tarkibi sakkizta stereoizomerlar aralashmasidan iborat bo'lib, ulardan faqat gamma izomer insektitsid faol hisoblanadi (u kristall modda bo'lib, uning suyuqlanish temperaturasi 112–113 $^{\circ}\text{C}$). Texnik mahsulot tarkibida uning miqdori 11–18% tashkil qiladi, shuning uchun ekstraksiya usuli bilan gamma izomerni konsentrantiriladi va 80–90 % gamma izomerli to'yintirilgan geksaxloran olinadi. Boshqa izomerlar degidroxorlash bilan qayta ishlanadi va uchxlorbenzol olinadi.

Jarayonning shart-sharoitlari va reaktorlar tanlash. Suyuq muhitda xlorlashda gaz holdagi xlor suyuq reaksiya massasidan barbotaj yo'li bilan o'tkaziladi. Bunda xlor reaksiya massasida eriydi va reaksiya suyuq muhitda davom etadi. Ko'p hollarda suyuq muhit sifatida organik reagentning o'zi xizmat qiladi. Xlorlash jarayoni chuqurlashib ketmasligi uchun organik reagent ortiqcha miqdorda olinadi. Ushbu reagentda hosil bo'layotgan mahsulotlar yig'iladi va aralashma zichligi ortib boradi. Hosil bo'layotgan mahsulot chiqimini boshqarish uchun reagentning zichligi o'lchab boriladi. Suyuq polixlorparafin va geksaxlorsilotlari olinayotganda reaksiya davomida suyuq faza tarkibi o'zgaradi va qovushqoq yoki suyuqlangan mahsulot hosil bo'ladi, uning tarkibida boshlang'ich moddalar deyarli bo'lmaydi. Qattiq polixlorparafinlar va xlorli polimerlarni sintez qilayotganda muhitni gomogen holda saqlash uchun erituvchilar ishlataladi (CCl_4 , o-dixlorbenzol), biroq ba'zi polimerlar suvli yoki boshqa suspenziyada xtorlanadi.

Sanoatda kimyoviy va fotokimyoviy initsirlash qo'llaniladi. Birinchi usulning afzalligi reaksiya ketma-ketligining osontligi bo'lsa-da, iqtisodiy tomonidan initsiator uchun ortiqcha sarf-xarajat ketadi.

Fotokimyoviy initsirlashda reaktor konstruksiyasi ancha murakkablashadi, elektr energiya sarfi oshadi, lekin initsiator uchun ortiqcha sarf-xarajat qilinmaydi. Sintez qilingan mahsulot toza holda chiqadi, qaysi usulni tanlash iqtisodiy faktorga bog'liq.

Xlorlash jarayonlarida boshlang'ich mahsulotlarni miqdoriy mos kelishidan tashqari temperatura tanlash, initsiator konsentratsiyasi yoki nur intensivligi ham muhim o'rinn tutadi. Fotokimyoviy xlorlashda temperatura reaksiya tezligiga ta'sir etmaydi. Shunday bo'lsa ham, geksaxlorsiklogeksanni fotokimyoviy sintezi $40\text{--}60^{\circ}\text{C}$ da suv bilan sovutilgan holda olib boriladi.

Kimyoviy qo'llanilayotgan xlorlashda initsiator temperatura ta'sirida parchalanadi, masalan, 2,2-azo-bis(izobutironitril) initsiatori ishlatalayotgan reaksiyalar $70\text{--}100^{\circ}\text{C}$, benzoil peroksid ishlatalayotgan reaksiyalar $100\text{--}120^{\circ}\text{C}$ da olib boriladi. Temperatura va initsiator konsentratsiyasi o'zaro bir-biri balan bog'liq.

Mahsulot birligiga initsiatorni sarf bo'lishi quyidagi differensial formula bilan ifodalanidi:


$$d[J]/d[B] = A[J]^{0.5} \cdot e^{-\frac{E}{RT}}$$

bu yerda, J—initsiator; e—initsiatorning termik parchalanishidagi faollik energiyasi; B—mahsulot; A—proporsionallik koefitsiyenti.

Ko'rinish turibdiki, initsiator sarfini kamaytirish uchun temperatura va initsiator konsentratsiyasini pasaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Endi suyuq fazadagi radikal-zanjirli xlorlash jarayoni sodir bo'ladigan reaktorlar bilan tanishamiz (17-rasm). 17-rasmdagi birinchi reaktor davriy jarayonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, u barbotaj turidagi kolonnadan iborat. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan issiqlikni tashqariga chiqarish bilan kolonna sovutiladi. Bu usul bilan polixlorparafinlar olinadi. Eritmada polimerlarni xlorlash jarayonida, reaksiya natijasida hosil bo'lgan issiqlik erituvchini bug'latish hisobiga tashqariga chiqarilishi mumkin, ya'ni bug'latilgan erituvchi kondensatsiyalaranadi va sovutgich yordamida yana reaktorga qaytariladi (13a-rasm).

Uzlusiz ravishda ishlaydigan reaktorlar barbotajli kolonnalardan iborat bo'lib ichki sovutish moslamasi va qaytar kondensator bilan ulangan bo'ladi (17b -rasm). Suyuqlik va gaz bir-biri tomon harakat qiladi.

Past temperaturada qaynovchi moddalarni 1,1 va 1,2-dixlorethanlarni xlorlashda ajralayotgan issiqlikni tashqariga chiqarish uchun shu moddalarni HCl da bug'latiladi. Bu holatda ichki sovutish moslamasi kerak bo'lmaydi, bu vazifani qaytar sovutgich bajaradi (17d -rasm).



17-rasm. Suyuq fazada radikal-zanjirli xlorlash xloratorlar:

- davriy ravishda ishlab tashqariga chiqarish bilan sovutiladigan;
- uzluksiz ravishda ishlab ichki sovutish bilan; d) uzlusiz ravishda ishlab bug'latish hisobiga issiqlikni tashqariga chiqaruvchi.


Jarayon texnologiyasi. Suyuq fazadagi radikal-zanjirli xlorlash texnologiyasi bir nechta bosqichdan iborat: xomashyoni tayyorlash, xlorlash, chiquvchi gazlarni qayta ishlash va HCl yig'ish, suyuq reaksiya massasini qayta ishlash va reaksiya mahsulotlarini ajratish.

Reagentlarni tayyorlash. Asosan, suyuq xlor bug'latiladi va xona haroratiga yaqin temperaturada isitiladi. Organik reagentlar ba'zi hollarda maxsus tozalanmasdan nasos orqali reaktorga yuboriladi. Ular tarkibidagi namlik sulfat kislota yordamida quritiladi. Organik reagent-azeotrop haydash orqali yoki qattiq adsorbentlar yordamida suvdan ajratiladi. Organik reagent tarkibidagi oltingugurtli birikmalar mavjud bo'lganda gidrotozalash usulidan foydalaniлади.

Uchmaydigan moddalarni, masalan, yumshoq va qattiq parafinlarni xlorlashda, gazni suv bilan sovutishni o'zi yetarli bo'ladi, bunda gazdagagi HCl yutiltiriladi. O'tin almashinish reaksiyalari bilan xlorlashda ko'p miqdorda HCl hosil bo'ladi, shuning uchun uni suv bilan absorbsiyalash natijasida 20–30 %-li xlorid kislota olish mumkin.

Endi suyuq fazada radikal-zanjirli xlorlashni, 1,1-dixloretandan metilxloroform olish misolida ko'rib chiqamiz (18-rasm). 1-yig'gichga kerakli miqdordagi reagent 1,1-dixloretan va initsiator (porofor) solib aralashtiriladi. Hosil bo'lgan eritmani 2-nasos yordamida 3-chi xloratorning yuqori qismiga, pastki qismidan gazsimon xlor yuboriladi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan issiqlikni 0,2–0,3 bosimda HCl dagi 1,1-dixloretanni bug'latish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hosil bo'lgan bug' 4,5-qaytar kondensatorlarga qaytib keladi. Reaksiya massasining

yuqori qaynovchi metilxloroform bilan boyib borish natijasida tarelkadagi suyuqlikning temperaturasi yuqoridan pastga 70–100 °C ortib boradi, bu esa reaktorning optimal temperaturasini hosil qiladi. Gaz o‘zi bilan 1,1-dixloretan bug‘larini olib chiqishi munosabati bilan, uning yo‘qolishini oldini olish uchun 5-qaytar kondensatorda sovutiladi, hosil bo‘lgan kondensat yana xloratorga qaytib keladi. Organik moddalar bug‘idan tozalangan gaz 6-skrubberga HCl absorbsiya jarayoniga yuboriladi. U yerga suyultirilgan xlorid kislota yuboriladi. HCl ni absorbsiya jarayonida katta miqdorda issiqlik ajralib chiqishi va konsentrlangan (30–33% li) xlorid kislota olish uchun, skrubberning pastki qismiga 7-chi grafitli sovutgich moslamasiga ulanadi. HCl qoldig‘i 8-skrubberdagagi suvgaga yutiladi; chiqindisi gazlar atmosferaga chiqariladi; 8-chi skrubberdagagi xlorid kislota 9-sovutgichda sovutilgandan so‘ng 6-chi skrubberga yuboriladi. 3-xloratorning pastki qismidan reaksiyaning suyuq massasi 10 rektifikatsiya kolonnasiga keladi, u yerda 1,1-dixloretan va HCl haydaladi. HCl kondensatdan ajratiladi va xloratordan chiqayotgan gaz tomoniga yo‘naltiriladi.



18-rasm. 1,1,1-trixloretan olish texnologik sxemasi:

1-yig‘gich,

2-nasos, 3-xlorator, 4-5-qaytar kondensatorlar, 6,8-skrubberlar, 7,9-sovutgichlar, 11,13-kondensator-deflegmatorlar, 14-separator, 15-qaynatgichlar.


Hosil bo‘lgan kondensatning bir qismi flegma hosil qilish uchun sarf bo‘ladi, qolgan qismi esa xloratorning tepe tomoniga yuboriladi. 10-kolonnadagi kub qoldig‘i 12-kolonnaga yuboriladi. Rektifikatsiya qoldig‘idan metilxloroform olinadi. Rektifikatsiya qoldig‘i tarkibida

1,1,2- trixloretan va tetraxloretan bo'ldi. Ulardan trixloretanni ajratib olish mumkin (undan vinilidenxlorid olinadi), tetraxloretanlar esa trixloretilen va boshqa organik mahsulotlar olishda qo'llaniladi.

Gaz fazasida xlorlash texnologiyasi. Gaz fazasida xlorlash bilan uncha ko'p mahsulotlar olinmaydi, aynan metanning xlorli hosilalari, allil va metallilxloridlar, dixlorbutenlar olinadi. Metanning xlorli hosilalari sanoatda muhim ahamiyatga ega.

Xlor metan CH_3Cl (atmosfera bosimida gaz, $T_{kond}=23,7^\circ\text{C}$). Dimetildixlorsilan $(\text{CH}_3)_2\text{SiCl}_2$, metilmerkaptan (CH_3SH) olishda metillovchi agent sifatida qo'llaniladi. **Metilenxlorid (dixlormetan)** CH_2Cl_2 suyuqlik bo'lib $T_{qay}=39,8^\circ\text{C}$, erituvchi sifatida qo'llaniladi. **Xloroform (trixlormetan)** CHCl_3 (suyuqlik, $T_{kay}=61,2^\circ\text{C}$) xladagent-freon CH-ClF_2 olishda, hamda muhim monomer tetraftor etilen $\text{CF}_2=\text{CF}_2$ olishda qo'llaniladi. **Tetraxlormetan (uglerod to'rt xlorid)** CCl_4 (suyuqlik $76,5^\circ\text{C}$) erituvchi sifatida qo'llaniladi, ba'zi bir pestitsidlar va asosan freonlar (CCl_2F_2 va CCl_3F) olinadi.

Ushbu hosilalarni metanni xlorlash bilan olish mumkin. Biroq xlor metanni sintez qilish uchun boshqa usuldan, ya'ni metanolni gidroxlorlashdan foydalaniadi:




bunda hosil bo'lgan mahsulot toza holda chiqadi. Allilxlorid $\text{CH}_2=\text{CH-CH}_2\text{Cl}$ va metallilxlorid $\text{CH}_2=\text{C}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{Cl}$ suyuqlik bo'lib ularning qaynash temperaturasi $45,0$ va $72,2^\circ\text{C}$ ga teng. Allilxlorid turli moddalarga allil guruhiga kiritishda (allil effinari, allilamnit, allilsaxarozalar) va ayniqsa, epixlorgidrin olishda keng qo'llaniladi:

Epixlorgidrindan epoksid polimerlari va glitserin sintez qilinadi. Metallilxlorid pestitsid sifatida qo'llaniladi, shuningdek, metallil guruhiga kiritishda foydalaniadi. masalan, metallilsulfonat $\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CO}_2\text{OHa}$ olish uchun. Allil va metallilxloridlar gaz fazasida propilen va izobutenni xlorlash bilan olinadi.

Dixlorbutenlar: 1,4-dixlorbuten-2 $\text{ClCH}_2\text{CH=CHCH}_2\text{Cl}$ va 1,2-dixlorbuten-3 $\text{ClCH}_2\text{CHClCH=CH}_2$.

Bu moddalar gaz fazasida radikal zanjirli xlorlash bilan olinadi. Xomashyo sifatida 1,3-butadien qo'llaniladi. Bunda dastlab dixlorbutenlar aralashmasi hosil bo'ladi, so'ngra qo'sh bog'ti to'yinishi hisobiga tetraxlorbutan hosil bo'ladi:




Oxirgi reaksiyani to'xtatish uchun, xlorga nisbatan 1,3-butadien miqdorini ortiqcha olish kerak. Dixlorbutenlar organik sintezda oraliq mahsulot sifatida muhim ahamiyatga ega. 1,4-izomer adipodinitril $\text{CN}(\text{CH}_2)_4\text{CN}$, geksametilendiamin $\text{NH}_2(\text{CH}_2)_6\text{NH}_2$ va adipin kislota $\text{HOOC-(CH}_2)_6\text{-COOH}$ olishda qo'llaniladi. 1,2-izomerdan esa xlropren $\text{CH}_2=\text{CCl-CH=CH}_2$ olinadi. Xlorlash jarayonida ikkala izomer aralashmasi hosil bo'ladi, lekin ular rux yoki mis tuzlari ishtirokida katalizlanganda bir-biriga qaytar izomerlanish xususiyatiga ega.

Gaz fazasida xlorlash jarayonining shart-sharoitlari va reaktori. Gaz fazasida xlorlashda suyuq xlorni bug'latish natijasida olingen xlordan foydalaniadi. Jarayonga ta'sir etuvchi eng muhim texnologik omillar temperatura va reagentlar nisbati hisoblanadi. Allil va metallilxlorid olishda uglevodorodlarni xlorga nisbatan ortiqcha olish kerak. Masalan, allilxlorid sintez qilinganda uglevodorodni xlorga nisbatani 5:1, metallilxlorid olishda esa 2:1 olinadi. Allilxlorid ishlab chiqarishda harorat tantash birikishga nisbatan o'rinn al mashishning selektivligiga asoslangan bo'lib, jarayon $500-520$ $^{\circ}\text{C}$ da olib boriladi. Metallilxlorid ishlab chiqarishda reaksiya $150-200$ $^{\circ}\text{C}$ da olib boriladi. Dixlorbutenlar sintezi ≈ 300 $^{\circ}\text{C}$ da ortiqcha 1,3 butadien olinganda sodir bo'ladi.

Metanni xlorlashda quyidagi tayyor mahsulotlar olinadi: metilenxlorid, xloroform, tetraxlormetan yoki ularning aralashmasi. Metilxlorid olishda esa metanni xlorga nisbatan $\approx 4:1$ mol nisbatda olinadi, bunda reaksiyaga kirishmagan metan va xlormetan reaksiyaga qaytariladi. Metanni xlorlash termik yo'l bilan $500-550$ $^{\circ}\text{C}$ da, termokatalitik usul bilan esa $350-400$ $^{\circ}\text{C}$ da olib boriladi.

Gaz fazadagi xlorlash doimo atmosfera bosimida reagentlar aralashmasini xloratorga uzlusiz yuborish bilan amalga oshiriladi. Gaz fazasida xlorlash reaktorlarining asosiy uchta turi mayjud (19-rasm).


Termik xlorlashda a) turdag'i xloratorlar qo'llaniladi. Bunda sovuq reagentlar isitilgan nasadkalar yordamida isiydi (nasadka akkumulator vazifasini bajaradi). Termokatalitik xlorlashda b) turdaki xloratorlar qo'llaniladi. Isitilgan reagentlarni xloratorga yuborishda d) turdag'i xloratorlar qo'llaniladi. masalan, allil xlorid olishda reaksiya aralashtirgichda boshlanadi. xlorator esa bo'sh truba vazifasini bajaradi.



19-rasm. Gaz fazasida xlorlash reaktorlari:

- a) nasadkali issiqlik o'tkazuvchi; b) katalizator qatlamlili
 (issiqlik beruvchi qatlamlili); d) aralashmani qo'shimcha isituvchi.

Gaz fazasida xlorlash texnologiyasi bilan allilxlorid ishlab chiqarish misolida tanishamiz (20-rasm). Ushbu jarayon ham xuddi suyuq fazada xlorlashga o'xshash bosqichlardan iborat.



20-rasm. Allilxlorid ishlab chiqarish texnologiyasi:

- 1-bug'latgich; 2-isitgich; 3-trubkasimon pech; 4-xlorator; 5-siklon;
 6, 17 - sovutgichilar; 7-bug'latish-kondensatsiyalash kolonnasi;
 8-plyonkali absorberlar; 9,12,16-separatorlar; 10- sirkulatsiyalash
 nasoslari; 11- ishqorli skrubber; 13- suyuq propilen solinadigan idish;
 14-kondensator; 15-adsorber-qurituvchi; 18-kompressor;
 19-droselli ventil.

Reagentlarni tayyorlash suyuq xlorni bug'latish, gazsimon xlorni qo'shimcha isitish, reagentlarni konsentrangan sulfat kislota yoki adsorbentlar yordamida quritish, reagentlarni bir-biri bilan va retsirkulyat bilan aralashtirish. Alliklorid va metalalliklorid sintez jarayonida xomashyo uglevodorodlar bug'lantiriladi va kerakli temperaturagacha isitiladi.

Reaksiya o'tkazilgandan so'ng aralashma HCl tozalanadi va retsirkullanuvchi moddalar va tayyor mahsulot bir-biridan ajratiladi. Buning uchun ikki turdag'i sxemadan foydalilanadi:

1) mahsulotlarni qiyin kondensatsiyasida (metilenklorid sintezidagi metanni ortiqcha miqdorda olgandek) dastlab kislota olinadi, so'ngra koprimerlanadi, quritiladi, gazsimon retsirkulyat ajratiladi va suyuq mahsulotlar rektifikatsiyalanadi.

2) Mahsulotlarni oddiy kondensatsiyalanishda, dastlab ularni retsirkulyat va HCl dan ajratiladi, so'ngra rektifikatsiya jarayoniga yuboriladi. Gazsimon aralashma HCl dan tozalanadi, retsirkulyat esa quritiladi va reaksiyaga qaytariladi.

1-apparatda suyuq xlor bug'lanadi va uning bug'lari 2-isitgichda isitiladi, so'ngra ular o'chagich orqali 4-xloratorga yuboriladi. 3-chi trubkasimon pechda propilen 350 °C isitiladi va aralashtirgich vazifasini bajaruvchi xloratorning tepe qismiga yuboriladi. Issiq reaksiya gazlari 5-siklon va 6sovutgichdan o'tadi, u yerda koks va saja hosil bo'ladì, so'ngra 7-bug'latish-kondensatsiya kolonnasiga keladi. U suyuq propilen bilan sug'oriladi.

Propilenni bug'lanishi hisobiga gaz soviydi va uning tarkibidagi barcha xlorti hosilalar kondensatsiyalanadi. Kolonnaning yuqori qismidan propilen va (HCl) vodorod xlorid absorbsiyaga yuboriladi, bunda konsentrangan xlorid kislota olinadi. 16-rasmida plyonkali absorbsiyani 8-grafitli apparatlarda olib borish ifoda etilgan, undagi absorbsiya issiqligi suv yordamida sovutiladi. Bu esa konsentrangan xlorid kislota olish imkonini beradi. Har bir 8-absorberda gaz va suv (yoki xlorid kislota) bir-biriga tepadan pastga qarab harakat qiladi. 9-separatordan chiqqan gaz HCl dan qo'shimcha tozalash uchun ishqorli 11-skrubberga yuboriladi, reaksiyaga kirishmagan propilen 1,5-2,0 MPa bosim ostida 18-kompressor yordamida siqiladi va 17-sovutgichda sovutiladi, 16-separatorda kondensatsiyalangan suvdan ajratiladi, shundan so'ng gaz Al₂O₃, li 15-absorberda quritiladi (aslida davriy ravishda ishlaydigan 2-3 quritgichlar bo'lib, ularda ketma-ket adsorbsiya olib boriladi). Quruq propilenning bir qismi gaz holida


drosellanadi, u 3-chi trubkasimon pechga, u yerdan reaksiya muhitiga yuboriladi. Propilenning qolgan qismi 14-apparatda kondensatsiyalanadi va 13-idishga yig'iladi. Suyuq propilen drosellanadi, shu vaqtida u sovuydi va qisman bug'lanadi. Bu bug'lar 13-idishdan kelayotgan gaz bilan reaksiyaga kelayotgan propilenga qo'shiladi va suyuq propilen 7-kolonnani sug'orish uchun yuboriladi.

Ion katalitik galogenlash.


Bu jarayonlarga qo'shbog' va uch bog'larga galogenlarni birikish, olefinlarni xlorgidrirlash, gidroxylorlash, aromatik halqada o'rin almashinish va ba'zi bir kislorod va azotli birikmalarini xlorlash kiradi.

Erkin galogenlar yordamida additiv galogenlash. Galogenlarni C=C bog'jarga birikishi.


Ilgari gaz fazasida xlorni olefinlarga radikal-zanjirli mexanizm asosida birikishi kuzatilgan edi. Agarda suyuq faza paydo bo'lsa, unda reaksiya keskin tozalanadi va eritmada sodir bo'ladi. Reaksiya mexanizmi o'zgaradi, bu esa jrayonga yorug'lik va kimyoviy initiatorlar ta'siri yo'qligini ko'rsatadi. Reaksiyaga kirishayotgan reagentlarni suyuq faza orqali o'tkazilganda qo'shbog'ga xlor yoki bromni osongina birikishini kuzatish mumkin:



Ushbu reaksiya past teperaturada ham deyarli tez sodir bo'ldi, lekin uni aproton kislota katalizatorlari (masalan, FeCl_3) tezlashtira oladi. Jarayon mexanizmi bo'yicha elektrofil brikishida π va σ -oraliq komplekslar hosil bo'ldi:



FeCl₃ vazifasi π -kompleksni σ -kompleksga aylanishini tezlashtirishdan iborat bo'lib qolmay, balki, Cl \rightarrow Cl: kompleksini hosil qilishdir. Katalitik reaksiya olefin, Cl₂ va FeCl₃ bo'yicha yuqori tartibli, lekin unga xlor bo'yicha yuqori tartibga ega bo'luvchi nokatalitik jarayon ham qo'shilib ketadi. Olefinlarni reaksiyaga kirishini qobiliyat oraliq kationning barqarorligiga bog'liq bo'lib, quydagi tartibda o'zgaradi:



Xlorni biriktirish atsetilenga ham xosdir:


Ojinadigan mahsulotlar gaytarilish kerak:

1,2-dixloretan -CH₂Cl CH₂Cl (suyuqlik, T_{gav}=83,5°C);


1,2 dixlorpropan- Cl CH₂CH ClCH₃ (suyuqlik T_{gav}=98,6°C);

Propilen xlorlash bilan olinadi:

1,1,2-trixloretan va geksaxlor etan. Oxirgi paytlarda ushbu moddalar xlorni tegishli xlorolefinlarga birikishi natijasida olinmoqda:




1,1,2,2- tetraxloretan atsetilenni xlorlash bilan olinadi:



Trixloretilen esa erituvchilar olishda qo'llaniladi.

Jarayon texnologiyasi. Yuqoridagi reaksiyalar yuqori tezlik va tanlovchanlikda sodir bo'ladi, shuning uchun ularning xomashyolari toza bo'lishi shart emas. Jarayon gazsimon reagentlarni suyuq mahsulotga barbotirlash yo'li bilan amalga oshiriladi, reaksiya eritmada 70–100°C da kislorod va katalizator ishtirokida sodir bo'ladi. Katalizator sifatida FeCl_3 (yoki reaktorga temir bo'laklari taxlanadi va xlor ta'sirida FeCl_3 hosil qilinadi). Organik reagentning xlorga nisbatan stexiometrik koeffitsiyentiga yaqin yoki olefining miqdorini 5% ortiqcha olish mumkin. Bunda xlor to'liq reaksiyaga kirishadi.

Ion katalitik xlorlash olib borishda uch xil reaktordan foydalanish mumkin (21-rasm).



21-rasm. Suyuq fazada ion katalitik xlorlash reaktorlari:

- a) tashqariga chiqarish bilan sovutiladigan; b) bug'latish yo'li bilan issiqlikni tashqariga chiqaruvchi; d) xlorlash va retifikatsiya jarayonlarini birligida olib boruvchi reaktorlar.


a) reaktorlarda reaksiya barbotajli kolonnalarda olib boriladi. Bu kollonnalarga qaytar sovtigichlar ulangan bo'lib, ajralib chiqayotgan

gazlar bilan ilashib chiqqan mahsulot bug'lari kondensatsiyalananadi. Kondensat reaktorga qaytariladi, hosil bo'lgan mahsulot esa kolonnaning yon qismidan keyingi qayta ishlash jarayoniga yuboriladi;


b) reaktorlar takomillashtirildi, natijasda, ya'ni ularning yon qismidan mahsulotni ajratib olmasdan, balki qaytar kondensatordan kerakli qismi olinadi, qolgan qismi esa kerakli temperatura va hajmni ushib turish uchun yana kolonnaga qaytariladi. Bu usulda katalizator mahsulotni ifloslantirmaydi, kolonnada qoladi va uzoq vaqt ishlaydi.

Hozirgi vaqtida d) reaktorlar sanoatda o'z o'rnni egallagan, chunki xlorlash va retifikatsiya jarayonlari birgalikda olib boriladi. Reaktor vazifasini bajaruvchi kolonna kubiga xlor va etilen kiritiladi. Kolonnaning retifikatsiya qismidan 1,2-dixloretan trixloretanda ajratiladi. Kubdag'i reaksiya issiqligidan mahsulotni ajratish uchun foydalaniлади.


Xlorgidrinlash reaksiyaları. Olefinlarga suvli muhitda xlor ta'sit ettirish bilan xlorgidrinlar olinadi:



Dastlab, xlorgidrinlash reaksiyasi xlorni suvda gidrolyzlanishi natijasida hosil bo'lgan gipoxloridni birikishi hisobiga sodir bo'ladi, deb hisoblanganligi sababli gipoxlorlash degan nom berilgan. Keyinchalik, HClO neytral muhitda olefinlar bilan juda sekin reaksiyaga kirishishi, lekin eritmaning kislotaligi ortishi bilan reaksiya tezlashishi ma'lum bo'ldi. Bu hodisani xloring hidratlangan kationi hosil bo'lishi bilan tushuntirish mumkin, chunki u kuchli elektrofil agenti bo'lib olefinlardagi qo'shbog'ga birikishi hisobiga σ -kompleks hosil qiladi va u suv bilan birikishi natijasida xlorgidrin hosil bo'ladi:



Agar reaksiya xloring suvli eritmasida sodir bo'lsa, xlor kationi hosil bo'lish ehtimoli kamayadi. Bu holda qo'shbog'ga hujum qiluvchi elektrofil agent xlor molekulasi hisoblanadi:



Ushbuni reaksiya tezligini ikkinchi tartibili oddiy tenglama bilan ifodalaniши orqali izohlash mumkin:


$$r = k [\text{RCH}=\text{CH}_2] [\text{Cl}_2]$$

Olefinlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati xlorni olefinlarga birikishi kabi quyidagi qator bo'yicha o'zgaradi:



Bunda etilen gomologlari va ularni hosilalari uchun xlorgidrinlash jarayoni shunday sodir bo'ladiki, bunda xlor eng gidritlangan uglerod atomi bilan bog'lanadi. Buning natijasida propilendan 1-xlorpropanol-2 hosil bo'ladi $\text{CICH}_2\text{CH}(\text{OH})\text{CH}_3$, uning tarkibida 2-xlorpropanol-1 $\text{CH}_2(\text{OH})\text{CH ClCH}_3$ izomeri aralashmasi mavjud.

Oraliq σ -kompleksni reaksiya natijasida yig'iladigan xlor anioni va xlorgidrin bilan ta'sirlashuvchi natijasida ikki xil oraliq mahsulot-dixlorid va dixlordialkil efiri hosil bo'ladi:



Ushbu oraliq reaksiyalar xlorgidrinlashga nisbatan ketma-ket bo'lgani sababli jarayon selektivligi olinadigan suvli eritmadagi Cl^- anionlari va xlorgidrin konsentratsiyasiga bog'liq. Shuningdek, reaksiya selektivligi qo'llaniladigan reaktor turiga ham bog'liq.

Xlorgidrinlash reaksiyalarini yordamida olinadigan mahsulotlar

Ushbu jarayonning sanoat ahamiyati shundan iboratki, xlorgidrinlar ishqorlar bilan ishlov berilganda olefinlarni α -oksidlari hosil bo'ladi. Ilgari shu usul bilan etilenxlorgidrin orqali $\text{CH}_2(\text{OH})\text{CH}_2\text{Cl}$ etilenoksid olingan, lekin hozirgi kunda uni sintez qilishni iqtisodiy tomonidan samarali yo'li topilgan.

Propilenxlorgidrin $\text{CH}_3\text{CH}(\text{OH})\text{CH}_2\text{Cl}$ izomerlari aralashmasi propileni xlorgidrinlash natijasida hosil bo'ladi.



Dixlorgidrin glitserin $\text{ClCH}_2\text{CH}(\text{OH})\text{SH}_2\text{Cl}$ va uning izomeri

$\text{CH}_2(\text{OH})\text{CHClCH}_2\text{Cl}$ 5%-li suvli eritma holida allilxloridni xlorgidrinlash bilan olinadi.

Jarayon texnologiyasi xlorgidrinlashni 2 xil usuli mavjud: birinchì usulda propilen va xlor kolonnaning bo'sh qismidagi mahsulotlarning suvli eritmalarini ustidan o'tkaziladi (22-rasm). Kolonnaning pastki qismidan suv yuboriladi, suvning isishi hisobiga issiqlik tashqariga chiqariladi. Agarda gazlar tarkibida inert qo'shimchalar bo'lsa, unda issiqlikning bir qismi qaytar kondensator yordamida qayta bug'latish hisobiga kamaytiriladi. Bunda suv bilan birgalikda dixlorpropan ham bug'lanadi. Bug'lar kondensatsiyalanadi, ularni separatorda ajratiladi. Suv kolonnaga qaytariladi, 1,2-dixlorpropan tozalangandan so'ng sotuvga chiqariladi. Xlorgidrin eritmasi kolonnaning yon tomonidan chiqariladi, uni ohak yordamida neytrallanadi va propilenoksiidi sintez qilishiga yuboriladi.

Bu usul dixlorgidrin glitserin olish uchun ham qo'llaniladi, bunda allilxloridni bug' holida reaksiya zonasiga kiritiladi.

Allilxlorid va xlor organik faza mahsulotlarida yaxshi eriydi, u yerda xlorini birikishi sodir bo'ladi, shuning uchun selektivlikni oshirish uchun aralashmani kuchli dispergirlash lozim. Glitserin dixlorgidrin sintezida reaksiyani boshqa usulda olib boriladi, bunda dastlab HOCl kislota tayyorlab olinadi va xlorgidrinlash olib boriladi. Ko'rsatilgan eritma tayyorlash uchun karbonat yok natriy va kalsiy gidroksidining suvli eritmasidan xlor o'tkazilmaydi:



22-rasm. Xlorgidrinlash reaktori: a) qaytar kondensatorli barbotajli kolonna; b-retsirkulatsiyali trubkasimon reaktorda alohida gipoklorlash va xlorgidrinlash moslamasi.

Gidrogalogenlash. Uglerod-uglerod qo'shi yoki uchbog'lar hisobiga galogenlash jarayonlari muhim amaliy ahamiyatga ega.

$\text{C}=\text{C}$ bog'lar bo'yicha gidrogalogenlash.

Gidrogalogenlash ekzotermik qaytar reaksiya hisoblanadi. Uning muvozanati temperatura pasayishi bilan o'ng tomonga siljiydi va $< 50^{\circ}\text{C}$ da reaksiya qaytmaydi:



Turli galogenvodorodlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati erkin galogenlarning faolligiga qarama-qarshi ravishda quyidagicha ortib boradi:




Gidroxlorlashda katalizator sifatida ko'pincha AlCl_3 yoki FeCl_3 qo'llaniladi. Reaksiya elektrofil mechanizmi asosida sodir bo'ladi. MCl_3 faolligini π -kompleksni σ - kompleksga o'tishining osonligida deb tushuntirish mumkin.

Yoki oraliq metallikloridvodorod kislota NaCl_4 (yoki FeCl_4) hosil bo'ladı, undagi proton yuqori faolikka ega bo'ladı.

Jkkala mexanizm uchun eksperiment asosida aniqlangan bir xil kinetik tenglarna mos keladi:


$$r = [\text{MCl}_3][\text{HCl}] [\text{RCH}=\text{CH}_2]$$

Gidroxilashda, asosan katalizator MCl_3 ishtirokida oraliq polimerlanish reaksiyasi ham sodir bo'ladı:



Bunda past molekulalı suyuq polimerlar hosil bo'ladı, temperatura ortishi bilan ularning miqdori ko'payadi.


Olinadigan mahsulotlar. Ular orasida eng muhim etil xlorid $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$ hisoblanadi, u normal sharoitda gaz (kondensatsiyalanish temperaturasi $+12,3^\circ\text{C}$). Uni AlCl_3 ishtirokida etilenga HCl ta'sir ettirib olinadi:



Etilxlorid etillovchi agent sifatida qo'llaniladi. Masalan, dietildixlorsilan ishlab chiqarishda $(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{Cl}_2$, to'rt etil qo'rg'oshin $\text{Rb}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$ va h.k. qo'llaniladi.

Etil bromid $\text{C}_2\text{H}_5\text{Br}$ suyuqlik ($T_{qay}=38,4^\circ\text{C}$). Uni, motor yoqilg'ilarini oktan sonini oshirish uchun tetraetilqo'rg'oshin eritmasini tayorlashda qo'llaniladi.

$\text{C}\equiv\text{C}$ bog'lar bo'yicha gidroxilash. Bu reaksiya ekzotermik tarzda sodir bo'ladı va olefinlarni gidroxilash jarayoniga nisbatan ikki marta ko'p issiqlik ajraladi:



HCl ni atsetilenga birikishi bosqichma-bosqich sodir bo'ladı, avval vinilxlorid, so'ngra 1,1-dixloretan hosil bo'ladı:




Shuning uchun atsetilenning gidroxilash reaksiyalari faqat birinchи reaksiyani tezlashtirish uchun selektiv katalizatorlar ishtirokida olib boriladi. Bunday maqsad uchun simobning ikki valentli va misning bir valentli tuzlarini qo'llash ijobjiy ahamiyatga ega. Simobning ikki valentli tuzlari orasida HgCl_2 sulema gaz fazasida $150-200^\circ\text{C}$ da quruq reagentlar ishtirokida qo'llaniladi. Bunda atsetaldegid va 1,1-dixloretan

hosil bo'ladı. Cu₂Cl₂ ishtirokida oraliq jarayon atsetilenning dimerizatsiyasi natijada vinilatsetilen hosil bo'ladı:




Bu reaksiyani to'xtatish uchun yuqori konsentratsiyali HCl olinishi va katalizator konsentrlangan xlorid kislota erigan bo'lishi kerak.

Simob va mis tuzlarini gidroxlorlash reaksiyalariga katalitik ta'sirini koordinatsion kompleks hosil bo'lishi orqali tushuntirish mumkin, bunda atsetilen faollashadi va xlor anioni bilan o'zaro ta'sirlashadi va haqiqiy metall-organik birikma hosil bo'ladı, ular kislota ta'sirida tez parchalanadi:



Vinilxlorid CH₂=CHCl (rangsiz gaz, T_{kond}= -13,9 °C). U eng muhim monomerlardan biri hisoblanadi. Undan turli polimer materiallari olinadi:




Sanoatda vinilatsetenni suyuq fazada 40–60 °C Cu₂Cl₂ ishtirokida gidroxlorlash orqali olinadi.



Atsetilen dan vinilxlorid olish. Gaz fazasida geterogen katalitik jarayon yo'li bilan atsetilen va vodorod xloriddan vinilxlorid sintez qilinadi. Faoliyati ilgan ko'mirga sulema shimdirish yo'li bilan katalizator tayyorlanadi. Hosil bo'lgan katalizator tarkibida 10% (mass) HgCl₂ bo'ladı. Atsetilenni gidroxlorlash bilan vinilxlorid olish texnologiyasi bilan tanishamiz (23-rasm).

Tozalangan atsetilen 1-olovni to'suvchidan o'tadi va namlikni kondensatsiyalari hisobiga 2-sovutgichda quriyi, so'ngra 3-kolon-naga keladi. 4-aralashtirgichda u, quruq vodorod xlorid bilan aralashadi va 5-trubkasimdan reaktorga keladi. Atsetilenni konversiya darajasi 97–98% tashkil qiladi, bunda reaksiya gazlari tarkibida 93% vinilxlorid, 5% HCl, 0,5–1,0 % C₂H₂, 0,3 % atsetaldegid va 1,1-dixloretan bo'ladı. Ular o'lari bilan sulema bug'ini olib ketadi. Gaz 6-sovutgichda soviyi, 7,8-skrubberlarda sulema va HCl dan tozalanadi (20% li xlorid kislota, suv, ishqor yordamida). Shundan so'ng gaz 10-nomakopli sovutgich-

da sovutiladi va 11-kompressor yordamida 0,7–0,8 MPa bosim ostida siqiladi.



23-rasm. Atsetilenni gidroxilorlash bilan vinilxlorid olish texnologik sxemasi: 1-olovni to'suvchi; 2,6,10-sovtugichlar; 3-quritish kolonnasi;

4-alarashtirgich; 5-reaktor; 7-9-skrubberlar; 11-kompressor; 12,13-rektifikatsiya kolonnalari; 14-separator; 15-deflegmator; 16-qaynatgich.

Aralashma navbatma-navbat 12 va 13-rektifikatsiya kolonnalarida ajratiladi. Dastlab, og'ir qoldiq (1,1 dixforetan), so'ngra yengil qismi (atsetilen, atsetaldegid) ajratiladi.

Tayanch so'z va iboralar

Galogenlash jarayonlari, radikal-zanjirli xlorlash, suyuq fazada xlorlash, gaz fazada xlorlash, ion-katalitik galogenlash, atsetilen, vinil xlorid, gidrogalogenlash, hidrolizlanish reaksiyaları, storlash, xlorlash, bromlash va yodlash, 1,2-dixloretan, xlorgidrinlar, aleilxloridlar, xlorgidrinlash, reaktorlar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Galogenlash jarayonining tavsifi.
 2. Galogenlash reaksiyalarining sinflanishi.
 3. Radikal zanjirli xlorlash.

4. Suyuq fazada xlorlash texnologiyasi.
5. Etanning polixlorli hosilalari.
6. Xlorparafinlar.
7. Arenlarning xlorli hosilalari.
8. Suyuq fazada radikal-zanjirli xlorlash xloratorlari.
9. Suyuq fazada radikal-zanjirli xlorlash texnologiyasi.
10. 1,1,1-trixloretanni olish texnologiyasi.
11. Gaz fazasida xlorlash.
12. Metanning xlorli hosilalari.
13. Dixlorbutenlar.
14. Gaz fazasida xlorlash reaktorlari.
15. Gaz fazasida xlorlash texnologiyasi.
16. Ion katalitik galogenlash reaksiyaları.
17. Galogenlarni $C=C$ bog'larga birikishi bilan olinadigan mahsulotlar.
18. Ion-katalitik xlorlash reaktorlari.
19. Xlorgidrirlash reaksiyaları bilan olinadigan mahsulotlar.
20. Gidrogalogenlash reaksiyasi bilan olinadigan mahsulotlar.
21. Vinilxlorid olish texnologiyasi.

III bob. GIDROLIZ, GIDRATATSIYA, DEGIDRATATSIYA, ETERIFIKATSIYA JARAYONLARI


Xlorli hosilalar gidrolizi va ishqorli degidroxlorlash

Asosiy organik va neftkimyosi sintezida gidroliz, gidratatsiya degidratatsiya, eterifikatsiya jarayonlari juda muhim o'r'in egallaydi. Moy, selluloza va uglevedorodlarni gidrolizlash natijasida sovun, glitserin, etanol va boshqa qimmatbaho mahsulotlar olinadi. Organik sintez sohasida yuqorida aytilgan jarayonlar, asosan C₂-C₅ spirt, fenol, oddiy efir, α-oksidlar, karbon kislotalar va ularning hosilalarini, ko'pchilik to'yinmagan birikmalar olish uchun qo'llaniladi.


Yuqorida ko'rsatilgan moddalar organik sintezda oraliq mahsulotlar sifatida (spirtlar, kislota va ularning hosilari, aldegidlar α-oksidlar), monomerlar va polimer materiallari (fenol, akril va metakril kislota efirlari materiallar (murakkab efirlar), plastifikatorlar va moylovchi materiallar), erituvchilar (spirtlar, oddiy va murakkab efirlar, xlorolefinlar), pestitsidlar (karbamin va tiokarbamin kislota efirlari) olishda xomashyo sifatida qo'llaniladi.

Gidroliz jarayoni. Suv yoki ishqorlar ta'sirida o'r'in olish yoki ikkilamchi almashinish jarayonlariga gidroliz reaksiyalari deyiladi. Ko'pincha, xlorli hosilalar gidroliz va ishqorli degidroxlorlash reaksiyalarida oraliq mahsulot sifatida qo'llaniladi.

Xlorli birikmalarni suv bilan gidrolizi juda sekin va qaytar tarzda sodir bo'ladi, shuning uchun jarayonni oxirigacha olib borishi kuchli gidrolizlovchi agentlar, ya'nii NaOH, Ca(OH)₂ yoki Na₂CO₃ suvli eritmalaridan foydalaniлади, ular ishtirokida reaksiya qaytmaydi. Bunda, umuman xlor atomini OH guruhga almashinishi va ishqorli degidroxlorlash sodir bo'lishi mumkin:





Xlorgidrinlarga ishqor ta'sir ettirilganda o'r'in almashinish va glikollar va α-oksidlar hosil qilib parchalanish sodir bo'ladi.



Xlorli birikmalarni gidrolizi va ishqorli degidroxlorlash nukleofil o'r'in almashinish va parchalanish reaksiyalar turiga mansub. Ko'pincha bu reaksiyalar biomolekulalni mexanizm asosida sodir bo'ladi.

Gidrolizning dastlabki bosqichida gidrolizlovchi agent xlor bog'langan uglerod atomiga hujum qiladi (C_N2 mexanizm bo'yicha), avvalgi bog'ni uzulishi hisobiga yangi bog' hosil bo'ladi. HCl ajratilganda, OH-ionning hujumi β -uglerod atomidagi vodorod atomiga qaratilgan bo'ladi ($E2$ mexanizm).

Ikkala mexanizmni quyidagicha ifodalash mumkin:




Yuqorida kursatilganidek, xlorli birikmalarga ishqor ta'sir etganida parallel ikki reaksiya: o'rin almashinish va HCl ajralishi sodir bo'lishi mumkin, lekin ulardan bittasi maqsadli hisoblanadi.

Bu reaksiyalarga temperatura, muhitning xossasi, gidrolizlovchi agent tanlash kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.


Yuqoridagi reaksiyadan ma'lum bo'lishicha o'rin almashinish reaksiyalarida gidrolizlovchi agent uglerod atomiga hujum qilib, o'zining nukleolefil xossalari namoyon qilsa, parchalanishda esa uglerod atomi bilan bog'lanib o'zini asosligini namoyon qiladi. Xulosa qilganda, o'rin almashinishda yuqori nukleofillikka ega bo'lgan kuchli asos kerak bo'ladi, HCl parchalanishida esa uncha yuqori nukleofillikni namoyon qilmaydigan kuchli asos kerak bo'ladi. Masaan, NaOH yoki $Ca(OH)_2$.

Suv bilan gidroliz qilganda oraliq mahsulot sifatida oddiy efir hosil bo'ladi. Uning hosil bo'lishini quyidagicha tushuntirish mumkin, reaksiyaning birinchi mahsuloti spirt, ishqor bilan kislota-asosli tez almashinishi natijasida alkogolyat hosil qiladi, u esa xlorli hosila bilan o'zaro reaksiyaga kirishadi:




Xlorli hosilalarning gidroliz jarayonlarini ikki asosiy usul orqali xlorolefinlar va α -oksidlar olish mumkin.

Xlor olefinlar olish. Ishqor bilan degidroxlorlash orqali 1,1,2-trixloretandan vinilidenxlorid va 1,3-butadienden 1,2-dixlorbuten-3 orqali xloropropen sintez qilinadi:




α-oksidlar olish. Xlorgidrinlarni ishqor bilan degidroxlorlash orqali α-oksidlar sintez qilinadi; masalan, propilenoksid, epixlorgidrin, bis (xlormetil) oksatsiklobutan.

Xlorgidrinni $\text{Ca}(\text{OH})_2$ bilan degidroxlorlansa, propilenoksid hosil bo'ladi:




Gidropipilen (suyuqlik, $T_{\text{кay}}=33,9^{\circ}\text{C}$), sanoatda katta miqdorda olinadi va propilenglikol ishlab chiqarishda qo'llaniladi ($\text{HOCH}_2-\text{CHOH-CH}_3$), shuningdek, ionogen sirt faol moddalar, pestitsidlar sifatida (oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashda) qo'llaniladi.

Epixlorgidrin $\text{CH}_2=\overset{\text{O}}{\text{C}}\text{H}-\text{CH}_2\text{Cl}$ (suyuqlik, $T_{\text{кay}}=117^{\circ}\text{C}$), dixlorgidrin glitserinni ishqor bilan degidroxlorlash natijasida epixlorgidrin olinadi:



Epixlorgidrin epoksid polimerlari olishda qo'llaniladi (epixlorgidrinni bisfenollar bilan polkondensatsiyalashda). Bu polimerlar yuqori adgeziya xususiyatiga ega va haroratga chidamlı bo'ladi.


Bis (xlormetil) oksatsiklobutan – monomer bo'lib, u trixlorgidrin penta eritritni ishqorli degidroxlorlash orqali sintez qilinadi:



Jarayon texnologiyasi. Yuqorida ko'tib chiqilganidek, ishqorli degidroxlorlash jarayoni kuchli ishqorlarning suvli eritmalari ($\text{Ca}(\text{ON})_2$ va NaOH) ta'sirida sodir bo'ladi, hosil bo'lgan reaksiya mahsuloti haydash yo'lli bilan reaksiya muhitidan ajratib olinadi. HCl ni parchalanishi xlorgidrinlarda oson, etanning polixlorli hosilalarida qiyinroq sodir bo'ladi, lekin jarayon atmosfera bosimida 100°C temperaturada olib boriladi.

Epixlorgidrin olish texnologiyasi bilan tanishamiz (24-rasm). I-reaktorga $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ning suvli eritmasi va glitserindixlorgidrin yuboriladi, kubga kuchli bug' yuboriladi, u isitish va mahsulotlarni qayta haydash uchun xizmat qiladi. Kolonna likopchalarida epixlorgidrin va oraliq mahsulot glitserin hosil bo'ladi. Oxirgisi

(glitserin) kolonna kubiga oqib tushadi, u yerdan CaCl_2 ning suvli eritmasi va ishqorning ortiqchasi tozalash uchun chiqariladi. Uchuvchan mahsulotlar suv bug'i bilan birgalikda 2-sovtgich-kondensatororda kondensatsiyalanadi va kondensat 3-separatorda 2 fazaga ajratiladi: suvli faza 6% erigan epixlorgidrin organik faza 85–90% epixlorgidrin va aralashmalar suv, trixlorpropan, reaksiyaga kirishmagan dixlorgidrin glitserin hamda uchuvchan moddalar-allilxlorid 2,3-dixlorpropilenden iborat bo'лади. Suvli fazani 1-reaktorga flegma sifatida, organik fazani esa ajratish uchun yuboriladi.




24-rasm. Epixlorgidrin olish texnologiyasi sxemasi:
1-reaktor, 2-kondensator- sovtgich, 3-separator, 4-yengil fraksiya haydash kolonnasi, 5-og'ir fraksiyanı ajratish kolonnasi, 6-qaynatuvchilar.

Dastlab, 4-kolonnada suvni uchuvchan moddalar bilan birgalikda haydaladi, kub suyuqligini 5-kolonnaga distillatsiya jarayoniga yuboriladi, u yerda epixlorgidrin og'ir mahsulotlardan haydash bilan ajratib olinadi. Ushbu aralashmani, reaksiyaga kirishmagan xlorgidrin va trixlorpropanlarni yana qo'shimcha ravishda ajratiladi, xlorgidrin gidroliz jarayoniga yuboriladi va mahsulot sifatida trixlorpropan olinadi. Kolonnaning yuqori qismidan epixlorgidrin (98–99% tozalikda) olinadi, u ham qo'shimcha ravishda rektifikatsiya usuli bilan tozalanadi va 99,5 % tozalikda epixlorgidrin olinadi.


Ishqor bilan degidroxlorlash usuli bitan xlorolefinlar olishda reaksiya tarmoqlari yuqoridagi texnologiyaga o'xshash bo'лади. Propilenoksid olishda suv bilan to'liq aralashtirilgandan so'ng, 2-sovtgichda bug'larni qisman kondensatsiyasi olib boriladi, 3-separator esa kondensat va bug'larni ajratuvchi vazifasini bajaradi. Kondensat 1-reaktorni sug'orishga, propilen oksidlaridan iborat bug'lar esa rektifikatsiyaga yuboriladi.

Ishqor va gidrolizlash usuli bilan spirtlar ishlab chiqarish. Yuqorida bayon qilingandek xlorli hosilalar gidrolizi xlor atomini almashinishi bilan ortiqcha olingen suv muhitida Na_2CO_3 (fenollar sintezi) ishtirokida ro'y beradi. Xlorli hosilalarning reaksiyaga kirishish qobiliyatiga qarab gidroliz jarayoni $120\text{--}125^\circ\text{C}$ dan (allixlorid gidrolizi) $300\text{--}350^\circ$ gacha (xlorbenzol gidrolizi) temperaturada olib boriladi. Bosim $0,5\text{--}1,0$ dan 10 MPa bo'ladi, bunday sharoitda kontakt vaqtida necha minutda to $20\text{--}30$ minutgacha o'zgaradi.


ligari fenol xlorbenzoldan olinar edi:




Fenol olishning boshqa usuli benzolni oksidli xlorlash va oksixlorlash bosqichida HCl ishtirokida xlorbenzolni gaz fazasida gidrolizlash (Raling usuli):




Natijada xlor umuman sarflanmaydi, yakuniy jarayon natijasida benzolni oksidlanishidan hosil bo'ladi. Shunga qaramasdan, fenol olishning xlorli usullari asta-sekin yo'qolib boradi, biroq ular yordamida fenollarning ba'zi bir hosilalari sintez qilinadi, masalan, m-nitrofenol, o-va n-nitrofenollar va 2,4-dinitrofenollar sintez qilinadi:



Ishqoriy gidroliz reaksiyalari bilan ko'pgina xlofenollar olinadi. Masalan, geksaxlорbenzoldan pestitsidlar pentaxlорfenol va natriy pentaxlорfenol sintez qilinadi:




Spirtlar olish uchun xlorli hosilalar gidrolizi allil spirti sintez qilishda o'zining ahamiyatini saqlab qoldi:




Allil spirti $\text{CH}_2\text{CH}-\text{CH}_2\text{OH}$ (suyuqlik bo'lib, $T_{\text{kay}} = 96,2^\circ\text{C}$) ftal, fosfor va boshqa kislotalarning allil eftirlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi, allil spirt glitserin olishda oraliq modda sifatida qo'llaniladi.

Allil xloridni katalizator ishtirokida (bir valentli mis xlorid) suv bilan gidrolizlash orqali ham allil spirti olish mumkin:




Gidroliz jarayoni Cu_2Cl_2 0,2% li eritmasida 2,0–2,5% li xlorid kislota ishtirokida olib boriladi. Oraliq mahsulotlar dialil efir va propion aldegid hosil bo'ladи.

Gem-dixlorli hosilalar gidrolizida aldegidlar olinadi, ularni amaliyotda benzoxloriddan benzoldegid olishda qo'llaniladi:




m- va n- geksaxlorksilollardan izo- va tetraftal kislota xlorangidridlari olinadi:




ular esa issiqlikka chidamli polimerlar olishda qo'llaniladi. Gidroliz jarayoni davriy ravishda $80\text{--}100^\circ\text{C}$ aralashtirilgan holda ozgina miqdorda katalizator (FeCl_3) qo'shilgan geksaxloridga stexiometrik miqdorda suv qo'shiladi.

Glitserin-siropsimon shirin ta'mli suyuqlik (qaynash temperaturasi 290°C). Uni fital angidrid bilan polikondensatsiya mahsulotlari glitsal polimerlari olishda, nitroglitserin poroxlari tayyorlashda, triatsetin erituvchisi (glitserin triatsetat), shuningdek, kosmetik va meditsina preparatlari olishda keng qo'llaniladi. Glitserin tabiatda turli hayvonlar va o'simliklar yog'larida murakkab efir holida uchraydi. Ularni gidrolizi natijasida bir vaqtning o'zida glitserin hamda sovun olish birinchi va hozirgi kungacha glitserin olishning asosiy usuli hisoblanadi:



Jarayon texnologiya. Gidrolizlovchi agentlar sifatida 5–10% li Na_2CO_3 yoki NaOH eritmasi qo'llaniladi.


Epixlorgidrinni suv bilan Na_2CO_3 yordamida katalizlash orqali glitserin olish mumkin:



Glitserin – siropsimon shirin ta'mli suyuqlik ($T_{qay}=290^{\circ}\text{C}$). Uni gliftal polimerlari olishda (ftal angidridi bilan polikondensatsiya reaksiyalari yordamida) keng qo'llaniladi, shuningdek, undan kosmetik va meditsina preparatlari olinadi.

Sintetik glitserin olish usuli 1948-yili sanoatga tafbiq qilinadi. Bunda propilenden alliixlorid, dixloridrin glitserin, epixloridrin va undan sintetik glitserin olinadi.

Epixlorgidrindan glitserin olish texnologiyasi bilan tanishamiz. (25-rasm). Epixlorgidrin va 5–6%li Na_2CO_3 eritmasi 1-nasos yordamida emulsiyalanadi, 0,6–1,0 MPa bosimda siqiladi va 2-isitgich orqali 3-trubkali reaktorga yuboriladi. Bu yerda yuqorida keltirilgan reaksiya sodir bo'ladi, natijada uning oddiy esiflari hosil bo'ladi. Reaksiya aralashmasi 4-klapanda faza (CO_2 va suv bug'lar) suyuq fazadan (glitserinning suvli eritmasi, uning esiflari, NaCl) va reaksiyaga kirishmagan Na_2CO_3 ajratiladi. Glitserin va suvning uchuvchanligida katta farq bo'lganligi sababli asosiy massani bug'latish yo'li bilan amalga oshiriladi: suyuqlik ketma-ket 6-bug'latish kublaridan o'tadi, ulardan birinchisi tashqaridan yuboriladigan bug', ikkinchisi esa birinchi kubdan keladigan bug' yordamida isitiladi. Har bir bug'latish apparatidan so'ng suyuqlik 7-filtrdan o'tkaziladi va u yerda NaCl dan ajratiladi. Taxminan 80% glitserin bug'latilgandan so'ng 8-kolonnada suvdan ajratish uchun rektifikatsiyalanadi va 9-kolonnada esa yuqori qaynaydigan glitserin esiflariidan ajratiladi. Kolonnaning oxirgi distillyati 98–99% li glitserindan iborat. Uni ko'pincha aktivlangan ko'mir yordamida adsorbirlash orqali qo'shimcha tozalanadi.




25-rasm. Xlorlash usuli bilan glitserin olish texnologik sxemasi:
1-nasos, 2-isituvchi, 3-reaktor, 4-drossel ventili, 5- separator, 6-bug'latish kublari, 7- filtrlar, 8-suvni haydash kolonnasi; 9-og'ir fraksiyani ajratish kolonnasi, 10-kondensator deflegmator, 11-qaynatgichlar.

Bosim ostida xlorbenzolni ishqor bilan gidrotozalab fenol olish.
Xlorbenzolni ishqorming suvli eritmasi bilan gidrotozalash 300–400°C da katalizatorsiz, 300 atm bosimida quyidagicha sodir bo‘ladi:




Yuqorida sharoitdagi gidroliz reaksiyasi uchun 15–20% li NaOH suvli eritmasi qo‘llaniladi. Ushbu reaksiya katalizator ishtirokida 350°C va 200 atm bosimida bir necha muhitda sodir bo‘ladi. Jarayon trubkasimon reaktorlarda olib boriladi.

Xlorbenzolni gidroliz jarayonida oraliq mahsulot difenil efiri (difenilosid) hosil bo‘ladi:




Hosil bo‘lgan difenil efiri xlorbenzolga nisbatan olganda 10% ni tashkil qiladi. Agarda xlorbenzolni ishqorming suvli eritmasi bilan gidrolizlash jarayonida reaksiya aralashmasiga 10% dan ortiq difenil efir qo‘silsa, uning ortiqcha miqdori fenolgacha gidrolizlanadi:

NaOH




Shuning uchun suvdan ajratilgan difenil efiri gidrolizga yuborilayotgan xlorbenzolga qo‘siladi.

Fenolni sanoatda ishlab chiqarish quyidagicha sodir bo‘ladi: xlorbenzolda eritilan difenil va ishqorming suvli eritmasi (mol. nisbatda NaOH:C₆H₅Cl=2,25:1 dan 2,5:1) yuqori bosimda ishlaydigan nasoslar yordamida trubkasimon reaktorga yuboriladi. U yerda aralashma 350°C gacha isitiladi. So‘ngra reaktordan chiqayotgan aralashma sovutiladi, drossel ventili yordamida bosimni atmosfera bosimigacha pasaytiriladi va aralashma tarkibidagi difenil efiri suv bug‘lari bilan birlashtiriladi haydaladi. Fenolyat eritmasiga uglerod ikki oksidi yoki xlorid kislota ta’sir ettirish natijasida fenol ajratib olinadi:



Xlorbenzolni bug‘ fazasida katalitik gidrolizlash (Rashing usuli).

Bu usul bilan fenol olish ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda benzolni katalizator ishtirokida vodorod xlorid bilan oksidlanish xlorlash reaksiyasi sodir bo‘ladi:




Xlorlash jarayoni bug' fazasida alyuminiy oksidga shimdirlig'an $\text{Cu}_2\text{C}_2\text{I} + \text{FeCl}_3$ katalizatorlari ishtirokida olib boriladi. Reaktordagi temperatura $235-245^\circ\text{C}$ tashkil qiladi. Benzol, HCl va kislorodning miqdor nisbatlari 10:2:3 tashkil qiladi. Xloridlar aralashmasi tarkibidagi benzol, suv va HCl ni ajratib olingandan so'ng 95-98% xlorbenzol va 2-5% dixlorbenzol olish mumkin.

Ikkinci bosqichda xlorbenzol katalitik gidrolizi (Raling reaksiyasi) sodir bo'ladi:




Katalizator sifatida $\text{Ca}_3(\text{RO}_4)_2$ yoki kalsiy fosfat yoki mis fosfatlar aralashmasi qo'llaniladi. Reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan HCl yana oksidlash xlorlash jarayonida qo'llanilishi mumkin. Rashing usuli bilan 1t fenol olish uchun taxminan 0,998 t benzol va 0,172t vodorod xlorid sarf bo'ladi. Raling usulining kamchiliklari: yuqori temperatura va korroziyaga chidamli qurilmalarni qo'llash.


Nitrillar gidrolizi va eterifikatsiyasi. Karbon kislotalar olishda nitrillar hidrolizi eng keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Nitrillar hidrolizi oraliq amidlar hosil bo'lishi bilan boradi va kislota hamda ishqorlar bilan katalizlanadi. Katalizatorlar reaksiya mahsulotini tuzga bog'laydi, hidrolizni qaytmasligini ta'minlaydi.




Aslida kislotali hidroliz usuli eng qulay hisoblanadi, unda karbon kislota erkin holda olinadi. Bu jarayon suvli muhitda stekiometrik miqdordan kam bo'lgagan kislota ishtirokida $50-80^\circ\text{C}$ quyidagi bosqichlarda sodir bo'ladi:



Reaksiya kuchli ekzotermik bo'lgani sababli, isitilgan sulfat kislota eritmasiga asta-sekinlik bilan nitril solinadi. Reaksiya sovutilgan aralashtirgichli reaktorda olib boriladi. Ushbu usul bilan fenilsirka, malon kislota olinadi. Agarda adipodinitril 1,3-butadiendan yoki akrilonitrildan olsansa, uni hidrolizlash bilan adipin kislota sintez qilish mumkin:



Agarda reaksiya mahsuloti sifatida kislotalar emas, balki ularning murakkab efirlari hosil bo'lsa, unda nitrillar gidrolizini eterifikatsiya jarayoni bilan birgalikda olib borish mumkin. Bu holda jarayon suv va spirt aralashmasida olib boriladi, sulfat kislota gidroliz va eterifikatsiya reaksiyalarida katalizator vazifasini bajaradi:




Yaqin vaqtgacha ushbu usul akrilonitrildan akril kislota efirlari olish uchun qo'llaniladigan eng iqtisodiy tejamli hisoblangan:




Hozirgi vaqtga kelib, bu usul o'z ahamiyatini yo'qotgan, chunki undan ko'ra samarali akril kislota eterifikatsiya usuli paydo bo'ldi.

Dastlab, akril kislota va uning efirlari atsetalgid siangidrinidan olinar edi. Metakril kislota va uning efirlari ham shu usul yordamida olinadi. Buning uchun atseton va sinil kislotasidan atsetonsianogidrin sintez qilinadi:



Oxirgi mahsulot gidrolizlanishi natijasida α -gidroksiizomoy kislota $(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{OH})-\text{COOH}$ hosil bo'ladi, lekin atsetonsianogidrinni 100% li H_2SO_4 natijasida imid, so'ngra uning hidratatsiyalanishi bilan to'yinmagan amid hosil bo'ladi. Metan va suv qo'shilganda eterifikatsiya so'din bo'ladidi, H_2SO_4 katalizator sifatida qo'shiladi:



Oraliq mahsulotlar dimetil efir, α -gidroksiizomoy kislota, oz miqdorda smola va polimerlar hosil bo'ladi.


Yuqoridagi usullarning umumiy kamchiliklaridan biri katta miqdorda sulfat kislotani sarflanishi bo'lib, uni uncha katta ahamiyatga ega bo'lмаган о'гит ко'ринишда чиқидига чиқарish (ammoniy sulfat).

Hozircha atsetonsiangidrindan metilmekrillat olish yuqoridagi usul bilan amaiga oshirilmoqda (26-rasm).

Setonsiangidrin (ATSG) va 100% li sulfat kislota (monogidrat)ni 1,0:1,5 mol nisbatda uzlusiz ravishda 1-arashtirgichga yuboriladi, u yerda imid hosil bo‘ladi. Aralashtirish vaqtida ko‘p miqdorda issiqlik ajralib chiqishi sababli, aralashtirgichga sovutish trubalari va aralashtiruvchi moslama ulanadi, reaksiya jarayoni $80\text{--}85^{\circ}\text{C}$ tashkil qiladi. Reaksiya aralashmasi yon tomondan 2-reaktorga kelib tushadi, u yerda bug‘ bilan isishi natijasida temperatura $130\text{--}135^{\circ}\text{C}$ ortadi. Ushbu sharoitda imid metakrilamid sulfatga aylanadi.

Hosil bo'lgan reaksiya massasini suv va bir qism metanol bilan aralashtiriladi va tarelkali kolonna turidagi qaynatgichli efirizatorga yuboriladi. U yerda metilmekatriliklatni suv bilan azeotrop aralashmasi va ammoniy sulfat eritmasidagi metanol haydaladi va kubdan chiqariladi.

Etanol uchuvchan bo'lgani uchun metanolni bir qismi efirizatorning pastki tarelkalaridan birortasiga kiritiladi, bunda barcha tarelkalarda metanol bo'lishi ta'minlanadi.



26-rasm. Atsetonsiangid rindan metilmekrilat olish texnologik sxemasi: 1-alarashtirgich; 2 – reaktor; 3– efirizator; 4– kondensator- deflegmatorlar; 5 – ekstraktor% 6 – bug’latish kolonnasi;
7,8 – rektifikatsiya kolonnalari; 9,10– issigilik almashtirgich.

Azeotrop aralashma va metanol bug'lari 4-kondensator-deflagmatorda kondensatsiyalanadi, bunda kondensatning bir qismi 3-efirizatorga flegma sifatida qaytariladi, qolgan qismi qayta ishlash uchun yuboriladi.

Qayta ishlashni birinchi bosqichida 5-ekstraktorda kondensatni ishqorli suv bilan yuviladi, u yerda organik qatlardan metanol va kislotali aralashmalar yuviladi (metakril kislota). Ushbu suvli ekstraktning bir qismini 3-efirizatorga yuborishdan oldin metakrilamid sulfatni suyultirish uchun qo'llaniladi, uning qolgan qismini 6-bug'latish kolonnasida haydash bilan metanol va ekstrada metilmetakrilat olinadi, uni reaksiya muhitiga qaytariladi. Kub suyuqligi 8-kolonnaga keladi: yuqorida mahsulot toza metilmetakrilat, kubda esa smola va polimerlar keladi, ular yoqish uchun yuboriladi. Metilmetakrilatni polimerlanishini oldini olish uchun eterifikatsiya va ajratish bosqichlarida ingibitor qo'yiladi (gidroxinon).

Tayanch so'z va iboralar

Galogenlash jarayonlari, radikal-zanjirli xlorthash, suyuq fazada xlorthash, gaz fazada xlorthash, ion-katalitik galogenlash, atsetilen, vinil xlорид, gidrogalogenlash, gidrolizlanish reaksiyalari, fторash, xlorthash, bromlash va yodlash, 1,2-dixloretan, xlorgidrinlar, alkilxlоридлар, xlorgidrinlash, reaktorlar.

Mavzu bo'yicha savollar





1. Gidroliz reaksiyalari.
2. Gidroliz jarayonlarini sinflanishi.
3. Gidroliz jarayoni kimyosi.
4. Gidroliz jarayonining selektivligi.
5. Xlorli birikmalarni ishqoriy degidroxlorlash.
6. Xlorolefinlar olish.
7. Xlorolefinlar olish texnologiyasi.
8. α -oksidlar olish.
9. Spirit ishlab chiqarish.
10. Glitserin ishlab chiqarish texnologiyasi.

Gidratatsiya va degidratatsiya jarayonlari



Gidratatsiya va degidratatsiya usullari bilan ko'p miqdorda turli xil muddalar, ayniqsa, past spirtlar va ko'plab to'yinmagan birikmalar olish mumkin. Ushbu reaksiyalar kislota-katalitik jarayonlar turiga mansub.

Jarayonlar kimyo va texnologiyasi asoslari.


Olefirlarga suvni birikishi doimo Markovnikov qoidasi asosida sodir bo'ladi, buning natijasida etilenden etanol, propilen va n-butendan izopropanol va ikkilamchi butanol, izobutendan esa uchlamchi butanol hosil bo'ladi:



Atsetilen va nitrillardagi uchbog'ga gidratatsiyalanish natijasida karbonil birikmalar-atsetaldegid va amid hosil bo'ladi:




Ko'rsatilgan barcha reaksiyalar qaytar, biroq spirtlardan suvni ajralishi (umuman gidrosibirikmalardan) ikki yo'naliishda borishi mumkin -ichki yoki molekulalararo:




Reaksiya mexanizmi va kinetikasi. Ko'rsatilgan barcha reaksiyalar kislota-katalitik jarayon turiga mansub.

Gidratatsiya jarayonining katalizatorlari sifatida kuchli protonli kislotalar: fosfat kislota (tashuvchida), polivolfrom kislota, sulfokationlar qo'llaniladi. Degidratatsiya jarayonlarida esa fosfat kislota (tashuvchida) alyuminiy oksid, sulfat kislota, fosfatlar (masalan, CdHPO₄) va h.k. katalizator sifatida qo'llaniladi.


Gidratatsiya jarayonlaridagi katalizatorlarni vazifasi oraliq π - va σ -komplekslar hosil qilish orqali olefinlarni proponlashdan iborat bo'lib, unda teskari degidratatsiya reaksiyasi o'sha bosqichlar bilan boradi, lekin qarama-qarshi yo'naliishda:



Molekulalararo degidratatsiyada karbakation protonni ajratmaydi, balki spiri boshqa molekulasi bilan birikadi:



Olefinlar hidratatsiyasi elektrofil mexanizmi yuqorida aytilgan Markovnikov qoidasi bo'yicha birikish yo'nalishini, shuningdek, olefinlarni quyidagi qator bo'yicha reaksiyaga kirishishini aniqlaydi:




Turli sharoit va katalizatorlar uchun olefinlarni reaksiyaga kirishish nisbatlari o'zgaradi, masalan, 80% li sulfat kislota uchun 16000:1000:500:1 va kuchsiz kislotalar uchun o'zgaradi. Bular hidratatsiya sharoitini tanlashda muhim hisoblanadi, ayniqsa, temperaturalar: oxirgisi juda past (muvozanat uchun zamin) bo'lishi mumkin, masalan, izobutene va ayniqsa, etilen uchun propilenga nisbatan olganda.

Hidratatsiya degidratatsiya muvozanati, yuqorida ko'rganimizdek, olefin va spiritning tuzilishiga unchalik bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun olefinlarni hidratatsiyaga kirishish qobiliyati spiritlarni degidratatsiyalanish qatoriga o'xshash bo'lishi kerak:

Uchlamchi>Ikkilamchi>Birlamchi

Ushbu qobiliyat β -keto va β -nitrospiritlarda, ayniqsa kuchayadi, chunki ulardagagi elektroaksetor guruuhlar qo'shni HO-guruqli uglerod atomidagi joylashgan vodorod atomini kislotaligini orttiradi. Buning natijasida nokatalitik degidratatsiyani yoki asoslar bilan boradigan kataliz reaksiyalarini sodir bo'lishi mumkin:



Geterogen -katalitik jarayonlardagi gaz-fazasida boradiganlararo degidratatsiya kinetikasi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$r_{\text{olef}} = \frac{k p_{\text{en}}}{p_{\text{en}} + K_p H_2O}, \quad r_{\text{sp}} = \frac{k (p_{\text{en}}^2 - p_{\text{olef}} p_{\text{H}_2\text{O}} / K_p)}{p_{\text{en}} + K_p p_{\text{H}_2\text{O}}}.$$

Bunda amaliy qaytmas ichki molekulalni degidratatsiya hisobiga katliyor faol markazlarida yaxshi adsorbirlanadigan spirit va suvni to'xtatish xususiyati e'tiborga olinadi.

Olefinlar degidratatsiyasida suv doimo ortiqcha miqdorda olinadi, shuning uchun spiritni reaksiyani to'xtatishi mumkinligini e'tiborga olmasa ham bo'ladi.

$$r_{\text{ROH}} = k \left(p_{\text{olef}} p_{\text{H}_2\text{O}} - \frac{1}{K_p} p_{\text{en}} \right) / p_{\text{H}_2\text{O}} = k \left(p_{\text{olef}} - \frac{1}{K_p} \cdot \frac{p_{\text{en}}}{p_{\text{H}_2\text{O}}} \right)$$

Bir qator hollarda suvning vazifasi ancha murakkab. Binobarin, g'ovakli tashuvchiga kiritilgan fosfor kislota, uning yuzasida yupqa plyonka hosil qiladi, u esa gaz fazasidagi suvni adsorbiraydi. Har bir

temperatura ko'rsatishi va suv bug'larining parsial bosimida gaz fazasida fazalar muvozanati qaror topadi va plynokadagi fosfor kislotasi aniq bir konsentratsiyaga ega bo'ladi, bu esa uning katlitik faolligiga muvofiq bo'ladi.

Gidratatsiya-degidratatsiya katalizida sulfokationitlar yordamida quyidagi kinetik tenglama topilgan:

$$r = \frac{kC_{en}}{1 + K_{en}C_{en} + (K_{H_2O}C_{H_2O})^2} + k'C_{en}$$

Uning birinchi a'zosi kationitni sulfogruppalari bilan katalizga, ikkinchisi esa gidroksoniy ionlar H_3O^+ bilan o'ziga xos katalizga tegishli.

Olefinlar gidratatsiyasi. Olefinlar gidratatsiyasi bilan ko'p mahsulotlar olish mumkin. Masalan, etanol, izopropanol, ikkilamchi butanol, dietil efiri.

Etanol CH_3-CH_2OH suyuqlik bo'lib, $78,3^\circ C$ qaynaydi. Havo bilan 3–20% aralashmasi portlash mumkin. Suv bilan 95,6% etanol azeotrot aralashma qiladi, u $78,1^\circ C$ da qaynaydi.


Etanol ko'p tonnada chiqariladigan keng qo'llaniladigan organik sintez mahsuloti bo'lib, u erituvchi sifatida, ko'p miqdorda oziq-ovqat sanoatida va meditsinada qo'llaniladi. Oraliq mahsulotlar sifatida etanol murakkab efirlar, xloroforli, xloral, dietilefiri, atsetaldegid va sirka kislotasi olishda muhim ahamiyatga ega. Suyuqlik raketa dvigatellarida yoqilg'i, antifriz sifatida ishlatalildi.

Izopropanol $CH_3CH(OH)-CH_3$ – suyuqlik (qaynash temperaturasi $82,5^\circ C$) suv bilan aralashadi. Suv bilan 878% spirit azeopron aralashma hosil qiladi, uning qaynash temperaturasi $80,3^\circ C$. Izopropanol, erituvchi sifatida foydalananiladi. Undan murakkab efirlar, atseton olinadi.

Ikkilamchi butanol $CH_3CH(OH)CH_2CH_3$ ($T_{kay}=99,5^\circ C$) va uchlamchi butanol $(CH_3)_3COH$ ($T_{kay}=82,8^\circ C$) – rangsiz suyuqliklar.


Ikkilamchi butanol suvda chegarali eriydi, uchlamchi butanol esa suv bilan yaxshi aralashadi va 78% spirit bilan azeotrop aralashma hosil qiladi.

To'yinmagan uglevodorodlarni gidratatsiya jarayonlari organik sintez sanoatda keng qo'llaniladi va kislordanli birikmalar olinadi. Bu usul yordamida olefinlardan bir atomli spirtlar, masalan, etilenni gidratatsiyasi natijasida etil spirti olinadi:






Etilenden tashqari barcha olefinlar gidratatsiyada ikkilamchi va uchlamchi spirtlar hosil qiladi, chunki Markovnikov qoidasiga asosan,

vodorod atomi eng gidrogenizlangan uglerod atomiga birikadi, hidroksil esa eng kam hidrogenizlangan:




Olefirlarni sulfat kislota gideratsiya usuli. Ushbu usul eng birinchi va hozirgacha qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda olefinlar sulfat kislota bilan o'zaro ta'sir etib mono-, dialkilsulfatlar (sulfat kislota efirlari) hosil bo'ladi: ikkinchi bosqichda hosil bo'lgan mono- va diaalkilsulfatlar suv ta'sirida giderolizlanadi va bir atomli spirtlar hosil bo'ladi:



Olefirlarni sulfat kislota bilan gideratsiyalashda jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun etilen boshqa gomologlardan yaxshilab tozalangan bo'lishi lozim, chunki ular (boshqa gomologlar) H_2SO_4 ta'sirida polimerlanish va smolasimon birikmalar hosil bo'lishi mumkin. Polimerlanishni oldini olish uchun absorbsiya o'tkaziladi. Bunda 60–98% li sulfat kislota $0+70^\circ\text{C}$ temperatura va $0,2+2$ MPa bosimda sulfat kislota va olefin shunday olinadi, 1 mol H_2SO_4 1,2–1,3 mol olefinni yutishi lozim, bu esa kislota sarfini kamaytiradi.

Etilen va propileni sulfat kislota yordamida absorbsiyalash uchun 2 xil turdag'i apparatdan foydalilanadi (27-rasm). 27-rasmdagi a-turdagi apparat aralashtirgichli gorizontal absorber bo'lib, uning o'qiga ko'plab disklar mahkamlangan. Absorberning ichki tomoniga taxminan $1/3$ qism sulfat kislota solinadi, disklar harakatlanganda tuman hosil bo'ladi, u esa fazalar yuzasida o'zaro muloqot bo'lishini kuchaytiradi. Reaksiya issiqligi suv yordamida sovutiladi. Bu apparat davriy ravishda ishlaydi. Rasmdagi b-turdagi apparat uzuksiz ravishda ishlaydi, u 20–25 tarelkadan iborat kolonnani tashkil qiladi. Har bir tarelkada trubkasimon sovutgich joylashgan bo'lib, undan sovuq suv o'tib turadi, sovuq suv ajralayotgan reaksiya issiqligini pasaytirishiga yordam beradi. Kolonnaning yuqorida tarelkasiiga kerakli konsentratsiyali toza sulfat kislota yuboriladi, kubdan kerakli tarkibdag'i reaksiya massasi ajratiladi. Etilen yoki propilen kolonnaning pastki qismidan suyuqlikka qarama-qarshi yo'nalishda yuboriladi.



27-rasm. Etilen va propilenni sulfat kislota bilan gidratlash qurilmalari: a) diskli aralashtirgichli gorizontal absorber;
b) uzlusiz ravishda ishlaydigan tarelkali-kolonnali absorber.

Birinchi bosqichda olingen reaksiya massasi keyingi sulfonatlar gidrolizi bosqichiga yuboriladi. Suyuqlik suv bilan suyultiriladi va kuchli bug'i bilan isitiladi, so'ngra spirt, oddiy efir va polimerlar tindirish jarayoniga yuboriladi va rektifikasiya yo'li bilan ajratiladi. Bunda 90% li spirt olinadi. Gidrolizdan keyingi sulfat kislotaning konsentratsiyasi 40–50% ni tashkil qiladi. Undan alyuminiy sulfat olinadi yoki uni konsentraltiriladi, so'ngra absorbsiyaga qaytariladi. Sulfat kislota bilan olefinlarni gidratatsiyalash jarayonining asosiy kamchiligidan biri, ishlatilgan kislotani utilizatsiya qilinishidir.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchilik tufayli olefinlarni to'g'ridan-to'g'ri gidratlash usulini yaratishga sabab bo'ldi. Bu usulda kislotali katalizatorlar ishtirokida olefindagi qo'shbog'ga suvni birikishi sodir bo'ladi. Katalizator sifatida qattiq tashuvchiga (silikagel, alyumosilikat) shimdirligilgan fosfat kislotadan foydalaniladi. Etilen gidratatsiyasi 260–300°C 2,5–3,0 MPa bosimda olib boriladi. Bunda olefin konsentratsiyasi 97–99% tashkil qilishi lozim. Reaksiya uzlusiz ravishda ishlaydigan apparatlarda olib boriladi, uni gidratator deyitadi. U diametri 1,5 va balandligi 10 metr bo'lgan po'lat kolonnadan iborat. Fosfat kislota ta'sirida yemirilishni oldini olish uchun jihozning qobig'i va tag tomoni qizil mis bilan qoplanadi. Katalizator reaktorga baland qilib solinadi, olefin va suv bug'i qo'shimcha isitiladi (reaksiya haroratigacha) va apparatning yuqori qismidan yuboriladi, katalizator qatlamidan o'tgandan so'ng, u gidratorning pastidan chiqariladi.


Gidratatsiya jarayonida katalizator tashuvchi sirtidan fosfat

kislötaning doimiy ravishda chiqib ketishi sababli, 400–500 soatdan so‘ng katalizator faolligini yo‘qotadi. Shu sababli, yangi katalizator tayyorlanadi, bunda tashuvchiga 60–65% li fosfat kislota shimdirliladi va u 100°C da quritiladi. Unda 35% erkin fosfat kislota bo‘ladi.

Etanol ishlab chiqarish. Etanolni etilenni to'g'ridan-to'g'rig'dratatsiyalab olish mumkin:



Bu jarayon katalizator va bosim ostida yuqori temperaturada sodir bo'лади. Jarayon yuqori temperaturada sodir bo'lgани sababli energiyani tejash muhim ahamiyatga ega. Etilen gidratatsiyasida suv bug'i va suvdan foydalilaniladi, bunda uch xil jarayon sodir bo'lishi mumkin:



28-rasm. Etanol olish texnologiyasi:

1,2-kompressorlar, 3-trubkasimon pech, 4-issiqlik almashtirgichilar, 5-reaktor, 6-tuzni ajratgich, 7-sovutgich, 8,10-separatorlar, 9-absorber, 11-yengil fraksiyani haydash kolonnasi, 12- etanolni haydash kolonnasi, 13-oqova suvlarni ion-almashtirish usuli bilan tozalash qurilmasi, 14-nasos, 15-drossel ventili, 16-kondensatorlar.

Etanolni olish texnologiyasi 28-rasmida keltirilgan. Xomashyo sifatida tarkibida 47–50% etilen, 50–52% etan va 1% miqdorida aralashmalardan iborat gaz qo'llaniladi. 1-kompressor yordamida gaz 3-reaksiya kolonnasining pastki tomoniga yuboriladi. Gaz mayda barboter orqali o'tib, yuqoriga ko'tariladi.

Har bir tarelkada gaz suyuqlik qatlamida barbaterlanadi, buning natijasida uning kislota bilan uchrashi yuzasi kattalashadi. Reaksiya isiqligini chiqarish uchun har bir tarelkada sovuq suv aylanadigan trubkali sovutgichlar joylashtirilgan. Reaksiya kolonnasidan chiqayotgan gazlar tarkibi 90% etan, 4–6% etilenden iborat bo'lib, suyuqlikning sachrashi natijasida ajraladi.

Kolonnadan chiqayotgan gazlar 8–10 atm bosimigacha drosselланади, 8-nasadkali skrubberdan o'tadi, so'ngra to'liq neytrallash uchun 9-skrubberda 5–10% li natrui ishqori bilan yuviladi.

Neytrallangan gazni pirolizlashga etanni etilengacha degidrirlash uchun yuboriladi. 3-reaksiya kolonnasining past tomonidan etilsulfat kislota dietilsulfat va reaksiyaga kirishmagan sulfat kislota aralashmasi uzlucksiz ravishda oqib chiqadi. Ushbu aralashmani 4-sovutgichda 50°C gache sovutiladi va 6–7 atm bosimgacha drossellangandan so'ng gidroliz jarayoniga yuboriladi.

3-kolonnani nomlanishni oshirish uchun suyuqlikning (ekstragent) bir qismmini oraliq tarelkadan qaytarib olinadi (gazni yo'nalishi bo'yicha sakkizinchisi) va 2-separatorda gazdan ajratilgandan so'ng sulfat kislota bilan birgalikda sirkulatsiya nasosi yordamida kolonnaning yuqori tomoniga yuboriladi. Bu etilenni suyuqlikda erishiga yordam beradi va kolonna bo'ylab temperaturani bir xil bo'lishini ta'minlaydi.

Alkilsulfatlar gidrolizi 5-apparatda sodir bo'ladi. Gidroliz uchun etil spiriti rektifikatsiyasida xosil bo'lgan suvdan foydalaniлади.

Gidroliiz jarayonida, etil spiritidan tashqari oraliq mahsulotlar – dietil efiri, polimerlar va h.k. hosil bo'ladi. Gidrolizga yubarilayotgan suyuqliki drossellashda, shuningdek, gidroliz reaksiyasini issiqligi va sulfat kislotaning suyultirishda ajralayotgan issiqlik hisobiga eritmadan gazlar ajralishi sodir bo'ladi (etilen, etan va h.k.). Ushbu gazlar dietil efiri bug'lari bilan birgalikda gidrolizerning tepe qismidan 8 va – skrubberlarga ular bilan birgalikda kelgan sulfat kislota qoldiqlarini yuvish va neytrallash uchun yuboriladi. Yuvilgan va neytrall gazlar 3-kolonnadan chiqib ketyotgan gazlar bilan birga piroliz sexiga yuboriladi.

Gidrolizerdagи suyuqlikni muntazam ravishda aralashtirib turish uchun 8-skrebbeni past tomonidan chiqayotgan suvnini 6-nasosga vo'naltiriladi. U yerda suv gidrolizerning tepe tomonidagi gidrolizat bilan aralashgan holda gidrolerni pastki qismiga keladi. Gidrolizat sirkulatsiyasi va uning suv bilan jadal aralashishi hisobiga alkilsulfatlarini deyarli to'liq gidrolizlanishi sodir bo'lishiga olib keladi. Gidrolizni 5,5–6 atm bosimda va 92–96°C olib boriladi. Gidrolerning

pastki tomonidan kelayotgan suyuqlik tarkibida etil spirti, suv, sulfat kislota, dietil efiri, shuningdek, gidrolillanmagan etilsulfatlar mavjud. Gidrolizatda erigan, shuningdek, oz miqdorda etilen va etan bo'ladi. Ushbu suyuqlik uzlusiz ravishda gidrolizerning pastidan 7-bug'latish kolonnasining yuqori tarelkalariga oqib keladi. U yerdan etilsulfat kislota va dietilsulfat gidroliz jarayonini nihoyasiga yetkazish uchun bug'latish kolonnasining pastki qismiga yuboriladi. So'ngra, suyuqlikdagi spirt, efir va suv bug'ining bir qismi haydar ajratiladi. Bug'latish 1,4–1,5 atm bosimda 125°C kolonnaning kub qismida va 110°C da yuqori qismida olib boriladi. 7-bug'latish kolonnasining kub qismidan 45–47% li sulfat kislota ajratiladi va smolasimon moddalardan tozalangandan so'ng konsentraltirishga (boyitishga) yuboriladi. Suyultirilgan kislota 90% hosil bo'lguncha bug'latiladi va 96–98% li H_2SO_4 olish uchun oleum qo'shiladi. Ayrim hollarda esa foydalanilgan sulfat kislotani tozalanilgandan so'ng superfosfat, ammoniy sulfat va h.k ishlab chiqarishga yuboriladi.


7-bug'latish kolonnasining yuqori qismidan olinadigan tarkibida suv bug'i, etil spirti, dietil efiri, etilen va etandan iborat bug'-gaz aralashmasi tarelkali 13-neytrallash-bug'latish kolonnasiga keladi. Aralashma keladigan joyida balandroqda kolonnaga 5% li natriy ishqorining suvli eritmasi yuboriladi. Ishqoriy eritmadan o'tayotgan bug'-gaz aralashmasi neytrallanadi va yuqoridagi tarelkalarda tepadan kelayotgan suv bilan yuviladi.

Spirtni haydash uchun 13-kolonna kubiga o'tkir suv bug'i yuboriladi. 13-kolonnaning yuqori qismidan chiqayotgan neytrallangan bug'lar 12-apparatda kondensatsiyalanadi; 14-separatorda kondensat gazlardan ajratiladi, so'ngra 11-skrubberda suv bilan yuviladi va atmosferaga chiqariladi. 14-separatordan kelayotgan spirtning suvli eritmasi 15-sovtgichda sovutiladi va rektifikatsiyaga yuboriladi. Spir mahsulotining taxminiy tarkibi (%).

Etil spirti 25-35; Suv 60-6

Dietil efiri 3-5; Polimerlar 0,05


Atsetilen gidratatsiyasi. Kucherov reaksiyasi bo'yicha atsetilen gidratatsiyasi:



Ushbu reaksiya asosida atsetaldegid uzoq yillar davomida sintez qilingan hozir esa atsetilen etilenden olinadi.


Atsetaldegid uchuvchan suyuqlik ($T_{qay.}=20,8^{\circ}\text{C}$), suv bilan to'fiq aralashadi va havo bilan 4–57% konsentratsiyada portlovchi aralashma

hosil qiladi, pentaeritrit $C(CH_2OH)_4$ va boshqa qimmatli mahsulotlar olish uchun qo'llaniladi. Kislota ishtirokida suyuq siklik trimer, paraldegid hosil qiladi:




Simobli katalizator bilan gidratatsiyalash M.G.Kucherov tomonidan taklif qilingan ushbu reaksiya suyuq fazada tarkibi 10–20% li sulfat kislota, 0,5–0,6% HgO bo‘lgan va eritmada $HgSO_4$ holida bo‘lgan bitikma bilan atsetilenni barbotirlash orqali amalga oshiriladi.

Reaksiya deyarli qaytmash tarzda amalgalashadi va mexanizmi olefinlar hidratatsiya jarayoniga o'xshamaydi. Bunda atsetilen bilan Hg^{2+} kompleks birikma, keyingi bosqichda esa atsetaldegi hosil bo'ladi:




Yuqorida ko'rsatilgan sharoitda atsetilen gidratatsiyasidan tashqari oraliq ikki jarayon sodir bo'ladi—aldegid konsentratsiyasi natijasida kroton aldegid va smolalar hamda atsetaldegid bilan simob tuzlarini qaytarilishi reaksiyasi va ularni nofa'o'l shakiga o'tishi yuz beradi:



Reaksiya muhitida aldegid konsentratsiyasini kamaytirish bilan oraliq mahsulotlar hosil bo'lish reaksiyalarini kamaytirish mumkin.


Simob tuzlarini qaytarilish jarayonini oldini olish uchun amaliyotda yana bir usuldan foydalaniladi. Reaksiya aralashmasiga uch valentli temir tuzlari qo'shiladi, u qaytarilgan simobni oksidlash xususiyatiga ega, natijada ikki valentli holatga o'tadi:



Bu reaksiyada temir tuzlari simobga nisbatan ortiqcha olinadi, shuning uchun katalizator eritmasi uzoq vaqt ishlaydi. Lekin asta-sekin ikki valentli temir tuzlari bilan qoplana boshlaydi, shuning uchun eritma regeneratsiya (qayta tiklanish) jarayoniga yuboriladi. O'tkaziladigan barcha tadbirlarga qaramasdan simob smolasimon moddalar bilan chiqindi holida ajraladi. It atsetaldegidga 1,0–1,5kg simob tuzlari to'g'ri keladi.

Endi suyuq fazadagi atsetilen gidratatsiyasi reaksiya jihozining sxemasi bilan tanishamiz (29-rasm).

29-a-rasmdagi reaktor kislotaga chidamli plitkalar bilan qoplangan bo'sh kolonnadan iborat. Kolonnaning yuqori qismiga nasadka joylashtirilgan. U sachragan eritmani yig'uvchi vazifasini bajaradi. Reaktorga katalizator suyuqligi tuldirlilgan bo'lib, kolonnaning pastki tomonidan atsetilen yuboriladi. Reaktor 90 °Cda avtotermik holda ishlaydi: ajralayotgan issiqlik suvni bug'latish yo'li bilan tashqariga chiqariladi va qaytar sovtgich orqali yana reaktorga qaytariladi. Katalizatorning bir qismi uzlusiz ravishda regeneratsiyaga chiqarib turiladi va tiklangan eritma bilan almashtiriladi. Reaksiya tarmog'idan chiqayotgan gaz aralashmasi tarkibidagi atsetaldegid suv bilan absorberlash orqali ajratiladi, atsetilen esa reaksiya jarayoniga qaytariladi, atsetaldegidning suvli eritmasi rektifikatsiyaga yuboriladi.



29-rasm. Atsetilen gidratatsiya reaksiya jihozining sxemasi:


- simobli katalizator yordamida suyuq fazada boriladigan jarayon;
- simobsiz geterogen katalizator yordamida gaz fazasida sodir bo'ladigan jarayon.

Simobsiz katalizatorlar yordamida gidratatsiya olib borish.


Yuqorida ko'rilgan usulning eng katta kamchiliklaridan biri, katalizator sifatida zaharli va qimmat simob tuzlarini qo'llash hisoblanadi. Shuning uchun uzoq vaqtlar davomida simobsiz katalizatorlar qo'llash ustida ishlar olib borildi va natijada fosfat kislota, magniy, rux, kaliy fosfatlar katalizator vazifasini bajarish mumkinligi aniqlandi. Ushbu katalizatorlarni simob tuzlariga nisbatan faoliigi ancha past bo'lib, ular geterogen katalizatorlariga o'xshab faqat yuqori temperaturada ishlaydi. Ular orasida CdHPO₄, Ca₃(PO₄)₂ aralashmasi amaliyotda o'z o'mini

topdi, chunki u davriy sistemada simob qatorini metallar qatoriga tegishli bo'lib, kislota xususiyatini namoyon qiladi.


Degidratatsiya jarayonlari. To'yinmagan birikmalar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan degidratatsiya. Ilgari bu usul yordamida tegishli spirlardan past olefinlar olinar edi, bunda suyuq fazada 100–160° C sulfat kislota katalizi qo'llanilgan yoki Al₂O₃ katalizatori ishtrokida 350–400° C da gaz fazasidagi jarayon olib borilgan. Kreking va piroliz gazlaridagi S₄-fraksiyalardan izobutenni ajratishda yuqoridagi usuldan foydalaniлади. Unda bu usulning bir bosqichi sulfat kislota yoki sulfokationlar katalizida uchlamchi butanolni degidratatsiyalashdan iborat. Boshqa ko'rinishda esa uchlamchi butanoldan izobuten olinadi:



Bu holatda va degidratatsiya bilan to'yinmagan moddalar olish usulidan sanoatda ko'pchilik monomerlar olishda foydalaniлади. Masalan, metilfenilkarbonolni degidratatsiyalab stirol ishlab chiqarish mumkin:




Izobuten va formaldegiddan izopren sintez qilish usuli diol va to'yinmagan spirlarni degidratatsiyasi bilan bog'liq:




Dioldan suv molekulasi ajralishi natijasida turli xil to'yinmagan spirlar aralashmasi hosil bo'лади, lekin ularning degidratatsiyasi natijasida izopren olinadi, bunda reaksiya qo'sh bog'ni siljishi bilan sodir bo'лади:

To'yinmagan birikmalar olishning yana bir usuli aldol kondensatsiyasi va kyingi degidratatsiya reaksiyalari bilan vinil guruhi kiritishni quyidagi nitroetilen, vinilmetylketon va 2-vinilpiridin olish jarayonlari misolida ko'ramiz:




Degidratatsiya reaksiyalar bilan metakril kislotasi efirlari, ba'zi bir birlamchi spirtlar, masalan, n-butanol:




2-etylgeksanol, metilizobutilketon va ko'pgina boshqa moddalar olish mumkin.

Oddiy efirlar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan degidratatsiya


Xlorli birikmalar gidrolizi va olefinlar hidratatsiyasi jarayonlari bilan oraliq oddiy efirlar hosil bo'lishi haqida yuqorida ko'rsatilgan edi. Bu usul bilan kerakli miqdorda diizopropil efiri olish mumkin. Biroq dietilefiri keng qo'llanilganligi sababli, uni 250°C da geterogen Al_2O_3 katalizatori ishtirokida molekulalararo degidratatsiyalash bilan sintez qilinadi:



Izopropanol va yuqori spirtlardan oddiy efirlar olishda oraliq olefinlar hosil bo'lishi sababli, yuqoridagi usulni qo'llash cheklangan. Shu sababli, ko'pchilik efirlarni suyuq fazada nisbatan past temperaturada kislotali katalizatorlardan-sulfat, fosfat kislotalar, arilsulfokislotasi ishtirokida olib borishadi. Bu usul yordamida asosan, bir xil alkil guruhli simmetrik efirlar sintez qilinadi, ikkita spirt aralashmasini degidratatsiyalashda hosil bo'ladigan aralash efirining uncha ko'p bo'lmaydi:




Uglerod atomlari to'g'ri zanjiridan iborat bo'lgan simmetrik oddiy efirlar orasida β,β' -dixlordietil efiri (xloreks) muhim ahamiyatga ega, chunki u erituvchi, ekstragent sifatida qo'llaniladi polisulfid polimerlari olishda kerakli xomashyo hisoblanadi. Uni olish uchun suvsiz etilenxloridinni kislotali katalizator yordamida degidratatsiyalaniadi:



Kislotali katalizda ikki atomli spirtlar barqaror besh yoki olti halqali birikmalar hosil qiladi: Bu usul bilan dietilenglikoldan dioksan

(1). dietanol amindan— morfolin olinadi (2), 1,4- butandioldan — tetragidrofuran (3) olinadi. Ushbu barcha moddalar (1-3) erituvchi hisoblanadi:




Karbon kislotalar degidratatsiyasi. Bu jarayonda ichki va molekulalararo degidratatsiyalash mahsulotlari keten va sirka angidrid hosil bo'ladi:



Bu reaksiyalar endotermik tarzda sodir bo'ladi, yuqori temperatura ta'sirida muvozanat o'ng tomonga siljyidi: $500-600^{\circ}\text{C}$ da angidrid va 700°C da keten hosil bo'ladi. Keten hosil bo'lishida muvozanatlari aylanishiga past bosim ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkala reaksiya geterogen katalizatorlar ishtirokida sodir bo'ladi (kislotali katalizatorlar: metall boratlari va fosfatlari yoki fosfat kislota bug'lari ta'sirida).

Reaksiya mexanizmi degidratatsiyaning boshqa jarayonlari o'xshash bo'ladi:



Keten o'tkir hidli gaz, 41°C da suyuqlanadi. U sirka kislota bilan reaksiyaga kirishadi va sirka angidridga aylanadi:



Sirka angidrid o'tkir hidli suyuqlik (qaynash temperaturasi 141°C).


Avval sirka angidridi xlorli usulda olingan, bunda sulfuri xloridiga natriy atsetat ta'sir ettirilgan:



Reagentlar sarfi ko'pligi va chiqindi tuzlar hosil bo'lgani sababli, ushbu usul o'z ahamiyatini yo'qtdi.

Sirka angidridini sintez qilishni to'g'ri yo'li mavjud bo'lib, u sirka kislotasini degidratatsiyalash usulidan iborat. Buni ikki yo'l bilan


amalga oshirish mumkin: molekulalararo degidratatsiya yoki oraliq keten hosil bo'lishi orqali. Bu reaksiyalarda oraliq moddalar atseton va metan hosil bo'ladi:



Jarayon texnologiyasi. Degidratatsiya jarayonlari ikki xil asosiy usul orqali sodir bo'ladi: suyuq va gaz fazasida.

Xomashyo yoki hosil bo'ladigan mahsulotlar yuqori temperatura ta'siriga be'qaror bo'lganda suyuq fazasidagi degidratatsiya jarayonidan foydalilanildi. Bu xloreks, dioksan va morfolin sinteziga tegishli, lekin suyuq fazada nitrospirtlar, gidroksialdegidlar va gidroksiketonlar ko'pincha degidratatsiyalanishi va tegishli to'yinmagan moddalar hosil bo'lishi mumkin. Katalizator sifatida sulfat kislota (70% gacha konsentratsiyali) fosfat kislotosi, magniy yoki kalsiy fosfatlar, sulfokationitlar qo'llaniladi. Jarayon 100 dan 160–200 °C, atmosfera bosimida olib boriladi.

Suyuq fazada degidratatsiya jarayonlari olib borishning asosan, ikki xil uzlusiz usuli mayjud (30-rasm, a). Birinchi usulda jarayon uzlusiz ravishda sodir bo'ladi, bunda katalizatorli eritmadan yengil mahsulotlar - to'yinmagan moddalar yoki oddiy efir va suv haydaladi, bu moddalar ko'pincha tez qaynaydigan azeotrop aralashma hosil qiladi.



30-rasm. Suyuq (a) va gaz fazasida (b, v) degidratatsiya jarayonlari olib boradigan reaksiya qurilmalari.

Reaktor bug' bilan isitiladi va apparatga uzlusiz ravishda xomashyo sifatida organik reagent yuboriladi. Reaktorning tepe qismiga qaytar sovtgich ulangan, uning yordamida kondensat qaytishini boshqarish mumkin, bunda katalizator konsentratsiyasi o'zgarmasligi lozim.

Ikkinci usulni qaytmas va tez suv ajralib nitroolefinlar, to'ymagan aldegid va ketonlar hosil bo'ladigan reaksiyalarda qo'llaniladi.

Gaz fazasida degidratatsiyalash jarayoni bilan metilsenilkarbonoldan strol, izopentandiollardan izopren, uchlamchi butanoldan izobuten, etanoldan dietilefiri, 1,4-butandioldan tetragidrofuran, sirka kislotadan yoki keten orqali sirka angidrid va boshqa mahsulotlar olishda qo'llash mumkin. Bunda eng ko'p qo'llaniladigan katalizatorlar sifatida g'ovaksimon tashuvchiga shimdirlig'an fosfat kislotasi, alyuminiy oksidi, kalsiy va magniy fosfatlar qo'llaniladi. Jarayon odatdagi yoki 0,02–1,0 MPa bosim ostida va 225–250 °C dan 700–720 °C haroratda olib boriladi.

Gaz fazasidagi degidratatsiyalash ham, ikki xil usul yordamida olib boriladi. Birinchi usul endotermik jarayon bo'lgani uchun ichki molekular degidratatsiyalash reaksiyalarini orqali amalga oshiriladi. Reaktor sifatida isitiladigan trubkali apparatdan foydalananiladi, trubkalar geterogen katalizator bilan to'ldiriladi (30b-rasm). Bu apparatlar tayyorlashga ko'p metall sarflanganlig'i sababli 30-rasmidagi d turdag'i reaktorlar ishlab chiqildi. Bu reaktorlarga geterogen katalizatorlar to'ldiriladi, ularning yuzasida issiqlik almashinmaydi. Bu apparatlar kuchsiz ekzotermik reaksiyalar olib borish uchun, oddiy efir sintez qilish uchun mo'ljalangan.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Olefinlar gidratatsiyasi.
2. Olefinlarni sulfat kislotali gidratatsiyasi.
3. Olefinlarni to'g'ri gidratatsiyasi.
4. Etanol ishlab chiqarish.
5. Atsetilen gidratatsiyasi.
6. Degidratatsiya jarayonlari.
7. To'ymagan birikmalar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan degidratatsiya.
8. Oddiy efirlar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan degidratatsiya.
9. Karbon kislotalar degidratatsiyasi.

Tayanch so'z va ifodalar

Olefinlar gidratatsiyasi; olefinlarni sulfat kislotali gidratatsiyasi; olefinlar to'g'ri gidratatsiyasi; etanol ishlab chiqarish; atsetilen


gidratatsiyasi; degidratatsiya jarayonlari; to'yinmagan birikmalar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi degidratatsiya, oddiy efirlar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi degidratatsiya, karbon kislotalar degidratatsiyasi.

ETERIFIKATSIYA JARAYONLARI

Murakkab efirlar hosil bo'lishiga olib keluvchi barcha jarayonlarga eterifikatsiya reaksiyalarini deyiladi. Ushbu mavzu bo'yicha kislota, ularning angidridlari va xlorangidridlarini spirtlar va olefinlar bilan reaksiyalarini ko'rib chiqamiz.

Jarayon kimyosi va nazarii asoslari.


Eterifikatsiya reaksiyalarining eng muhimlaridan biri organik va noorganik kislotalarni spirtlar bilan o'zaro ta'siri natijasida murakkab efirlar va suv hosil bo'lishi jarayonlari hisoblanadi.



Ikki asosli kislotalar ishtirokida ikki qator nordon va o'rtacha efirlar hosil bo'ladi, ularning chiqimi ta'sir etayotgan reagentlar nisbatiga bog'liq:



Ikki va ko'p atomli spirtlar uchun to'liq va to'liq bo'lmagan efirlar hosil bo'ladi, bu hol reaksiya reagentlari nisbatiga bog'liq:



Kislota va spirt bifunksional bo'lganda, jarayon yuqori molekulali birikmalar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi, ya'ni poliefirlar hosil bo'ladi:




Yuqoridagi reaksiyalar muvozanatda sodir bo'ladi, qaytar jarayonlarda esa murakkab efirlar gidrolizga uchraydi.


Spirtlarni karbon kislotalar bilan eterifikatsiyasini katalizatorlarsiz olib borish mumkin, lekin bu hol u juda sekin ketadi, reaksiyani yetarli tezlikda olib borishi uchun yuqori temperatura kerak bo'ladi ($200\text{--}300^\circ\text{C}$). Agarda katalizator aralashmasi yomon yuvilsa va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir etganda, nokatalitik jarayon qo'llaniladi.

Kislota katalizatorlari (H_2SO_4 , HCl , ion almashinuvchi smolalar) ishtirokida murakkab efirlar eterifikatsiya va gidroliz jarayolari 70–150°C suyuq fazada olib boriladi. Katalizator sifatida geterogen kislota turidagilari (Al_2O_3 , alyumosilikatlar, fosfatlar) ham qo'llaniladi. Bunda eterifikatsiya jarayoni gaz fazasida olib boriladi, lekin bu usul deyarli kam qo'llaniladi.

Ba'zi hollarda, masalan, ko'mir va fosfat kislota bilan spirtlar asosida murakkab efirlar olishda reaksiya kerakli natija bermaydi, shuning uchun ularning xlorangidridiaridan foydalaniladi:



Karbon kislota xlorangidridlarining narxi ancha qimmat bo'lganligi sababli, ularning o'rniiga kislota angidridlaridan foydalanish mumkin. Ularning spirtlar bilan reaksiyalari ikki bosqichda sodir bo'ladi. Dastlab murakkab efir va kislota hosil bo'ladi va jarayon shu bilan tugaydi. Lekin sharoit o'zgartirilsa, ajralib chiqayotgan kislota bilan spirt eterifikatsiya reaksiyasiga kirishadi, bunda angidriddagi ikkala atsil guruhi ishtirok etadi:





Ozgina qizdirishi natijasida birinchi bosqich boshlanadi va kuchli mineral kislotalar ta'sirida tezlashadi. Ikkinci bosqich ham erkin kislotalar ishtirokidagi eterifikatsiyaga o'xshaydi va u ham kislotali katalizatorlarni talab etadi.

Kislota angidridlari ishtirokida eterifikatsiya kislotaga nisbatan ancha qimmat bo'lganligi sababli, kam qo'llaniladi.

Yuqorida ko'tib chiqilgan eterifikatsiya agentlaridan eng faoli xlorangidridlar, pasti angidridlar va eng pasti karbon kislotalar hisoblanadi:



Qo'shilayotgan sinf reaksiyalariga murakkab efirlar alkagolizi (1) va atsidolizi (2) va pereeterifikatsiya (3) jarayonlari kiradi.




Ulardan eng ahamiyatlisi murakkab efirlar alkagolizm hisoblanadi. Alkagoliz, atsidoliz va pereeterifikatsiya jarayonlar karbon kislotalar eterifikatsiyasi kabi kuchli kislotalar katalizatorligida sodir bo'ladi.

Oxirigi vaqtarda karbon kislotalarni olefinlar bilan to'g'ri eterifikatsiyasi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu jarayonda

olefinlarni spirtlarga hidratatsiya bosqichi sodir bo'lmaydi, reaksiya kislota turidagi katalizatorlar ishtirokida tezlashadi:



Reaksiya mexanizmi va kinetikasi. Ko'p hollarda eterifikatsiya reaksiyasi biomolekulalı mexanizm asosida atsil-kislorod bug'ni uzilishi bilan ro'y beradi, qachonki protonlangan kislota spirt molekulasiga hujum eng sekin bosqich bo'lsagina:



Barcha bosqichlar muvozanatlari va ularni teskari ketma-ketligi murakkab efirni gidroliziga (yoki alkagolizga, agar suv o'rniga spirt olinsa)olib keladi. Ushbu mexanizmga quyidagi kinetik tenglama mos keladi:

$$r = k_1 [\text{H}^+] \{[\text{RCOOH}] [\text{R}'\text{OH}] - [\text{RCOOR}'] [\text{H}_2\text{O}]\}/K$$

Bu yerda, k_1 -to'g'ri reaksiyaning tezlik konstantasi; K—muvozanat konstantasi.

Amaliy sharoitda aralashmadagi uchuvchan reaksiya mahsulotlari (suv yoki efir) ajratilsa, uning konsentratsiyasi kamayadi, uni massa almashinish kinetikasini hisobga olgan holda topish mumkin. Nokatalitik eterifikatsiyada kislota bo'yicha to'g'ri reaksiya tartibi turli ma'lumotlarga asosan 1,5–2 gacha ortadi, buni kislotali katalizi ro'y beradi, deb tushuntirish mumkin. Unda quyidagi kinetik tenglma mos keladi:

$$r = k_1 [\text{RCOOH}]^{0.5+1} \{[\text{RCOOH}] [\text{R}'\text{OH}] - [\text{RCOOR}'] [\text{H}_2\text{O}]\}/K.$$


Kislotali katalizda spirlarni angidridlar bilan eterifikatsiya mexanizmi yuqorida ko'rilinga o'xshash bo'ladi. Jarayon aniq ikki bosqichga bo'linadi: spirtni angidrid bilan tez reaksiyasi. U quyidagi kinetik tenglma orqali ifodalanadi:

$$r = k_1 [\text{H}^+] [(\text{RCO})_2\text{O}] [\text{R}'\text{OH}]$$

Va sekin eterifikatsiya, karbon kislota tomonidan sodir bo'ladi, uning uchun yuqoridagi birinchi tenglma mos keladi.

Xlorangidridlar bilan eterifikatsiyada kislotali kataliz ro'y bermaydi yoki kuchsiz ko'rinishda bo'ladi.


Reaksiyaning biomolekular mexanizmiga




Ikkinci tartibli kinetik tenglama mos keladi:

$$r = k[\text{RCOCl}] [\text{R}'\text{OH}]$$

Karbon kislota va olefinlar asosida murakkab efirlar sintez qilish mumkin. Reaksiya ekzotermik va qaytar tarzda sodir bo'ladi:



Olefinlarni reaksiyaga kirishish qobiliyatini quyidagi qatorga qo'yish mumkin:




Karbon kislotalar efirlarini sintez qilish texnologiyasi. Olingan mahsulotlar.


Karbon kislotalar murakkab efirlari muhim amaliy ahamiyatga ega, ular erituvchi, gidravlik suyuqlik, moylovchi moylar, plastifikator va monomerlar sifatida qo'llaniladi.

Sirka kislota va past spirtlar asosida olingan murakkab efirlar ancha arzon bo'lganligi sababli erituvchi sifatida qo'llaniladi. Ushbu barcha efirlar rangsiz bo'lib, ular suvda yomon eriydi. ular yonish va portlash xususiyatiga ega.






Etilatsetat $\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$ ($T_{qayn} = 77,1^\circ\text{C}$). Uni etanolni sirka kislota bilan eterifikatsiyalab olinadi:



Sanoatda Tishenko reaksiyasi asosida, ya'ni alyuminiy alkogolyat ishtirokida atsetaldegiddan etilatsetat olinadi:




Bir atomli spirtlar-etanol gomologlari bilan sirka kislota asosida olingan murakkab efirlar orasida eng muhimini quyidagilar hisoblanadi:



($T_{\text{qayn.}} = 112,4^{\circ}\text{C}$)

$\text{CH}_3\text{COOC}_5\text{H}_{11}$ - pentilatsetat

Izopropil va ikkilamchi butilatsetat olish uchun propil yoki n-butenni sirkasi kislota bilan eterifikatsiyalanadi:




Ko'p atomli spirtlar-etilenglikol va glitserin bilan sirkasi kislota asosida ham murakkab efirlar olish mumkin, ularni erituvgchi sifatida qo'llaniladi:

$\text{CH}_3\text{COO}-\text{CH}_2\text{OH}$	$\begin{matrix} \text{CH}_2-\text{OCO}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{CH}_2-\text{OCO}-\text{CH}_3 \end{matrix}$	$\begin{matrix} \text{CH}_2-\text{OCO}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{CH}_2-\text{OCO}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{CH}_2-\text{OCO}-\text{CH}_3 \end{matrix}$
Etilentikol monoatsetat	Etilentikol diatsetat	Glitserin triatsetat (triatsetat)

Ftal angidridi va $\text{C}_4\text{-C}_8$ spirtlar asosida olingan murakkab efirlar plastifikator sifatida muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, izooktanol va 2-etylgeksanoldan sintez qilinganlari:



Ko'pincha murakkab efirli plastifikatorlar tarkibi jihatidan murakkab efirli surkov moylariga o'xshaydi. Bunday plastifikatorlarga misol qilib, ikki asosli alifatik kislotalarni (adipin, metiladipin, sebatsin kislotalari) yuqori bir atomli spirtlar (n-oktanol, izooktanol, 2-etylgeksanol, izononal, izodekanol, butilsellozol) bilan efirlarni olish mumkin. Ular kislotali katalizatorlar ishtirokida spirtlarni kislotalar bilan eterifikatsiyalash orqali olinadi:




Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi. Murakkab efirlar olish jarayonini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1) Katalizatorsiz suyuq fazada boruvchi yoki gomogen katalitik jarayonlar, bunda kimyoviy reaksiya ajratish jarayoni bilan birlgilikda olib boriladi; 2) Suyuq yoki gaz fazasida boruvchi geterogen katalitik reaksiyalar ajratish jarayonisiz alohida apparatlarda olib boriladi.

Birinchi turdag'i jarayonlar eterifikatsiya texnologiyasida keng tarqalgan. Etilatsetat olish uzlusiz texnologik sxemasi bilan tanishamiz (31-rasm).

1-bakdan sirkasi kislota, etanol katalizator sulfat kislotadan iborat reagentlar aralashmasi 2-isitgichda isigandan so'ng 4-eferizatorning tepe

qismiga yuboriladi. Kolonnani bug' bilan isitish natijasida hosil bo'lgan etilatsetat spirt va suv bug'ları bilan birqalikda kolonnadan haydaladi, tarelkalardan pastga harakat qilayotgan suyuqlik esa suv bilan to'yinadi. Reaksiya massasini efirizatorda bo'lish vaqtini va xomashyo reagentlar shunday nisbatda olish kerakki, bunda kub suyuqligi tarkibida oz miqdorda reaksiyaga kirishmagan sırka kislota (H_2SO_4 ham) bo'lishi kerak. Bu suyuqliknı kubdan tashqariga chiqariladi va neyrallangandan so'ng kanalizatsiyaga yuboriladi.



31-rasm. Uzlukszus usul bilan etilatsetat olish texnologiyasi:

1-bak; 2-issiqlik almashtirgich; 3-kondensator; 4-efirizator;
5,10-rektifikatsiya kolonnları; 6,9-kondensator-deflegmatorlar;
7-alarashtirgich; 8-separator; 11-sovutgich; 12-yig'gich; 13-qaynatgich.


Reaktorning tepe tomonidan chiqayotgan gazlar tarkibida 70% spirt va 20% efirdan iborat. Bu gazlar sovutish va kondensatsiyalanish uchun dastlab 2-issiqlik-almashtirgichga keladi, u yerda isigandan so'ng 3-kondensatga yuboriladi, 2-apparatdagagi kondensat va 3-apparatdagagi kondensatning bir qismini 4-reaktorning tepe tomoniga yuboriladi. Qolgan qismi 5-rektifikatsiya kolonnasiga keladi, u yerda azeotrop aralashma suvli spirtdan ajratiladi. 5-kolonna kubi 13-qaynatgich yordamida isitiladi, 6-apparatda esa flegma hosil qilinadi, uning bir qismi sug'orish uchun ishlataladi. 5-kolonna suyuqligi spirtdan va suvdan iborat. U kolonnadan chiqariladi va 4-eterizatorning pastki tarelkalariga kelib tushadi, shu bilan kolonnaning pastki qismi kerakli miqdordagi spirt bilan ta'minlanadi. 5-kolonnadan keladigan bug'lar 6-apparatda kondensatsiyalanadi, hosil bo'lgan kondensatning bir qismi u

yerdan sug'orishga, qolgan qismi esa 7-alarashtirgichga keladi va teng miqdordagi suv bilan aralashdiriladi.

Hosil bo'lgan emulsiya 8-seperatorda ajratiladi, ikkita qatlam hosil bo'ladi, yuqori qismi efir va unda erigan spirt, suvdan iborat, pastki qismi esa spirt va esfirning suvli eritmasidan iborat. Pastki qismini 5-kolonnaning o'rta tomonidagi tarelkalariga yuboriladi. 8-seperatordagi esfiri suv va spirtdan tozalash uchun yuboriladi. Bu jarayon 10-rektifikatsiya kolonnasida olib boriladi, bunda efir, spirt va suvdan iborat azeotrop aralashma bir-biridan haydash orqali ajratiladi. Aralashmaning bir qismi 9-kondensatordan o'tgandan so'ng 10-kolonnani sug'orish uchun yuboriladi, qolgan qismi esa 7-alarashtirgichga qaytariladi. Etilatsetatni 10-kolonna kubidan sovitish uchun 11-suvutgichga yuboriladi, u yerdan esa 12-yig'gichda yig'iladi.

Geterogen kataliz bilan eterifikatsiyalash. Proton kislotalar ishtirokida eterifikatsiyalash jarayonida albatta, mahsulotni neytrallash bosqichini amalga oshirish lozim. Bunda ko'pincha esfir kub kolonnada qoladi. Kislota neytrallangandan so'ng esfiri yuvish jarayoni sodir bo'ladi. Bu jarayonlar ko'p miqdordagi reagentlarni sarflashga, oqova suvlarni hosil bo'lishiga olib keladi Shuning uchun oxirgi yillarda eterifikatsiya jarayonini geterogen kataliz usuli bilan amalga oshirilmoqda, katalizator sifatida sulfokationitlardan foydalaniylmoqda, reaksiya $150\text{--}160^{\circ}\text{C}$ temperaturada olib boriladi.

Sulfokationitlar ishtirokida eterifikatsiya jarayoni katalizator qatlamlili kolonna turidagi reaktorlarda olib boriladi. Reaksiya suyuq fazada ortiqcha miqdorda olingan spirt muhitida sodir bo'ladi.




32-rasm. Sulfokationitlar ishtirokida sodir bo'ladigan eterifikatsiya jarayonining texnologik sxemasi: 1-reaktor;
2- ekstraksiya kolonnasi; 3-spirtni rekuperatsiyalash kolonnasi;
4-kondensator; 5-qaynatgich.

32-rasmida nasadkali adiabatik reaktor, ekstraksiya kolonnasi, bug'latish kolonnasidan iborat eterifikatsiya qurilmasi ifodalangan. Ushbu qurilmada olingen efir ekstraksiya kolonnasining yuqori qismidan rektifikasiya jarayoniga yuboriladi.

Sulfokationitlar ishtirokida olefinlardan ham murakkab efirlar olish mumkin. Masalan, 110–120 °C temperatura va 1,5–2,0 MPa bosim ostida n-buten va sirkə kislotadan ikkilamchi butilakrilat olish mumkin.

Xlorangidridlardan efirlar olish. Xlorangidridlardan karbon kisloata efirlari olish juda kam qo'llaniladi, chunki ular juda qimmat moddalar hisoblanadi. Bundan farqli ravishda ko'mir kislota efirlari (karbonatlar) va fosfat kislota efirlari asosan xlorangidridlar asosida sintez qilinadi, chunki tegishli kislota eterifikatsiya reaksiyasiga kirishmaydi.


Xlorkarbonatlar va karbonatlar sintezi. Ushbu efirlari fosgendifdan COCl_2 olinadi, u ko'mir kislota xlorangidridi hisoblanadi (oddiy sharoitda u gaz, +8 °C suyuqlikka aylanadi). Katalizator ishtirok etmaganda, xlor atomini alkoxsi-guruhiiga almashinishi bilan reaksiya sodir bo'ladi. Unda ikkala xlor atomi ham almashinish xususiyatiga ega, lekin ularning birinchisi tez, ikkinchisi esa undan sekinroq almashinadi. Bu esa ancha temperatura va reagentlarni 1:1 nisbatida xlor ko'mir kislota efirini yuqori chiqim bilan olish imkonini berdi, ularni boshqa klassifikatsiya bo'yicha xlormformatlar deyiladi, ya'ni xlormumoli kislota efirlari:



Xlorkarbonatlari yuqori chiqim bilan hosil bo'lishiga temperatura va reagentlar nisbatidan tashqari reagentlarni qanday tartibda solish ham ta'sir ko'rsatadi: bunda ortiqcha olingen fosgenga spirit qo'shiladi. Shunday qilib, davriy ravishda olingen sharoitda xlorkarbonatlar sintezini sovutish ($=0^\circ\text{C}$) va aralashtirish bilan, asta-sekin suyuq fosgenga kerakli miqdordagi spirit qo'shish bilan olib borish lozim. Hosil bo'lgan mahsulotni haydash bilan ajratiladi va ajralgan HCl fosgendifdan tozalanadi va xlorid kislota holida qayta ishlashga yuboriladi.

Xlorkarbonatlar pestitsidlar-karbamin kislota efirlari (karbamatlar) RNHCOOR ishlab chiqarishda katta amaliy ahamiyatga ega.


Ko'mir kislota diefirlari (karbonatlar)sintezi 70–100 °C fosgen va ortiqcha olingen muhitida ro'y beradi:



Natijada oraliq reaksiya sodir bo'ladi, ya'ni spirit va HCl dan xloralkan hosil bo'ladi. Agar uning o'mni muhim bo'lsa, unda hosil

bo'lgan HCl ni quruq soda, kalsiy karbonat yoki uchlamchi amin bilan bog'lash mumkin.

Fenol efirlari olishda reaksiyani fenolyatlarni suvli eritmalarida o'tkaziladi:



Ushbu holda fosgenning oraliq gidrotizini oldini olish uchun jarayonni fenolyatning konsentrlangan eritmasida va erkin fenol ishtirokida olib boriladi (gidroksil ionlari konsentratsiyasini kamaytirish uchun).

Tayanch so'z va iboralar


Olefinlardan efirlar olish, karbon kislotalar efirlari, sintez, murakkab efirlar, eterifikatsiya reaksiyalari, angidridlar, xlorangidridlar, olefinlar, katalizatorsiz suyuq fazada boruvchi, gomogen katalitik jarayonlar, suyuq yoki gaz fazasida boruvchi geterogen katalitik reaksiyalari, proton kislotalar ishtirokida eterifikatsiyalash, sulfokationitlar ishtirokidagi sodir bo'ladigan eterifikatsiya.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Eterifikatsiya jarayoni haqida tushuncha.
2. Olefinlardan alkil-kislorod bog'i orqali efir olish reaksiyalari.
3. Kabon kislota efirlari sintez qilish.
4. Glitserin va etilenglikol asosida olinadigan murakkab efirlar.
5. Bir atomli spiritilar va sirka kislovasti asosiida olinadigan murakkab efirlar.
6. Murakkab efirlar olish texnologiyasini necha guruhga ajratish mumkin?
7. Etillatsetat olish texnologiyasi.
8. Geterogen kataliz bilan sodir bo'ladigan eterifikatsiyalash.

IV bob. ALKILLASH JARAYONLARI


Alkillash jarayoni tavsifi. Organik va ayrim noorganik moddalar molekulałari tarkibiga alkil guruhini kirish jarayoni alkillash deb ataladi. Amalda alkillash olefin uglevodorodini parafin uglevodorodlari bilan bog'lanish jarayonidir, masalan,



Ushbu reaksiyalar organik sintez sanoatida amaliy ahamiyatga egadir. Monomerlar, yuvish vositalari va boshqa shu kabi moddalar ishlab chiqarishda alkillash jarayonlari oraliq bosqich hisoblanadi. Alkillash mahsulotlarini ishlab chiqarish yildan-yilga oshib borayapti. Jumladan, AQSh da bir yilda 4 mln. tonnadan ortiq etilbenzol, 1,6 mln. tonna izopropilbenzol, 0,4 mln. tonna yuqori molekulalı alkilbenzollar, 4 mln. tonna glikol va boshqa moddalar olinayapti. Buning uchun yiliga 30 mln. tonna izoparafin alkilati, 1 mln. tonna tret-butilen efiri qayta ishlanmoqda.

Alkillash jarayoni nazariy asoslari. Aromatik uglevodorodlarni alkillash-murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u bir qator o'zarlo bir-biri bilan bog'liq reaksiyalardan: alkillash, izomerlanish, disproportsiyonalish, polimerlanish va h.k. tashkil topgan. Shu sababli, barcha oraliq reaksiyalarni e'tiborga olgan holda alkillash jarayoni muvozanatini hisoblash ancha murakkab masala hisoblanadi.


Alkillash jarayoni katalizatorlari sifatida protonli va aprotontli kislotalardan foydalilanildi. Benzolni olefin va spirtlar bilan alkilashda proton kislotalari keng qo'llaniladi, jumladan, ularning faoliygini quyidagi qator bo'yicha ko'rish mumkin: $HF > H_2SO_4 > H_3PO_4$ Benzolni alkillash katalizatori sifatida qo'llaniladigan Lyuis kislotalari faoliyk bo'yicha quyidagi qatorni tashkil qiladi:



Katalizatorlar faoliyi, selektivligi va barqarorligi quyidagi omillar: temperatura, bosim, alkilovchi agentlar tabiatи va strukturasi bilan bog'liq. Alkillashda qattiq va suyuq katalizatorlardan foydalilanildi. Qattiq geterogen katalizatorlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir, chunki bu holda reaksiya mahsulotlarini katalitik sistemalardan ajratish osonlashadi, natijada xomashyonи tayyorlashga, reaksiya massasini


yuvish va neytrallash, tozalash, oqova suvlarni neytralshga ketgan sarf-xarajatlar kamayadi.

Oxirgi vaqtarda benzolni olefin va spirtlar bilan alkillash uchun sintetik seolitlar keng qo'llanilmogda, ularning umumiy formulasasi:



bu yerda, M—metall; n—oksidlanish darajasi; x—Al—atomlari soni; u—Si—atomlari soni; Z—suv molekulalari soni.

Geterogen katalizatorlar ishtirokida eilbenzolni propilen bilan alkillash uchun quyidagi geterogen katalizatorlar qo'llaniladi: metall oksidlari va tuzlar asosidagi fosfor-kislotali katalizatorlar, VF₃ bilan modifikasiyalangan oksidlar, amorf alyumosilikatlar, seolitlar va kationitli katalizatorlar qo'llaniladi. Qattiq katalizatorlar qo'llash texnologik sxemani soddalashtiradi, jarayonni avtomatlashtirish imkonini yaratadi, jihozlarni korroziyanish muammosini hal qiladi, reaksiya mahsulotlarini ajratishni osonlashtiradi. Ushbu katalizatorlarni regeneratsiyalash (qayta tiklash) va ulardan ko'p marta foydalanish mumkin. Endi seolitli va kationitli katalizatorlar ishtirokida alkillash texnologiyasi bilan tanishamiz.



33-rasm. Seolitli katalizatorlar ishtirokida benzolni alkillash bilan izopropilbenzol olish texnologik sxemasi: 1-alkillash reaktori; 2-perealkillash reaktori; 3-depropanizator; 4,5-rektifikatsiya kolonnaları; 6-isitgich; 7-sovtugich; 8-issiqlik almashtirgich; I-propan-propilen fraksiyasi; II-benzol; III-diizopropilbenzol; IV-kumol; V-poliiizopropil-benzollar; VI-propan.

Katalizatorlar sifatida seolitlar ishlataliganda oddiy adiabat reaktorlardan foydalaniлади. Jarayon issiqlik ajralishi bilan sodir bo'lgani sababli, reaksiyani tezligi va temperaturasiga ta'sir etadi.

Reaktor ishini boshqarishdagi asosiy ko'rsatkich selektivlik hisoblanadi, shuni aytish lozimki, o'rtacha o'zgarmas temperaturada kumol (izopropilbenzol) bo'yicha selektivlik benzol: propilen nisbatlarini ko'payishi bilan kontakt vaqtiga bog'liq bo'lmasan holda ortadi. Temperatura ta'siri esa ancha murakkab, chunki reaksiya hajmining katta qismida qaytar va ekzotermik reaksiya sodir bo'ladi, ya'ni temperatura pasayishi bilan selektivlik ortadi.


Benzolni seolitli katalizatorlar ishtirokida alkillash bilan izopropilbenzol olish texnologik sxemasi 33-rasmda ifodalangan.

Ushbu sxemada 1-reaktor alkilator vazifasini bajarada, 2-reaktorda alkillashni keyingi bosqichi va katalizatorni regeneratsiyasi olib boriladi. Alkillashda suyuq xomashyoni yuqori tezlikda yuborish (15–25soat¹) benzol va propilenni (7–8):1 mol nisbatida reaktorga kirish lozim, bunda temperatura 210–215°C va reaktordan chiqish temperaturasi 250–255 °C bo'lishi lozim.


Alkillash mahsulotlarini 2-reaktorga yuborishdan avval 7-sovutgichda 220°C gacha sovutiladi. Bunda katalizatordan foydalansilmaydi, chunki propilen bilan o'zaro ta'sirlashmaydi. So'ngra ularni 3-depronizatorga propan-propilen fraksiyasidagi propandan ajratish uchun yuboriladi. 3-apparatdag'i kub mahsuloti tarkibidagi reaksiyaga kirishmagan benzolni ajratish uchun 4-kolonnaga yuboriladi. 4-kolonnaning kub qoldig'i 5-kolonnaga yuboriladi, u yerda asosiy mahsulot kumol (izopropilbenzol), oraliq mahsulot diizopropilbenzol ajratiladi va 1-reaktorga qaytariladi. 5-kolonnadan kub qoldig'i sifatida polikilbenzo'llar chiqariladi.

Alkillash reaksiyalarini sinflanishi. Alkillash jarayonlarini sinflanishi yangi hosil bo'layotgan bog' turiga asoslangan. Alkillash reaksiyalari quyidagi guruhlarga bo'linadi: uglerod atomi bo'yicha alkillash; kislorod va oltingugurt atomlari bo'yicha alkillash; azot atomi bo'yicha alkillash; boshqa elementlar atomlari bo'yicha alkillash.


Uglerod atomi bo'yicha alkillash. Uglerod atomi bo'yicha alkillash jarayoni ugleroddagi vodorod atomini alkil guruhiha almashinishi hisobidan sodir bo'ladi. Bunday almashinish reaksiyalariga ko'proq parafin uglevodorodlari uchraydi. Ammo aromatik uglevodorodlar ham shunday alkillanadi, masalan, Fridel-Krafts reaksiysi:




Boshqa element atomlari bo'yicha alkillash. Bu reaksiyalar element va metallorganik birikmalar olishda qo'llaniladi, bunda alkil guruhi geteroatom bilan bog'lanadi:




Sikloalkillash reaksiyaları quyidagicha sodir bo'ladi:





Fenil yoki aril guruhi kiritilganda aromatik yadrodagı uglerod atomi bilan bog'lanish hosil bo'ladi, bu reaksiyani alkillash deyiladi.




Vinil guruhi kiritish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu reaksiya asosan atsetilen yordamida amalga oshiriladi:



Va niyoyat alkil guruhlari tarkibida turli o'rinnbosarlar bo'lishi mumkin, masalan xlor, gidroksi-, karboksi, sulfokislota guruhlari:



Ushbu reaksiyalar orasida eng muhimi β -oksialkillash jarayoni hisoblanadi (oksietyllesh ham deyiladi):




Kislorod, oltингugurt va azot atomlari bo'yicha alkillash. O, S va N atomlari bo'yicha alkillash jarayoni merkaptan va aminlarni sintez qilishda asosiy usullardan biri hisoblanadi. O-alkillash jarayonlaridan amaliyotda qo'llaniladiganlar ikkita: 1) spirit va fenollarni xlorli birikmalar bilan alkillash, 2) spiritlarni olefinlar bilan alkillash.

Xlorli birikmalar bilan O-alkillash. Xlorli birikmalarni spiritlar bilan o'zaro ta'siri qaytar va sekin jarayon hisoblanadi, shuning uchun bu reaksiyani ishqorlar yordamida olib boriladi, bunda spirit va fenollar reaksiyaga kirishish qobiliyati kuchaygan alkogolyat yoki fenollarga aylanadi:



Kislotad atomi bo'yicha aikimash oddiy etir bog'i dirikmalar olishda muhim ahamiyatga ega, masalan, sirkal kislota xlor fenoksi tuzlari olishda, ular gerbetsid sifatida qo'llaniladi. Ular tegishli fenollarga monoxloratsetat natriy ta'sir ettirib olinadi. 2,4-dixlorfenoksirsika kislota (2,4D preparati) muhim ahamiyatga ega:




xuddi shunday reaksiyalardan xlorbenzolni arillash jarayoni $200\text{--}250^\circ\text{C}$ da mis yoki mis tuzlari katalizatorlari ishtirokida sodir bo'ladi:




Ushbu usul bilan difenil efiri ($\text{C}_6\text{H}_5)_2\text{O}$, shuningdek, polifenil efiri $\text{C}_6\text{H}_5(\text{OC}_6\text{H}_4)_n\text{H}$ olinadi.

Olefinlar bilan o-alkillash. Bunday alkillash usuli bilan uchlamchi butilmelit efirlari-motor yoqilg'ilarining yuqori oktanli komponentini sintez qilish mumkin. Uni metanol va izobutendan kislotali kataliz reaksiysi yordamida olinadi:



Reaksiya natijasida issiqlik ajraladi, bosim ortishi va temperatura pasayishi bilan muvozana o'ng tomoniga shijyoti. Eng samarali katalizator sifatida kation almashinuvchi smolalar $50\text{--}100^\circ\text{C}$ qo'llaniladi. Uchlamchi butilmelit efirini olishni texnologik sxemasi bilan tanishamiz (34 rasm).


Buten fraksiyasi (1,3-butadiendan tozalangan), toza metanol 1,2 reaktorlarga yuboriladi. Birinchi reaktorga qo'zg'aluvchan qatlamlili katalizator (kationt) solinadi, reaktor suv bilan sovutiladi, ikkinchi reaktor qo'zg'almas qatlamlili katalizator bilan to'ldiriladi va u sovutilmaydi. Reaksiya massasi 3-rektifikatsiya kolonnasiga keladi, u yerda yengil fraksiya og'iridan ajratiladi (S_4 uglevodorodlar, uchlamchi butilmelitefir, metanol).



34-rasm. Uchlamchi butilmetyl efir ishlab chiqarishni texnologik sxemasi: 1,2- reaktorlar; 3- birlamchi ajratish kolonnasi; 4- deflegmatorlar; 5- qaynatgichlar; 6- drossel klapansi; 7,11- rektifikatsiya kolonnalar; 8- nasoslar; 9- ekstraksiya kolonnasi; 10- issiqlik almashtirgich.

Uchlamchi-butilmetyl efir 7-rektifikatsiya kolonnasiga keladi, kolonnaning yuqori qismidan esa metanol reaksiyaga qaytadan yuboriladi. 3-kolonna kelayotgan yengil fraksiya 9-ekstraksiya kolonnasida suv bilan yuviladi, natijada C₄ uglevodoroddardan metanol qoldiqlari ajratiladi, 9-kolonna pastidan metanol ekstrakti 10-issiqlik almashtirgichda isitiladi va 11-kolonnada undagi metanol haydab olinadi va sintez jarayoniga yuboriladi. 11-kolonnaning pastidan kelayotgan suv 10-apparatda sovutiladi. Sintez jarayonida metanol izobutenga nisbatan ortiqcha miqdorda olinadi.


Oltinugurt atomi bo'yicha alkillash. Xlorli birikmalar bilan S-alkillash. Xlorli birikmalar natriy gidrosulfid NaSH bilan birikishi natijasida merkaptanlar hosil bo'ladi:




Reaksiya gidroliz jarayoniga o'xshaydi va qaytmash tarzda sodir bo'ladi. Gomogen muhitda olib borish uchun reaksiya ikkala reagent eriydigan metanol, metanol yoki spirtning suvdagi eritmasida olib boriladi. Jarayon 60–160 °C temperaturada olib boriladi, bunda ba'zi hollarda bosimni ko'tarish talab qilinadi, chunki reaksiya massasi suyuq holda bo'lishi talab qilinadi. Reaksiya davriy ravishda aralashtirgichli

avtoklavlarda olib boriladi. Ba'zi hollada esa jarayon NaHS ning suvli eritmasi bilan geterofazada olib boriladi.


Etilmerkaptan etilxloriddan olinadi:




Pentilmerkaptanlar esa xlorpentanlardan olinadi:



Yuqori birlamchi merkaptanlar ($\text{C}_{10}-\text{C}_{15}$) oraliq mahsulot sifatida etilenoksid asosida noionogen yuvish moddalari olishda, shuningdek, sintetik kauchuklar ishlab chiqarishda polimerlanish reaksiyaları regulatorlari sifatida ishlataladi. Ularni tegishli karbon kislotalarni gidrirlash natijasida hosil bo'ladigan birlamchi spirtlardan olinadi. Spirtdan xlorli birikma, so'ngra merkaptanlar olinadi:



Olefinlar va vodorod sulfid asosida merkaptanlar olish. Bu jarayon olefinlarni to'g'ri gidratatsiyalash reaksiyasiga o'xshash bo'lib, u qaytar tarzda sodir bo'лади:




biroq, reaksiya muvozanati o'ng tomonga siljigan bo'лади, vodorod sulfidni reaksiyaga kirishish qobiliyatasi esa suvgaga nisbatan yuqori bo'лади. Buning natijasida merkaptanlar sintez qilish sharoitlarini boshqarish imkoniyati paydo bo'лади.

Bu jarayonni olib borishni ikki xil usuli mavjud:

1) katalitik;

2) radikal-zanjirli.


Birinchi usulda kislotali katalizatorlar qo'llaniladi (masalan, protonli kislotalar, alyuminiy oksidi va boshqalar). Alyuminiy oksidi ishtirokida reaksiya $100-150^{\circ}\text{C}$ va 7 MPa bosimda suyuq fazada olib boriladi. Bunda reaksiya parametrlari olefinlarni reaksiyaga kirishish qibiliyatiga bog'liq bo'лади, u quyidagi qator bo'yicha o'zgaradi: izoolefinlar $>$ n-olefinlar $>$ etilen. Birikish Markovnikov qoidasi bo'yicha amalgam oshadi, natijada izoolefinlardan uchlamchi-alkilmerkaptanlar hosil bo'лади:



Sulfidlar hosil bo'lishini oldini olish uchun reaksiyada vodorod sulfid miqdorini olefinga nisbatan ortiqcha olish talab qilinadi (1,5:1,0


mol nisbatida). Ushbu usul bilan izobuten yoki past molekulalı propilen yoki izobuten polimerlari asosida uchlamchi alkilmerkaptanlar olinadi.

Vodorod sulfidni olefinlarga radikal-zanjirli birikishi suyuq fazada xona yoki pastroq temperaturada va ultrabinafscha nurlar ta'sirida olib boriladi. Bunda H_2S Markovnikov qoidasi bo'yicha birikmaydi, albatta, bu hol erkin-radikal reaksiyalar uchun



Ushbu reaksiya asosida 5 minutda 90% mahsulot olinadi.

Vodorod sulfidni olefinlarga radikal-zanjirli birikishi reaksiyasi quyidagicha sodir bo'ladi:



Azot atomi bo'yicha alkillash. Ammiak yoki aminlarni azot atomi bo'yicha alkillashda alkillovchi vosita sifatida xlorli birikmalar va spirtlar olinadi.


Ammikni spirtlar bilan alkillash natijasida past alifatik aminlar sintez qilinadi.

Metil amin CH_3NH_2 , dimetilamin $(CH_3)_2NH$ va uchlanchimetilamin $N(CH_3)_3$, ular oddiy sharoitda gазsimon modda.

Etilamin $C_2H_5NH_2$, dietilamin $(C_2H_5)_2NH$, trietilamin $(C_2H_5)_3N$ suyuqlik. Ushbu moddalar suv bilan yaxshi aralashadi.

Aminlar sintezi gaz fazasida $380-450^{\circ}C$ va 2-5 MPa bosim ostida olib boriladi. Katalizator sifatida faol alyuminij oksid yoki alyumosilikat va ba'zan promotorlar ham qo'shiladi.


Endi metilamin ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishamiz (35-rasm).



Toza metanol, ammiak va retsirkulyat 2-5 MPa bosim ostida 1-arashtirgichda aralashtiriladi va 2-issiqlik almashtirgichga yuboriladi, u yerda ular bog'lanadi va issiq reaksiya gazlari bilan isitiladi. 3-reaktorda yuqorida bayon qilingan reaksiya sodir bo'ladi va aminlar hosil bo'ladi. Issiq gazlar o'zining issiqligini 2-issiqlik almashtirgichda xomashyoga beradi va keyingi qayta ishslash jarayoniga yuboriladi.

Olingan mahsulotlar ko'p bosqichli rektifikatsiya usuli bilan ajraladi, har bir bosqichda bosim hosil qilinadi, suv bilan sovutish orqali flegma olinadi. Dastlab 4-kolonnada eng uchuvchan ammiak haydaladi va uni retsirkulatsiyaga yuboriladi. Kub suyuqligi 5-kolonnaga suv bilan ekstraktiv distillatsiga keladi (suv ishtirokida uchmetilamin boshqa metilaminlarga nisbatan yuqori uchuvchanlikka ega bo'ladi).

Haydalgan trimetilamini oxirgi mahsulot sifatida ajratib olinadi, lekin uning asosiy miqdorini retsirkulatsiyaga yuboriladi. Qolgan boshqa aminlarni qaynash temperaturasi bir-biridan katta farq qilganligi sababli (-6,8 va 7,4°C), ularni rektifikatsiya yo'li bilan 6,7 kolonnada ajratiladi. Ularning har biri kolonnalarning tepe qismidan ajratib olinadi va retsirkulatsiyaga jo'natiladi. 8-kolonnada reaksiyaga kirishmagan metanol oqova suvlardan ajratiladi. Hosil bo'lgan aminlarning umumiy yig'indisi 95% teng.



35- rasm. Metilamin ishlab chiqarish texnologiyasi:

1- aralashtirgich; 2- issiqlik almashtirgich; 3- reactor; 4-8- rektifikatsiya kolonnalari; 9- deflegmatorlar; 10- qaynatgichlar; 11- nasoslar;
12- drossel klapanlar.


Alkillash jarayoni reagentlari va katalizatorlari. Reaksiya mobaynidagi uglevodorod molekulasi bog'ining uzilishi jihatidan alkillash jarayonida ishtirok etuvchi birikmalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) To'yinmagan birikmalar (olefinlar va atsetilen). Ular ishtirokida uglerod atomlari orasidagi π -elektron bog'lari uziladi.


2) Yetarli darajada harakatchan bo'lgan xlor atomi bor organik birikmalar.

3) Alkillash reaksiyasi borganida uglerod-kislorod (C-O) bog'i uzilish sodir bo'ladi, spirt, oddiy va murakkab efirlar, olefin oksidlari.

Olefinlar (etilen, propilen, butenlar va undan yuqori) alkillanish jarayonida juda faol agentlar bo'lib hisoblanadi. Parafin va aromatik uglevodorodlarni alkillash jarayoni eng ko'p tarqalgan bo'lib hisoblanadi. Olefinlar bilan alkillash oraliq karbaktionlar hosil bo'luvchi ionli mexanizmi bo'yicha boradi. Karboniy kationlari jarayonda katalizator sifatida ishlatalayotgan kislotga protoni hisobidan quyidagicha hosil bo'ladi:





Bu holat uglevodorod molekulasi zanjirini uzunligi va tarmoqlanganligiga bog'liq bo'lismeni ko'rsatadi, ya'ni




Ko'pchilik hollarda olefinlar bilan alkillash reaksiyalarini initsiatorlar ishtirokida, yorug'lik va temperatura ta'sirida sodir bo'ladi.

Xlorli birikmalar eng ko'p tarqalgan alkiliash vositalari hisoblanadi. Ular C-, O-, S- va N- alkillash reaksiyalarida element va metallorganik birikmalar sintez qilishda qo'llaniladi.

Xlorli birikmalarni reaksiyaga kirishish qobiliyatini quyidagi qatorga quyishi mumkin:




Xlorii' birikmalar bilan alkillashi jarayonlarining ko'pchiligi' erkin radikal mexanizmi asosida sodir bo'ladi. Bu asosan element va metallorganik birikmalar sintez qilishda qo'llaniladi, bunda metallar bilan o'zaro ta'sirlanishi hisobiga erkin radikallar hosil bo'ladi:



Spirit va oddiy efirlar C=O-, N va S-alkillash reaksiyalarida alkillovchi vosita sifatida foydalaniladi. Oddiy efirlar sifatida olefin oksidlardan ham foydalanish mumkin.

Parafinlarni alkillash. Ushbu jarayon yuqori oktanli motor yoqilg'ilarini sintez qilish uchun qo'llaniladi.


Parafinlarni olefinlari bilan alkillash ekzotermik jarayon bo'lib, uglevodorodlar krekingini teskarisidi:




Alkillash katalizatorlari sifatida kislotali katalizatorlar qo'llaniladi - AlCl_3 , HF , H_2SO_4 va h.k.

Izoparafinlar katalitik alkillash reaksiyalariga kirishadi. Olefinlar turli xil bo'lishi mumkin (etilen ham), lekin ko'pincha n-butennlardan foydalilanildi, ular izobutanni alkillaib C_8H_{18} uglevodorodini hosil qiladi, n-butenni izobutan bilan o'zaro birikish natijasida 2,2,4-, 2,3,4- va 2,3,3- uch metilpentanlar aralashmasi hosil bo'ladi. Birinchi izomerni izooktan deyiladi, u oktan soni shkalasida etalan hisoblanadi, uning uchun oktan soni 100 teng deb qabul qilingan.


Reaksiya ionli mexanizm asosida sodir bo'ladi. H-olefindan hosil bo'lgan ikkilamchi karbakation uchlamchiga nisbatan beqaror bo'lganligi sababli, gidrid-ionni izoparafin bilan tez almashinishi sodir bo'ladi, bunda hosil bo'ladigan uchlamchi-butil kation keyinchalik olefin bilan o'zaro ta'sir etadi:



Hosil bo'lgan karbakation ichki molekular o'zgarishlarda ishtirok etadi, bunda vodorod va metil guruuhlarini ligratsiyasi yuz beradi.




Ushbu karbakationlar izobutan bilan reaksiyaga kirishadi, natijada C_8H_{18} uglevodorodi va uchlamchi butil kationi hosil bo'ladi.



U esa ion-zanjirli jarayon borishini ta'minlaydi. Izomerlar tarkibi oraliq karbokationlar barqarorligi va izobutan almashinish reaksiya tezligi bilan bog'liq.


Shubhasiz, hosil bo'ladijan oraliq izooktil kationi ham olefinlar bilan reaksiyaga kirishishga qodir.



Xuddi shuningdek, alkillashning ketma-ket parallel reaksiyalari sodir bo'ladi, yuqori uglevodorodlar miqdorni kamaytirish uchun olefinga nisbatan izoparafin miqdorni ko'proq olish kerak.

Izobutanni butenlar bilan alkillashda hosil bo'lgan alkilat tarkibida 6–10%. $\text{C}_5\text{—C}_7$ uglevodorodlar, 5–10% C_9 va undan yuqori uglevodorodlar bo'ladi. Ular yuqori temperatura ta'sirida ro'y beradigan destruksiya jarayonlari natijasida hosil bo'ladi.

Yana bir oraliq reaksiya-olefinlarni kationli polimerlanishi



reaksiyasi natijasida past molekulalni to'yinmagan polimerlar hosil bo'ladi, ular alkilat sifatini birmuncha yomonlashtiradi va katalizator sarfini ko'payishiga olib keladi.

Sulfat kislota katalizatorligida alkillash reaksiyasini $0\text{--}10^\circ\text{C}$ temperaturada, suvsiz vodorod florid bilan $20\text{--}30^\circ\text{C}$, bosim ostida olib boriladi. Izobutanni etilen bilan AlCl_3 ishtirokida alkillash jarayoni bosim ostida $50\text{--}60^\circ\text{C}$ da sodir bo'ladi.


Sanoatda olefinlardan alkillovchi vosita sifatida n-butenlar (1 va 2 izomerlar aralashmasi) eng ko'p qo'llaniladi, ular izobutan bilan alkilat hosil qiladi. Alkilat C_8 uglevodorodlari, ya'niz izooktan olib to'yingan bo'ladi. Ko'pincha xomashyo sifatida kreking gazlarning butan-buten fraksiyasidan foydalaniladi, ularning tarkibi barcha kerakli reagentlardan iborat va ular 1,3-butadiendan tozalangan bo'ladi.

Jarayon uchun ikki turdag'i apparatlar qo'llaniladi, ulardan ajralayotgan issiqlik tashqariga chiqarish usuli bilan bir-biridan farq qiladi: suyuq ammiak (yoki propan) bilan ichki sovutish yoki ortiqcha izobutanni bug'latish bilan amalgma oshiriladi. Birinchi holda alkilatorlar aralashtirigich bilan ulangan bo'lib, sovutish trubalari mavjud bo'ladi, unda issiqlik beruvchi bug'lantiriladi. Uning bug'lari sovutish qurilmasiga yuboriladi, u yerda ular yana suyuqlikka aylanadi.

Eng samarali usullardan biri, bu ortiqcha izobutanni bug'latish bilan issiqlikni chiqarish hisoblanadi, bunda temperaturani boshqarish

osonlashadi. Ushbu prinsip asosida ishlaydigan reaktorlar 36-rasmda (4-apparat) ifodalangan.

Butan alohida har bir seksiyaga yuboriladi, buning natijasida seksiyalardagi olefin konsentratsiyasi juda kam bo'ladi, bu esa oraliq polimerlanish reaksiyasini to'xtatish imkoniyatini hosil qiladi.



36-rasm. Izobutanni n-butene bilan alkillash texnologik sxemasi:

1-kompressor; 2-idish; 3-kondensator; 4-reaktor; 5-droset ventil; 6-depropanizator; 7,9-separatorlar; 8-neytralizator; 10-debutanizator; 11-issiqlik almashtirgich; 12-kondensator deflegmatorlari; 13-qaynatgichlar.
4-reaktor aralashtrigich bir nechta seksiyaladan iborat (kaskadlar).

Sulfat kislota va izobutan 1-seksiyaga chap tomondan yuboriladi va emulsiya vertikal to'siqlar orqali bir seksiyadan boshqasiga oqib o'tadi. Ikkinci o'ng tomondan seksiya separator vazifasini bajaradi, unda kislota uglevodoroddalar ajratiladi va alkillash uchun qaytariladi. Oxirgi to'siqdan uglevodorodlar aralashmasi oqib tushadi va keyingi qayta ishlashga yuboriladi.

Izobutanni n-butene bilan alkillash texnologik sxemasi 36-rasmda ko'rsatilgan. 4-alkilatorga (birinchi chap seksiya) suyuq izobutan, toza sulfat kislota yuboriladi, har bir seksiyaga suyuq n-butene yuboriladi. Ajralayotgan issiqlik hisobiga ortiqcha izobutanning bir qismi bug'lanadi, uning bug'lari 2-idishga yig'iladi, u bir vaqtning gaz uzlusiz ravishda 1-kompressor yordamida 0,6 MPa bosim bilan siqiladi va shu bosimda 3-suv sovutgichda kondensatsiyalanadi. 5-drossel ventilida bosim 0,2 MPa gacha kamayadi, bunda izobutanni bir qismi drossellanganda bug'lanadi va 2-idishda ajratiladi. U yerdan suyuqizobutan yana alkilatorga qaytaritadi. Qurilmani uzlusiz ishlash

mabaynida izobutanda uglevodorodlar destruksiyasi hisobiga hosil bo'lgan miqdori ko'payadi. Shuning uchun izobutan sovutgici sikliga depropanizator 6-rektifikatsiya kolonnasi qo'shiladi. Rektifikatsiya kolonnasida izobutan propanidan tozalanadi va 2-idishga yuboriladi.

4-alkilatorning oxirgi seksiyasidan chiqayotgan aralashma tarkibida ortiqcha izobutan, oktanlar, C_5H_7 , uglevodorodlar bo'ladi. Aralashmani 7-separatorga sulfat kislota qoldiqlaridan tozalash uchun yuboriladi. Kislotani alkilatorga qaytariladi, lekin uning bir qismi reaksiya muhitidan chiqariladi, uning o'rniqa tozasi yuboriladi 7-separatordan kelayotgan uglevodorod qatlami 8-apparatda 10% li ishqor eritmasi bilan neytrallanganadi va hosil bo'lgan emulsiyani 9-separatorda ajratiladi. Neytrallangan uglevodorodlar aralashmasini ajratish uchun 10-rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi.


Izobutan kondensatsiya uchun arzon sovutish vositasi suvdan foydalinish uchun, kolonnadagi bosim ~60 MPa ortmasligi kerak. Kolonnaga toza izobutan fraksiyasi yuboriladi. Izobutanning bir qismi 10-kolonnaga yuboriladi. qolgan qismi drossellangandan so'ng 2-idishga keladi, u yerdan yana reaksiyaga qaytadi. Shunday qilib, izobutan sirkulatsiyasi sodir bo'ladi. 10-kolonna kubidan tayyor alkilat olinadi.

Bunday jarayonlar turiga aromatik birikmalar va parafinlarni alkillash reaksiyalarini olish mumkin. Umumiy holda ularni quyidagicha ajratish mumkin:

- a) aromatik uglerod atomi bo'yicha alkillash;
- b) to'yingan uglerod atomi bo'yicha alkillash.


Sanoatda aromatik uglevodorodlarni (benzol, toluol va h.k.) xlorli birikmalar bilan alkillash reaksiyalarida katalizator sifatida alyuminiy xloriddan foydalaniadi, chunki u barcha aproton kislotalarga nisbatan arzon turadi. Uglevodorodlarni olefinlar bilan alkillashda ham $AlCl_3$, qo'llaniladi, lekin bu jarayonda boshqa katalizatorlardan foydalanish mumkin (kislotali katalizatorlardan H_2SO_4 , HF, $BF_3 \cdot H_3PO_4$, seolitlar va h.k.)

Aromatik birikmalarni istalgan katalizatorlar ishtirokida alkillash jarayonida vodorod atomining navbatma-navbat almashinish natijasida turli alkillash darajasiga ega bo'lgan mahsulotlar aralashmasi hosil bo'ladi. Masalan, benzolni metillash va etillash reaksiyasida geksaalkilbenzollar hosil bo'lishi mumkin:



propillash reaksiyalarida tetrapropilbenzol va h.k. hosil bo'ladi. Past haroratda yuqoridagi barcha reaksiyalar qaytmash tarzda sodir bo'ladi.

Lekin AlCl_3 katalizatori ishtirokida maxsus shart-sharoitda reaksiya qaytar bo'ldi (disproporsionirlash reaksiyasi):



Aromatik uglevodorodlarni alkillash texnologiyasi. Aromatik uglevodorodlarni alkillash orqali etil va izopropilbenzol olinadi.

Etilbenzol $\text{C}_6\text{H}_5\text{C}_2\text{H}_5$ rangsiz o'ziga xos hidri suyuqlik bo'lib, $136,2^\circ\text{C}$ qaynaydi.

Etilbenzol stirol olishda muhim ahamiyatga ega. Riforming yoki piroldagi ksilof fraksiyasidan 10–15% etil benzol ajratib olish eng arzon usullardan biri hisoblanadi. Asosan, benzolni etilen bilan alkillash orqali kerakli miqdordagi etil benzol olish mumkin.


Xomashyolar. Alkillash reaksiyalarida qo'llaniladigan benzol yoki boshqa aromatik uglevodorodlar kurniladi. Buning uchun aromatik uglevodorod bilan suvdan azetrop aralashma hosil qilinadi va undagi suv haydaladi. Bunday azeotrop haydash natijasida aromatik uglevodorod tarkibidagi namlik 0,002–0,005% gacha kamayadi.

Alyuminiy xlorid reaksiyaga suyuq katalitik kompleks holida yuboriladi. Uni tayyorlash uchun texnik AlCl_3 , dietil benzol yoki teng miqdordagi benzol va dialkilbenzol, ozgina miqdorda xlorli birikmalar (masalan, $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$) yoki ba'zi hollarda suvdan foydalaniladi.

Oxirgi paytlarda kompleksni tayyorlash markazlashtirilgan holda olib boriladi. Bunday alyuminiy metalli chiqindisi, aromatik uglevodorodlar va suvsiz HCl qo'llanidi.




Aromatik uglevodorodlarni olefinlar bilan alkillash jarayoni barbosai kolonnalarda olib boriladi (37-rasm).



37-rasm. Alyuminiy xlorid ishtirokida aromatik uglevodorodlarni alkillash reaksiya reaktorlari: a) trubkasimon reaktor; b) aralashtirgichli reaktorlar; d) kolonna ko'rinishdagi reaktorlar.

37a-rasmda trubkasimon aralashtirgichli reaktor ifodalangan, Reaktoring pastki tormonidan benzol, olefin va 10–20% katalitik kompleks yuboriladi, aralashtirgich yordamida aralashtiriladi, hosil bo'lgan emulsiya trubalar orqali yuqoriga ko'tariladi va suv bilan sovutiladi. Separatorda uglevodorod qatlami katalitik kompleksdan ajratiladi va qayta ishlashga yuboriladi. Bu alkillash jarayonini uzuksiz ravishda olib borish uchun boshqa alkillash uskunalaridan foydalaniadi (37b-rasm). Birinchi reaktorga reaksiya uchun kerakli xomashyolar yuboriladi, yon moslama yordamida separator orqali reaksiya massasi keyingi reaktorga keladi. Separatorda ajratilgan katalitik kompleks yana 1-reaktorga qaytariladi. Reaksiya massasi 2-reaktorda $40-60^{\circ}\text{C}$ da 50 min turadi, bunda monoalkil birikmalar hosil bo'ladi. 37 a,b-reaktorlarda alkillash jarayoni suyuq alkillash vositalari yordamida olib boriladi.

Aromatik uglevodorodlarni gazsimon olefinlar bilan alkillash reaksiyalari barbotajili kolonnalarda olib boriladi (37 d -rasm).



38-rasm. Etilbenzol ishlab chiqarish texnologik sxemasi:


1-nasoslar; 2- issiqlik almashtirgich; 3- benzolni quritish kolonnasi; 4,10- kondensaptorlar; 5- separator; 6- katalitik kompleks hosil qiluvchi apparat; 7- qaynatgich; 8- yig'gich; 9- alkillator; 11- gaz ajratgich; 12,16-separatorlar; 13- absorber; 14- suv skrubberi, 15- sovutgich 17,18-yuvish kolonnalar.

Kolonnaning ichki qismi kislotaga chidamli plitkalar bilan qoplanadi. Kolonna suyuq reaksiya massasi katalitik kompleks va u erimaydigan aromatik uglevodorodlarlar aralashmasi bilan to'ldiriladi. Kolonnaning pastki tomonidan quruq benzol va olefin fraksiyasi yuboriladi.

Etil benzol ishlab chiqarish sanoatda eng muhim alkillash jarayonlaridan biri. Benzolni etilen bilan alyuminiy xlorid ishtirokida o'zaro ta'siri natijasida etilbenzol hosil bo'ladi. Bu jarayonda xomashyoning sifati katta ahamiyatga ega: texnik benzol aralashmadan tozalangan va quritilgan bo'lishi kerak, benzoldagi suv miqdori 0,005%, oltingugurtli birikmalar miqdori 0,1% dan ortmasligi lozim. Etilenning tozaligi 99,8–99,9% bo'lishi kerak.

Etilbenzolni olishni texnologik sxemasi quyidagi bosqichlardan iborat:

a) katalizatorni tayyorlash; b) benzolni etilen bilan alkillash:



d) katalizatorni ajratish va alkillatni yuvish;

e) rektifikatsiya usuli bilan etilbenzolni ajratish.

$AlCl_3$ – qattiq modda bo'lib, u benzolda erimaydi, uni to'g'ridan-to'g'ri katalizator sifatida qo'llash qulay emas. Shu sababli, uni suyuq katalitik kompleks holiga keltiriladi. Buning uchun $AlCl_3$, etilxlorid, dietilbenzol va ozgina miqdordagi benzol bilan aralashtiriladi. Komponentlarni $60\text{--}70^{\circ}\text{C}$ aralashtirgichli apparatda aralashtiriladi. Bunda etilxlorid benzol bilan reaksiyaga kirishadi, natijada etilbenzol vodorod xlorid hosil bo'ladi. HCl katalizatorni faollashtiruvchi sifatida qo'llaniladi.

3-kolonnaga azetrop rektifikatsiya uchun benzol yuboriladi. Past haroratda qaynaydigan benzol bilan suvdan iborat azeotrop ikki qatlamga ajraladi. Suv va unda erigan benzol ajratib olinadi, suvsiz benzol esa 3-kolonnaning tepe tarelkasiga yuboriladi. Quritilgan benzol 3-kolonna kubidan 2-issiqlik almashtirgich orqali 8-yig'gich keladi, u yerdan nasos yordamida alkillatorga yuboriladi.

Katalitik kompleks 6-apparatda tayyorlanadi. 6-apparatga polialkilbenzol (PAB) yoki benzol va PAB aralashmasi taxminan 1:1 nisbatan hamda alyuminiy xlorid (1 mol 2,5–3,0 mol aromatik uglevodorodga nisbatan) solinadi, isitib aralashtirilgan so'ng xlorli birikma yuboriladi. Tayyorlangan katalitik kompleks davriy ravishda alkilatorning pastki qismiga yuboriladi. 10-kondensatordan keladigan gazlar tarkibida benzol bo'lgani sababli, bu gazlarni 13-absorberga

yuboriladi, absorber polialkilbenzollar bilan sug'oriladi. Absorberning pastki qismida yig'iladigan polialkilbenzoldagi benzol 9-reaksiya apparatiga qayta alkillashga keladi. 13-absorberdan chiqqan gazlarni 14-skrubberda suv bilan yuviladi HCl dan tozalash uchun, so'ngra atmosferaga chiqariladi yoki yoqilg'i sifatida foydalaniladi.

12-separatordan chiqqan uglevodorod qatlami tarkibi benzol, mono- va polialkilbenzoldan iborat. Uning tarkibida boshqa benzol gomologlari ham bo'lishi mumkin, ular AlCl_3 ta'sirida qisman destruktivaga uchraydi.

Alkilatning tarkibi 45–55% benzol, 35–40% etilbenzol, 8–10% dietilbenzol va 2–3% oraliq moddalardan iborat. Ushbu aralashmani rektifikatsiya jarayoniga yuboriladi.

Benzolni propilen bilan alkillash orgali izopropilbenzol (kumol) olish. Sanoatda izopropilbenzol olishni ikki xil yo'l bilan amalga oshirish mumkin. Birinchi holatda izopropilbenzol olish texnologik sxemasi etilbenzol olishda farq qilmaydi (38-rasm). Alyuminiy xlorid ishtirokida benzolni propilen bilan alkillash jarayoni $80\text{--}90^\circ\text{C}$ da olib boriladi. Hosil bo'lgan alkilat tarkibida 64% benzol, 30% izopropilbenzol va 5% gacha polialkilbenzol va smolalar bo'ladi.

Benzolni propilen bilan fosfat kislota ishtirokida alkillab izopropilbenzol olishning ikkinchi usulida trubkasimon reaktorlarda foydalaniladi (38-rasm). Trubkalar katalizator bilan to'ldiriladi. Benzol bilan propilen 1-arashtirgichda aralashtiriladi, 2-issiqlik almash-tirigichda isitiladi va nasos yordamida 3-reaktorning pastki qismiga yuboriladi. Reaksiya $2,5 \text{ MPa}$ bosim va 250°C da olib boriladi. Hosil bo'lgan alkilat tarkibi 75% benzol, 21–22% izopropilbenzol va 3–4% oraliq mahsulotlardan iborat.



$\text{C}_6\text{H}_5\text{-CH}(\text{CH}_3)_2$ – Izopropilbenzol rangsiz suyuqlik, qaynash temperaturasi $152,4^\circ\text{C}$, zichligi 861 kg/m^3 (20°C).

Vinillash. Vinillash, ya'ni turli birikmalar tarkibiga vinil guruhi kiritishni to'g'ri va teskari usullari mavjud. To'g'ri usul bilan vinyl guruhi kiritishda atsetilenden foydalaniladi, uni ham ikki guruhga ajratish mumkin:


1) O'zgaruvchan metallar (Zn va Cu) tuzlari katalizatorlari ishtirokida vinillash;

2) ishqor bilan katalizlangan vinillash reaksiyaları.

1) O'zgaruvchan metallar tuzlari katalizatorligi ishtirokida vinillash. Bu usul bilan sanoatda vinilatsetat, vinilatsetilen va akrilonitril olinadi:





Ilonitril olish texnologiyasi. Atsetilenden akrilonitril olishda katalitik sistemasidan foydalaniлади. Униг тарқибидаги 35–40% натади Cu_2Cl_2 , NH_4Cl ёки KCl бо'лади. Бу системада якли комплексhosil bo'лади, у атсетилен билан координатсиян hosil qilish va ligandalarni almashtirish xususiyatiga ega. Katalizator ishtirokida sintez quyidagi mexanizm asosida sodir



Xlorid suvda yomon eriydi. Ammoniy xlorid qo'shilish suvda eriydigan kompleks hosil bo'лади, масалан, H_4Cl . Katalizator тарқибидаги 40% гача бир valentli mis xlorid katalizator faolligini kuchaytirish учун eritmaga $tHqI$ teng ta xlorid kislota qo'shiladi. Атсетилен сувда erimaydi, lekin uni та qatlamiдан o'tkazilganda mis bilan faol kompleks hosil esa vodorod sianid bilan reaksiyaga kirishadi.

Атсетилен ва vodorod sianiddan akrilonitril olish texnologiyasi 5-odalangan.



Расм. Атсетилен ва vodorod sianiddan akrilonitril olish

texnologiyasi: 1- reactor; 2- absorber; 3- bug'latish kolonnasi;

4- reboiler; 5- akrilonitrilni tozalovchi rektifikatsiya kolonnasi.


Nisbatda олинган атсетилен ва vodorod sianid katalizator bilan унинг pastki qismiga yuboriladi. 1-reaktordan chiqayotgan gazlari yutiladi. Hosil bo'lgan eritmani (2% yaqin akrilonitril,

qolganlari vodorod sianid, atsetaldegid va boshqa suvda eriydigan aralashmalardan iborat) 3-bug'latish kolonnasiga yuboriladi, u yerda akrilonitril va past qaynovchi aralashmalar haydaladi. Haydalgan mahsulot sovutiladi va ajratish uchun 4-separatorga yuboriladi, kub qoldig'i esa sug'orish uchun 2-absorberga jo'natiladi. Separatordagi suyuqlikning pastki qismi, ya'ni akrilonitrilni suvg'a to'yinmagan eritmasini 3-kolonnaga, tepa qismi, ya'ni akrilonitrilni (unda 3% gacha erigan suv, ug'levodorodlar qoldig'i, atsetildegid va boshqa aralashmalar bo'ladi) 5-rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi. Tozalangan akrilonitrilni tozaligi 99,5% kerakli yo'naliishga yuboriladi.


Ishqor katalizatorlari ishtirokida vinillash. Spirtlarni ishqorlar ishtirokida vinillash orqali oddiy vinil efirlari sintez qilish A.Ye.Favorskiy tomonidan taklif qilingan:



Spirtlardan tashqari fenol merkaptanlar ham xuddi shunday reaksiyaga kirish qobiliyatiga ega:



Atsetilen bilan vinillash aminlarda yoki amidlarda azot atomi bo'yicha sodir bo'lishi mumkin:



Vinillashda spirtlarni reaksiyaga kirish qobiliyatni, ularning kislotalik xususiyati ortishi bilan kamayib boradi. Shuning uchun to'yingan bir atomi spirtlardan metanol eng sekin reaksiyaga kirishadi, uni vinillashda haroratni $160\text{--}170^\circ\text{C}$ ushlab turish kerak (boshqa spirtlar uchun $130\text{--}140^\circ\text{C}$).

Spirtlarni atsetilen bilan vinillashda katalizator sifatida alkogolyatlar, fenollarda esa fenolyatlar qo'llaniladi, lekin ko'pincha ishqoriy metallar gidroksidlaridan foydalaniadi, eng yaxshi natija KOH bilan olinadi. KOH kislota xususiyatiga ega bo'lgan organik reagent bilan metall hosilasi hosil qiladi:




uning anioni kuchli asos xossasini namoyon qiladi. Reaksiya

davomida atsetilen bog' orqali nukleofil birikish sodir bo'ladi; jarayon anionning hujumi bilan boshlanadi va proton almashinish bilan tugallanadi:




Reaksiyaning tezligi reagentlarning nukleofil faoliigiga bog'liq. Atsetilen va spirtlar asosida olinadigan oddiy vinil efirlari monomer sifatida amaliy ahamiyatga ega, chunki ular asosida muhim polimer materiallar olinadi. Masalan, N-vinilpirrolidon polimerlanganda polivinilpirrolidon olinadi, u meditsinada qon o'mini bosuvchi plazma, parfyumeriya sanoatida kosmetik preparatlarni quyultiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. N-vinilkarbazol polmerlanganda polivinilkarbazol hosil bo'ladi. U yuqori mexanik va dielektrik ko'rsatgichlarga va issiqlik o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega, shuning uchun uni issiqlikka chidamli dielektrik (asbestni o'rniغا) va telivizor va radio qurilmalarda izolator sifatida qo'llaniladi.

Kondensirlangan halqali uglevodorodlar. Aromatik uglevodorodlar (naftalin, antratsen, fenantren) ajratish uchun katalizatsiya usulidan foydalaniлади.



naftalin



antratsen

Toshko'mir smolasining antratsen fraksiyasini ($270\text{--}350^{\circ}\text{C}$) qon bilan suyuqlashtirilib, keyin gidrolizlash orqali karbazol olinadi:




Aromatik uglevodorodlar olish uchun aromatik xomashyoning ikki turi mavjud: koks-kimyoviy va neft-kimyoviy. Ular bir-biridan oltingugurtli organik birikmalar miqdori bilan farqlanadi.

Neft-kimyoviy mahsulotlarni gidrotozalash natijasida ulardagi C miqdori $0,0001\text{--}0,002\%$ tashkil qiladi, koks-kimyoviy xomashyoda esa C miqdori 100 marta ko'p.

Aromatik uglevodorodlarni dealkillash. Benzol toluolga nisbatan ko'p iste'mol qilinadi. Toluol katalitik riforming va piroliz jarayonlari orqali olinadi. Shuning uchun bezolni bir qismi toluolni dealkillash orqali olinadi.

Toluolni dealkillash. Bu jarayonning bir necha usullari mavjud:

- 1) Gidrodealkillash yoki termik dealkillash;





Jarayon $700\text{--}760^{\circ}\text{C}$ bosimda olib boriladi.

1) Katalitik dealkillash.

Katalitik dealkillashda Co_2O_3 , Cr_2O_3 , MoO_3

$t = 580 - 620^{\circ}\text{C}$; $3 - 4 \text{ MPa}$ bosimda olib boriladi.


Oraliq reaksiyalar.



Formaldegid olish. Sanoatda formaldegid 2 xil yo'l bilan metan va uning gomologlarini chala oksidlash va metil spiritini oksidi degidrirlash 40-rasmida konsentrangan metanni havo kislorodi va katalizator azot oksidlari (gomogen kataliz) ishtirokida chala oksidlash bilan formaldegid olish usuli ko'rsatilgan oksidlashni trubkasimon reaktorda 600°C temperaturada olib boriladi. Trubkalar olovbardosh sixromal qotishmasidan tayyorlanadi, ichkari tomoniga keramik massa bilan qoplanadi (80% SiO_2 , 20% Al_2O_3). $3:7:1$ hajmi nisbatdagi metan va havo 400°C gacha 2-issiqlik almashtirgichda isitiladi va 3-reaktorga yuboriladi. Reaktorga kirishdan ilgari gazlarga ammiakni 1-gorelkada havo kislorodi bilan oksidlanishdan hosil bo'lgan, $0,08$ hajm % azot kislotasi qo'shiladi. Reaksiya mahsulotlari 2-issiqlik almashtirgichda, so'ngra 5-suv soyutgichida sovutiladi va 6-skrubberga yuboriladi, u yerda formaldegid suv bilan yuviladi. 6-skrubberning yuqori tomonidan gaz chiqariladi, uning tarkibida 12% CH_4 , 5% CO , 2% CO_2 , 6% O_2 va 75% H_2 bo'ladi. Ushbu gazning bir qismi reaktorga qaytariladi, bunda 1 hajm xomashyo aralashmasiga 9 hajm retsirkulatsiyalangan gaz to'g'ri kelishi kerak. 6-skrubberdan keladigan 10% li formaldegidning suvli eritmasini 7-neytralizatorda chumoli kislotani bog'lash uchun neytrallanadi. So'ngra eritmani 4 atm bosim ostida 9-rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi, u yerda 34% li formaldegid eritmasi olinadi. Metanga nisbatan hosil bo'lgan formaldegidning chiqimi 38% teng.

Formaldegid olishni yana bir usuli mavjud bo'lib, bunda katalizator ishtirokida metil spiritini oksidlash degidrirlash jarayonidan foydalananiladi. Ushbu usulda qo'llaniladigan katalizatorlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) oksidlash katalizatorlar, masalan, temir-molibden oksidlari, ba'zi hollarda boshqa metallar oksidlari bilan qo'shimchalar qo'llaniladi (magniy, marganets, kadmiy).



40-rasm Metanni oksidlash usuli bilan formaldegid olish texnologik sxemasi: 1-gorelka; 2-issiqlik almashtirgich; 3-reaktor; 4-gaz purkagich; 5-suv sovutgichi; 6-suv skrubberi; 7-formaldegid eritmasini neytrallovchi idish; 8-qaynatgich; 9-rektifikatsiya kolornasi; 10-deflegmator; 11-formaldegid yig'gich.

2) metall mis yoki ko'mish metall setka ko'rinishda yoki serg'ovak tashuvchiga cho'ktirilgan (masalan, penza).

Reaksiya issiqlik ajralish bilan sodir bo'ldi:



Taxmin qilinishga ko'ra bir vaqt ni o'zida metanolni degidrirlash jarayoni ham ro'y beradi.



va vodorod kislorod bilan oksidlanadi:




Asosiy reaksiyalardan tashqari, jarayon sharoitida CH_4 , CO_2 hosil bo'lishi bilan boradigan oraliq reaksiyalar ham sodir bo'ladi, bunda oz miqdorda HCOOH va hosil bo'ladi.

Oksidlanish katalizatorlar ishtirokida formaldegid olishda jarayon temperaturası $300\text{--}400^{\circ}\text{C}$ oralıǵıda bo'ladi, reaksiya chiqımı yuqori - 90% va undan ham yuqori bo'ladi.

Kumushli katalizator ishtirokida jarayon 600–650°C da ketadi. Kumushli katalizator bilan olinadigan formalin tarkibida 10% gacha metanol bo'ladi. Metanolni ajratish uchun olingan formalin 10–12% suvli metil spiri rektifikatsiyaga yuboriladi. U-o'chagich orgali bug'

yoki issiq suv bilan isitiladigan 2-bug'latgichga yuboriladi. Shu vaqtning o'zida chang va boshqa aralashmalardan tozalangan havoni bug'latgich orqali 4-havo purkagichga yuboriladi. $45-50^{\circ}\text{C}$ gacha isigan metil spirti qatlamidan barbotirlangan havo, u bilan to'yinadi, 1 l bug'-havo aralashmasi tarkibida taxminan 0,5 g CH_3OH bo'ladi. Aralashmaning ushbu tarkibini o'zgartirmaslik muhim ahamiyatga ega, chunki portlash xavfini oldini oladi va jarayonni yaxshi borishini ta'minlaydi. Shuning uchun bug'latgichdagi suyuqlik sathini doimiyligi, uning temperaturasini ($48-50^{\circ}\text{C}$) va havoni berigi tezligini o'zgartirmasligi ta'minlanadi, shuning uchun kerakli temperatura sharoiti va adiabatik reaktordagi konversiya darajasi ta'minlanadi.



41-rasm. Metil spirtni oksidlash bilan formalin olish texnologik sxemasi: 1-o'lhagich; 2-bug'latgich; 3-filtr; 4-havo purkagich; 5-isitgich; 6-kontakt apparati; 7-sovutgich; 8,10- absorberlar; 9- oraliq sovutgich.

Bug'-havo aralashmasidagi spirt bug'larini kondensatsiyasini oldini olish uchun, uni 5-apparatda 110°C gacha bug' bilan isitiladi va shu temperaturada 6-kontakt apparatiga uzatiladi. Ko'rsatilgan sharoitda oksidlanish autotermik holda sodir bo'ladi. Kontak apparatdagi temperatura boshqarib turiladi. Sistemani ishlatalishdan avval reaksiyani initsirlash uchun platina-asbestli kontaktdan foydalанилади. Kontakt apparatidan chiqayotgan reaksiya mahsulotlari 7-sovutgichda $100-130^{\circ}\text{C}$ gacha sovutiladi. Undan past temperaturada sovitish kerak emas, chunki

formaldegid polimerianib qolishi, natijada truboprovodlar polimer bilan to'lib qolishi mumkin.

Keyin 8 va 10 absorberlarda kontakt gazlari tarkibidagi formaldegid yutiladi. 10-absorber suv bilan sug'oriladi, 8-absorber esa 10-absorberdan kelayotgan formaldegid eritmasi bilan. Absorbsiya issiqligini chiqarish uchun oraliq sovtugichlar o'rnatilgan. 8-absorberdan tarkibida 37,6% HCHO va 10% gacha CH₃OH formaldegidning suvli eritmasi formalin oqib tushadi. Formaldegidning chiqimi 90% teng 10 absorberdan chiqayotgan gazlarning tarkibi quyidagicha: (hajmiy %):

CO ₂	4,0–5,5
CO	0,2–0,6
CH ₄	0,3–0,8
O ₂	0,3–0,5
H ₂	17,5–21,2
N ₂	73,4–75,7

Chiqayotgan gazlarni tarkibiga qarab metil spirtini formaldegidga aylanish darajasini hisoblash mumkin:

$$\alpha = 100 - 100 \left[\frac{C_{CO_2} + C_{CO} + C_{CH_4}}{0,528C_{N_2} + C_{H_2} + 2C_{CH_4} - C_{CO} - 2C_{CO_2} - 2C_{O_2}} \right]$$

bu yerda, α —metil spirtini formaldegidga aylanish darajasi, %

s—gazdan komponentlar konsentratsiyasi, hajmiy %.

Tayanch so'z va iboralar

Alkillash, uglerod atomi bo'yicha alkillash, kislород, oltingugurt va azot atomlari bo'yicha alkillash, katalizator, sikloalkillash reaksiyalari, etilbenzol, izopropilbenzol, aromatik uglevodorodlarni alkillash, fenollarni alkillash, parafintarni alkillash, izobutan, uchlamchibutilmel efir, metilamin olish, vinillash, ishqor katalizatorligidagi vinillash, vinilpirrolidon.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Alkillash jarayonlari haqida umumiy tushuncha.
2. Alkillovchi vositalar va katalizatorlar.
3. Uglerod atomi bo'yicha alkillash.
4. Aromatik uglevodorodlarni alkillash.
5. Aromatik uglevodorodlarni alkillashda qo'llaniladigan xomashyolar.

6. Aromatik uglevodorodlarni alyuminiy xlorid katalizatorligida qo'llaniladigan reaksiya uskunalarini.
7. Etilbenzol olish texnologiyasi.
8. Izopropilbenzol olish texnologiyasi.
9. Kislorod atomi bo'yicha xlorli birikmalar bilan alkillash.
- 10 Olefinlar bilan kislorod atomi bo'yicha alkillash.
11. Uchlamchi butilmetilefir ishlab chiqarish texnologiyasi.
12. N-alkillash.


V bob. SULFATLASH VA SULFIRLASH JARAYONLARI

Sulfat kislota-alkilsulfatlarga ROSO_2OH asosida murakkab efirlar hosil qilish reaksiyalariga sulfatlash deyiladi. Undan farqli ravishda sulfirlashda sulfokislotalar (RSO_2OH yoki ArSO_2OH), shuningdek, ularning hosilalari hosil bo'ladi, ularda oltingugurt atomi bevosita uglerod atomi bilan bog'langan. Sulfatlash jarayoni yuqorida ko'rib o'tilgan eterifikatsiya reaksiyalarining ma'lum bir ko'rinish hisoblanadi, lekin bir qator afzalliklarga ega bo'lib, uni organik moddalarni sulfirlashga yaqinlashtiradi.

Ushbu reaksiyalar katta amaliy ahamiyatga ega. Alkilsulfatlар, alkan va arensulfonatlar sintetik sirt-faoл muddalar orasida eng ko'p tarqalgandir.


Spirtlarni sulfatlash. Ushbu jarayon, asosan alkilsulfatlар turidagi sirt-faoл muddalar (s.f.m.) olishda qo'llaniladi, bu reaksiyani sulfat kislota, xlorsulfon va amidsulfon (sulfamin) kislotalar, shuningdek, oltingugurt uch oksidi yordamida amalga oshiriladi.

Spirtlarni sulfat kislota bilan o'zaro ta'sir etish reaksiyasi eterifikatsiya reaksiyasining teskarisidan iborat:



Termodinamik ko'rsatgichlarga ko'ra 1-reaksiya karbon kislotalar eterifikatsiyasiga o'xshaydi, lekin farq qiladigan tomoni shundan iboratki, sulfatlash reaksiyasi yuqori ekzotermik tarzda sodir bo'ladi, lekin bu issiqlik sulfat kislotani spirt bilan suyultirish va suvning hosil bo'lishi hisobiga ajralib chiqadi. Shuning uchun issiqlik effekti sulfat kislotaning konsentratsiyasiga va uning spirtga bo'lgan mol nisbatiga bog'liq. Masalan, 1 mol spirt 1,9 mol 100% li sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishganda 117 kDj/mol issiqlik ajralib chiqadi.

Spirtlarni sulfat kislota bilan sulfatlash reaksiyasining mexanizmi eterifikatsiya jarayonlariga o'xshaydi. Bunda kislota ham reagent va katalizator vazifasini bajaradi, reksiya S-O bog'ni uzulishi hisobiga sodir bo'ladi, bu esa alkil guruhida izomerlanishni bo'lmasligini ta'minlaydi:




Kuchli kislotali muhit bo'lishiga qaramasdan, reaksiya nisbatan sekin (1–3 soat) ketadi va hosil bo'lgan suv hisobiga to'xtaydi. Yuqori spirlarni sulfatlashda, uzlusiz aralashtirish talab etiladi, chunki ular sulfat kislotada kam eriydi.

Sulfatlashda bir qator oraliq mahsulotlar hosil bo'ladi. Masalan, sulfat kislotani degidratlash ta'siri hisobiga olefinlar hosil bo'ladi, ikkilamchi va ayniqsa, uchlamchi spirlarda ularning miqdori ko'payadi. Sulfat kislotasi oksidlash xususiyatiga ega reaksiyalarida bo'lganligi sababli sulfatlashda aldegid va ketonlar ham hosil bo'ladi, ular ham smolalanishi va kondensatsiyalanishi mumkin. Ushbu oraliq reaksiyalarini oldini olish uchun sulfatlash reaksiyalarini 20–40°C da olib borish ko'zlagan natijani beradi.

Boshqa sulfatlovchi vositalar ishtirokida reaksiya qaytmas tarzda sodir bo'ladi: Sulfon kislotasi amidi ishtirokida reaksiya quyidagi tenglama bo'yicha sodir bo'ladi:




reaksiya tartibi sulfon kislotasi amidi bo'yicha birinchi tartibli, spirt bo'yicha esa nolga teng. Bundan ko'rinish turibdiki, reaksiyaning dastlabki bosqichida kislotasi molekulasi qandaydir o'zgarish bo'lishi, balki ammiak va oltingugurt uch oksidiga parchalanish mumkin:



Sulfon kislotasi amidi sulfatlovchi vosita sifatida faolligi sekin bo'lgani uchun «yumshoq» ta'sir etadi: uning spirlar bilan reaksiyasi 110–125°C sodir bo'ladi. Sulfon kislotasi amidining narxi baland bo'lganligi sababli, undan mahsul hollarda foydalaniлади, ya'ni boshqa sulfatlovchi vositalar kerakli natija bermaganda.

Spirlarni sulfatlashda xlorsulfon kislotasi ham qo'llaniladi. Boshqa xloringidridlar singari, u ham yuqori reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega reaksiya katta tezlikda xona haroratida ro'y beradi, kislotasi va spirt bo'yicha reaksiya tartibi birga teng bo'ladi va bunda oltingugurt atomiga spirt molekulasi hujum qiladi:




Yuqori faollikka ega bo'lishiga qaramasdan, xlorsulfon kislotasi «yumshoq» ta'sir etish qobiliyatiga ega va reaksiya deyarli nazariy chiqim bilan hosil bo'ladi. Temperatura ortishi natijasida va ayniqsa, ikkilamchi spirlarni sulfatlashda xlorli birikmalarini hosil bo'lishi

ko‘payadi:



Temperaturani pasaytirish va HCl ni reaksiya muhitidan tez chiqarish hisobiga yuqoridagi reaksiyani to‘xtatish mumkin.


Oxirgi vaqtarda sulfatlovchi vosita sifatida oltingugurt uch oksidi qo‘llanilmoqda. Vakant orbitallar mavjudligi sababli, u elektrofil xususiyatga ega, shuning uchun u spirtdagi kislorod atomi bilan bog‘lanish natijasida kompleks hosil qilishi mumkin, u alkilsulfat kislotaga aylanadi:




Reaksiya ekzotermik tarzda sodir bo‘lganligi sababli oraliq mahsulotlar (olefin, karbonilli birikmalar, smolalar) hosil bo‘ladi, ular SFM xiralanish va sifatini yomonlashuviga olib keladi. Shuning uchun reaksiya temperaturasini boshqargan holda, hosil bo‘ladigan issiqlikni tashqariga chiqaruvchi usulni tanflash maqsadga muvofiq.

Oleflinlarni sulfatlash. Bu reaksiyani amalga oshirish uchun faqat sulfat kislotadan foydalaniladi, chunki boshqa vositachilar faol emas yoki sulfatlar hosil qilmasdan, boshqa moddalar hosil qiladi.


Oleflinlarni H_2SO_4 bilan reaksiyasi bosqichli tarzda mono- va dialkilsulfatlar, olefin polimerlari hosil bo‘lishi bilan sodir bo‘ladi, agarda sulfat kislotasi tarkibida suv bo‘lsa, spirit va oddiy efir ham hosil bo‘ladi. Reaksiya oraliq karbkation hosil bo‘lishi bilan sodir bo‘ladi:



Bundan tashqari, spirit va oddiy efir hosil bo‘lishi kuchli alkilovchi xossaga ega bo‘lgan mono va ayniqsa, dialkilsulfonatlarni qaytar gidroliz va alkogoliz reaksiyalariga asoslangan:



Reaksiyada olefin va H_2SO_4 nisbatini 1:1 olish kerak. Sulfat kislotani olefinlarga birikishi Markovnikov qoidasi asosida ro'y beradi, bunda normal olefinlardan ikkilamchi alkilsulfonatlar hosil bo'ladi. Yuqori n-olefinlar sulfoefir guruhi turli holatlarda joylashgan ikkilamchi alkil sulfatlar aralashmalarini hosil qiladi:




n-olefinlarni sulfat kislota bilan reaksiyasi nisbatan past haroratda jaytmas holda va yuqori ekzotermik ($-\Delta H_{298}^0 = kDj/mol$) tarzda sodir xo'ladi.

Sulfatlash texnologiyasi alkilsulfatlar turidagi sirt-faol moddalarni ich guruhga ajratish mumkin:

1. Birlamchi alkilsulfonatlar, chiziqli uglerod zanjirli birlamchi spirtlardan olinadi. Bu spirtlar qisman tabiiy yog'larni gidrolizlanishi nahsulotlari hisoblanadi (masalan, lauril spirti $C_{12}H_{23}OH$, miristik spirti $C_{14}H_{29}OH$), lekin ko'pincha ularni yuqori yog' kislotalarini gidrirlash silan sintez qilinadi.

2. Ikkilamchi alkilsulfatlar (tipollar), ular H_2SO_4 va chiziqsimon uzilishli olefinlar (α -olefinlar), shuningdek, yumshoq parafinni to'g'ri icksidlash natijasida sintez qilinadigan ikkilamchi spirtlardan olinadi.

3. Efirsulfatlar, 2-3 mol etilenoksidini spirt yoki alkilfenollarga birikishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlarni sulfatlash orqali olinadi:



Alkilsulfatlarni sirt-faollik xossalari alkil guruhining tuzilishi va izunligiga, shuningdek, undagi sulfat qoldig'ini holatiga (joylashishiga) yog'liq. Bu xossalalar uglevodorod zanjirini tarmoqlanishi natijasida keskin pasayadi, shuning uchun ularni sintez qilishda spirt va hiziqsimon olefinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sulfoefir guruhi zanjirining oxirida joylashgan alkilsulfatlar yuqori yuvish xususiyatiga ega bo'ladi (ya'ni birlamchi), u guruh zanjir oxiridan uzoqlashgan sari yuvish xususiyati pasayadi. Pentaidesulfat $C_{15}H_{31}OSO_2Na$ uchun bu bog'liq quyidagicha ifodalanadi:

OSO₂Na-guruhi bo'lgan C atomining tartib raqami.... 1 2 4 6 8
 Yuvisht xususiyati, % 120 100 80 50 30
 Birlamchi alkilsulfatlarda maksimal yuvisht qobiliyati zanjiridagi
 12-16 uglerod atomlarida, ikkilamchi alkilsulfatlarda esa 15-18 uglerod
 atomlarida bo'ladi. 1-alkilsulfatlarda yuvisht qobiliyati quyidagicha o'zgaradi:


C atomlari soni 11 13 15 17 19
 Yuvisht xususiyati, % 20 40 120 140 130

Shunday qilib, alkilsulfatlar turidagi yuvisht vositalari sintez
 qilishda birlamchi spirtlar to'g'ri uglerod zanjirli va C₁₂-C₁₈ α-olefinlar
 qo'llash yaxshi natija beradi.

Yuvisht xususiyatlari bo'yicha birlamchi alkilsulfatlar eng yaxshi
 sirt-faoi moddalar hisoblanadi; sifati bo'yicha ikkilamchi alkilsulfatlar
 ulardan keyingi o'rinda turadi.


Sulfat kislota bilan sulfatlash. Spirt va olefinlarni H₂SO₄ bilan
 sulfatlab sirt-faoi moddalar olish jarayonlarini bir-biriga o'xshash
 tomonlari mavjud. Ikkala reaksiya ham past temperaturada (0-40°C),
 namokob bilan sovitish va aralashtirish orqali olib boriladi. Davriy
 usulda aralashtirgichli reaktordan foydalilanildi, bunda kislotaga spirt
 yoki olefin qo'shib turiladi. Reaksiya aralashmasi quyuqlashib
 borganligi sababli, uni aralashtirish va sovitish qiyinlashadi. Uzlusiz
 sintez jarayonida aralashtirgichli reaktorlar kaskadi, shnekli apparatlar
 va h.k. qo'llaniladi.

Spirtlarni sulfatlashda hosil bo'lgan reaksiya massasining tarkibi
 asosan, alkilsulfat kislotadan iborot bo'lib, shuningdek, reaksiyaga
 kirishmagan spirt va H₂SO₄ ham bo'ladi. Olefinlarni sulfatlashdagi
 aralashma tarkibida undan tashqari, reaksiyaga kirishmagan olefin va oz
 miqdorda dialkilsulfat kislotasi. oddiy efir va polimerlar ham bo'ladi. Bu
 massani qayta ishlashni blok-sxemasi 42-rasmida keltirilgan. Massani
 konsentrланган ishqor bilan 2-blokda neytrallanadi, bunda haroratni
 60°C dan oshirmaslik lozim. Natijada alkilsulfat kislota tuz holiga
 o'tadi, dialkilsulfat usha tuzni va spirt molekulansini hosil qiladi:



sulfat kislota esa natriy sulfatga aylanadi. Aralashmani ajratish 3-blokda
 etanol yoki izopropanol bilan ekstraksiyalash orqali amalgma oshiriladi, ularda
 organik moddalar va alkilsulfat eriydi, lekin natriy sulfat erimaydi (uni sanoat
 chiqindisi sifatida ajratiladi). Shundan so'ng moddalarning spirtli eritmasini
 suv bilan suyultiriladi va 4-blokda reaksiyaga kirishmagan organik reagentlar
 va oraliq mahsulotlarni benzin bilan ekstraksiyalanadi.

O'sha ekstraktdan 5-qurilmada benzin haydaladi (qoldiq sulfatlashi jarayoniga yuboriladi). 4-qurilmada kelayotgan alkilsulfatning suv-spirtlari eritmasi 6-qurilmaga spirtni haydash bo'limiga keladi, qolgan alkilsulfatning konsentrasiyaning suvli eritmasi 7-qurilmaga yuboriladi, u yerda yuvish vositalarining boshqa komponentlari (fosfatlar, soda, karboksimetilsellyuloza, oqartiruvchi) bilan aralashtiriladi. Aralashma 8-quritish qurilmasiga, so'ngra maydalash va qadoqlash uchun 9-qurilmaga yuboriladi.



42-rasm. Alkilsulfat turidagi SFM ishlab chiqarishdagi asosiy jarayonlar sxemasi: 1- sulfatlash; 2- neytrallash; 3- natriy sulfatlash ajratish bo'limi; 4- ekstraksiya; 5- benzinni regeneratsiyalash va reaksiyaga kirishmagan organik reagentlarni ajratish; 6- spirit-erituvchini regeneratsiyalash; 7- yuvish vositalarini boshqa komponentlari bilan aralashtirish; 8- quritish; 9- maydalash va qadoqlash.


Past sifatli yuvish vositalari olishda esa soddalashtirilgan sxemadan foydalaniladi, bunda 3,4,5 va 6-qurilmalar bo'lmaydi, neytrallangan aralashma to'g'ridan-to'g'ri aralashtirish va qadoqlash qurilmalariga yuboriladi. Bunday sxema bilan sintez qilingan yuvish vositasining tarkibidagi sulfatning miqdori ko'p bo'ladi.

Ko'rib chiqilgan ishlab chiqarishning kamchiliklari: xomashyo reagentlardan to'liq foydalanilmaydi, sanoat chiqindisi yoki Na_2SO_4 hosil bo'ladi, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyasining murakkabligi sababli, spirtlarni H_2SO_4 bilan sulfatlash bilan alkilsulfatlar olishni boshqa sintez usullariga almashirtilmoqda.

Spirtlarni xlorsulfon kislota bilan sulfatlash. Ushbu reaksiyani yuqori tezlikda olib borish uchun xomashyo reagentlarni ekvimol nisbatida olish lozim. Bu spirt va sulfatlovchi vositalar sarfini ancha kamaytiradi. Oraliq reaksiyalar deyarli sodir bo'lmaydi, hosil bo'ladigan yo'ldosh mahsulotni (gazsimon HCl) 20–30% li xlorid kislota ko'rinishida ajratib olish mumkin. Natijada, reaksiya massasining tarkibi faqat alkilsulfat kislotadan iborat bo'ladi, bu esa uni qayta ishlashni osonlashtiridi va SFM tarkibida noorganik tuzlar bo'lmasligini ta'minlaydi. Bu afzalliklar tufayli spirtlarni xlorsulfon kislota bilan sulfatlash usuli sanoatda keng qo'llaniladi. Spirtlarni xlorsulfon kislotosi bilan sulfatlash jarayonida gazsimon HCl ni reaksiya muhitidan ajratish ancha qiyinlashadi. Bu jarayonni osonlashtirish uchun reaksiyani shunday jihozlarda olib borish kerakki, u suyuqlikning nisbiy yuzasini kattaishuviga olib kelishi lozim.

Shunday jihozlarni sxemasi 43a-rasmida ifodalangan. 36a-rasmdagi bortikli reaktorda (stakansimon) tarelka mavjud bo'lib, ilonsimon trubalar va aralashtirgich bilansovutiladi. Tarelkaning markaziga xlorsulfon kislota va spirt yuboriladi, ular o'zaro reaksiyaga kirishadi. Qisman reaksiyaga kirishgan aralashma bortik orqali jihoz devorlariga oqadi, suv yordamida sovutiladi. Bu yerdan oqib tushayotgn yupqa suyuqlik qatlamida reaksiya tugallanadi, HCl qoldiqlari ajratiladi. Hosil bo'lgan reaksiya massasini ishqor bilan neytrallash jarayoniga yuboriladi.

43-b,d,e-rasmarda spirtlarni oltingugurt uch oksidi ishtirokida sulfatlash uchun qo'llaniladigan reaktorlar ifodalangan. 38-b-rasmida turbinali aralashtirgichli ikki-uch reaktorlar kaskadi ifodalangan bo'lib, ular turli sovutish moslamalari bilan ta'mirlangan.




43-rasm. Sulfatlash va sulfirlash jarayonlari uchun qo'llaniladigan reaktorlar: a-tarelkali (stakan) reaktor; b- turbinali aralashtirgichli reaktor; d- ichki aylanma barabanli reaktor; 2- plenkalii reaktor.

43 d-rasmdagi reaktor tashqaridan sovutiladi va u ichki aylanma aralashtirgichli barabanga ega, uning tashqi sirtida (yuzasida) teshikchalar mavjud bo'lib, ular reagentlar oqimini yaxshi aralashishi va turbulizatsiyalanishini ta'minlaydi. Bu konstruksiya ancha murakkab bo'lganligi sababli, hozirgi vaqtida asosan pylonkali reaktorlardan foydalaniлади (43e-rasm).

Bu reaktorlar bir va ko'p trubali bo'ladi. Organik reagentlar reaktorning tepe qismidan maxsus tortuvchi moslama orqali yuboriladi, u reaktor devorlarida bir tekisda oquvchi suyuqlik pylonkasini hosil bo'lishini ta'minlaydi. Havo bilan aralashtirilgan SO_3 ni ham reaktorni yuqori tomonidan to'g'ri suyuqlik tomonga yuboriladi, bunda SO_3 reaktorning tepe qismiga tushmasligi kerak, u yerga havo yuboriladi, suytirilgan SO_3 esa maxsus trubalar orqali keladi.

Endi, alkilsulfatlar asosida olinadigan yuvish vositalari sintezi texnologiyasi bilan tanishamiz (44- rasm).


1-reaktorga uzluksiz ravishda spirt, havo va havo bilan suytirilgan SO_3 bug'lari yuboriladi 1-reaktordan chiqayotgan gazlar 2-separatorda suyuqlikdan ajratiladi va 3-absorberga SO_3 qoldiqlaridan tozalash uchun yuboriladi. Hosil bo'lgan alkilsulfat kislotani konsentrangan ishqor eritmasi bilan aralashtirgich va 5-sovutgich bilan ulangan 4-neytralizatorda neytrallanadi. Neytrallash temperaturasi 60°C dan ortmasligi lozim. Shundan so'ng aralashtirgichli 6-moslamada eritmani pH=7 bo'lguncha yana neytrallanadi.




44-rasm. Alkilsulfatlar asosida olinadigan yuvish vositalari ishlab chiqarish texnologiyasi: 1-reaktor; 2- separator; 3- absorber; 4,6-neytralizatorlar; 5- sovutgich; 7- aralashtirgich; 8-quritgich; 9-siklon; 10-shnek; 11-nasoslar.

Neytrallangan, tarkibi alkilsulfat va suvdan iborat reaksiya massasi 7-alarashtirgichga yuboriladi, u yerda kir yuvish vositasining boshqa komponentlari (fosfatlar yoki difosfatlar, soda, oqartiruvchi, karboksimentitsellyuloza) qo'shiladi. Hosil bo'lgan aralashmani nasos orqali 8-purkagichli quritgichga yuboriladi, uni maxsus purkagich bilan issiq yoqilg'i gaz oqimiga purkaladi. Gaz bilan birgalikda olib ketilgan qattiq zarrachatarni 9-siklon yordamida tutiladi. Poroshoksimon kir yuvish mahsuloti quritish apparatini pastidan va siklondan 10-shnek orqali qadoqlash bo'limiga yuboriladi.

Olefinlarni sulfirlash. Yuqorida ko'rib o'tilgan olefinlarni H_2SO_4 bilan sulfatlash jarayonidan farqli ravishda, olefinlarga oleum yoki SO_2 ta'sir ettirilganda sulfirlash reaksiyalarini sodir bo'ladi va bunda C-C bog'lar hosil bo'ladi. SO_3 ni elektrofillik xossasi tufayli birlamchi bipolar kompleks hosil bo'ladi, u gidrid-ionni migratsiyalash bilan izomerlanishi va alkensulfokislota va sulfonlar aralashmasini hosil qilishi mumkin:




Alkensulfokislotalar ishqor bilan neytrallanish natijasida tegishli tuzlarga aylanadi, 1,2-sulton esa α -gidroksisulfokislota tuziga, 1,3- va 1,4-sultonlar gidrolizga ancha turg'un, lekin yuqori temperaturada ular ham gidroksisulfokislotalar hosil qiladi, $130-150^\circ\text{C}$ suv ajralib chiqishi natijasida natriy alkensulfonatlarga aylanadi:



Sanoatda olefinlarni SO_3 bug'lari bilan sulfirlash usuli (havo bilan suyultirilganda) keng qo'llaniladi. Ushbu usul yuqori ekzotermik va tezlikda sodir bo'lishi va boshqa ko'rsatgichlari va reaksiya sharoiti bo'yicha spirtlarni SO_3 yordamida sulfatlashga o'xshaydi. O'sha turdag'i reaktorlar qo'llaniladi, texnologik jarayondagi farq shundan iboratki, ushbu sulfirlashda reaksiya massasi neytrallashdan so'ng texnologik sxemga qo'shimcha degidratlanish tarmog'i ulangan. U isitgich 150°C da ishlaydigan reaktor-gidrolizerdan tashkil topgan.

Aromatik birikmalarni sulfirlash. Bu reaksiya organik sintezda sanoatda tatiq qilingan usullardan biri hisoblanadi. Bu usul bilan hozirgi vaqtgacha fenollar olinadi (β -naftol, rezorsin krezol). Buning uchun sulfokislotalar tuzlari ishqor bilan eritiladi:



Sulfokislotalar, shuningdek, ba'zi bir ba'yoqlar olishda oraliq moddalar hisoblanadi; ularni oshlovchi va katalizatorlar (toluolsulfokislota, Petrov va Tvtchel kontaktlari) sifatida qo'llaniladi. Choklangan polimer va sopolimerlarni sulfirlash bilan (ayniqsa, stirol va divinilbenzol asosida) eng ko'p tarqalgan ionalmashinuvchi smolalar (sulfokationitlar) olinadi, ular noyob metallar kationlarini ajratish uchun qo'llaniladi. Lekin, eng keng qo'lamma sulfirlash jarayoni alkilarensulfonat RArSO_2ONa turidagi SFM ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Reaksiya kimyosi va nazary asoslari.

Aromatik birikmalar sulfirlash uchun asosan H_2SO_4 , oleum va SO_3 qo'llaniladi.

H_2SO_4 bilan sulfirlash jarayoni qaytar reaksiyadir:




Reaksiya natijasida ancha miqdorda issiqlik ajraladi. Reaksiyaning issiqlik effekti kislotaning dastlabki konsentratsiyasiga bog'liq bo'lib =146 kDj/molga teng. Oddiy sharoitda muvozanat o'ng tomonga siljigan bo'fadi, temperaturani ko'tarilishi va uglevodorodlarni haydalashi hisobiga ba'zi hollarda muvozanat chap tomonga silijiysi.

Sulfirlash aromatik yadroda elektrofil almashinish reaksiyalari turiga kiradi.

Reaksiya kislota tarkibidagi va sulfirlashda hosil bo'lgan tezligini ko'pincha quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$r = K[\text{ArH}]/[\text{H}_2\text{O}]^n$$

Aromatik yadroga hujum qiluvchi agent HSO_3^+ ioni deb hisoblanadi:



Sulfat kislota bilan sulfirlashda hosil bo'ladigan oraliq moddalar miqdori uncha ko'p bo'lmaydi va asosan uning oksidlash ta'siri orqali aniqlanadi.


Oleum va SO₃ bilan sulfirlash.

Oleum bilan sulfirlash jarayoni ikki bosqichda sodir bo'ldi
birinchi bosqichda




Bu reaksiya qaytmas va yuqori ekzotermik tarzda ro'y beradi,
uning issiqlik effekti oleumning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lib, 20%-li oleum uchun 180 kDj/molga teng.

Ikkinci bosqichda sulfirlash reaksiyasida H₂SO₄ ishtirok etadi:



Erkin oltingugurt uch oksidi bilan sulfirlash:



Bu jarayon ham qaytmas tarzda ekzotermik holda ro'y beradi.

Oleum va SO₃ bilan sulfirlash reaksiyalarida oraliq mahsulotlar
ham hosil bo'ldi, masalan

Sulfonlar:




yana bir oraliq mahsulot-sulfokislota angidridlari ham hosil bo'ldi, SO₃
ortiqcha olinganda uning miqdori ko'payadi:



Ozgina suv ta'sir ettirish natijasida oraliq mahsulotlar hosil
bo'lishini oldini olish mumkin.

Jarayon texnologiyasi. Aromatik birikmalarni sulfirlashda paydo
bo'ladigan muammolardan biri sulfirlash vositasidan suyultirilgan
kislotalar va tuzlar ko'rinishidagi chiqindi hosil qilmasdan to'liq
foydalanişdir. H₂SO₄ bilan sulfirlashda uchuvchan uglevodorodlar
uchun bu muammoni yechish ancha oson hisoblanadi, chunki hosil
bo'lgan suvni reaksiyaga kirishmagan uglevodorod bilan azeotrop
aralashma holida haydash mumkin. Shuning uchun bu usulni «bug'dagi
sulfirlash» deyiladi va uni benzol va toluolni sulfirlashda qo'llaniladi.

Sulfat kislota bilan «bug'da» sulfirlash jarayoni ancha yuqori
temperaturada suvni tamoman yo'qotish uchun 160–180°C olib boriladi.
Bu usulni davriy va uzlusiz ravishda olib borish mumkin. Benzolni
«bug'da» uzlusiz sulfirlash reaksiya sxemasi 45-rasmida ifodalangan.



45a-rasm. Benzolni bug'da sulfirlash sxemasi:

1,2-reaktorlar; 3-kondensator-sovutgich; 4-separator; 5-bug'latgich.

Toza va aylanma benzol 5-bug'latgichda bug'latiladi, isitiladi va 1-reaktorga yuboriladi. Sulfat kislota ham (90–93% H_2SO_4 bilan ko'poros yog'i ko'rinishida) uzlusiz ravishda shu reaktorga keladi. 1-reaktor isitilmaydi, unda aralashtirgich ham bo'lmaydi (ularni vazifasini 4–5 marta ortiqcha yuboriladigan benzol bug'lari bajaradi). 1-reaktordagi suyuqlik 2-reaktorga keladi, shu reaktoring patki tomoniga benzol bug'lari yuboriladi. Kolonna qalpoqsimon tarelkalar bilan jihozlangan bo'lib, u yerdagi reaksiya massasi qatlamida sulfirlash sodir bo'ladi. Sulfomassa yuqorida pastga harakatlanishi natijasida uning tarkibi o'zgaradi; u benzolsulfokislota bilan to'yinib boradi. 2-reaktor kubidan sulfomassa keyingi qayta ishlash jarayoniga yuboriladi. 1 va 2 jihozlardagi benzol bug'lari o'zi bilan olib ketilgan suv bug'i bilan 3-kondensator-sovutgichda kondensatsiyalanadi, kondensat 4-separatorda ajratiladi, natijada suv va benzol qatlami hosil bo'ladi. Benzol neytrallangandan so'ng yana jarayonga qaytariladi.


45b-rasmda esa aromatik birikmalarini oleum ishtirokida sulfirlash uzlusiz ravishda aralashtirgichli reaktorlar kaskadida olib boriladi. 1-reaktor namokopli sovutgich bilan ulagan bo'lib, unda birinchi eng ekzotermik jarayon ortiqcha olingan SO_3 reaksiyaga kirishguncha olib boriladi, so'ngra sovutilgan reaksiya massasini oleum bilan 3-nasos yordamida aralashtiriladi. Qolgan reaktorlar suv bilan sovutiladi.

Alkilarensulfonatlar turidagi SFM tarkibi aromatik yadro (gidrofob qism) bog'langan alkil guruhi va hidrofil sulfonat guruhi SO_2ONa iborat. ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) neft sulfonatlari. ularni neft fraksiyalarini sulfirlash bilan olinadi; 2) sintetik sulfonatlari.

Neft alkilarensulfonatlarini turli neft fraksiyalariga oleum bilan ishlov berish orgali olinadi. Neft sulfonatlarining sirt faolligi sintetik sulfonatlarga nisbatan ancha past bo'ldi, tekin narxi arzon. Ular o'tkiz hidli, rangli bo'lganligi sababli, kir yuvish vositalari tayyorlashda juda kam foydalilanildi. Iekin ular moylarga qovushqoq prisadkalar, neft sanoatida emulgator va deemulgator flotatsiya agentlari sifatida qo'llaniladi.


Sintetik alkilarensulfonatlar (sulfonollar) asosiy sintetik yuvish moddalari hisoblanadi. Eng birinchi yuvish vositasi nekalni naftalinni izopropanol (yoki izobutanol) va H_2SO_4 ishlov berish bilan olingan. Sulfat kislota bilan bir vaqtini o'zida alkillash katalizatori va sulfirlash vositasi vazifasini bajaradi, bunda yadroga o'rtacha ikkita alkil guruhi kiritiladi:



Alkilarensulfonatlar sintez qiliш uchun alkil guruhi $C_{10}-C_{15}$ bo'lgan alkilbenzollar qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida alkil guruhi manbai sifatida parafinli neftlarning kerosin fraksiyasi, yumshoq parafinlar, n-olefinlar (α -olefinlar) yoki qo'shbog'i ichki hotatda bo'lgan olefinlar qo'llaniladi.

Alkilarensulfonatlar-qattiq kristall moddalardir. Alkil guruhi tarmoqlanganda, ular suvda yaxshi eriydi, to'g'ri zanjirli va alkil guruhi uzoqlashgan sulfonatlarni suvda va spirtda eruvchanligi yomonlashib boradi. Ular rangsiz va hidsiz bo'ldi.

Parafinlar qo'llanilganida jami jarayon xlorlash, benzol alkilxlorid bilan alkillash, sulfirlash va neytrallash, olefinlar qo'llanilganda esa jarayon alkillash, sulfirlash va neftrallashdan iborat bo'ldi:




Olingan mahsulot turli uzunlikdagi alkil guruhiga ega bo'lgan sulfonatlar aralashmasidan iborat bo'ldi. Undan tashqari $AlCl_3$ izomerlanuvchaniж ta'siri tufayli alkillashda moddalar aralashmasi hosil bo'ldi, ulardag'i fenilsulfonat guruhi bilan bog'langan bo'ldi.

Alkil guruhi tarmoqlangn bo'lsa, ular suvda yaxshi eriydi; alkil zanjirining to'g'rilanishi va uzayishi bilan suvda va spirlarda

eruvchanligi kamayadi. Ular deyarli rangsiz va hidsiz. Ularni kiyim va motorlarni yuvishda yuvish kompozitsiyalari olish uchun, idish va turli xil sherstlarni yuvishda, kimyoviy tolalarni oqartirishda qo'llaniladi.

Ushbu SFM olishda uzoq vaqt davomida sulfirlash bosqichini davriy va uzlusiz ravishda oleum ishtirokida olib borilgan.



46-rasm. Suyuq uglerod to'rt oksidi eritmasida sulfirlash sxemasi:

- 1- SO_2 ni SO_3 gacha oksidlash biksi; 2-sovutgich; 3,7-yig'gichlar;
- 4-reaktor; 5-bug'latgich; 6-isitgich.

Hozirgi vaqtga kelib, eng ilg'or SO_3 qo'llash usulidan foydalaniladi (46-rasm). Bu ishlab chiqarishda SO_3 ni texnik kislorod bilan qisman oksidlab SO_3 olish 1-blokda olib boriladi. 2-sovutgichda sovutilgan va konsentratsiyalangan mahsulotlar suyuq SO_2 da 10–15% li SO_3 eritmasi holida 3-yig'gichga yig'iladi. Ushbu eritma, shuningdek, suyuq SO_2 dagi alkilaromatik uglevodorodlar eritmasi 4-reaktor tarelkasiga kiritiladi, u reaktor qobig'i devoridan pastga plynokaga o'xshab oqib tushishi natijasida reaksiya tugaydi. Reaktordan chiqayotgan suyuqlik tarkibida 5–7% SO_2 bo'ladi, ajratish uchun isitiladi va 5-vakuum bug'latgichga yuboriladi, shundan so'ng u 7-yig'gichga oqib keladi va boshqa qayta ishlash bosqichlariga yuboriladi (neytrallash, aralashtirish, quritish). Gazsimon SO_2 reaktorning tepe qismi va bug'latgichdan so'ng 1-blokka qaytariladi.

Tayanch so'z va ifodalar

Olefinlar gidratatsiyasi; olefinlarni sulfat kislotali gidratatsiyasi; olefinlarni to'g'ri gidratatsiyasi; etanol ishlab chiqarish; atsetilen gidratatsiyasi; degidratatsiya jarayonlari; to'yinmagan birikmalar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan degidratatsiya, oddiy esfirlar hosil bo'lishi

bilan sodir bo‘ladigan degidratatsiya, karbon kislotalar degidratatsiyasi. Sulfatlash, sulfirlash, olefinlar, sulfat kislota, xlorsulfon kislota, spirtlar, aromatik birikmalar, oleum, benzolni «bug‘da» sulfirlash, sintetik sulfonatlar

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Spirtlarni sulfatlash.
2. Olefinlarni sulfatlash.
3. Sulfatlash texnologiyasi.
4. Sulfat kislota bilan sulfatlash.
5. Spirtlarni xlorsulfon kislota bilan sulfatlash.
6. Olefinlarni sulfirlash.
7. Aromatik birikmalarni sulfirlash.
8. Benzolni «bug‘da» sulfirlash.
9. Aromatik birikmalarni sulfat kislota bilan sulfirlash.
10. Aromatik birikmalarni oleum bilan sulfirlash.

NITROLLASH JARAYONLARI

Nitrobirikmalar biologik moddalar hisoblanadi. Ularning barchasi ozmi-ko‘pmi zaharli ta’sir etuvchi vositalardir. Molekulaga gidroksil yoki karboksil guruhi kiritilganda zaharlilik xususiyati kamayadi. Nitroguruh markaziy asab sistemasi va jigarga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Lekin nitroguruhli moddalarni ko‘pchiligi biologik xususiyatni ham namoyon qilishi sababli, turli mikroblar va hasharotlarga qarshi preparatlar sifatida qo‘llaniladi. Masalan, antibiotiklardan levometsitin, p-nitrobenzilpenitsillin bunga misol bo‘la oladi. Dorivor vositalar va vitaminlar olishda aromatik va geteroaromatik, alifatik nitrobirikmalar oraliq mahsulot sifatida muhim ahamiyatga ega.

Organik birikmalar tarkibidagi vodorod atomi o‘rniga NO_2 guruhi almashinish jarayoniga nitrollash reaksiyasi deyiladi. Nitrollash vositalari sifatida nitrat kislota, nitrat va sulfat kislota aralashmasi (melanj), nitrat va sırka kislota aralashmasi, azot oksidlardan foydalaniлади. Nitrollash reaksiyasi tez sodir bo‘luvchi, qaytmas va ekzotermik jarayondir. Nitrollashda aromatik uglevodorodlar, ularning hosilalari, to‘yinmagan birikmalar va alkanlar xomashyo sifatida qo‘llaniladi.

Organik birikmalarga nitroguruh turli usullar yordamida kiritilishi mumkin. Sanoatda eng muhim ahamiyatga ega bo'lganlari quyidagilar hisoblanadi: 1) aromatik yadroda nitrollash; 2) to'yingan uglevodorodlarni nitrollash.

Nitrollash jarayoniga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) kislota konsentratsiyasi; 2) aralashtirish tezligi; 3) temperatura.

Kislota konsentratsiyasi ta'siri. Nitrollash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda eng muhim omillardan biri kislota konsentratsiyasi hisoblanadi. Reaksiya muhitida suvning konsentratsiyasini ortishi nitrat kislotali dissotsiatsiyasiga va nitroniy-kationlarini kamayishiga sabab bo'ladi. Suvsiz nitrat kislota tarkibida taxminan 1% nitroniy-ionlari mayjud bo'ladi, lekin 5% suv qo'shilishi natijasida NO_2^+ konsentratsiyasi nolga tushadi. Nitroniy ionining sulfat va nitrat kislotalar aralashmasidagi miqdorini 7-jadvaldan ko'rish mumkin.

Sulfat va azot kislotalar aralashmalarida nitroniy kationi miqdori

7-jadval

Nitroniy kationi	$\text{H}_2\text{SO}_4 : \text{HNO}_3, \%$				
NO_2^+ ga dissotsiatsiyalangan HNO_3	100	62,5	16,7	5,9	1
aralashmadagi NO_2^+	10	12,5	10	5,3	1


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sulfat va azot kislota aralashmalarida nitroniy-ioni miqdori nisbatan ancha yuqori.

Nitrollash jarayoniga temperatura ham katta ta'sir ko'rsatadi. Temperaturani 10°C ga ko'tarilishi natijasida reaksiya tezligi uch marta ortadi. Nitrollash reaksiyasida aralashtirish tezligi ortishi bilan reaksiya tezlashadi. Nitrollash asosan kislota qatlamida sodir bo'ladi, chunki uglevodorodlarni kislota aralashmasidagi eruvchanligi NO_2^+ ni uglevodorodda eruvchanligiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.



Nitrollovchi vositalar tabiatli nitrollash jarayoni sharoitiga katta ta'sir ko'rsatadi. Konsentrangan nitrat kislota yoki nitrollash aralashmasi ishtirokida reaksiyaning past temperaturada va reaksiya massasini doimo sovitish orqali olib boriladi.

Suyultirilgan HNO_3 yoki azot oksidlari ishtirokida esa jarayon reaksiya massasini isitish bilan yuqori temperaturada olib boriladi.

Nitrollash jarayonida katalizatorlar deyarli qo'llanilmaydi. Biroq, simob va uning tuzlari ishtirokida benzolni nitrat kislota bilan nitrollash natijasida pikrin kislota sintez qilish mumkin.




Aromatik birikmalarini nitrollash. Bu usul ko'pincha nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi yordamida amalga oshiriladi. H_2SO_4 ham katalizator, ham suvni tortib oluvchi vosita sifatida qo'llaniladi, u HNO_3 ni to'liq sarflanishiga va oksidlanish jarayonini sodir bo'lmasligiga yordam beradi. Nitrollovchi aralashmada kislota-asosli ta'sir sodir bo'ladi, bu esa juda faol nitrollovchi agent nitroniy ioni NO_2^- hosil bo'lishiga olib keladi, u aromatik yadroga hujum qiladi:



Nitroguruhn reaksiyaning borishiga ta'sir etishi sababli nitrollashning keyingi bosqichi avvalgisigacha nisbatan sekinroq boradi $[(K_n/K_{n-1}) \ll 1]$. Shuning uchun mahsulotning yuqori chiqimi bilan olish uchun (mono-, di-, trinitro hosilalar) kerakli nitrollovchi agent va temperatura tanlash lozim.


Masalan, toluol nitrollanganda (40°C), dastlab mononitrotoluol (58–59% orto, 4–5%-meta va 36–39% para izomer) hosil bo'ladi, so'ngra ular 70 – 80°C da dinitrotoluollarga aylanadi (2,4 va 2,6-izomerlari), oxirida esa trinitrotoluol hosil bo'ladi:



Bu reaksiya asosan temperatura va $\text{HNO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4$ aralashimasining nitrollash xususiyatiga va aromatik birikmaning reaksiyaga kirishi qobiliyatiga bog'liq.


Aromatik birikmalarini nitrolash qaytmaydigan va ekzotermik tarzda sodir bo'ladigan reaksiya hisoblanadi (≈ 151 kDj bir nitroguruhga). Sulfirlash kabi, issiqlik effekti nitrollovchi aralashmani reaksiya natijasida ajralayotgan suv bilan suyulishi hisobiga sulfat kislotaning konsentratsiyasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Uglevodorodlar yoki xlorli birikmalarni nitrollashda reaksiya massasi bir-biri bilan aralashmaydigan ikki xil suyuqlikdan iborat bo'ladi. Reaksiya massasini isib ketishini va oraliq qo'shimcha reaksiyalar sodir bo'lmasligini oldini olish uchun, eritma doimo sovutilishi va yaxshilab aralashtirilishi lozim. Jarayon asosan aralashtirgichli reaktorlar to'plamida olib boriladi; har bir reaktordan so'ng organik fazani nitrollovchi aralashmadan ajratish uchun separator qo'yiladi. Bunda toza nitrollash aralashmasi (yoki uglevodorod) oxirgi reaktorga beriladi, chunki u yerda xomashyonи yaxshilab nitrollash uchun kerakli shart-sharoit ta'minlanishi lozim. Ushbu reaktorda foydalilanilgan kislotalar ajratiladi va oldingi apparatga yuboriladi va h.k. (47-rasm).



47-rasm. Aromatik birikmalarni nitrollash reaksiya qurilmasi:
1-nitratorlar; 2-separatorlar; 3-nasoslar.

Aromatik nitrobirikmalar portlovchi moddalar va oraliq mahsulotlari sifatida muhim ahamiyatga ega (nitrobenzoldan anilin, mononitrotoluoldan toluidin, m-fenilendiamin va dinitrobenzoldan m-toluilendiamin olishda foydalilanildi). Nitrofenollarni asosan sulfirlash bosqichi orqali olinadi (fenollar nitrat kislota ishtirokida oson oksidlanadi):




Nitrofenollar bir qator sintezlarda, shu qatorda o'simliklarni himoya qilish vositalari ishlab chiqarishda qo'llaniladi.


Parafinlarni nitrollash. Parafinlarni nitrollashni birinchi marta M.I. Konovalov XIX asrni oxirlarida kashf qildi. Keyinchalik parafinlarni nitrollashni quyidagi usullari yaratildi:

1) Gaz fazasida 350–500°C da 40–70% li HNO₃ yordamida; 2) suyuq fazada 100–200°C da 50–70% li HNO₃ bilan; 3) suyuq yoki gaz fazasida azot ikki oksidi bilan.


Parafinlarni nitrollashda nitroguruh turli uglerod atomlaridagi vodorod atomi bilan o'rinn almashadi; ularni reaksiyaga kirishish qobiliyatini parafinlarni xlorlashdagi kabi quyidagi tartibda joylashtirish mumkin: uchlamchi>ikkilamchi>birlamchi. Temperaturani ko'tarilishi bilan ularni reaksiyaga kirishish qobiliyat tenglashadi, lekin doimo nitroparafinlar izomerlari aralashmasi hosil bo'ladi, bunda uglerod skeleti izomerizatsiyasi ro'y bermaydi:



Nitroguruh keyingi o'rinn almashinish reaksiyalariga to'siqlik qiladi, shuning uchun gaz fazasidagi nitrollashda ortiqcha miqdorda olinadigan uglevodorod (3:1 dan 10:1) ishtirokida, dinitrohosilalar hosil bo'lmaydi. Lekin suyuq fazadagi nitrollashda mononitrobirkimlar nitrat kislotada reaksiyaga ishlataladigan uglevodorodlarga nisbatan yaxshiroq eriydi, natijada dinitrohosilalar hosil bo'lishi kuzatiladi. Bunda ikkinchi nitroguruh birinchi nitroguruhdan uzoqroq holatga yoki nitroguruhi mavjud bo'lgan uglerodga birikadi. Buning natijasida 2-nitropropandan yaxshi chiqm bilan 2,2-dinitropropan olish mumkin:




Parafinlarni yuqori temperaturada gaz fazasida nitrollash jarayonlarida uglerod zanjiri destruksiyaga uchrashi natijasida doimo past nitroparafinlar ham hosil bo'ladi:



Bu jarayon destruktiv nitrollash deyiladi. Bu jarayon tarmoqlangan uglevodorodlar uchun to'g'ri zanjirliga nisbatan kamroq uchraydi.

Nitrollash jarayonlarida sodir bo'ladigan oraliq, noxush reaksiyalardan biri, bu parafinlarni nitrat yoki azot ikki oksidi bilan oksidlanishi hisoblanadi. Shuning uchun hosil bo'ladigan mahsulot unumi 50–80% ni tashkil qiladi. Oksidlash mahsulotlari tarkibida aldegid va ketonlar, karbon kislotalar, uglerod oksidlari borligi aniqlandi. Oksidlash jarayonlari temperatura ko'tarilishi bilan kuchayadi. Shuning uchun har bir uglevodorodni nitrollash uchun o'zining optimal temperaturasi mavjud bo'lib, unda mahsulotning chiqimi eng yuqori bo'ladi.

Nitrollash reaksiyaları erkin-radikal mexanizmi asosida sodir bo'ladı. Nitrat kislotasini gomolitik parchalanishi va hosil bo'lgan radikallarni uglevodorod bilan o'zaro ta'siri natijasida radikallar hosil bo'ladı.



Birinchi reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan azot to'rt oksidi o'sha zahoti nitrollash vositasi sifatida ishlataladi, shuningdek, u uglevodorodlar bilan reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega, undagi vodorod atomini tortib oladi (chunki NO_2 da juftlanmagan elektronlar mavjud).


Nitrollashdagi asosiy reaksiya erkin radikallarni azot to'rt oksidi bilan o'zaro ta'siridir, bu reaksiya zanjirli jarayonni rivojlantiradi:



Destruktiv nitrollash va oksidlash jarayonlari nitrat kislota, shuningdek, nitritlar hosil bo'lishiga asoslangan:




Propanni destruktiv nitrollash reaksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Jarayon texnologiyasi. Parafinlarni gaz fazasida nitrollash reaksiyaları orasida propanni 40–70% li nitrat kislota bilan nitrollash jarayoni sanoatga tatlîq qilingan usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayon $400\text{--}450^\circ\text{C}$, $0,5\text{--}1$ MPa bosim ostida olib boriladi, bunda propanni nitrat kislotaga 5:1 mol nisbatda olinadi. Hosil bo'ladigan nitroparafinlar tarkibi quyidagi mahsulotlardan iborat: 25% nitrometan (qaynash temperaturasi $101,2^\circ\text{C}$), 10% nitroetan (qaynash temperaturasi 114°C) 20% 1-nitropropan (qaynash temperaturasi $131,6^\circ\text{C}$) va 40% 2-nitropropan (qaynash temperaturasi $120,3^\circ\text{C}$). Ularni retifikatsiya usuli bilan bir-biridan ajratish mumkin.


Nitroparafinlar rangsiz suyuqlik bo'lib, uncha o'tkir bo'lmagan hidga ega. Ular erituvchi sifatida keng qo'llaniladi va organik sintezning

muhim oraliq mahsulotlari hisoblanadi. Ulardan nitrospirtlar, aminospirtlar, nitrofenollar va bir qator portlovchi moddalar (masalan, uch (nitroksimetil) nitrometan) va boshqa zarur moddalar olinadi:



Endi gaz fazasida propanni nitrat kislota bilan nitrollash texnologiyasi bilan tanishamiz (48-rasm). Jarayon adiabat turidagi silindrsimon 2-jihozda olib boriladi, unda isitish moslamalari mavjud bo'lmaydi. Reaksiya natijasida ajralayotgan issiqlik, xomashyo uglevodorodlarni isitish va nitrat kislotani bug'latish uchun sarf bo'ladi.

Isitilgan propan 2-reaktorning pastki tomoniga keladi. Nitrollash va oksidlash mahsulotlarini reaksiyaga kirishmagan propan bilan birgalikda suv yordamida 3sovutgichda sovutiladi va oksidlanish mahsulotlari (aldegid va ketonlar) va nitrobirikmalarni kondensatsiyalanish mahsulotlarni yig'ish uchun 4-absorberga yuboriladi. Absorber gidroksilamin xloridning suvli eritmasi bilan sug'oriladi (namylanadi).



48-rasm. Propanni nitrollash texnologik sxemasi:

1-istigich; 2-reaktor; 3-sovutgich; 4-absorber; 5- issiqlik almashtirgich;
6- bug'latish kolonnasi; 7- kondensator; 8-separator; 9-retifikatsiya
kolonnasi; 10-qaynatgichlar.

Absorber kubidagi suyuqlik 6-bug'latish kolonnasiga keladi. U yerda nitroparafinlar hamda oksimlar gidrolizida hosil bo'lgan aldegid va ketonlar absorbentdan haydar ajratiladi va 5-sovutgichda sovutilgandan so'ng absorberga qaytariladi. 6-bug'latish kolonnasidagi bug'lar 7-kondensatorda kondensatsiyalanadi. 8-separatorda esa ikkita qatlamga ajraladi. Hosil bo'lgan pastki suv qatlami bug'latish kolonnasining yuqori qismiga, yuqori organik qatlamini esa 9-retifikatsiya kolonnasiga yuboriladi. Nitroparafinlar keyingi qayta ishslash jarayoniga, ya'ni tozalash va retifikatsiyalashga yuboriladi, unda suv, nitrometan, nitroetan, 2-nitropropan va 1-nitropropan ajratib olinadi.

Jarayonning tejamkorligi absorberdan ketayotgan gazlar tarkibidagi propan va azot oksidlarini regeneratsiyasi bilan bog'liq. Ushbu gazlarda ≈85% C₃H₈ va 10% NO bo'ladi. Regeneratsiya bo'limida aralashmadagi propanni sovutish yoki kerosin bilan absorbsiyalash orqali ajratiladi, chunki kerosinda boshqa H₂,CO,CO₂ komponentlari erimaydi. Qolgan gazga havo aralashtiriladi, hosil bo'lgan azot to'rt oksidi suv yoki suyultirilgan nitrat kislotasi yordamida yig'iladi. Bunda azot oksidlari nitrat kislotaga aylanadi, qolgan gaz esa atmosferaga chiqariladi. Regeneratsiyalangan propan va nitrat kislotasi toza xomashyo bilan aralashtiriladi va nitratorga yuboriladi.

Nitroparafinlar ishlab chiqarish sanoati portlash xavfiga ega, undan tashqari, kuchli nitrat kislotasi va yuqori temperatura ta'siriga uchraydi. Shuning uchun qo'llaniladigan asbob-uskunalar legirlangan po'latdan, ferrosilid, titan yoki tantaldan yasalishi lozim.

Parafinlarni (160–180°C yuqorida qaynaydigan >C₁₀) suyuq fazada nitrollashning eng samarali usullaridan biri azot kislotasi bug'ida nitrollash hisoblanadi. Ushbu jarayonda barbataj turidagi reaktordagi suyuq uglevodorod 130–220°C nitrollanadi. Reaksiya massasiga tushirilgan ilonsimion trubalarga suyuq kislotasi yuboriladi. Reaksiya vaqtida ajralayotgan issiqlik kislotasi tomonidan yutiladi. So'ngra kislotasi bug'lar taqsimlanish moslamasiga keladi va reaksiya massasi orqali barbotirlanadi, uglevodorodlar nitrollanish amalga oshadi. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, bunda reaksiya hajmida nitrat kislotasi bug'lar uncha ko'p miqdorda bo'lmaydi, shuning uchun jarayon xavfsiz va oson boshqariladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Propan, nitrollash, texnologiya, oksidlanish, absorber, nitrollash vositalari, nitrat kislota, nitrat va sulfat kislota aralashmasi (melanj), nitrat va sirka kislota aralashmasi, azot oksidlari, ekzotermik reaksiya kislota konsentratsiyasi, aralashtirish tezligi, temperatura.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Nitrollash jarayoni va uning turlari.
2. Nitrollovchi vositalar.
3. Nitrollash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.
4. Aromatik birikmalarni nitrollash.
5. Aromatik birikmalarni nitrollashda qo’llaniladigan reaktorlar.
6. Parafinlarni nitrollash usullari.
7. Parafinlarni nitrollash texnologiyasi.
8. Propanni nitrollash jarayoni.

VI bob. OKSIDLASH JARAYONLARI

Asosiy organik sintez sanoatida oksidlash jarayonlarini amaliy ahamiyati katta. Ularning birlamchi vazifalari quyidagi sabablarga asoslangan:


1. Oksidlanish natijasida olinadigan birikmalar katta ahamiyatga ega (spirtlar, aldegid va ketonlar, karbon kislotalar va ularning angidridlari, oksidlar, nitrillar va h.k.), ular organik sintezda oraliq mahsulotlar, erituvchilar, monomer va polimer materiallari ishlab chiqarishda xomashyo, plastifiqatorlar vazifasini bajaradi.

2. Oksidlanish reaksiyalarining turli-tumanligi ko'p organik moddalar, shuningdek, uglevodorodlarning barcha sinflarining ushbu reaksiyalarga moyil ekanligini ko'rsatadi. Bu esa oksidlanish jarayonlarini uglevodorod xomashyolarini birlamchi qayta ishlash va ular asosida ko'p sonli kerakli moddalar olish imkoniyatini yaratadi.


3. Ko'pchilik oksidlovchi vositalar, ular orasida, ayniqsa, hayo kislороди arzon va qulaydir. Shuning uchun, boshqa usullarga nisbatan oksidlash bilan mahsulotlar olishni ancha arzonga tushishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, oksidlanish jarayonlari organik sintezda keng tarqalgandir va iqtisodiy samarasiz mahsulotlar olishning ko'p usullari siqib chiqarildi.

Oksidlanish jarayonlari tavsifi. Organik kimyoda oksidlanish reaksiyalarini taysiflash uncha oson emas, chunki noorganik kimyo singari ularda elementlarning valent o'zgarishi sodir bo'lmaydi. Shuningdek, ularning umumiy maqsadi molekulaga kislород atomini kiritish emas; bu oksidlanishga aloqasi bo'limgan boshqa reaksiyalarda (gidroliz, hidratatsiya) ham uchraydi, undan tashqari shunday oksidlanish reaksiyaları borki, reaksiya natijasida molekuladagi kislород atomlari soni o'zgarmaydi, masalan:




Shunday qilib, organik kimyoda va texnologiyasida oksidlanish jarayonlari deganda, moddalarni oksidlovchi vositalar ta'sirida oksidlanishi tushuniladi. Oksidlanishda to'liq va to'liq bo'limgan oksidlanish reaksiyaları mavjud. Birinchi usulda moddalarni yonishida uglerod to'rt oksidi va suv hosil bo'ladi:




Organik kimyoda to'liq oksidlanish jarayonida noxush oraliq reaksiya hisoblanadi. Sintez uchun to'liq bo'lgan oksidlanish muhim hisoblanadi, ularni uchta asosiy guruhega ajratish mumkin:

1) Uglerod zanjiri uzulmasdan sodir bo'ladigan oksidlanish, bunda uglerod atomlari soni reaksiyaga kirishayotgan uglerod atomlari soni bilan bir xil bo'ldi. Bu reaksiyalarni ham o'z navbatda ikkiga ajratish mumkin:


a) Parafin, naften, olefin va alkilaromatik uglevodorodlar va ularning hosilalaridagi, ayniqsa, spirit va aldegidlardagi to'yingan uglerod atomi bo'yicha alkillash:



b) Destruktiv oksidlanish. Bu jarayon uglerod-uglerod bog'larini parchalanishi bilan sodir bo'ladi. Bu jarayon parafinlar, naftenlar, olefin va aromatik uglevodorodlarga xosdir. Destruksiya C-C, C=C yoki C_{ar}-C_{ar} bog'larda ketadi:



2) Reaksiyaga kirishayotgan reagent molekulalarini bog'lanishi bilan sodir bo'ladigan oksidlanish (oksidlanish kondensatsiyasi)



Oxirgi reaksiyani oksidlanish ammonoliz deyiladi.


Oksidlovchi vositalar va oksidlash jarayonidagi texnika xavfsizligi qoidalari. Asosiy va nozik organik sintezda laboratoriya sharoitida oksidlovchi sifatida permanganatlar (ishqoriy, neytral yoki kislotali muhitda), bixromat, xrom uch oksidi, ba'zi metallarning peroksidlari (marganets, natriy, qalay) qo'llaniladi, lekin asosiy organik sintez sanoatida arzon oksidlovchi vositalardan foydalilanadi. Ular gatoriga molekular kislorodni, nitrat kislotani, peroksidli birikmalarni misol qilib olish mumkin.

Molekular kislorod (havo, texnik kislorod, yoki azot-kislorod aralashmasi tarkibida ozgina O₂)-oksidlovchi vositalar orasida eng muhim hisoblanadi. U yuqorida ko'rilganidek kuchli oksidlash ta'siriga ega, lekin uni havoni parchalash uchun qo'llash qo'shimcha sarf-xarajatlar bilan bog'lanadi.


Gaz fazasida oksidlash jarayonida texnik kislorod ham qo'llaniladi.

Nitrat kislota (ba'zida azot oksidi) qo'llanishi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Uning ta'siri ko'pincha organik birikmani oraliq nitrollash bilan ro'y beradi, bu jarayon kislota konsentratsiyasini ortishi bilan kuchayadi. Shu sababli, oksidlash reaksiyalari uchun 40–60% li HNO₃ dan foydalilanadi. Parafinlarni oksidlashda HNO₃ dan oksidlovchi sifatida foydalilanadi.

Siklik va to'yinmagan birikmalarni destruktiv oksidlashda nitrat kislotadan foydalanjadi, bunda kislorod bilan oksidlashga nisbatan yaxshi natija olinadi:




Nitrat kislota bilan oksidlanganda ular azot oksidlarigacha parchalanadi (NO va N₂O₃). Sanoatda bu usulni afzalligi hosil bo'lgan oksidlarni utilizatsiyasi va reaksiyaga kirishmagan HNO₃ ni regeneratsiyasi bilan bog'liq. Birinchi masalani yechish uchun suv yoki nitrat kislota muhitida azot oksidi havo bilan oksidlanadi, bunda nitrat kislota hosil bo'ladi:



Peroksidli birikmalar. Asosan vodorod peroksiyi va sirkva kislota (oxirgi paytlarda gidroperoksidlar) oksidlovchi vosita sifatida asosiy organik va neftkimyёси sintezida yaqindan boshlab keng qo'llanilmogda. Narxi ancha qimmat bo'lgani sababli, ularni molekular kislorod yoki nitrat kislotasi bilan oksidlash sodir bo'lmaydigan jarayonlar uchun

qo'llaniladi. Bu asosan to'yinmagan birikmalarni epoksidlash jarayonlariga taalluqli:



Texnika xavfsizligi. Oksidlash jarayonlarida oksidlovchi vositalar organik moddalar bilan portlovchi aralashmalar yoki parchalanadigan birikmalar hosil qiladi.

Suyuq fazadagi oksidlash reaksiyalarida organik moddalarning bug' bosimi qancha yuqori bo'lsa, portlash xavfi shuncha kuchli bo'ladi, bunda havo yoki kislorod bilan portlovchi aralashmalar hosil bo'ladi.

Nitrat kislota va boshqa oksidlovchilar ham organik moddalar bilan portlovchi aralashmalar hosil qiladi.

Vodorod peroksid va persirka kislota ishtirokida xavf bo'lishini sababi shundan iboratki, ularning parchalanish natijasida suv va sirkva kislota hosil bo'lish ekzotermik tarzda sodir bo'ladi:



Ko'rsatilgan peroksid birikmalarning parchalanishi o'zgaruvchan valentli metallar (Fe,Cu,Mn,Co,Cr) va ularning tuzlari ishtirokida katalizlanadi. Shuning uchun konsentrangan vodorod peroksid va ayniqsa, peroksid kislotalar organik modda yo'qligi portlash xususiyatiga ega. Ularni eritmalarda va boshqariladigan temperatura sharoitida qo'llash bunday kiyinchiliklarni oldini olishga imkoniyat yaratadi.

Oksidlash vositalari va ularning aralashmalarini organik moddalar bilan portlashi mumkinligini bilgan holda, oksidlash texnologik jarayonlarini yaratishda e'tiborga olish lozim.

Radikal zanjirli oksidlash.

Bunday reaksiyalar to'yigan uglerod atomi bo'yicha oksidlash uchun qo'llanilgan bo'lib, uch guruh jarayonlardan iborat:

parafin va ularning hosilalarini oksidlash; sikloparafin va ularning hosilalarini oksidlash; alkilaromatik uglevodorodlar yon zanjirlarini oksidlash.

Ushbu jarayonlarda gidroperoksidlar, spirtlar, aldegidlar, karbon kislotalar va ularning angidridlari hosil bo'ladi.

Radikal-zanjirli oksidlash asosan suyuq fazada gomogen sharoitda sodir bo'ladi. Uning ikki xili mavjud: termik (avtooksidlash) va o'zgaruvchan valentli metall tuzlari katalizatorligida (C₆, Mn va h.k.) boradigani.

Uglevodorodlarning oksidlanishi natijasida bir qator molekular mahsulotlar: gidroperoksidlar, spirtlar, ketonlar, aldegidlar, karbon kislotalar, murakkab efirlar va murakkab polifunksional birikmalar hosil bo'ladi. Oraliq faol zarrachalar, bu uglerod atomidagi (R-) yoki kislorod-

lar atomidagi ($\text{ROO}\cdot$, $\text{RCOOO}\cdot$) erkin valentli radikallar hisoblanadi.

Gidroperoksidlar—uglevodorodlarning oksidlanishdan hosil bo'lgan birlamchi molekular mahsulot bo'lib, ularning hosil bo'lishdagi zanjir zvenosi quyidagi ko'rinishga ega:



Gidroperoksidlar beqaror birikmalar hisoblanadi, oksidlanishi natijasida boshqa mahsulotga aylanadi. Shuning uchun ularning konsentratsiyasi reaksiya massasida, ayniqsa, katalitik oksidlanishi yoki yuqori haroratda uncha yuqori emas.


Spirt va karbonilli birikmalar uglevodorodlar oksidlanishning ikkilamchi mahsulotlari hisoblanadi. Spirtlar parafin va naftenlartidan oksidlash natijasida ko'p miqdorda hosil bo'ladi, lekin alkilaromatik birikmalardan emas.

Langerbek-Pritskovning an'anaviy sxemasiga ko'ra, ushbu mahsulotlar oksidlanshda gidroperoksid orgali hosil bo'ladi:




Yuqori temperatura yoki katalizatorlar ta'sirida gidroperoksidlar parchalanganda spirit va karbonilli birikmalar hosil bo'ladi. Ushbu parchalanish molekular mexanizm asosida sodir bo'ladi, lekin oksidlanish jarayonida mahsulotlar asosan zanjirli usul bilan hosil bo'ladi.


Spirtlar olishda zanjir zvenosi quyidagicha:




Ikkilamchi gidroksidlardan radikal-gidroperoksidlar bosqichi orqali ketonlar hosil bo'ladи;




Uchlamchi gidroperoksidlardagi uglerod bog'ning destruksiyasi hisobiga spirtdan tashqari, shuningdek, uglerod atomlari soni kam bo'lgan spirt va kteon hosil qiladi:




Spirtlarni ketonga aylanishi zanjirli usul bilan boradi, bunda spir molekulasidagi oksidlash ta'siri qilgan uglerod atomiga hujum qilinadi:




Yuqorida ko'rsatilgan reaksiya mexanizmi asosan nokatalitik suyuq fazada, o'ttacha haroratda boradigan oksidlashga xosdir. Gaz fazasida yuqori temperaturada oksidlashda barcha mahsulotlar peroksid radikallari orqali hosil bo'ladi, bunda uglerod-uglerod bog'ining destruksiya uchrashi natijasida spirit va aldegid hosil bo'ladi:



Oxirgi paytlarda suyuq fazada oksidlashda mahsulot hosil bo'lishi uchun peroksid radikallari katta vazifasni bajaradi:




Uglerodlarni oksidlashda, ularni uglerod zanjirini saqlagan holda yoki C-C bog'dan destruksiyanishni natijasida karbon kislotalar hosil bo'ladi. Birinchisi birlamchi gidroperoksidlarni o'zgarishlari va alkilaromatik birikmalarni oraliq oldegid bosqichi orqali metil guruhining oksidlanishi bilan sodir bo'lishi mumkin:




Parafin va naftenlarni oksidlanishda arbon kislota hosil bo'lishi uglerod zanjirining destruksiyasini bilan boradi:

Aldegid eng oson oksidlanadigan birikmalar bo'lgani uchun uglevodorodlarni suyuq fazada oksidlanishi natijasida ular oz miqdorda hosil bo'ladi yoki umuman hosil bo'lmaydi. Radikal-zanjirli oksidlashda ular oraliq atsil va peroxsiatsil radikallari va peroksikislota hosil qiladi:



Peroksikislota (masalan, persirka) aldegidlarga birikishi va peroksidli birikma hosil qilishi qobiliyatiga ega. Atsetaldegidni oksidlanish natijasida hosil bo'lgan mahsulotni atsetaldegidperatsetat (2-gidroksietilperatsetat) deyiladi:




Ushbu reaksiya muvozanati past temperaturada o'ng tomonga siljigan bo'ladi, ushbu sharoitda katalizator ishtirokida yoki uning

miqdori kamroq bo'lganda peratsetat oksidlanish jaravonining oxirgi mahsuloti hisoblanadi. Qizdirish natijasida va o'zgaruvchan valentli metall tuzlari ishtirokida peratsetat tezda parchalanadi va ikki molekula karbon kislota hosil bo'ladi. Ushbu sharoitda peratsetat oz miqdorda hosil bo'ladi va reaksiya aldegidni persirka kislota bilan oksidlanish bilan tugaydi:




Aldegidlarni oksidlanishida peroksikislotalar va karbon kislotalardan tashqari angidridlar ham hosil bo'ladi.


Reaksiya kinetikasi va katalizi. Gomogen radikal zanjirli oksidlanish quyidagi bosqichlardan iborat zanjirni paydo bo'lishi; zanjirni davom etishi; zanjirni uzilishi va tarmoqlanishi. Radikallarni birlamchi paydo bo'lishi uchun oksidlash reaksiyalari initsiatorlar (gidroperoksidlar va peroksidlar, 2,2 azobis-izobutironitril suyuq fazada); HNO_3 , NO va HBr gaz fazasida) qo'shiladi. Organik moddani avtooksidlanishi yoki kislorodni katalizator bilan o'zaro ta'siri natijasida radikal hosil bo'ladi:




Oksidlanish jarayonlarida radikal hosil bo'lishining yana bir manbai bu zanjir tarmoqlanish reaksiyalari hisoblanadi. Gaz fazasida yuqori temperaturada reaksiyaga kirishuvchan aldegidlarni oksidlanish natijasida o'rtacha temperaturada suyuq fazada esa gidroperoksidlar yoki peroksikislotalarni parchalanishi hisobiga hosil bo'ladi:



Oxirgi reaksiya o'zgaruvchan valentli metall tuzlari (kobalt, marganets atsetallar yoki naftenatlar va h.k.) ishtirokida tezlashadi:




Undan tashqari, radikallar hosil bo'lishi gidroperoksidalar, aldegidlar yoki uglevodorodlarni yuqori valentli shakldagi katalizator bilan oksidlanishi hisobiga sodir bo'lishi mumkin:



Zanjirni davom etishi oksidlanishni turli xil mahsulotlari olishda yuqorida ko'rib o'tilgan edi.


Gaz fazasidagi zanjir uzulishi aslida chiziqli tarzda peroksid radikalini devorga urilishi natijasida sodir bo'ladi:




Suyuq fazadagi oksidlanishda esa kvadratli uzilish, eng sust reaksiya qobiliyatiga ega peroksidli yoki preoksiyatsetil radikallarida molekular mahsulot hosil bo'lishi bilan boradi.

Boshqa radikal-zanjirli jarayonlardagi kabi, zanjir uzifishi ingibitorlar bilan uchrashish hisobiga ketishi mumkin (oltingugurtli birikmalar, fenollar bilan). Xomashyo tarkibida shunday aralashmalar bo'lganda oksidlanishda kam yoki uzoqroq induksiya vaqt paydo bo'ladi, uni qisqartirish uchun reaksiya muhitiga initsiator yoki katalizator qo'shish lozim, biroq jarayonni to'xtatib qolishini oldini olish uchun oksidlanishga yuboriladigan xomashyoni tozaligiga yuqori talab qo'yiladi.

Past valentlik holatidagi metall tuzlari ham ingibitor bo'lishi mumkin, chunki ular peroksid radikallari bilan reaksiyaga kirishadi, masalan:




Suyuq fazadagi oksidlash mahsulotlari hosil bo'lishida radikallarni metall ionlari-katalizatori ioni zanjirni davom etish bosqichida ishtirok eta boshlaydi va zanjirning tarmoqlanishda uning o'tmini uncha ahamiyati bo'lmaydi. Zanjir uzilish reaksiyasidir, biroq katalizatorlarni regeneratsiyalash (tiklash) bosqichini tezlashtirish natijasida, ular mahsulot hosil bo'lishning alternativ usuliga aylanadi:



Bunda metall-katalizatori ioni zanjirni davom etish bosqichida ishtirok eta boshlaydi va zanjirning tarmoqlanishda uning o'tmini uncha ahamiyati bo'lmaydi.

Amaliyotda suyuq fazadagi nokatalitik oksidlanish faqat gidroperoksidlar va peroksikislotalar olishda qo'llaniladi. Bunday sharoitda jarayon kinetikasi quyidagi elementar bosqichlarni ifodalaydi:



Statsionar konsentratsiyalar usuli bilan quyidagi tenglama ifodalanadi:

$$r = k_3[\text{ROO}^\cdot][\text{RH}] = k_2 \sqrt{k_{\text{sp}}/k_1} [\text{RH}] [\text{ROOH}]^{0.5n},$$

bu yerda, n-gidroperoksid parchalanishidagi reaksiya tarkibi.

Demak, oksidlanish tezligi kislorod konsentratsiyasi va parsial bosimiga bog'liq bo'lmaydi, lekin kattaliklarni keskin kamayishi natijasida zanjirni davom etishidagi birinchi bosqich tezligi shu darajada kamayishi mumkin-ki, buning natijasida zanjir uzilishi alkil radikallarida ro'y beradi:


$$2R = \frac{k_1}{k_2} \rightarrow \text{Molekular mahsulotlar}$$

Buning natijasida quyidagi tenglarma hosil bo'ldi:

$$r = k_1 \sqrt{k_{sp}/k_2} [O_2] [ROOH]^{0.5n}$$

Suyuq fazada oksidlash reaktorlari. Ko'pchilik oksidlash jarayonlari suyuq fazada xomashyo organik reagentga havoni (ba'zan texnik kislorodni) yuborish usuli bilan amalga oshiriladi. Agarda temperaturani tanlash jarayon intensivligi va selektivligiga bog'liq bo'lsa, unda bosimni asosan reaksiya massasini suyuq holda ushlab turish uchun tanlanadi. Sanoat reaktorlari sifatida balandligi 10–15 m va diametri 2–3 m bo'lgan barbotaj kolonnalar eng ko'p qo'llaniladi, ba'zi hollarda ularni gorizontal to'rsimon yoki qalpoqli tarelkalar bilan yoki kaskad hajmda ulanadi. Karbon kislotalar oddiy po'latni korroziyalash tufayli, jihozlar tayyorlashda organik kislotalar ta'siriga chidamli alyuminiy, titan yoki ba'zi bir legirlangan po'latdan foydalaniladi.

Suyuq fazada molekular kislorod va oksidlash reaktorlari bilan tanishhamiz (49-rasm).



49-rasm. Molekular kislood bilan suyuq fazada oksidlash reaksiya tarmoqlari.

a-tashqariga chiqarib sovutish bilan davriy ravishda ishlaydigan kolonnali reaktor; b-ichki sovutish bilan uzlucksiz ishlaydigan kolonnali reaktor; d-bug'latish hisobiga sovutiladigan kolonna kaskadlari, e-tarelkali kolonna.

49a-rasmida davriy ravishda ishlaydigan oksidlash reaktori ifodalangan, ushbu reaktorda sovutish jarayoni eritmani suvli sovutgich orqali aylanishi hisobiga sodir bo'ladi. Xomashyo reagentni kerakli temperaturagacha isitiladi va reaktorga yuboriladi (shu vaqtida suvni o'tmiga sovutgichga bug' keladi) va havo yuborish boshlanadi. Taqsimlash moslamasi vazifasini perforirlangan truba, to'rsimon yoki panjarali tarelka bajaradi. Ichki sovutgichli uzlusiz ravishda ishlaydigan kolonnali reaktorda keyingi oksidlashga turg'un mahsulotlar olishga mo'ljallangan (sirka kislota, aromatik kislotalar; 49b-rasm). Bunda oksidlanadigan modda va havo reaktorning pastki tomoniga yuboriladi, hosil bo'lgan mahsulotlar esa tepa tomonidan olinadi (49b-rasm).

49d-rasmida barbotaj kolonnalar kaskadi ifodalangan: suyuq reaksiya massasi ketma-ket kolonnadan-kalonnaga o'tadi, havo har bir kolonnaga alohida yuboriladi. Bu yerda issiqlikni tashqariga chiqarish uglevodorodlarni yoki erituvchini bug'latish hisobiga sodir bo'ladi, ularni bug'lari har bir kolonka tepasiga joylashgan qaytar kondensatorlarda kondensatsiyalanadi va kondensat reaktorga oqib keladi.

49e-rasmida uzlusiz ravishda ishlaydigan oksidlash kolonnasi – tarelkali kolonna ifodalangan. Ushbu kolonnaga suyuqlik tepadan pastga qarab bir tarelkadan boshqasiga qarab oqib keladi, havo esa qaramaqarshi tomoniga pastdan tepaga harakatlanadi. Sovutish uchun har bir tarelkaga ilonsimon trubalar joylashgan, ularga suv yuboriladi.

Barcha davriy va uzlusiz ishlaydigan reaktorlarda oksidlash tartibini boshqarish uchun oksidlash gazi va dastlabki organik reagentlarni reaktorga berish tezligini o'zgartirish lozim. Temperatura aslida bir nechta nuqtalarda reaktor balandligi bo'ylab o'lchanadi, reaksiya massasi doimo tadqiq qilinadi.

Suyuq fazada oksidlashda barbotaj kolonalarining yuqori tomonida va har bir tarelka bo'shilg'ida portlovchi gaz aralashmalari hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak (49 e-rasm).

Uglevodorodlarni gidroperoksidlarga oksidlash.

Fenol va atseton sintezi. Fenollar orasida oddiy fenol C_6H_5OH muhim ahamiyatga ega. Fenol adipin kislota, kaprolaktam olishda, noionogen yuvish vositalari, yoqilg'i va moylar uchun prisadkalilar, gerbitsidlar, ba'zi bir dorivor vositalar (aspirin) va boshqa kimyoiy mahsulotlar olishda xomashyo sifatida qo'llaniladi. Fenolning ancha miqdori difenilolpropan olishda ham ishlatiladi. Shuningdek, oksidlanish


ammonoliz usuli bilan fenoldan anilin ham olinadi.

Fenol o'tgan asrning o'rtalarida toshko'mir smolasidan olini boshtadi. Fenolni sintetik yo'l bilan olish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni uch guruhga ajratish mumkin: oksidlanish, xlorlash va sulfatlash.

Oksidlash usullari:


1. Izopropilbenzolni oksidlash bilan bir vaqtning o'zida fenol va atseton olish (kumol usuli).
2. Toluolni oksidlash (suyuq fazada va bug' fazasida).
3. Siklogeksanni oksidlash va boshqa oksidlash usullari. Xlorli va sulfonatli usullar.
4. Benzolni xlorlash va hosil bo'lgan mahsulot-xlorbenzolni gidrolizi.
5. Benzolni oksidlash xlorlash va hosil bo'lgan mahsulotni gidrolizi (Rashig usuli).
6. Benzolni sulfirlash va mahsulotni ishqor bilan suyuqlantirish.

Sintetik usullar bilan fenol olishda sulfonatli usul birinchiji qo'llanilgan usul bo'lib, u hozirgacha o'z mohiyatini yo'qotmagan. Bu jarayonda benzol sulfirlanadi va sulfonat $300\text{--}350^{\circ}\text{C}$ da ishqor ta'sirida suyuqlantiriladi. Hosil bo'lgan sulfomassani natriy sulfid bilan neytrallanadi:




Keyingi bosqichda sulfonatni konsentrangan ishqor eritmasi bilan aralashtilradi va ishqoriy suyuqlanish olib boriladi, natijada fenolyat va natriy sulfid hosil bo'ladi.

Fenolyat tarkibidagi erkın fenol oltinugur to'rt oksidi yordamida ajratiladi:





Fenol ishlab chiqarishda yana boshqa oksidlanish usullari mavjud. Ulardan biri siklogeksanni qayta ishlashta asoslangan. Bunda siklogeksan siklogeksanol va siklogeksanon aralashmasida oksidlanadi. Bu moddalar platinali ko'mir ustida $250\text{--}425^{\circ}\text{C}$ da yuqori unum bilan fenolgacha degidirilnadi:




Sanoatga tatbiq qilingan boshqa usulda, xomashyo sifatida

toluoldan foydalaniładi. Bunda dastlab toluolni suyuq fazada tuzli katalizatorlar ishtirokida benzoy kislotagacha oksidlanadi, so'ngra benzoy kislota 230°C da mis va magniy benzoatlari ishtirokida havo bilan suyuq fazada oksidlanadi:



Oxirgi paytlarda sulfonatli usulni kumol usuli siqib chiqardi.

Izopropilbenzolni oksidlash bilan fenol va atseton ishlab chiqarish (kumol usuli). Fenol bilan birgalikda atseton ishlab chiqarish (kumol) usuli sanoatda keng tarqalgan. Bu jarayonda izopropilbenzolni oksidlanishidan gidroperoksid hosil bo'ladi, u ham parchalanishi natijasida fenol va atseton hosil bo'ladi. Bunda oz miqdorda oraliq mahsulotlar ham hosil bo'ladi:



Bu jarayon texnologiyasi P.G. Sergeyev, B.D. Krujalov, R.Yu.Udris va M.S. Nemsov tomonidan taklif qilindi. 1949-yilda birinchi marta Rossiyada ushbu usul bilan ko'p tonnada fenol va atseton ishlab chiqarildi.

Izopropilbenzolni oksidlanish jarayoni suyuq fazada 110–130 °C initsiator sifatida izopropilbenzol gidroperoksid ishtirokida olib boriladi.


Jarayon izopropilbenzolni (IPB) gidroperoksidgacha (GP) oksidlash, GP konsentratsiyalash, GP kislotali parchalanishi va parchalanish mahsulotlarini rektifikatsiyalashdan iborat.

IPB oksidlash parafin uglevodorodlarini oksidlashga nisbatan ancha oson sodir bo'ladi, chunki aromatik halqaga nisbatan α -holatda joylashgan C-H bog'ning uzilishi uchun kam energiya sarflanadi (309 kDj/mol, parafinlarda esa 380–400 kDj/mol).


70–90°C temperaturalarda GP va IPB ancha barqaror bo'lib, IPB oksidlanishi sekin boradi, rivojlanmagan zanjir reaksiyasi qonuni asosida. 100°C dan yuqorida GP radikllarga parchalana boshlaydi va reaksiya radikal zanjirli mexanizm asosida quyidagi bosqichlar asosida sodir bo'ladi:

1) Initsirlash.


Izopropil benzolda bog' energiyasi $D_{\text{C}-\text{H}}$ 376 kDj/mol bo'lgani uchun, uch molekulalni initsirlashni taxmin qilish mumkin:




2. Zanjirni davom etishi:



Peroksiradikalni izopropilbenzol bilan reaksiyaga kirishishi natijasida gidroperoksid hosil bo'ladi:



Parallel ravishda peroksiradikal parchalanishi va atsetofenon hosil bo'lishi mumkin:



Hosil bo'layotgan metoksiradikal IPB bilan reaksiyaga kirishadi:





Metil spirti oksidlanadi:




2) Zanjimi tarmoqlanishi:


Zanjir tarmoqlanishi GP termik parchalanishi natijasida sodir bo'ladi:



Asosiy oraliq mahsulot dimetilfenilkarbonol hosil bo'ladi:




Hosil bo'lgan radikal GP bilan reaksiyaga kirishadi:





(9) reaksiya dimtilfenilkarbonil hosil bo'lishining asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Undan tashqari, quyidagi reaksiya ham sodir bo'lishi mumkin:



4) Zanjir uzilishi:



Zanjir uzilishi va oksidlanish tezligiga ingibitorlar ta'sir ko'rsatadi. Nordon mahsulotlar, masalan HCOOH, fenol, oltingugurt va to'yinmagan birikmalar ingibitor vazifasini bajarishi mumkin. Nordon mahsulot o'z-o'zidan oksidlanish jarayonini ingibirlamaydi, lekin ular ishtirokida GP va IPB fenol hamda atsetonga parchalanadi, fenol esa oksidlash ingibitorlari hisoblanadi.

Izopropilbenzolni oksidlash jarayoniga muhitning pH ta'sir ko'rsatadi. Kislotali muhitda ($\text{pH}=6$) oksidlash tezligi kamayadi, ishqoriy muhitda ($\text{pH}=7,5$) esa ko'payadi, chunki ishqor oksidlash zanjirini initsirlashni tezlashtiradi.

Izopropilbenzolni havo kislorodi, sirt faol moddalar ishtirokida oksidlash jarayonini suvli ishqor eritmasida (sodaning 1% li eritmasi) katta tezlikda aralashtirilgan holda olib boriladi. Muhit $\text{pH}=8,5-10,5$ tashkil qilishi lozim. 0,7-0,8 MPa gacha bosim oksidlash tezligiga ta'sir ko'rsatadi, jarayon ishqorli emulsiyada olib borilganda esa bosim 1,5 MPa gacha bo'lishi kerak.

Kumol usuli bilan fenol va atseton ishlab chiqarish quyidagi bosqichlardan iborat: izopropilbenzol olish, izopropilbenzol gidroperoksi sintez qilish va uning fenol hamda atsetonga kislotali

parchalanishi. Sanoatda oksidlash jarayonida izopropilbenzol gidroperoksidining o'zi initsiator vazifasini bajaradi. Uning xomashyo aralashmasidagi konsentratsiyasi 2,5–5% teng. Oksidlanishni gomogen muhitda quyidagi sharoitda olib boriladi:

Temperatura, °C 110–130

Bosim, MPa 0,29–0,49

Oksidlash tezligi 5–7 soat (reaksiya massasiga nisbatan olganda).

Oksidlanish jarayonida gidroperoksid miqdori ko'payganda, uning parchalanishi boshlanadi, ayniqsa, reaksiya massasida gidroperoksid miqdori ≈18% yoki undan ko'p bo'lganda bu jarayon ancha sezilarli tarzda sodir bo'ladi. Gidroperoksid parchalanishi hisobiga temperatura ko'tariladi, reaksiya muhitida temperatura 110–120 °C dan ortmasligi lozim, chunki yuqori temperaturada gidroperoksid parchalanishi portlash bilan sodir bo'lishi mumkin.

Izopropilbenzolni oksidlash uchun quyidagi reaktorlardan foydalaniladi: kolonna turidagi reaktorlar; aralashtirgichli reaktorlar; erlift turidagi reaktorlar;

Kolonna turidagi reaktor barbotaj tarelkali bo'limlarga ajratilgan bo'ladi. Har bir tarelkada ilonsimonsovutgich trubalar joylashtiriladi.

Parafinlarni oksidlash. Izobutan va izopentanni gidroperoksiylarga oksidlashdan tashqari parafinlarni oksidlashni uchta yo'nalishi mavjud:

1) past spirtlar va aldegidlar olish uchun guz fazasida oksidlash;


2) yuqori ikkilamchi spirtlar olish uchun suyuq fazada bor kislota ishtirokida termik oksidlash;

3) karbon kislotalar olish uchun suyuq fazada katalitik oksidlash, bu jarayonning amaliy ahamiyati juda katta.


Past parafinlarni gaz fazasida oksidlash. Past parafinlarni oksidlash xususiyati zanjir uzunligi bilan bog'liq. Xususan, katalizator ishtirokida uzunligi oddiy bosimda metan 420° C, etan 285° C, propan 270° C oksidlanadi. Bosim ko'tarilishi bilan oksidlashni boshlang'ich temperaturasi pasayadi, masalan, metan 10MPa bosimda kislorod bilan 330° C da reaksiyaga kirishadi. Gomogen katalizatorlar (azot oksidi, HBr), shuningdek, geterogen katalizatorlar jarayonni tezlashtiradi va ancha past temperaturada olib borish imkonini yaratadi.

Gaz fazasida oksidlash uglerod zanjirini saqlash yoki destruksiysi bilan ro'y berishi mumkin. Metanni oksidlab formaldegid olish jarayonini yaratish bo'yicha juda ko'p izlanishlar olib borilgani bilan

amaliyotga qo'llash mumkin emasligi, chunki bunda keyingi oksidlashni qiylnashishi va formaldegidni parchalanishi sodir bo'lishi ma'lum bo'ldi:



C_3 - C_4 parafinlarni gaz fazasida oksidlash natijasida spirtlar va karbonilli birikmalar hosil bo'ldi, bunda uglerod zanjirini saqlanishi yoki destruksiyasi kuzatiladi:



Harorat ko'tarilishi bilan destruksiya mahsulotlari miqdori ortib beradi, masalan, propan uchun 250 va 373°C da 76 va 98% tashkil oliladi.

n-parafinlarni spirtlarga oksidlash. C₁₀–C₂₀ tarkibli normal tuzilgan spirtlar sirt faol moddalar sintez qilishda xomashyo sisifatida foydalilanildi. Bunday spirtlar ishlab chiqarish yumshoq parafinlarni oksidlash usuli bilan amalga oshiriladi. Oksidlanish jarayoni katalizatorlarsiz, lekin 4–5% bor kislotasi ishtirokida 165–170 °C barbotajli apparatda, kam kislorodli havo yordamida olib boriladi. Bunday sharoit spirt hosil bo'lishiga sharoit yaratadi, bunda kislotalarini efsirga bog'laydi, hosil bo'lgan modda keyin oksidlanmaydi:



Efirlar ajratiladi va suv bilan gidrolizlanadi, bor kislota esa oksidlash uchun qaytariladi.


Uglerod zanjirining destruksiyasisiz hosil bo'lgan spirtlar ikkilamchi bo'lib, ular tarkibida glikollar va ketospirtlar aralashmasi bo'ladi.

Parafinlarni karbon kislotalargacha oksidlanishi. Parafinlarni bunday oksidlanish usuli doimo uglerod bog'larni destruksiysi bilan sodir bo'ladi. Jarayon suyuq fazada termik yoki katalizatorlar ishtirokida $105 - 120^{\circ}\text{C}$ dan $170 - 200^{\circ}\text{C}$ oralig'ida boradi. Bunda ikki yo'nalish mavjud:


- 1) past parafinlarni ($C_1 - C_8$) sırka kislotagacha oksidlash;

2) qattiq parafinlarni uglerod atomlari C₁₀–C₂₀ bo‘lgan to‘g‘ri zanjirli sintetik yog‘ kislotalarigacha oksidlash.

C₄–C₈ parafinlarini oksidlash. H-parafinlarini oksidlashda zanjir destruksiyasi ikkilamchi uglerod atomi oraliq‘idagi bog‘dan boshlanadi. Shuning uchun n–butandan asosan sirkal kislota, oraliq mahsulot sifatida – metiletiketon va etilatsetat hosil bo‘ladi:



Reaksiya massasida 145 °C ushbu moddalar miqdori n–butan konversiya darajasiga bog‘liqlik egri chiziqlari 50-rasmida keltirilgan (bu boshqa parafinlarni suyuq fazada oksidlanishi uchun ham taalluqli). Rasmdan ko‘rinib turibdiki, keton konsentratsiyasi maksimum orqali o‘tadi, bu ketonni kislotalagacha oksidlash qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Etilatsetat hosil bo‘lish egri chizig‘i ham maksimum orqali ifodalangan, lekin ketonga nisbatan o‘ng tomonga ko‘proq siljiganligi ko‘rinib turibdi. Bundan tashqari, spirlar, karbonilli birikmalar, murakkab esfirlarni oksidlanishida o‘nlab oraliq mahsulotlar hosil bo‘lishi aniqlangan.



50-rasm. n–butanni suyuq fazada oksidlash bilan olingan mahsulotlar yig‘iliшини konversiya darajasiga bog‘liqligi:


1-CH₃COOH; 2-CH₃COC₂H₅; 3-CH₃COOC₂H₅.

n–butanni oksidlanish reaksiyasi havoda sirkal kislota eritmasida 160–190 °C va 6 MPa bosimda katalizatorsiz yoki kobalt yoki marganets

tuzlari ishtirokida olib boriladi. Bu jarayondagi kamchiliklardan biri, bu hosil bo'ladigan ko'p komponentli mahsulotlarni ajratish hisoblanadi. To'g'ri haydash orqali olinadigan yengil benzin fraksiyasini (C_5-C_8) oksidlash jarayoni n - butanga nisbatan keng qo'llaniladi va ancha arzonga tushadi. U n- va izoparafinlar aralashmasidan iborat bo'lib, reaksiya borishini va mahsulotlar tarkibini murakkablashtiradi. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin: kislotalar (chumoli, sirk, propion, qaxrabo kislota) va neytral moddalar (spirit va ketonlar). Oxirgilar uchun azeotrop aralashma holida oksidlash mahsulotlari tarkibida bo'ladi), bu esa kislotalardan neytral moddalarni ajratib olish va ularni oksidlash jarayoniga qaytarish imkoniyatini yaratadi. Kislota fraksiyasidan toza chumoli, sirk, propion va qaxrabo kislotalar ajratiladi; ularning 100 kg benzinga nisbatan chiqimi 20, 70 - 75, 10 - 15 va 5 - 10 kg teng.

Benzinning oksidlanishi termik yoki katalizator ishtirokida 170-200°C va 5 MPa bosim ostida olib boriladi. Hosil bo'lgan mahsulotlar keyingi oksidlashda barqaror bo'lganligi sababli oddiy barbataj kolonnalaridan foydalanish mumkin (51-rasm). Bunda ajralayotgan issiqlik benzinni bug'lanishi va neytral mahsulotlarni oksidlanishi hisobiga tashqariga chiqariladi.

Reaksiya aralashmasi 2-kolonnaga keladi, u yerda neytral moddalar va reaksiyaga kirishmagan benzin haydaladi va reaktorga qaytariladi. Ushbu kolonnadagi kub suyuqligi kislotani ajratish uchun yuboriladi.



51-rasm. Benzin yengil fraksiyasini oksidlanish sxemasi:

1-reaksiya sodir bo'ladigan kolonna; 2-rektifikatsiya kolonnasi; 3-bug' generatori; 4-issiqlik almashtirgich; 5-sovtugich; 6-detander; 7-nasos; 8-deflegmetor; 9-qaynatgich.

Ortiqcha havo organik moddalar bug'i bilan birligida reaktorning tepe tomonidan 3-bug' generatoriga yuboriladi va kerakli bosim hosil qilinadi. Gazning issiqligi 4- issiqlik almashtirgichda suvni isitish uchun foydalilanadi, 6-detanderda gaz bosimi yordamida sovuq hosil qilinadi; uning yordamida 5-sovtugichda gaz bilan birga kelgan benzin kondensatsiyalanadi. Umumlashtirilgan kondensat oksidlash kolonnasiga qaytariladi.

Tayanch so'z va iboralar

Uglevodorodlar, gidroperoksidlar, fenol, atseton, oksidlanish-ammonoliz, izopropilbenzol, sulfonatli usul, siklogeksanni qayta ishlash, kumol usuli, initsirlash, zanjir o'sishi, zanjirni tarmoqlanishi, zanjirni uzilishi, kislород, havo.


Mavzu bo'yicha savollar

1. Fenol sintezi.
2. Izopropilbenzolni oksidlash bilan fenol va atseton olish.
3. Izopropilbenzolni oksidlanish mexanizmi.
4. Izopropilbenzolni oksidlashdagi initsirlash jarayoni
5. Izopropilbenzolni oksidlashdagi zanjirni o'sishi va uzilishi.
6. Fenol olish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar.
7. Kumol usuli bilan fenol va atseton olish bosqichlari.
8. Izopropilbenzolni oksidlash reaktorlari.


UGLEVODORODLAR VA ULARNING HOSILALARINI GETEROGEN- KATALITIK OKSIDLASH

Radikal-zanjirli oksidlash bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan bir qator jarayonlarni geterogen-katalistik oksidlanish bilan amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Ular orasida quyidagi reaksiyalar muhim hisoblanadi:

1) olefin va ularning hosilalarini to'yingan uglerod atomi bo'yicha qo'shbog'ni saqlagan holda oksidlash:




2) olefin va boshqa uglevodorodlardan nitrillar olish bilan boradigan oksidlanish-ammonoliz usuli:




3) aromatik va boshqa uglevodorodlarni di- yoki tetrakarbon

kislota ichki angidridlarini hosil bo'lishi bilan boradigan oksidlanish:



4) etilenoksidni to'g'ri sintezi:



Yuqoridagi jarayonlarning barchasi juda katta amaliy ahamiyatga ega, chunki olinadigan mahsulotlar monomer sifatida keng qo'llaniladi.


Oksidlash geterogen katalizatorlari va reaksiya mexanizmi. Organik moddalarni geterogen oksidlash katalizatorlari sifatida amliy ahamiyatga ega bo'lganlari quyidagilardir:

1. Cu va Ag metallari, ulardan eng oson oksidlanadigan mis bo'lib, oksid ko'rinishida ishlaydi, tepe qatlamda hosil bo'ladi. Boshqa metallar (Rt,Pd) to'liq oksidlashga olib keladi, bunda CO_2 va H_2O hosil bo'ladi.
2. O'zgaruvchan metall oksidlari $\text{CuO}+\text{Cu}_2\text{O}, \text{V}_2\text{O}_5$ boshqa metallar faolligi susp yoki to'liq oksidlanishini ta'minlaydi.

3. Oksidlар aralashmasи va o'zgaruvchan metall tuzlari, ayniqsa, vanadatlar, stannatlar, volframlar va kobolt, rux va vismut molibdatlar ($\text{ZnO}\cdot\text{V}_2\text{O}_5$, $\text{CoO}\cdot\text{WO}_3$, $\text{Bi}_2\text{O}_3\cdot\text{NoO}_3$)

Ko'rsatilgan katalizatorlarni qirindi yoki to'r (Cu), donador (V_2O_5), yoki g'ovaksimon tashuvchiga o'tkazilgan (Ag, CuO, tuzlar), ba'zida turli xil promotorlar qo'shilgan holda qo'llaniladi.


Oksidlash geterogen reaksiyalar mexanzimida reagentlarni katalizator yuzasiga adsorbsiyasi muhim vazifani bajaradi. Kislorod metallarga tez sorbsiyalanadi. Noyob bo'lмаган metallar, oksidlар hosil qiladi, kumush xemosorbsiyalanish bilan kifoyaланади. Kislorod katalizatorda dissotsiyalanmasdan yoki molekulani dissotsiyasi bilan sorbsiyalanadi, bunda metall kerakli elektronlarni uzatadi va adsorbirlangan kislorodni ion-radikalga aylantiradi:



Shunga o'xshash kislorod xemosorbsiyasi oksidli va tuzli katalizatorlarda ro'y beradi, bunda sorbsiya o'zgaruvchan metall ioni bo'yicha sodir bo'ladi. Oxirgisi yuqori valent holatiga oksidlanadi.

Uglevodorodlar metallarga nisbatan kuchsiz va qaytar tarzda sorbsiyalanadi. Ular oksidli va tuzli katalizatorlarga mustahkamroq


orbsiyalanadi, bunda bog' hosil qilish uchun olefin molekulalari o'monidan elektronlar uzatiladi, u xemosorbsiyalangan ion-radikal olatiga o'tadi:




Natijada metall ioni qaytariladi. Kislorod va uglevodorodni irgalikda harakatlanishi natijasida metall ionlari ko'pincha turli alentlik holatlarida bo'ladi. Masalan, V_2O_5 dagi vanadiy ionining astalinni havo bilan oksidlashdagi o'rtacha valentligi 5 ni o'rniga $\approx 4,3$ ishkil qiladi.

Shubhasizki, metall ionining holati muhitining oksidlanish-aytarilish xossalari bilan aniqlanadi, kislorod hamda uglevodorod isbatlariga, suv bug'ining borligi va h.k.


Geterogen katalitik oksidlashni ikkita asosiy turi mavjud. Ularni iringchisida uglevodorod katalizatorni oksidlangan yuzasiga sorbsiyaladi, dastlab kislorodni ion-radikali bo'yicha sorbsiyalanadi, so'ngra u ilan o'zaro birikishi natijasida oksidlanish mahsuloti hosil bo'ladi. Iuning oddiy misoli tariqasida etilenoksid sintezini keltirish mumkin:




To'liq oksidlanish mahsulotlari etilen va $Ag-O^\cdot$ dan hosil bo'ladi deyiladi, bu esa ushbu jarayonni maksimal selektivligiga (85%) mos eladi:



Ushbu mexanizmga misol qilib, benzolni oksidlab malein angidridi trayonini olish mumkin, reaksiya oraliq mahsulot-xinon hosil bo'lishi ilan boradi:




Geterogen-katalitik oksidlash eng ko'p tarqaigan mexanizmini oksidlanish qaytarilishi deyiladi. Bunda metall-ioniga sorbsiyalangan uglevodorod kislorod bilan katalizator panjarasida oksidlanadi past alentlik holatigacha metall qaytariladi va kislorod bilan o'zaro sirlanadi yana dastlabki holatiga qaytadi:



Ushbu mexanzm olefin va metilbenzollarni oksidlanishiga xos.

Geterogen-katalitik oksidlash reaktorlari. Bunday reaksiyalarni ko'pincha atmosfera bosimi ostida olib boriladi, biroq sanoatda geterogen katalitik oksidlashni bosim ostida 0,3-2 MPa bosimda ham olib borish korxonalarini ko'payib bormoqda. Bu jarayonni jadallashtirish jihozlar o'chamini kichiklashtirish va reaksiyaga kirishmagan uglevodorodlar va mahsulotni bir-biridan ajratishning osonlashtirish imkoniyatini yaratadi. Turli jarayonlar uchun temperatura 250-300 dan 400-500°C gacha o'zgaradi.

Gaz fazasida oksidlash jihozlarini konstruksiyalashda issiqlik chiqarish va isib ketmaslikni oldini olish zarur. Gazni reaktor devoriga issiqlik berish koeffitsiyenti uncha katta bo'limgani uchun bu moslama suyuq fazadagi oksidlashga qaraganda ancha murakkabdir. Oksidlanish adiabatik reaktorlarida yuqori ekzotermik tarzda borishi sababli, ular ushbu jarayonda o'z o'rnnini topa olmadi.



52-rasm. Geterogen-katalitik oksidlash reaktorlari.

a-statsionar (qo'zg'almas) qatlamlili katalizatorli trubkasimon reaktor; b-qo'zg'aluvchan qatlamlili katalizatorli reaktor; d-qismlarga ajratilgan qo'zg'aluvchan qatlamlili reaktor; e-katalitar oqimi beriladigan reaktor.


Gaz fazasida oksidlash uchun statsionar qatlamlili katalizatorli trubkasimon reaktorlar keng qo'llaniladi. (52a-rasm). Undagi trubalar diametri 10-25 mm bo'lib, ular issiqlikni chiqarish diametri bo'ylab bir xil temperatura bo'lish imkoniyatini ta'minlaydi. Katalizator hajmidan to'liq foydalanish uchun reaktorga reagentlarni isitilgan holda yuboriladi. Ajralayotgan issiqlikni chiqarishning eng yaxshi usuli

trubalar orasidagi suvli kondensatni bug'latish hisoblanadi. Trubali kontakt reaktorlarining afzal tomonlaridan biri, ularni sodda tuzilishiga ega ekanligi va boshqarishni osonligi, shuning natijasida jarayon selektivligi ortadi; kamchiliklariga katalizator qatlami bo'ylab temperaturani bir xil bo'lmasligi, foydali hajmnинг kamligi kiradi, natijada metall sarfi ko'payadi.

Ko'pchilik oksidlash jarayonlari uchun qo'zg'aluvchan qatlamli katalizator solingan reaktorlardan foydalilanadi (52b-rasm). Ular katalitik krekingda ko'rilgan reaktorlarga o'xshaydi, lekin regeneratorlar bo'lmaydi, chunki oksidlashda hosil bo'ladigan smola va sajaning miqdori juda kam, shuning uchun katalizator bir necha oylar va hatto yillar davomida faolligini yo'qotmaydi. Reagentlarni reaktorga sovuq holda ham yuborish mumkin, katalizator esa mustahkamlangan mikrosferik shakida qo'llaniladi. Reaktorga taqsimlanish panjaralar,sovutuvchi trubalar o'rnatilgan. Bunday reaktorlarda issiqlikni chiqarish va temperaturani bir tekisda ushlab turish muammosi yo'q, lekin teskari aralashirish sodir bo'ladi, bu esa jarayon selektivligini pasayishiga oolib keladi.

Ushbu kamchilikni bartaraf qilish uchun bo'limlarga ajratilgan qo'zg'aluvchan qatlam katalizatorli reaktorlardan foydalilanadi. Ularda taqsimlanish panjaralaridan tashqari bir nechta panjaralar ham mavjud bo'ladi, ularni vazifasi reaksiya hajmini bo'limlarga ajratishdan iborat (52d-rasm). Bunday reaktorlarning tepe tomonidan katalizator oqimi gaz bilan birga keladi. Reaksiya trubasi qaynovchi suvli kondensat yordamida sovutiladi. 52e-rasmagi reaktorda issiqlik almashinishi sharoitlari yuqorida ko'rilgan reaktorlarga nisbatan yomon, chunki keng reaksiya trubasini tashqaridan sovutish ancha samarasiz hisoblanadi.


Olefirlarni to'yingan uglerod atomi bo'yicha oksidlash. Bu usul bilan akrolein va akril kislota olinadi:




Propilenni oksidlash bilan akril kislota olish. Akril kislota $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{COOH}$ o'ziga xos o'tkir hidli suyuqlik bo'lib, qaynash temperaturasi $141,6^{\circ}\text{C}$, zichligi 1050 kg/m^3 (20°C) suv bilan yaxshi aralashadi. Akril kislota va uning efirlari polimerlar sanoatida, to'qimachilikda oraliq mahsulot sifatida qo'llaniladi.

Akril kislota propilenni qattiq geterogen katalizator ishtirokida oksidlash orqali olinadi. Reaksiya ikki bosqichda boradi, birinchisida

akrolein hosil bo'ladi, ikkinchi bosqichda akrolein akril kislotaga aylanadi.



Oksidlanish jarayoni havo kislorodi yordamida 25–50% suv bug'i ishtirotkida olib boriladi, propileni havo bisan portlovchi aralashmalari hosil bo'lishini oldini olish uchun. Oksidlanishning birinchi bosqichi $300\text{--}400^{\circ}\text{C}$ qo'zg'almas qatlamlili trubkali reaktorda olib boriladi (katalizator sifatida vismut, molibden, temir oksidlari aralashmalari ishlataladi). So'ngra reaksiya gazlarni ajratilmagan holda ikkinchi bosqichdagi oksidlash reaktoriga (katalizator-vannadiy va molibden oksidlari qo'llaniladi, temperatura $250\text{--}300^{\circ}\text{C}$). Propileni oksidlanish jarayonida ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi, taxminan 600 kDj/mol. Reaktorni sovutish uchun mineral tuzlar suyuqlanmalari qo'llaniladi. Akril kislotasini ikki bosqichda propileni oksidlab olish texnologiyasi 53-rasmida ifodalangan.



53-rasm. Propileni ikki bosqichda oksidlash bilan akril kisloota olish texnologik sxemasi: 1-birinchi bosqichda oksidlash reaktori; 2-qozon utilizatorlar; 3-ikkinchi bosqichda oksidlash reaktori; 4-absorber.


Propilen, (4-7%) suv bug'i ($25\text{--}40\%$) va havo ($50\text{--}70\%$) aralashmasi 1-trubkali reaktorning yuqori qismiga yuboriladi. Trubalarga katalizator, trubalar orasiga esa mineral tuzlar suyuqlanmasi solinadi, u 2-utilazator-qozon orqali aylanadi. Bu qozondagi eritmadan olingan issiqlikdan suv bug'i olish uchun foydalilanadi. 1-reaktordan reaksiya aralashmasi ajratilmasdan 3-reaktorga ikkinchi oksidlash jarayoniga yuboriladi. U yerda temperatura $250\text{--}300^{\circ}\text{C}$ ushlab turiladi va akroleinni akril kislotagacha oksidlashi ro'y beradi. 3-reaktor 2-utilazator-qozon bilan bog'langan. 1-reaktorda asosan oksidlanish va akrolein hosil bo'lishi sodir bo'ladi; 3-reaktorda esa akrolein akril kislotasiga aylanadi. 3-reaktordagi reaksiya gazlari suv bug'i bilan

namlantirilgan 4-absorberga keladi. Tarkibida 20–30% akril kislotasi bo'lgan suvli eritma pastga oqadi, uni akril kislotani ajratish uchun yuboriladi. Ajratishni ekstraksiyalash va rektifikatsiya usuli bilan amalga oshiriladi. Rektifikatsiya jarayonida akril kislotasi polimerlanishini oldini olish uchun ingibitor qo'shiladi.

Uglevodorodlarni oksidlanish-ammonoliz usuli. Uglevodorodlar ammiak bilan yuqori temperaturada o'zaro birikishi natijasida nitrillar hosil qiladi:



Undan tashqari nitrillar aldegidlar va ammiakdan oraliq iminlar legidirilish bosqichi orqali ham hosil bo'ladi.




Ikkala usullarni oksidlanish usuli bilan birlashtirish natijasida uglevodorodlarni oksidlanish-ammonoliz usuli paydo bo'ldi.




30-yillarda bu usul Andrus tomonidan metanda birinchi marta sinab ko'rildi, 50–60-yillarda olefinlar va metil benzollarga tarqaldi.

Akrilonitrilni olishning zamonaviy usullaridan biri propilenni oksidlash-ammonoliz usuli hisoblanadi.



Reaksiya gaz fazasida 400–470°C vismut molibden yoki surma oksidi ishtirokida sodir bo'ladi. Asosiy reaksiyadan tashqari bir qator oraliq reaksiyalar natijasida atsetonitril, akrolein, uglerod to'rt oksidi va vodorodsioxid HCN hosil bo'ladi.

Propilenni oksidli ammonoliz usulini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:




Demak, aralashmadagi barcha komponentlarni oksidlanish hisobiga

uglerod to'rt oksidi hosil bo'ladi. Propilen va aldegidlardan farqli ravishda nitrillarni oksidlanish reaksiya sharoitida uncha katta bo'limgan tezlik sodir bo'ladi, shu sababli, selektivlik konversiya darajasi bilan uncha bog'liq bo'lmaydi.

Oksidlash havo ishtirokida reagentlar hajmi propilen: ammiak: kislorod -1:1,1:2,0 nisbatda sodir bo'ladi. Ammiakni ortiqcha miqdorda olinishi akrilonitril chiqimni ko'paytiradi va akrolein hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Akrolein oraliq mahsulot bo'lib, reaksiya sharoitida u polimerlanishi va texnologik jarayonga xalaqit berishi mumkin.

Propilenni oksidlash-ammonoliz usuli bilan akrilonitril olish texnologiyasi bilan tanishamiz (54-rasm).

Suyuq ammiak va propilen (yoki propilen fraksiyasi) 7 va 2-apparaylarda bug'lantiriladi va qaynovchi qatlam katalizatorli 3-reakterning pastki qismiga yuboriladi. U yerga havo ham yuboriladi. Rektoridan chiqayotgan reaksiya gazlari 4-issiqlik almashtirgichga so'ngra 5-absorberga keladi. Bu yerda ammoniy sulfat va sulfat kislota eritmasi bilan gazlar ammiakdan tozalanadi va 6-absorberga yuboriladi, akrilonitril, vodorod sianid va atsetonitrillarni yutilishi uchun. Chiqayotgan gazlarni tarkibiga qarab pechda yondriladi yoki atmosferaga chiqariladi. 6-absorberdag'i suvli eritma 7-kolonnaga keladi, u yerda 70–75% akrilonitri 12–15% vodorodsianid, 1–3% atsetonitril, 5–7% suvdan iborat eritma haydaladi va suvdan ajratiladi.



54-rasm. Propilenni oksidlchanish-ammonoliz usuli bilan akrilonitril olish texnologiyasi: 1-ammiak bug'latgichi; 2-propilen bug'latgichi; 3-reaktor; 4-issiqlik almashtirgich; 5-absorber ammiakni yutish uchun; 6-organik mahsulotlarni yutuvchi absorber; 7-yuvish kolonnasi. I—ammiak, II—propilen, III—havo, IV—sulfat kislota, V—ammoniy sulfat eritmasi, VI—keraksiz gaz, VII—xul akrilonitril, IX—yuvilgan suv.

So'ngra aralashmani ajratish uchun yuboriladi. Dastlab uglevodorod, so'ngra akrilonitril suv bilan azeotropli aralashmasi va oxirida atsetonitril ajratiladi. Toza akrilonitril olish uchun azeotrop aralashma tindiriladi va rektifikatsiyalanadi. Ajratish bosqichda akrilonitril polimerlanishini to'xtatish uchun ingibitor qo'shiladi. Propilenni oksidlash—ammonoliz usuli bilan akrilonitril olish yuqorida ko'trib o'tilgan atsetilen va vodorod sianiddan olinadigan usulga nisbatan ancha arzonligi bilan afzallikka egadir.

Aromatik karbon kislotalar ishlab chiqarish. Benzoy kislota va uni ishlab chiqarish. Sanoatning turli sohalarida aromatik karbon kislotalar keng miqyosda qo'llaniladi: bir negizli (benzoy kislotasi), ikki negizli (ftal kislotalari) va ko'p negizli (uch mellitli va piromellit kislotalari).


Benzoy kislotasi bo'yog, plastifikatorlar, benzoilxlorid, benzoil peroksid ishlab chiqarishda, farmatsevtika va parfyumeriya sanoatida, shuningdek, oziq-ovqat va mollarni ozuqasini konservatsiyalashda ishlatiladi.

1-ekstraksiya kolonnasining pastki tomoniga uglevodorod xomashyosi, yuqori tomoniga ekstragent yuboriladi, u yerda xomashyo ekstragent yuqoriga harakat qiladi. Oqim kirayotgan joyning tagi va usti separator vazifasini bajaradi. Kolonnaning yuqori qismidan chiqayotgan rafikat o'zi bilan ekstragentning bir qismini olib ketadi. Shuning uchun uni reko'peratsiyalash uchun rafikat 2-skrubberda yuviladi, shunda undan yoqilg'i sifatida foydalaniladi.

Malein, ftal va boshqa siklik angidridlar sintezi.


Uglevodorodlarni gaz fazasidagi geterogen—katalitik oksidlash jarayoni di— va tetrakarbon kislotalarining angidridlarini sintez qilishda katta amaliy ahamiyatga ega, chunki ular yuqori termoooksidlanish xususiyatiga ega bo'lgan moddalardir (malein va ftal angidridlari).

Malein angidridi kristall modda —



Suyuqlanish temperaturasi $52,6^{\circ}\text{C}$; qaynash temperaturasi 202°C , poliefsir va gliftal polimerlari olishda qo'llaniladi.


Malein angidrid olishning asosiy usuli, bu benzolni havo bilan vanadiy besh oksidi va alyuminiy oksidi ishtirokida katalitik oksidlash hisoblanadi:



Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida V_2O_5 , MoO_3 va kizelgur asosida 38,9:16,64:100 nisbatda olingen katalizatorlar yuqori katalitik faoliyoti ega ekanligi isbotlandi. Bu katalizatorlar uchun 3% li kobalt uch oksidi Co_2O_3 eng yaxshi promotor ekanligi isbotlandi. Bunday katalizator ishtirokida benzoldan 57% malein angidrid olish mumkin, bunda hajmiy tezlik 2620 s^{-1} tashkil qiladi.

Nazariy jihatdan 1 t benzolni oksidlanishi uchun taxminan 6600 m^3 havo sarf bo'ladi. Amalda esa portlovchi aralashmalar hosil bo'lishini oldini olish uchun, havo miqdori ko'paytiriladi (1 t benzolga 20–40 ming m^3). Ortiqcha olingen havo katalizator faolligini saqlashni ta'minlaydi.

Benzol o'miga C_4 alifatik uglevodorodlar almashtirish orqali, masalan, psevdobutileni oksidlash yo'li bilan ham malein angidrid olish mumkin:



Nazariy jihatdan 1 t malein angidrid olish uchun 0,57 t psevdobutilen kerak bo'ladi. Shu sababli C_4 uglevodorodlari bo'lgan nest gazlaridan malein angidridi olish usuli katta sanoat ahamiyatiga ega.

$\text{C}_4\text{-C}_5$ Alifatik uglevodorodlarni malein angidridigacha oksidlash geterogen katalitik jarayon hisoblanadi. Uglevodorod va havo (bug'-havo aralashmasida uglevodorodlar miqdori 1,0–1,5% tashkil qiladi) bug'lari $400\text{--}500^\circ\text{C}$, 1 atm bosimda $2000\text{--}8000 \text{ s}^{-1}$ hajmiy tezlikda katalizator ustidan o'tkaziladi. Katalizator sifatida molibden-kobalt va vannadiy-fosforli birikmalar qo'llaniladi.

Oksidlash jarayoni gaz fazasida qo'zg'almas qatlamlı katalizator ishtirokida benzol:havo=1:25–30 massa nisbatida olib boriladi. Havoni ortiqcha nisbatda olish turli xil portlovchi aralashmalar hosil bo'lishini oldin poladi, katalizator faolligini saqlash imkoniyatini yaratadi, chunki faot vannadiy (IV) oksidi faol bo'lmagan vanadiy (IV) oksidigacha qaytarilishi mumkin. Reaksiya aralashmasini katta hajmdagi havo bilan aralashtirish natijasida reaksiya mahsulotlari konsentratsiyasi uncha

yuqori bo'lmaydi va aslida reaksiya gazi quyidagi tarkibdan tashkil topgan bo'ladi, (%):

Malein angidridi	1
Kislorod	8-9
Uglerod ikki oksid	5-9
Azot	75-80

Benzolni oksidlash bilan malein angidrid olish texnologik sxemasi 55-rasmda keltirilgan. Yuqori tozalikdagi benzol havo bilan aralashtiriladi. Aralashma 1-issiqlik aralashtirgichda isitiladi, so'ngra 3-trubkasimon katalizatorli reaktorga yuboriladi. Reaktordan chiqayotgan gazlar uch bosqichda sovutiladi. Birinchi bosqichda (4-utilizator qozon) suv bug'i olinadi. Ikkinci bosqichda xomashyo bug'-havo aralashmasi 1-issiqlik aralashtirgichda isitiladi. Uchinchi bosqichda reaksiya mahsulotlari iliq suvl 2sovutgichda sovutiladi (sovuj suvdan malein angidridi sovutgichda qotib qoladi). So'ngra reaksiya gazlari 5-separatorda ajratiladi va 6-skrubberga yuboriladi, u yerda malein angidridi ajratiladi va 7-degidratorga keladi. 7-degidratorda degidratsiyalanishi natijasida oz miqdordagi malein kislotasi izomer fumar kislotaga aylanadi. 5-skrubbeni pastki qismidan chiqayotgan malein angidridi 7-degidratordan o'tib 8-sig'imga keladi, u yerdan esa oxirgi tozalash uchun 9-rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi. Malein angidridi chiqimi 65-70% tashkil qiladi. Malein angidridini n-buten va n-butandan olishni texnologik sxemasi yuqorida keltirilgan usuldan amalda farq qilmaydi.

Jarayonning o'zgaruvchan parametrlari quyidagilardan iborat: xomashyo gazzagi uglevodorodlar konsentratsiyasi, reaktordagi temperatura va kontakt vaqtisi.


N-buten va n- butanlarni malein angidridigacha oksidlanish sharoiti quyidagicha:

	n-buten	n-butan
Temperatura, °C	380 (350-400)	500
Bosim, MPa	0,18-0,35	Atm
Katalizator	Mo-V ₂ O ₅ silikagelda	Fe-V ₂ O ₅ -P ₂ O ₅ silikagelda

Butan-butilen fraksiyasingining oksidlanish jarayoni ikki xil usulda: statsionar va qo'zg'aluvchan qatlamlili katalizatorda amalga oshiriladi.

Sanoat sharoitida C₄ uglevodorodlar aralashmalarini reaktorga kiritishdan avval havo bilan aralashtiriladi (C₄ konsentratsiyasi 0,3-1,0%) va reaktorga yuboriladi. Oksidlanish jarayonini 350-500 °C

temperatura oralig'ida atmosfera bosimi yoki ancha yuqori bosimda olib boriladi. Sovutilgandan so'ng kontakt gazlar adsorbsiya kolonnasiga yuboriladi, u yerda ular tarkibidan organik erituvchilar yordamida malein angidridi ajratib olinadi.



55-rasm. Benzolni gaz fazasida oksidlash bilan malein angidridi ishlab chiqarish texnologik sxemasi: 1- issiqlik almashtirgich; 2-sovutgich; 3-reaktor; 4-utilizator qozon; 5- separator; 6- skrubber; 7-degidrator; 9- rektifikatsiya kolonnasi; 10- kondensator sovutgich.

Erituvchidan malein angidridi haydash usuli bilan ajratiladi va rektifikaiya usuli bilan tozalanadi. Ushbu jarayonning afzalliklari quyidagilardan iborat: malein angidridining tozalanish darajasi yuqori va chiqimi ancha baland (60%). Biroq C₄ uglevodorodlar fraksiyasidan malein angidridi olishda bir qator zararli oraliq mahsulotlar (shulardan biri sirka kislotasi) hosil bo'ladi. Shuning uchun texnologik jihozlar austenitli zanglamaydigan po'latdan yasaladi.

8-jadvalda malein angidridi olish jarayonidagi ayrim ko'rsatgichlar keltirilgan. Shunday qilib, boshqa usullarga nisbatan n-butanni qo'zg'aluvchan qatlamli katalizator ishtirokida oksidlash bilan olingan malein angidridining tannarxi ancha past.

Benzolni oksidlashda eng yaxshi katalizator sifatida Al₂O₃ ga shimdirligani vanadiy va molibden oksidlari qo'llaniladi. Ko'pincha katalizatorni fosfor, titan, bor oksidlari bilan modifikatsiyalanadi. Optimal temperatura sohasi 350–400°C bo'lib, unda 70–75% malein angidridi hosil bo'ladi.

**Malein angidridi olish jarayonidagi texnik iqtisodiy
ko'rsatgichlar**

8-jadval

Ko'rsatgich	Ben-zolni oksid- lanishi	n-butenlarni oksidlanishi		n-butanni qo'zg'aluv- chan qat- lamli katali- zator ishtiro- kida oksidla- nishi
		Statsionar qatlamlili kataliza- torda	Qo'zg'aluv- chan qat- lamli katali- zatorda	
It malein angidridi hosil bo'lishi uchun sarfi bo'lgan xom- ashyo, t	1,29	1,45	1,31	1,15
Xomashyoning narxi, % benzol	100	-	-	-
n-butenlar	-	180	180	-
n-butan	-	-	-	65
Yordamchi material, %	100	48	68	65
Energetik sarflar, %	100	170	71	71
Malein angidridi tannarxi, %	100	108	91	43

Ftal angidridi olish texnologiyasi. Bug' fazasida oksidlash arayoni bilan ftal angidridi asosiy xomashyo sifatida koks kimyo va eftdan olinadigan naftalindan foydalaniлади. Oxirgi vaqtarda ishlab hiqarilayotgan ftal angidridining 5% o-ksiloldan olinadi. o-ksilolni o'llash natijasida jarayonining iqtisodiy samaradorligi ortadi va naftalindan boshqa maqsadlarda foydalinish imkoniyati yaratiladi haroratga chidamli sintetik tola, bo'yoqlar, insektitsidlar va h.k.).

Reaksiya mahsulotlari tarkibida ftal angidridi bilan bir qatorda n-aftoxinon, benzoy kislota, malein angidridi, uglerod ikki oksidi va suv o'ladi. Naftalin yoki o-ksilolni oksidlash jarayoni inert tashuvechiga himdirilgan vanadiy (V) oksidi yoki murakkab tuzilishli vanadiy – aliy – sulfat – silikagel (VKSS) katalizatori ishtirokida olib boriladi. Masalan, naftalinni oksidlashda quyidagi natijalar olinadi:

Ko'rsatgichlar	Vanadiy (V) oksidi	9-jadval VKSS
i/ch quvvati, g/(kg · s)	275	50 – 60
Reaksiya temperaturasi, °C	420 – 450	370 – 400
Mahsulotga aylanish darajasi, %(mol)		
Ftal angidridi	74,5	87 – 91
1,4 - naftaxinon	3,4	1,0 – 2,5
Malein angidridi	1,9	2,8 – 3,3
Uglerod oksid va uglerod ikki oksidi	10,8	2,0 – 4,1

Vuqori selektivlikka ega bo'lgani uchun sanoatda asosan VKSS katalizatori qo'llaniladi. Sanoatda naftalin va o – ksilolni oksidlanish quyidagi sharoitda olib boriladi:

Ko'rsatgichlar	Naftalin	10-jadval o – ksilol
Temperatura, °C	385 – 400	350 – 370
Bosim, MPa	0,098	0,098
Kontakt vaqt, C	1,5	- 4 – 5

Ftal angidrid chiqimi, It xomashyoga

Naftalindan ftal angidridini olish uchun, rivojlangan issiqlik almashinishi yuzasi bilan kontakt apparatlari qo'llaniladi (konvertor). Bu konvertorlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Bir me'yordagi qo'zg'almas katalizator qatlamlili.
- 2) Qo'zg'aluvchan qatlamlili katalizator.

Ichki diametri 25 mm va uzunligi 3 m bo'lgan trubada bir me'yordagi katalizator joylashtirilgan. Konvertorda 2946 truba mavjud. Trubalar orasidagi bo'shilq, suyultirilgan tuz aralashmasi bilan issiqliknii tashish uchun to'ldirilgan. Odadta nitrat–nitritning uch xil aralashmasi qo'llaniladi: 40% NaNO₂; 7% NaNO₃ va 53% KNO₃ yoki 2 xil aralashmadan: 45% NaNO₂ va 55% KNO₃ dan. Bu aralashmalarni atmosfera bosimida 550 – 580°C gacha qo'llash mumkin. Ularning qaynash temperaturasi $t_{qayn} = 680^\circ\text{C}$; $t_{cuyuq} = 140^\circ\text{C}$ ga teng.


Konvertorning markaziy qismida joylashgan trubalarga issiqliknii yo'naltirish uchun, sovuq havoni ventilator yordamida haydaladi. Ish boshlashda issiqlik tashuvchini qaynoq havo bilan qizdiriladi. Issiqliknii bir me'yorda ushlab turish uchun, parrakli aralashtirgich bilan

aralashtiriladi. Katalizatorning organik moddalar bilan aralashmasligi kerak, chunki yonishi va portlashi mumkin. Konvertorning to'g'ri va mustahkam yig'ilishiga katta ahamiyat berilishi lozim.


Bu apparatdag'i trubali kataklar kontakt trubani yig'ishga e'tibor berish zarur. Birikmalarning yig'ilib qolmasligi uchun, jarayonni bir tekis issiqlik sharoitida olib borish, temperatura 400°C dan oshmasligi zarur.

Ftal angidridi qattiq modda bo'lib, suyuqlanish temperaturasi 130°C , qaynash temperaturasi $284,5^{\circ}\text{C}$ teng. U alkid va poliefir smolalari olish uchun muhim yarim mahsulot, polivinilxlorid uchun plastifikator sifatida, shuningdek, bo'yoqlar sintez qilish uchun qo'llaniladi.

Ftal angidridi dastlab naftalinni, keyinchalik esa o-ksilolni oksidalash bilan olinmoqda:



Ftal angidridi ishlab chiqarish. Naftalindan fタル angidridi hosil bo'lish sxemasi quyidagicha:




Ftal angidridi keyingi oksidalashga chidamli bo'lgani uchun, reaksiyani naftalin to'liq sarf bo'lguncha olib boriladi. 1,4 – naftoxinon va malein angidridi chiqimi juda oz bo'lgani sababli, hosil bo'lgan aralashmadan ularni ajratib olish yaxshi samara bermaydi, asosiy oraliq jarayon CO_2 gacha oksidalash hisoblanadi. Naftalinni oksidalashdagi V_2O_5 ga K_2SO_4 qo'shib tayyorlangan katalizator eng samaraли hisoblanadi. Uning ishtirokida $360\text{--}400^{\circ}\text{C}$ haroratda 90% gacha fタル angidrid hosil bo'ladi.

Tereftal kislotasi va uning esirlari. Tereftal kislotasi $\text{HOOC-C}_6\text{H}_4-COOH$ katta amaliy ahamiyatga ega. U polietilenterftalat yoki lavsan, terilen, darkon deb ataluvchi ishlab chiqarishda ishlataladi.


Tereftal kislotasi – oq amorf poroshok. 300°C haydaladi. U sanoatda asosan n-ksilolni oksidlاب olinadi. n-ksiloldan tashqari toluol va benzol ishlataladi.

n-ksiloldan tereftal kislotasi olish. n-ksilolni oksidlash orqali tereftal kislotasi olishning bir necha usuli mavjud. Oksidlovchi sifatida nitrat kislotasi yoki havo kislorodi ishlataladi. Ayrim sxemalarda jarayon 2 bosqichda olib boriladi. 1 bosqichda havo bilan, 2 bosqichda HNO_3 bilan.


n-ksilolning 1 bosqichihi oksidlashda 200°C da, bosim ostida va suyuq muhitda olib boriladi. Bunda 20 – 25% nitrat kislotasidan 2,5 barobar ko'p ishlataladi. n – ksilolning 1 bosqichida havo bilan reaksiyasida n – toluol kislotasi hosil bo'лади:



2 bosqichda esa HNO_3 ta'sir ettirib tereftal kislotasi hosil bo'лади.



n-ksilolni suyuq muhitda havo kislorodi bilan katalitik sintezi, hozirgi vaqtida eng qulay usullardan biri. Bu usul bilan tereftal kislotasini olish prinsipi quyidagicha. Jarayon valentligi o'zgaruvchan og'ir metallar Mg va So, bog'langan Br katalizatori ishtirokida olib boriladi. n-ksilolning usuldag'i kislotasidagi eritmasidan havo o'tkaziladi. Bu erituvchining tantanishiga sabab, teneftal kislotasi uksusda erimaydi, yo'ldosh mahsulotlar esa eriydi. Oksidlanish reaksiyasini havo yuborilishi bilan darhol boshlanadi.



Jarayon issiqligi suv yordamida kamaytiladi, reaktor spiralida aylanib turadi, ma'lum qismi bog'lanadi. Erituvchi gaz aralashmasidan kondensatlab, ajratib olib qaytadan reaksiya kolonnasiga qaytariladi.


Jarayon temperaturasini $175 - 200^{\circ}\text{C}$ atrofida ushlab turiladi. Suyuq muhitda jarayon davom etishi uchun bosim 40 ab. va undan yuqori darajada ushlab turiladi. Shu bilan havo miqdorini portlash darajasidan pastda ushlab turiladi.

Tereftal kislotasini sentrifugada ajratiladi, suv bilan yuviladi va quritiladi. Erituvchi avval katalizator va qo'shimcha smoladan haydash kolonnasida ajratiladi.


n-ksilolning konversiyasi 95%, selektivligi 94%, olinish chastotasi 99% dan oshadi. Jarayon asboblari korroziyaga chidamli bo'lishi uchun po'latdan (qotishma Ni, Mo va Fe) yoki titandan iborat bo'lishi kerak.

Xuddi ana shu sxema bo'yicha aromatik kislotalar va ularning angidridlari olinishi mumkin.

Masalan, 1,2,3 uch metil benzolni oksidlاب 1,2,3 benzol-uch karbon kislotasini angidridini olish mumkin.



Yoki mezitilen (1,3,5- uchmetil benzol) ni oksidlاب uch mezin kislotasi (1,3,5 benzol uch karbon kislotasi olinadi).



Gemimelit angidrid va uch mezin kislotasi poliefir smolasni olinishida ishlatiladi. Oksidlashga faqat alkilbenzolni emas, balki uning aralashmalarini ishlatish mumkin. Olingan mahsulotlarni (aromatik kislotalar) rektifikatsiya yoki kristallizatsiya usuli bilan ajratiladi.

Destruksiya mahsulotlari miqdori temperatura ko'tarilishi bilan ortib boradi, propan uchun 76 va 98% 250 va 373°C da.

Toluoldan tereftal kislotasi va dimetil tereftalat olish. Tereftal kislotasi va dimetiltereftalatning toluoldan olishning ikki xil usuli mavjud:


1) toluolni xlormetillash, keyinchalik xlormetiltoluolni oksidlash bilan olinadi;

2) toluolni benzoy kislotasiga oksidlash, keyinchalik kaliy benzoat olish va diskroporsionirlash usuli bilan olinadi.

Toluolni xlormetillash uchun vodorod bilan to'yirtirilgan 37% formaldegidning suvdagi eritmasini toluol ta'siridan olinadi. Katalizator ($ZnCl_2$) ning ishtirokida olib borilsa, jarayon sezilarli ortadi, lekin shu bilan birga qoshimcha mahsulotlar hosil bo'ladi, asosan kondensatsiya mahsulotlari (metanning toluoli) va metinning dixmerli birjkmalar.

Shuning uchun jarayonni $70^{\circ}C$ temperaturagacha, katalizatorsiz, olib boriladi. Xlormetillash birin-ketin 3 ta reaktorda olib borish maqsadga muvofiq, birinchisida toluolni 65% li konversiya darajasiga, ikkinchisida 85% va oxirida 97% gacha konversiyalaradi. Olingan xlormetillangan aralashma mahsulotlari 57% para va 43% orto-izomer ushlab turadi. Hosil bo'lgan xlormetil toluolni keyinchalik ikki xil usul bilan: ikki bosqichli nitrat kislotasini oksidlash bilan yoki xlormetil gruppasini gidrolizlashi nitrat kislotasi va metil benzil spirtning oksidlanishi bilan hosil bo'ladi.

Xlormetil gruppasini yuqori reaksiyaga kirishuvchanligi uchun nisbatan nitrat kislotasi bilan past t da oson reaksiyaga kirishadi. Alkil gruppasini oksidlanishi faqat suyuq, muhitda yuqori t da va yuqori bosimda boradi.



Xlormetil va alkil gruppasining oksidlanishi quyidagicha olib boriladi: xlormetil toluol – 40% li HNO_3 bilan aralatiriladi va 1 soat

davomida qizdiriladi. Bunda xlor ushlamaydigan toluol kislota hosil bo'ladı. So'ngra HNO_3 ning konsentratsiyasi kamaytiriladi va oksidlash jarayoni 160°C temperaturada va 20 atm bosimda olib borildi.

Natijada unumtdorligi 50% tereftal kislotasi va 35% ftal kislotasi hosil bo'ladı. Boshqa usulda xlormetilni gidrolizlab ishqoriy muhitda metilbenzil spirti olinadi. 125°C temperatura, bosim ostida gidrolizlashda qo'shimcha mahsulotlarni hosil bo'lish jarayoni kamayadi.


Tereftal kislotasiga aylanuvchi tereftal kislotasi va silikogel (katalizator) aralashmasi $280\text{--}290^{\circ}\text{C}$ temperaturada reaksiya apparatida dimetil tereftalatni olish uchun metil spirti bilan quyidagicha eterifikatsiyalanadi.

Qo'zg'aluvchi qatlamlili katalizator (silikogel) yordamida reaktordagi tereftal $280\text{--}290^{\circ}\text{C}$ temperaturada ko'pitirib aralashtiriladi. Reaktordan dimetil esir, suv va metil spirti bug' aralashmasi ajratib olinadi va rektifikasiyalash kolonnasiga jo'natiladi. Dimetiltereftalatning hosil bo'lishi ($t_{\text{suyuqlanishi}}=140,6^{\circ}\text{C}$) 99% ga yetadi.


Uglevodorodni xlormetillashdan so'ng uni oksidlash yo'li bilan ksiloldan piromellit (1,2,4,5-benzof-tetrakarbon) kislotasi olish mumkin ($\text{C}_6\text{H}_2(\text{COOH})_4$).

Piromellit kislotasi angidridi yuqori molekular polimerlar olishda qo'llash keng tus olmoqda. Tereftal kislota va dimetiltereftalatning toluoldan olishning ikkinchi qo'shma (aralashma) usuli, amaliy ahamiyatga ega. U quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) Toluolning oksidlanishi bilan benzoy kislota sintezi.
- 2) Benzoy kislotasini kaliy ishqori bilan qayta ishslash natijasida kaliy benzoat olish:



3) Kaliy benzoatni katalizator ta'sirida disproporsionirlash:




Kaliy benzoat va katalizator aralashmasi quritiladi va tabletka holiga keltiriladi. Tabletkalar reaktorga solinadi. Disproporsionirlash

jarayoni uglerod to'rt oksidi muhitida 400°C temperaturada olib boriladi. Qo'shimcha mahsulot (benzol) bug' holatida uglerod to'rt oksidi bilan reaktordan ajratib olinadi.

Quruq kaliy tereftalat va katalizator aralashmasi sig'imga yuboriladi, u yerda kaliy tereftalat suvda eritiladi. Katalizatorli suspenziya sentrifugada ajratib, quritiladi va qayta kaliy benzoat bilan aralashishi uchun yuboriladi.

Eng faol katalizatorlarga, suvda erimaydigan kadmiy birikmalarini misol bo'la oladi (kadmiy benzoat, ftalatlar, oksidlar yoki karbonatlar kiradi). Ularning ruxti birikmalarini ham disproporsionirlash reaksiyalari katalizatorlari hisoblanadi, biroq faolligi jihatidan kadmiyligi ruxga nisbatan faoldir.

Kaliy tereftalatni suvli eritmasini va H₂SO₄ bilan nordonlashtirib tereftal kislota olish:



Olingan tereftal kislota metanol bilan eterifikatsiyalanadi, tozalanadi. Bu usul bilan yuqori tozalikda tereftal kislota olish mumkin.

Tayanch so'z va iboralar

Degidrirlash, gidrirlash, katalizatorlar, oksidlovchi vositalar, to'liq va to'liq bo'lmagan oksidlanish, parafin, naften, olefin, alkilaromatik uglevodorodlar, spirtlar va aldegidlar, destruktiv oksidlash, qo'sh bog' bo'yicha oksidlash, oksidlanish-ammoliz, molekular kislordan, nitrat kislota bilan oksidlash, peroksidli birikmalar.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Oksidlash jarayonlari tavsifi.
2. To'liq va to'liq bo'lmagan oksidlanish.
3. Reaksiyaga kirishayotgan molekulalarni bog'lanish bilan sodir bo'ladigan oksidlash.
4. Ftal angidridi otish usullari.
5. Peroksidli birikmalar.

6. To'yingan uglerod atomi bo'yicha oksidlash.
7. Suyuq fazada oksidlash reaksiyalari.
8. Gomogen radikal zanjirli oksidlanish.
9. Molekular kistorod bilan suyuq fazada oksidlash reaktorlari.
10. Yengil benzin fraksiyasini oksidlash.


VII bob. DEGIDRIRLASH VA GIDRIRLASH JARAYONLARI

Degidrirlash deganda, organik birikmalardan vodorod atomini ajratish bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy jarayonlar tushuniladi. Gidrirlash (yoki gidrogenlash) jarayonida organik birikmada molekular vodorod ta'sirida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bir qator hollarda, gidrirlash kislorodli moddalarni qaytarilishiغا, degidrirlash esa ularni oksidlanishiغا olib keladi.


Degidrirlash va gidrirlash jarayonlari sanoatda muhim ahamiyatga ega. Degidrirlash bilan to'yinmagan birikmalar, 1,3-butadien, izopren, stirol ba'zi bir aldegid va ketonlar olinadi (formaldegid, atseton, metiletiketon). Gidrirlash reaksiyalari bilan siklogeksan va uning hosilalari, ko'pchilik aminlar (anilin, geksametilendiamin), spirtlar (n-propanol, n-butanol va h.k.) olinadi. Gidrirlash jarayonlari, shuningdek, yog'larni gidrogenlash va sun'iy suyuq yoqilg'i (gidrokreking, reforming, ko'mirni gidrogenlash va h.k.) olishda qo'llaniladi.

Degidrirlash reaksiyalarini sinflanishi. Vodorod ajralib chiqishi bilan sodir bo'ladigan (C-C, C-O, C-N- degidrirlash) eng oddiy degidrirlash reaksiyalarini atomlar orasidagi bog'lar bo'yicha sinflash mumkin.


Parafinlarni C-C degidrirlashda qo'sh uglerod-uglerod bog'li birikmalar, reaksiyan keyingi bosqichida esa dienlar hosil bo'ladi.



Shuningdek, aromatik birikmalarni yon zanjiri degidrirlanish natijasida, stirol hosil bo'lishi mumkin:




C-O bog' bo'yicha degidrirlanish birlamchi va ikkilamchi spirt-larga xos bo'lib, reaksiya natijasida aldegid va ketonlar hosil bo'ladi:




C-N bog' bo'yicha degidrirlanish jarayoniga birlamchi aminlardan


vodorodni ajralishi bilan nitrillar hosil bo'lishi reaksiyaarini misol qilish mumkin:



Yuqorida ko'rsatilgan reaksiyalarda zanjirdagi atomlarni dastlabki holati to'liq saqlanadi, lekin degidrirlash jarayonlari o'zgaradi. Degidrotsikllanish jarayoni muhim ahamiyatga ega, parafinlardan halqani yopilishi va degidrirlash bilan aromatik uglevodorodlar olish mumkin:




Ushbu usul bilan neft fraksiyalarini aromatlashdirish amalga oshiriladi. Degidrirlash reaksiyalarining boshqa bir turi-degidrokondensatsiya reaksiysi natijasida di va ko'p yadroli birikmalar:




va reaksiya oxirida yuqori kondensirlangan uglevodorodlar hosil bo'ladi. Degidrokondensatsiya sodir bo'lishi bilan neft mahsulotlari va gazlar pirolizida koks ajralishini tushuntirish mumkin.


Uglevodorod va ammiakdan aminlar va nitrillar sintezida degidrokondensatsiyaning boshqa turi kuzatiladi, bunda yangi C-N bog' hosil bo'ladi:




Yuqorida keltirilgan ko'pchilik reaksiyalarni oksidlanish jarayoni bilan amalga oshirish mumkin, masalan, spirtlardan karbonil birikmalar, uglevodorodlar va ammiakdan nitrillar, aminlardan nitrillar sintez qilish mumkin:



Ba'zida bunday reaksiyalarni kislorod yetishmaganda amalga oshirish mumkin, bunda oksidlash va degidrirlash birgalikda olib boriladi:



Boshqa hollarda kislorod stexiometrikka nisbatan ortiqcha olinadi, lekin reaksiya degidrirlashga tomon yo'naltiriladi:




Bunday jarayonlarni oksidli degidrirlanish deyiladi. Ular oksidlash va degidrirlash o'rtaqidagi oraliq holatni egallaydi va ba'zan oksidlanishga juda yaqinroq yo'naladiki, bunda oksidlash va oksidli degidrirlash orasiga aniq chegara qo'yish qiyinlashadi.

Gedrirlash reaksiyalarini sinflanishi. Gidrirlash (yoki gidrogenlash) reaksiyalarini uch guruhga ajratish mumkin:


- 1) to'yinmagan bog'lar bo'yicha vodorodni biriktirish;
- 2) uglerod bo'lman moddalarni vodorod ta'sirida suv hosil qilib parchalanish;
- 3) vodorod bilan birikish reaksiyasi uglerod-uglerod bog'ini uzilish hisobiga (destruktiv gidrirlanish).

Birinchi guruh reaksiyaları vodorodni $C=C$, $C=C$, $C_{ar}-C_{ar}$, aldegid va ketonlarni $C=O$ bog'i, azotli birikmalarni $C=H$, $C=H$ bog'lariga birikishi hisobiga sodir bo'ladi:




Ko'rsatilgan reaksiyalar gidrirlash-degidrirlashni qaytar ekanligini yaqqol namoyon etmoqda.


Gidrirlash jarayonlarini ikkinchi guruhi organik birikmalarni qaytarilishiga mos keladi (bunda qaytarilishga) karbonil birikmalarni suv hosil bo'lmasdan spirtlarga aylanish reaksiyaları. Ularga karbon kislotalarni uglevodorodlarga, kislota amidlari va nitrobirikmalarni aminlarga gidrirlanishini olish mumkin:



Buning natijasida suvdan tashqari, vodorod xlorid, ammiak, vodorod sulfid ham hosil bo'ladi:



Gidrirlash reaksiyalarining uchunchi guruhi destruktiv gidrirlash yoki gidrogenoliz deyiladi, bu jarayon uglerod-uglerod bog'ini parchalanishi bilan boradi. Ochiq zanjirli uglevodorodlar, naftenlar, yon zanjirli aromatik birikmalar bunday reaksiyalarga kirishadi:



Ushbu reaksiyalar degidrokondensatsiya va degidrotsikllanish jarayonlariga tamoman teskari.


Gidrirlash degidrirlash reaksiyalarida ikkita molekula o'tasida vodorodni qaytadan taqsimlanish ro'y beradi, ulardan bittasi vodorodni chiqarib yuboradi, boshqasi esa biriktirib oladi (degidrogidrirlash reaksiyasi). Bu xolda molekular kislород umuman kerak bo'lmaydi.

Degidrirlash jarayonlari kimyosi va texnologiyasi. Degidrirlash jarayonlari orasida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgani uchta:

- 1) spirlarni degidrirlanishi va oksidlanishi (formaldegid va ba'zi bir ketonlar sintezi);
- 2) alkilaromatik birikmalarni degidrirlanishi (stirol va uning gomologlarini olinishi);
- 3) parafin va olefinlarni degidrirlanishi (1,3-butadien va izopren olish).

Ikkilamchi spirlarni degidrirlanishi va oksidlanishi. Ilgarı ushbu yo'l bilan ko'pchilik aldegid va ketonlar, shuningdek, Lebedev usuli bilan 1,3-butadien olinar edi, hozir ushbu jarayon faqat ikkilamchi spirlarni degidrirlash va oksidlash bilan ketonlar, metanoldan esa farmaldegid olishda o'z ahamiyatini saqlagan.

Ikkilamchi spirlarni degidrirlash va oksidlash. Ushbu usul bilan qisman atseton (izopropanoldan), metil etil keton (ikkilamchi butanoldan) va siklogeksan (siklogeksanol) dan olinadi. Dastlabki ikki holda qurilayotgan jarayon bilan tegishli olefinning hidratatsiya bosqichi boshlanadi:



Oxirgi bosqichda siklogeksanni oksidlanishi yoki fenolni hidrirlanishi ro'y beradi:




Ikkilamchi spirlar degidrirlash reaksiyalarida muvozanat o'ng tomonga siljigan bo'ladi, jarayon $400\text{--}500^\circ\text{C}$, mis, rux oksidi, pemzaga shimdirlig'an kumush va h.k. katalizatorlar ishtirokida sodir bo'ladi.

Bunda olefinlar hosil bo'lishi bilan oraliq jarayon spirlarni degidratatsiya reaksiyasi ham boradi, lekin keton bo'yicha selektivlik 98% yetadi.

Formaldegid ishlab chiqarish. Birlamchi spirlarni degidrirlash yoki oksidlash bilan faqat formaldegid olish mumkin (metanoldan).

Formaldegid (chumoli aldegid) HCHO rangsiz, o'tkir hidli gaz ($T_{\text{sayiq}} = 92^\circ\text{C}$). Saqlash davrida u polimerlanish xususiyatiga ega, shu sababli qattiq polimer – parafomaldegid holida chiqariladi (paraform), u oson depolimerlanadi. Paraform chiziqsimon polimer




bo'lib, takrorlanuvchi oksimetilen guruhidan iborat (ularning soni 8 dan 100 gacha):

Asosan formaldegid 37% li suvli eritma holida chiqariladi, uni formalin deyiladi. Eritmada formaldegid gidrat HCHO H_2O va past molekulali polimer (polioksimetilglikol) holida bo'ladi. Polimerlanish va cho'kma tushishini oldini olish uchun formalinga stabilizator sifatida 7–12% li (mass) metanol qo'shiladi.


Formaldegidning juda oz miqdordagi konsentratsiyasi ko'zni achishtiradi, nafas olish yo'llarini, terini yallig'lantiradi. Yuqori konsentratsiyasi o'pkaga shikast yetkazadi.

1867-yili Gofman tomonidan formaldegid sintez qilingan, hozirgi vaqtida u ko'plab organik moddalar sintezida oraliq mahsulot bo'lib xizmat qilmoqda.

Stirol va uning gomologlarini ishlab chiqarish. Alkilomatik birikmalarni degidrirlash stirol va uning gomologlarini olishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda degidrirlash jarayonni ikki bosqichda amalga oshiriladi, buni benzol yoki uning gomologlarini olefin bilan o'zaro reaksiyasi tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:




Stirol $\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}=\text{CH}_2$ rangsiz suyuqlik bo'lib, 0,1 MPa bosim ostida uning qaynash temperaturasi $145,2^\circ\text{C}$ teng. U qizzdirish yoki initsiatorlar ishtirotkida qattiq polimer polistirol hosil qiladi.




Polistirol yaxshi elektr izolatsiyalanish xususiyatiga ega va kimyoviy reagentlar ta'siriga chidamli. U elektr va radiotexnika

jihozlarini qismlarini, penoplast, plastmassa buyumlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Stirol sintetik kauchuklar (SKS) olishda muhim xomashyo hisoblanadi. α -metilstirol $C_6H_5-C(CH_3)=CH_2$ rangsiz suyuqlik, 161–162 °C qaynaydi, u stirolga nisbatan sekin polimerlanadi, shuning uchun reaksiya aralashmasidan uni ajratish va saqlash qulay. Sintetik kauchuklar ishiab chiqarishda α -metilstirol stirol bilan bir qatorda qo'llaniladi, lekin plastik massalar ishlab chiqarishda u kam miqdorda qo'llaniladi.


Divinilbenzol $C_6H_4(CH=CH_2)_2$ (izomerlar aralashmasidan iborat) ionalmashuvchi smolalar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi. Divinilbenzolni dietilbenzol izomerlari aralashmasidan olinadi, bunda degidrirlash oraliq viniletilbenzol hosil bo'lishi bilan boradi:



Yana bir muhim monomer 5-vinil-2-metilpiridin bo'lib, u tegishli dialkilpiridinni degidrirlash bilan olinadi:




Yuqorida ko'rsatilgan monomerlar orasida eng muhimi stirol hisoblanadi. Oxirgi yillarda u propilenoksid bilan birqalikda etilbenzolidroperoksididan olinmoqda. Shuningdek, yangi usullar benzolni etilen bilan Rt katalizatori ishtirokida oksidlash va toluolni stilbengacha oksidli kondensatsiyalash, keyinchalik stilbenni etilen bilan disproporsionirlash bilan stirol olinmoqda.



56-rasmda stirol ishlab chiqarish texnologik sxemasi keltirilgan. Toza va retsirkullangan etilbenzol oz miqdordagi bug' bilan birqalikda 3- va 4-issiqlik almashtirgichga yuboriladi, u yerda bug'lar issiqliksiya aralashmasida 520–530 °C gacha istydi. 700 °C gacha isigan suv bug'i 1-trubkasimon pechda ishlanadi, u yerdan esa etilbenzol bug'ları bilan aralashtirishda va 5-reaktorga yuboriladi. Reaksiya aralashmasi reaktordan chiqayotgan uning temperaturasi 560 °C teng bo'ladi. U o'z issiqligini dastlab 3,4-issiqlik almashtirgichdag'i etilbenzolni isitish uchun, so'ngra 2-utilizator-qozonda past bosimli bug' olish uchun sarf qiladi (ushbu bug' 3-issiqlik almashtirgichda keladigan etilbenzolni suyultirish uchun xizmat qiladi). So'ngra bug'-gaz aralashmasi

sovutiladi suv va namakob yordamida 6-sovutgichda, 7-separatorda kondensat gazdan ajratiladi, u yogish gazi bo'limiga yuboriladi. Shundan so'ng 8-separatordagi kondensat suv va organik fazalarga ajratiladi.



56-rasm. Stirol ishlab chiqarish texnologik sxemasi:

1-trubkasimon pech; 2-utilizator qozon; 3,4-issiqlik almashtirgich; 5-rektor; 6-sovutgich; 7,8-separatorlar; 9–12-rektifikatsiya kolonnaları; 13-deflegmatorlar; 14-qaynatgich.

Organik faza tarkibidagi, etilbenzol, stirol va oraliq mahsulotlarni (benzol, toluol) pech moylari deyiladi. U rektifikatsiyaga yuboriladi, stirolni termik polimerlanishi oldini olishi uchun ingibitorlar (masalan, gidroxinon) qo'shiladi, temperatura pasaytirish uchun haydashni vakuumda olib boriladi. Etilbenzol va stirolni qaynash temperaturalari bir-biriga yaqin bo'lgani sababli (136 va 145°C) rektifikatsiya jarayoni ancha qiyinlashadi. Pech moyini 9-vakuum rektifikatsiyaga yuboriladi u yerda undagi benzol, toluol va etilbenzol haydaladi. Ushbu distillyat 10-kolonnada benzol-toluol va etilbenzol fraksiyalariga ajratiladi. 9-kolonnadagi stirol bo'lgan kub suyuqligini 11-vakuum rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi, u yerda kolonnadagi kub suyuqligini oxirgi rektifikatsiyalash uchun 12-vakuum-kolonnaga jo'natiladi. Distillyat tarkibi 99,8% stiroldan iborat. Kolonna kubida stirol polimerlaridan iborat og'ir qoldiq qoladi. Undagi uchuvchan moddalarni ikkita haydash kubida davriy ravishda haydaladi, ular 12-kolonnaga rektifikatsiyaga qaytariladi.

Barcha sharoitlar bir xil bo'lganda bu ko'effitsiyent qo'zg'almas katalizatornikidan yuqori. Ko'p miqdorda issiqlik ajraladigan oksidlanish jarayonini bir me'yorda bu kattalik muhim ahamiyatga ega. Jo'zg'aluvchan katalizatordan foydalanilganda havoning kam arflanishiga erishitadi. Bu usulning yutuqlari bilan birga kamchiliklari navjud. Katalizatorning ko'p miqdorda sarf bo'lishi, iloji boricha iastalindan foydalanish zarur, moslamaning yemirilishi.

Konvertordan ajralayotgan kontakt gazi tarkibida 0,5–15 mol% ftal ngidridi bor. U darhol kondensatsiyaga uchrab, kristall hosil qiladi. Bu kristall kondensat ustiga yopishadi va issiqlik almashinuvini omonlashtiradi. Ftal angidridi qurilma yuzasidan 2 xil usulda olib ashlanadi:


1. Mexanik qirish.
2. Suyuqlantirish.

Mahsulot oxirigacha toza bo'lishi uchun 2 qayta haydatishi lozim. Sublimatlangan ftal angidridi sovitiladigan vallarga kelib yopishadi, u erda pichoq yordamida kesib olinadi.


Parafin va olefinlarni degidrirlash

Butadien va izopren ishlab chiqarish. Parafin va olefinlarni, ynan n-butan, n-buten, izopentan va izoprenlarni degidrirlash muhim maliy ahamiyatga ega, chunki ular asosida sintetik kauchuklar olish chun sesiy monomerlar 1,3-butadien va izopren olinadi. 1,3-butadien (divinil) $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ oddiy sharoitda rangsiz gaz, $T_{\text{suyuq}} = -4,3^\circ \text{C}$. Iavo bilan 2,0–11,5% aralashmasi portlash xususiyatiga ega.

U sintetik kauchuklar uchun asosiy monomer hisoblanadi. 1,3-butadienni stirol, α -metilstirol yoki akrylonitril bilan radikal-zanjirli sopolimerlanishi asosida sopolimerlar hosil bo'ladi:



Bunda 1,3-butadien 1,4-yoki 1,2-holatda bog'lanadi. Butadienni metallorganik birikmalar va Sigler kompleks katalizatorlari (AlCl_3 , TiCl_4 va boshqalar) ishtirokida polimerlanishi natijasida olinadigan stereoregulyar sis-butadien kauchugi muhim xossalarga ega. Hosil bo'ladigan polimerda butadien 1,4-holatda qo'sh bog'dagi vodorod atomini sis joylashgani bilan:




Ushbu kauchuklarni ko'pi avtomobil kameralari, olishda, oyoq kiyim va turli-tuman rezina texnik buyumlar olishda katta ahamiyatga ega.

Butadien nitril kauchugi maxsus buyumlar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.

1,3 butadienni sanoatda uch xil usul bilan olinadi:


1. Neftning suyuq fraksiyalarini piroliz qilish bilan olinadigan C₄-fraksiyadan 1,3-butadien ajratiladi. Ushbu usul eng tejamli va kelajakda ushbu monomerga bo'lgan ehtiyojni 40–50% qondiradi.

2. H-butadien fraksiyasini degidrirlash (piroliz yoki katalitik kreking mahsulotlaridan ajratilgan):




Tejamkorlikligi jihatidan ushbu usul ikkinchi o'rinda turadi:

3. Yo'ldosh gazlardan ajratilgan n-butanni degidrirlash:




Izopren $\text{CH}_2=\text{C}(\text{CH}_3)-\text{CH}=\text{CH}_2$ (2-metilbutadien-1,3) rangsiz suyuqlik, $T_{\text{kayn}}=34^{\circ}\text{C}$. Havo bilan 1,7–11,5% aralashmasi portlash xavfiga ega. Ma'lumki, u tabiiy kauchukning asosiy struktura qismi hisoblanadi.

Sintetik kauchuk olishda izoprenni butadienga nisbatan ahamiyati katta. Izobutanni oz miqdordagi izopren bilan o'zaro polimerlanishi natijasida butilkauchuk olinadi. Shuningdek, izopren stereoregulyar poliizopren kauchuk olishda ham qo'llaniladi. Ushbu polimerlanish jarayoni metallorganik katalizatorlar ishtirokida sodir bo'ladi:




Izopren olish uchun xuddi, 1,3-butadien olishdagi usullardan foydalaniladi (piroliz mahsulotlaridan ajratish, izopenten fraksiyasini degidrirlash va izopentanni degidrirlash), biroq piroliz fraksiyalarini tarkibini murakkabligi va xomashyo va tayyor mahsulotlarni ajratishdagi bir-qator qiyinchiliklar tufayli, izoprenni sintetik usul bilan olish o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Ulardan eng muhimi izobuten va formaldegid asosidagi sintezdir:




Propilen dimeri orqali sintez qilish istiqbolli sintez usullaridan biri hisoblanadi. Kislota katalizatorlari ishtirokida ushbu dimer (2-


metilpenten-1) 2-metilpenten-2 ga izomerlanadi, u esa pirolizda CH₄ ajralishiga sabab bo'ladı:



Uncha ahamiyatli bo'limgan ikkita usul-atseton va atsetilenden Favorskiy reaksiysi bo'yicha hamda metiletiketon va formaldegid asosida izopren olishni quyidagiCHA ifodalash mumkin:




1,3-butadien va izoprendan tashqari degidrirlash usuli bilan qisman izobuten va yuqori olefinlar olinadi. Izobuten izobutanni degidrirlash bilan ham olinadi:



Izobuten poliizobuten olishda qo'llaniladi. U surkov moylariga qo'shimcha, matofarga srimadirisuvchi, elektr izofarsion materiali sifatida qo'llaniladi. Izobutenni 2% izopren bilan polimerlanish natijasida butil kauchuk olinadi, uning kimyoviy barqarorligi yuqori.

Parafinlarni monoolefinlarga degidrirlash. Parafinlar degidrirlanish natijasida izobuten va yuqori olefinlar olinadi. 1,3-butadien va izopren ishlab chiqarishda ushbu reaksiya ikki bosqichli degidrirlash jarayonining birinchi bosqichi hisoblanadi. Parafinlarni alkilaromatik uglevodorodlar va olefinlar degidrirlanishga nisbatan eng qulay usul hisoblanadi. Shuning uchun kerakli temperaturada ($\approx 600^\circ\text{C}$) parsial bosimni pasaytirish talab etilmaydi va jarayon suyultirilmasdan atmosfera bosimidan bir oz balandroq bosimda olib boriladi.


C₄ va C₅ parafinlarni degidrirlanish natijasida izomer olefinlar aralashmasi, masalan, butandan buten-1, sis- va trans- buten-2 hosil bo'ladı:



Undan tashqari oz miqdorda tegishli dienlar ham hosil bo'ldi, chunki reaksiya sharoiti ularning hosil bo'lishi uchun termodinamik ijhatdan qulay emas.

Oraliq kreking, izomerlanish va koks hosil bo'lishi reaksiyalarini sodir bo'jadi.

Parchalanish reaksiyalarida parafinlar olefinlarga nisbatan reaksiyon qobiliyati yuqori, shuning uchun past uglevodorodlar miqdori ko‘p bo‘ladi (CH_4 , C_2H_4 , C_2H_6 va h.k.). Ma‘lumki, izomerlanishi reaksiyalariga asosan olefinlar kirishadi, xususan izomer olefinlar (izobuten yoki n -penten) qisman gidrirlanadi. Shu sababli reaksiya mahsulotlari tarkibida izomer parafinlar (izobutan va n -pentan) ham bo‘ladi, olefin va dienlarni zichlashish va uglevodorodlarni uglerod va vodorodga parchalanish reaksiyalari natijasida ko‘p miqdorda koks hosil bo‘ladi. Ushbu jarayon sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:




Degidrirlash parafinlari asosiy reaksiyaga nisbatan faol bo'lishi, lekin kreking, izomerlanish va okks hosil bo'lish jarayonlarini uncha tezlashtirmasligi lozim. Al_2O_3 asosidagi alyumoxrom oksidli katalizatorlar eng yaxshi samara beradi. Ularning tarkibi quyidagicha: 10–40% Cr_2O_3 va 2–10% ishqoriy metall oksidlari (Na_2O , K_2O , BaO); ushbu katalizatorlar namlikka juda sezgir bo'ladi, shuning uchun dastlabki C_4 va C_5 fraksiyalarning 1 m^3 suv bug'lari 1 mg dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Parafinlarni olefinlargacha degidrirlash jarayoni texnologiyasi uchta asosiy bosqichdan iborat:

1) parafinlar degidirirlanishini katalizator regeneratsiyasi bilan birgalikda olib borish; 2) reaksiya mahsulotlaridan butan-butene fraksiyasini ajratish (yoki penten-penten fraksiyasini); ushbu fraksiyani

ajratib butenlar (yoki izopentenlar) olish. Butanni degidrirlash bilan buten olish texnologik sxemasi bilan tanishamiz (57-rasm).



57-rasm. Parafinlarni birinchi bosqichda degidrirlash texnologik sxemasi. 1-qurutgich; 2-bug'latgich; trubkasimon pech; 4-reaktor; 5-regenerator; 12-kompressor; 14-separator; 16-absorber; 17-issiqlik almashtirgich; 6,9-utilizator-qozon; 7-elektrofiltr; 8-bunker; 10-srubber; 11,13,15,19-sovutgichlar; 18-bug'latish kolonkasi; 20,21-rektifikatsiya kolonnalari; 22-deflegmatorlar; 23-qaynatgich.

Toza va retsirkullangan n-butan suyuq holda adsorbent 1-qurutgichga (Al_2O_3 , seoltilar) bilan to'ldirilgan, so'ngra 2-bug'latgichga yuboriladi. Hosil bo'lgan bug'lar 3-trubkasimon pechda $540\text{--}550^\circ\text{C}$ qizdiriladi va 4-reaktorning taqsimlanish panjarasini pastiga, degidrirlashga yuboriladi. Regenirlangan katalizator taqsimlanish panjarasining yuqori qismiga beriladi, natijada katalizator qatlam va reaksiya gazlari bish-biriga tomon harakat qila boshchaydi; bu jarayoni tegishli shavennida olib borish imkoniyatini yaratadi. Reaktorning yuqori tomonida sovutish moslamasi mavjud bo'lib, u yerda reaksiya gazlar n-butan yordamida sovutiladi va degidrirlashga yuboriladi. Buning natijasida gazlar temperaturasi $450\text{--}550^\circ\text{C}$ gacha soviyi va ularni parchalanishga imkon bo'lmaydi. Reaktor tepasidagi siklonlarda gazlar bilan birga kelgan katalizator ajratiladi va trubalar orqali katalizator qatlamiga qaytariladi.

Kokslangan katalizator 4-reaktorning pastki tomonidan maxsus truba yordamida desorberga oqib keladi, u yerda azot bilan purkaladi va uglevodorodlar ajratib olinadi. So'ngra katalizator issiq gaz oqimi bilan birga pnevmotampor yordamida 5-regeneratorning yuqori tomoniga yuboriladi. Regeneratororda taqsimlanish va bir nechta boshqa panjaralar mavjud bo'lib, ular regeneratorni bo'laklarga ajratadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Uglevodorodlar, geterogen-katalitik oksidlash, propilen, akril kislota, oksidlash-ammonoliz usuli, akrilonitril, rektifikatsiya jarayoni, polimerlanish, ingibitor.




Mavzu bo‘yicha savollar

1. Geterogen-katalitik oksidlanish reaksiyatari.
2. Olefinlarni to‘yingan uglerod atomi bo‘yicha oksidlash.
3. Propilenni ikki bosqichda oksidlash bilan akril kislota olish.
4. Uglevodorodlarni oksidlanish-ammonoliz usuli.
5. Propilenni oksidlash-ammonoliz usuli bilan akrilonitril olish.
6. Stirol olish.
7. Parafinlarni monoolefinlarga degidrirlash.
8. Izopren olish.
9. 1,3 butadienni sanoatda olish usullari.
10. Parafinlarni bir bosqichda degidrirlash texnologiyasi.

VIII bob. KARBONIL GURUHI BO'YICHA KONDENSATSIYA JARAYONLARI

Karbonil guruhi bo'yicha birikish va kondensatsiya jarayonlari asosiy organik sintez sanoatida muhim o'rinni egallaydi. Ko'pchilik aldegid va ketonlar yuqori reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega ekanligi sababli, yuqoridagi jarayonlar asosida monomerlar va polimer materiallari olish uchun xomashyolar (difenitolpropan, pentaeritrit, ko'p atomli spirtlar, izopren, kaprolaktam), organik sintez uchun oraliq mahsulotlar (yuqori spirtlar, aldegidlar va ketonlar), erituvchilar (oksolanlar, izobutilmetylketon) va ko'pgina boshqa qimmatli mahsulotlar sintez qilish mumkin.


Aldegid va ketonlarni turli moddalar bilan o'zaro ta'sir sharoitiga bog'liq ravishda ushbu moddalarni karbonil guruhi bo'yicha birikish bosqichida to'xtatish mumkin (1), keyinchalik reagentning ikkinchi molekulasi bilan kondensatsiyalanish va suv ajralishi bilan sodir bo'lishi mumkin, masalan, atsetallar hosil bo'lishida (2) yoki ichki molekular degidratatsiya bilan tugashi mumkin, bu azotli asoslarga xos bo'lgan reaksiyalar (3):



Ushbu jarayonlardan eng muhim hisoblanganini ikki asosiy reaksiyaga ajratish mumkin:

Aldegid va ketonlarni turli xil asoslar bilan reaksiyalari, ularga geteroatomida juftlanmagan elektronlari bo'lgan birikmalar (azotli asoslar va spirtlar) va π -elektronli sistemalar (olefinlar, aromatik

birikmalar) kiradi. Bu holatda karbonil guruhining faollanishi ko'pincha protonli kislotalar (sulfat, xlorid kislova) yordamida amalga oshiriladi. Ular karbonil guruhining kislorod atomini protonlaydi, uglerod atomida qisman musbat zaryad hosil bo'lishini ta'minlaydi va natijada karboniy kationi hosil bo'ladi:




Karbonil kationi ortiqcha elektron bulutga ega bo'lgani uchun boshqa molekulaga to'ridan-to'g'ri hujum qilish qobiliyatiga ega, bu esa karbonilli birikmalarni aromatik moddalar, olefinlar va boshqalar bilan kondensatsiya reaksiyasiga kirishini asoslaydi.


2. Aldegid va ketonlarni kuchsiz kislotalar (HCHO) va psevdokislotalar (karbonil va nitrobirikmalar va vodorod atomi bilan faollashgan moddalar) bilan reaksiyalar, ya'ni aldol kondensatsiyasi turidagi reaksiyalar. Ushbu reaksiyalar uchun ishqorlar va umuman, asoslar bilan kataliz jarayonlari xos bo'lib, kislova reagenti asosga aylantirilishi natijasida kuchli nukleofilga aylanadi, u esa karbonil uglerodiga to'g'ri hujum qila oladi:



Yuqoridagi barcha reaksiyalarda karbonil guruhining reaksiyaga kirishi qobiliyati karbonil guruhining qutblanish darajasiga, ya'ni uglerod atomida hosil bo'lgan qisman musbat zaryad qiymatiga bog'liq. Alkil reagenti ushbu musbat zaryadni qanday darajagacha neytrallash imkoniyatiga egadir. Demak, aldegidlardagi alkil guruhining uzayishi va tarmoqlanishi, ularni reaksiyaga kirishish xususiyatini kamayishiga, ularni tarkibiga xlor atomini kiritish esa bu xususiyatni ortishiga olib keladi:



Ketonlar tarkibidagi ikkita alkil guruhining induktiv ta'siri natijasida ularning reaksiyaga kirishishi ancha sust:




Natija va reaksiya sharoiti albatta, karbonil guruhiga hujum qilayotgan komponentning faolligiga bog'liq.

Karbonil guruhi bo'yicha boradigan barcha kondensatsiya reaksiyalari ekzotermik ravishda sodir bo'ladi, lekin ularni issiqlik effekti ko'rsatgichlari bo'yicha ikkita katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi xiliga karbonilli birikmalarni aromatik moddalar va olefinlar bilan deyarli qaytnaydigan kuchli ekzotermik kondensatsiya reaksiyalari kiradi (issiqlik effekti 104–406 kDj/mol). Ikkinci xiliga atsetallar va siangidrirlarni hosil bo'lishidagi qaytar reaksiyalardagi, ya'ni aldol kondensatsiya reaksiyalari va azotli asoslar bilan reaksiyalar kiradi. Ushbu qaytar reaksiyalardagi birikish bosqichining issiqlik effekti uncha katta emas (21–63 kDj/mol), biroq kondensatsiya yoki degidratatsiya reaksiyalarning ketma-ketligiga ko'ra, jarayondagi sodir bo'ladigan reaksiyalar yig'indisini muvozanat nisbatlarini aniqlash bilan issiqlik effekti u yoki bu tomonga o'zlashtirish mumkin.


Aslida, muvozanatni o'ng tomonga siljishi uchun, bunda birikishdan keyin degidratatsiya yoki besh-olti halqali nisbatan barqaror birikmalar hosil bo'lishi lozim.

Atsetallar sintezi va Prins reaksiyasi

Izopren olish. Atsetallar sintezi. Poluatsetal $\text{RCH}(\text{OH})\text{OR}'$ va atsetallar $\text{RCH}(\text{OR}')_2$ ko'pincha aldegidlar sintezi va ularni turli xil aylanishlari vaqtida hosil bo'ladi. Masalan, ular spirtlarni aldegidlar bilan HCl , H_2SO_4 yoki ushbu kislotalarning nordon tuzlari katalizatorlar ishtirokida qaytar, bunda reaksiya muvozanati qizdirilganda atsetalni parchalanish tomonga siljiydi:




Halqali atsetallar 1,2-glikollardan 1,3-dioksolon ancha barqaror hisoblanadi:




1,3-dioksalanlarni sanoat miqiyosida ishlab chiqariladi, chunki ular sellyuloza efirlari uchun yaxshi erituvchi hisoblanadi.

1,3-glikollarning halqali atsetallari qatoriga 1,3-djoksan ham kiradi:




Polivinilatsetllar tarkibida 1,3-dioksanli halqalar mavjud bo'ladi. Polivinilatsetllar polimerlarning muhim sinfiga oid polivinil spirti hosilalariga. Ular polivinil spirtiga formaldegid yoki n-moy aldegidi bilan 60-80° C temperaturada fosfat kislota ishtirokida ishllov berilganda hosil bo'ladi:



Prins reaksiyasi. Aldegidlarni olefinlар bilan kislota turidagi katalizatorlar ishtirokidagi kondensatsiyasi (Prins reaksiyasi) bir qator moddalarni sintez qilishda amaliy ahamiyatga ega. Reaksiyani olib borish sharoitiga qarab asosan 1,3-diokson 1,3-glikollarning hosilalari hosil bo'ladi. Undan tashqari, oraliq mahsulotlar sifatida to'yinmagan bir atomli spirtlar, to'yingan spirtlar (olefinlarning gidratatsiya mahsulotlari) va murakkab kislorodli birikmalar hosil bo'ladi.

Ushbu moddalarni hosil bo'lishini quyidagi sxemadan ko'tish mumkin:



1,3-dioksanlar, nisbatan past temperatura ($90-100^{\circ}\text{C}$) va olefinga nisbatan ortiqcha olingan formaldegid muhitida kondensatsiya reaksiyasining asosiy mahsulotlari hisoblanadi. Formaldegidni

yetishmasligi va temperaturaning ko'tarilishi natijasida 1,3-glikollar hosil bo'ladi. Bir vaqtning o'zida to'yinmagan spirlarni hosil bo'lishi ko'payadi, haroratning ko'tarilishi natijasida dienlar hosil bo'ladi.


Olefinlarni reaksiyaga kirishish qobiliyatি boshqa elektrofil reaksiyalardagi kabi o'zgaradi. Etilen kondensatsiya reaksiyasiga qiyinroq kirishadi, eng oson izobuten kirishadi, buning uchun $25\text{--}40^{\circ}\text{C}$, 10–30% li sulfat kislota yetarlidir. Lekin jarayonni tezlashtirish va kislotani tejash uchun sanoatda kondensatsiya reaksiyasi yuqori temperatura ($70\text{--}90^{\circ}\text{C}$) va suyuqtirilgan sulfat kislota muhitida olib boriladi (15%). Boshqa olefinlar uchun esa ancha qulay sharoit talab qilinadi (masalan, propilen uchun $100\text{--}115^{\circ}\text{C}$ va 3–5% li H_2SO_4).

Izopren olish. Prins reaksiyasi bilan olinadigan 1,3-dioksanlar va 1,3-glikollar erituvchi sifatida, plastifikatorlar, emulgatorlar va h.k. sintez qilishda oraliq mahsulot hisoblanadi. Lekin, ushbu reaksiya izopren ishlаб chiqarishda o'zining asosiy amaliy ahamiyatini topdi. Izopren ishlаб chiqarish texnologiyasi M.I.Farber va M.S. Nemsov tomonidan yaratildi.


Birinchi bosqichda izobutenni formaldegid bilan kondensatsiyasi katalizator-sulfat kislota ishtirotida sodir bo'ladi (katalizator izobutenga nisbatan 1,0–1,5%) (massa olinadi).

Xomashyo aralashmasi tarkibidagi $\text{C}_4\text{H}_8\text{:HCHO}$ mol nisbatan 0,73:1 teng qilib olinadi, bunda reaksiya muhitida doimo erkin formaldegid ishtirot etishi lozim, chunki u izobutenni polimerlanishni oldini oladi. Formaldegid 37% li suvli eritma holida qo'llaniladi, uni reaktorga yuborishdan avval retsirkulyat bilan aralashtiriladi. Jarayon $85\text{--}95^{\circ}\text{C}$ va 1,5–2 MPa bosimda suyuq ikki fazali sistemadan iborat bo'lib, reaksiyani jadalligi fazalar yuzasidagi o'zaro ta'siriga bog'liq. Aslida reaksiyani izobuten va formaldegidni konversiya darajasi 85–90% bo'lguncha olib boriladi.

Ushbu sharoitlarda reaksiyaning asosiy mahsulotlari 4,4-dimetil-1,3-dioksan selektivligi izobuten bo'yicha 66–68%, formaldegid bo'yicha 80–83%) va 3-metilbutandiol-1,3 (5–7,5%) hosil bo'ladi. Undan tashqari, izomer to'yinmagan spirlar va halqani yopilishi hisobiga 5-metildigidropiran -5,6 hosil bo'ladi. Metanolda formalin bo'lgани uchun u reaksiya massasida bo'ladi va qisman metanol formaldegid bilan metilal (dimetoksimetan) hosil qiladi:



Ikkinchi bosqich 4,4-dimetildioksan-1,3 ni izoprengacha katalitik gidroliz va degidratlanish jarayonlaridan tashkil topgan. Bir vaqtida oraliq reaksiya va uni izobuten va formaldegidga parchalanish reaksiyasi sodir bo'ldi, dioksan sinteziga teskari:




Birinchi bosqich mahsulotlari-to'yinmagan spirtlar va diol ham izoprenga aylanishi mumkin, buning uchun ular dioksan bilan birlgilikda degidratalanishga yuboriladi, natijada izopren hosil bo'lish miqdori ko'payadi.

Ikkinchi bosqich uchun turli xil geterogen kislota turidagi katalizatorlar (tashuvchiga shimdirilgan fosfat kislota, fosfatlar, silikagel va h.k.) qo'llaniladi, reaksiya gaz fazasida 250–400 °C da olib boriladi. Endotermik reaksiyani kompensatsiyalash uchun dioksanni isitilgan suv bug'i bilan aralashtiriladi, u issiqlik akumulatori vazifasini bajaradi, undan tashqari reaksiyaning selektiv ravishda borishini ta'minlaydi. Bu bosqichda dioksanning konversiya darajasi 83–84% tashkil qiladi (qolgani izobuten, metil moyaldegid va yuqori haroratda qaynaydigan moddalar h.k.).

Izoprenni ikki bosqichda sintez qilish texnologiyasi. Izobuten fraksiyasi va formaldegiddan izopren olishning soddalashtirilgan texnologik sxemasi 58-rasmda ifodalangan. Reaksiyaning birinchi bosqichi suv bilan sovutiladigan ikkita trubkali 1 va 2-reaktorlarda olib boriladi. Izobuten fraksiyasi va retsirkulyat bilan suyultirilgan formaldegidning suvli eritmasi bir-biriga tomon harakatlanadi, suvli qatlam pastga, yengil uglevodorodli qatlam esa yuqoriga ko'tariladi, bunda suyuqliklarni dispergirish fazalar ta'sirlashuv yuzasini kattalashishiga olib keladi. Reaktoring yuqori va past tomonlari separator kabi ishlaysi, ularda uglevodorod va suvli qatlam ajralishishi ro'y beradi. Birinchisiga dioksan va to'yinmagan spirtlar deyarli to'liq o'tadi, ikkinchi qatlama reaksiyaga kirishmagan formaldegid, metanolning bir qismi va diol qoladi.

2-reaktor pastki qismidagi suvli qatlam ishqor bilan neytrallanadi va 3-kolonnada undagi barcha uchuvchi moddalar haydaladi va

uglevodorod qatlami bilan umumlashtiriladi. So'ngra 7-kolonnada 3-kolonna kub qoldig'i va ikkinchi bosqichdan kelayotgan retsirkullangan formalindan suyultirilgan formaldegid eritmasi haydaladi. Ushbu eritmaga toza formalin aralashtirilib reaksiya muhitiga qaytariladi. 1-rektorming yuqorisidagi uglevodorod qatlami va suvli qatlam rektifikatsiyasining yengil qismi birlashtiriladi va 9-neytralizatorda ishqor eritmasi bilan ishlov beriladi, so'ngra 2-reaktordan kelayotgan suvli qatlam bilan aralashtiriladi.



58-rasm. Izobuten va formaldegiddan izopren olish texnologik sxemasi: 1,2- 1- bosqich reaktorlari, 3,7,10,13,18,19- rektifikatsiya kolonnalari; 4-deflegmator, 14-issiqlik almashtirish, 15-2 bosqich reaktori; 16-sovutgich; 5-qaynatgich; 6-drossel ventil; 8-nasoslar; 9-neytralizator; 17-separator.


Yuvilgan uglevodorod qatlamidan 10-kolonnada reaksiyaga izobuten haydaladi va reaksiya muhitiga qaytariladi. So'ngra reaksiya mahsulotlari 11-kolonnaga yuboriladi, u yerda metanol va metilal, 12-

kolonnada esa uchlamchi butanol haydaladi. Dioksan (to'yinmagan spirtlar bilan birga) 13-kolonnada og'ir qoldiqdan ajratiladi va ikkinchi bosqich jarayoniga yuboriladi.

Reaksiya massasining issiqligi hisobiga 14-issiqlik almash-tirgichda dioksan isitiladi va bug'latiladi, isitilgan bug' bilan aralash-tiriladi va ikkinchi bosqichli 15-reaktorga yuboriladi (qo'zg'almas qatlamli geterogen katalizatorli adiobatik turdag'i reaktor). Reaksiya aralashmasi 14-issiqlik almash-tirgichdan o'tadi, 16sovutgichdan 17-separatorda ajratiladi. Formaldegid bo'lgan suvli qatlamni 3-kolonnaga yuboriladi, u yerda birinchi bosqichdan kelayotgan organik qatlam ketma-ketlikda ikkita rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi. 18-rektifikatsiya kolonnasida dioksan parchalanishidan hosil bo'lgan izobuten haydaladi va birinchi bosqichli sintez jarayoniga qaytariladi. So'ngra 19-kolonnada izopren undan yuqori temperaturada qaynaydigan qoldiqdan ajratiladi (reaksiyaga kirishmagan dioksan va oraliq mahsulotlar. So'nggi bor tozalashda izopren suv bilan yuviladi, azeotrop haydash bilan quritiladi va oxirgi rektifikatsiyaga jo'natiladi. Ushbu jarayonlarda izoprenni polimerlanishini oldini olish uchun ingibitor qo'shiladi).

Izoprenni bir bosqichda sintez qilish. Izobutenni formaldegid bilan o'zaro reaksiyaga kirishishi natijasida suyuq fazada yuqori temperaturada 4,4-dimetil-1,3-dioksan to'yinmagan spirtlar va diolni asta-sekin parchalanishidan izopren hosil bo'ladi. (Prins reaksiyasi) Buni 58-rasmdan, 160°C hosil bo'layotgan mahsulotlarni reaksiya vaqtiga bog'liqlik egri chizig'idan ko'rish mumkin.


Shu asosda izoprenni suyuq fazada 150–160°C, ≈3MPa bosimda suvda eriydigan Lyuis kislotalari ishtirokida bir bosqichli kataliz jarayoni ishlab chiqildi. Qo'llaniladigan asbob-uskuna va kapital mablag'lar sarfini kamaytirishdan tashqari bir bosqichli jarayonda oraliq mahsulotlarni bartaraf qilish muammosi ham hal qilinadi, shular qatorida uchlamchi butanol ham reaksiya uchun qaytarilish mumkin, u yerda uchlamchi butanol izobuten bilan muvozanatda bo'ladi:



Hattoki izobuten o'mniga xomashyo sifatida uchlamchi butanoldan foydalanish taklif qilingan.


Izopren sintezining yana boshqa bir usuli gaz fazasida 200–350°C geterogen-katalitik reaksiya hisoblanadi. Bunda yuqori selektivlik (formaldegid bo'yicha 80%, izobuten bo'yicha 90%), asbob-uskunalar

korroziyasini kamayishi, hosil bo'layotgan izopren sifatining yaxshilanishi kuzatildi.




59-rasm. Formaldegidni izobuten bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'layotgan mahsulotni reaksiya vaqtiga bog'liqlik egri chiziqlari:
 1-formaldegid; 2-4,4-dimetildioksan-1,3; 3-izopren;
 4-3-metilbuten-3-ol-1; 5-3-metilbuten-2-ol; 6-5-metildigidropiran-5,6;
 7-tretbutilmetyl efiri; 8-3-metilbutandiol-1,3.

Aldol kondensatsiyasi turidagi reaksiyalar. Keng ma'noda olganda aldol kondensatsiyasi deganda, aldegid va ketonlar bir-biri bilan yoki psevdokislotalar bilan kondensatsiyasi tushiniladi, masalan, nitrobirkimlar bilan:




Bunda bir molekula karbonilli birikma karbonil guruhi bilan, ikkinchisi esa karbonil bilan faollangan α - metilen guruhi bo'yicha (yoki boshqa elektromansiy guruh bilan) reaksiyaga kirishadi.

Ushbu reaksiyalardan asosning katalizatorlik vazifasi shundan iboratki, u metilen komponentini reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega bo'lgan anionga aylantiradi. Metilen komponentidan elektromansiy guruh bilan bog'langan anion yetarli darajada barqaror bo'ladi:




Shu sababli, reaksiya doimo elektromansiy guruh bilan yonma-yon bo'lgan α -uglerod atomi hisoblanadi va u to'g'ridan-to'g'ri karbonil

komponenti etadi, shundan so'ng kislorod atomida manfiy zaryadga ega oraliq anion aldolga aylanadi:




Barcha bosqichlar qaytar jarayon, bu esa reaksiyalarni muvozanatli, ya'ni aldol kondensatsiyasiga xos ekanligini ko'rsatadi.

Aldegid- keton sistemasida karbonil komponenti vazifasini aslida aldegid bajaradi, chunki aldegid guruhi kuchli reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega bo'lgani uchun metilen komponentidagi anion bilan birikishi mumkin:




Ko'rinib turibdiki, ikki molekula aldegidni oraliq kondensatsiyasini to'xtatish uchun ortiqcha keton kerak bo'ladi. Metiletiketonga o'xshagan nosimmetrik ketonlar, alkil guruhidagi α -uglerod atomiga ta'sir etishi mumkin:





Biroq, eng uzun uglerod zanjiridagi metilen guruhiga.

Ikkita aldegidni aldol kondensatsiyasida biri ikkinchisiga nisbatan uzun va tarmoqlangan uglerod atomlari zanjiridan iborat bo'lsa, ushbu aldegidni metilenli komponent deyiladi:



Aldegid va ketonlar uchun aldol kondensatsiya kinetikasi birididan farq qiladi. Umuman olganda, kondensatsiya ikkita bosqichda boradi:



Aldegidlar bilan reaksiyaga kirishayotganda ikkinchi bosqich (anionni karbonil guruhiga ta'siri) tez sodir bo'ladi, shuning uchun umumiyliz tezlik karbo-anion hosil bo'lish tezligiga bog'liq bo'ladi:


$$r_1 = k_1[RCH_2-COR'][HO^-]$$

Aksincha, ketonlar aldol kondensatsiyasida ularidan karbonil guruhining birikishiga moyilligi past bo'lgani uchun umumiyliz tezlik ikkinchi bosqich tezligi orqali aniqlanadi, birinchisida esa muvozanat qaror topadi:

$$[R\bar{C}H-COR'] = K[RCH_2-COR'][HO^-]/[H_2O],$$

$$N = k_3[R\bar{C}H-COR'][RCH_2-COR'] = k_3K[RCH_2-COR']^2[HO^-]/[H_2O]$$

Aldol kondensatsiya reaksiyalari fagat asoslar bilangina emas, balki kislota katlizatorlari ishtirokida ham sodir bo'ladi. Ikkala holda ham hosil bo'lgan aldoldan o'sha zahoti suv ajralab chiqadi va to'yinmagan karbonilli birikmalar hosil bo'ladi, masalan, kroton aldegid va atsetaldegid:



Kuchli kislotalarning katalitik ta'siri aslida, aldol kondensatsiyasiga olib keladi, lekin aldegidning o'ziga xos tuzilishga ega bo'lganligi sababli, ushbu reaksiya ketmasa, unda Kannitsiaro reaksiyasi sodir bo'ladi, unda bir molekula aldegid karbon kislotagacha oksidlanadi, boshqa molekulasi spirtgacha qaytariladi.

Aldol kondensatsiya jarayonlari texnologiyasi. Aldol kondensatsiyasi asosida sodir bo'ladigan texnologik jarayonlarni uch guruhga ajratish mumkin:


1. Ushbu jarayonlarda aldol kondensatsiyasi keyingi reaksiyalardan alohida ajratilgan holda, maxsus reaktorda o'tkaziladi. Ushbu bosqich uchun past temperatura ($0-30^\circ C$), uzoq reaksiya davomiyligi (2-3soat) va reagentlarni past konversiya darajasi talab etiladi.

Qaynash temperaturasi $21^\circ C$ yaqin bo'lgan atsetaldegid aldol kondensatsiyasi uchun qaytar kondensatsiyalari tarelkali kolonnadan foydalaniлади. Bunda hosil bo'ladigan reaksiya issiqligi atsetaldegidni

bug'latish hisobiga tashqariga chiqariladi aldol esa kolonna kubidan chiqariladi (60 a-rasm).

Mahsulot gidrirlashga (diollar olishda) yoki ko'pincha avval degidratlanishga yuboriladi, so'ngra gidrirlashga (atsetaldeggiddan butanol, atsetondan izobutilmetilketon olishda). Mahsulotni organik kislota bilan neytrallanadi va reaksiyaga kirishmagan reagent haydaladi, shu vaqtida siklik atsetallarni bo'lishi sodir bo'ladi, shundan so'ng degidrlanish o'tkaziladi.

Biroq, aldol izlash mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri degidratatsiyaga yuborish bilan hosil bo'lgan suvni, reaksiyaga kirishmagan reagentlar va degidrtatsiya mahsulotlarini p'ir-biridan ajratishni jarayonlarini birgalikda olib borish mumkin (60b-rasm). Bunda aldolizlanishdan so'ng reaksiya aralashmasini organik kislotalar yordamida nordonlashtiriladi va $100\text{--}130^{\circ}\text{C}$ degidratatsiya olib boriladi. Mahsulotlarning uchuvchanligiga bog'liq holda kubda faqat suv qoladi va dastlabki reagentlarni birgalikda kolonnaning tepe tomonidan haydab olinadi.




60-rasm. Aldol kondensatsiya jarayonlari uchun reaksiya moslamalari: a-tarelkali kolonna turidagi reaktor; b-al dol kondensatsiyasi uchun trubkali reaktor va degidratlanish uchun tarelkali kolonnalardan iborat reaksiya qurilmalari.

2. Aldolizlash bilan (bitta reaktorda) siklik atsetallarni parchalanishi va aldolni degidratlanish birlashtirilgan jarayonlar. Hosil bo'lgan to'yinmagan aldegid keyingi gidrirlash jarayoniga yuboriladi (2-etylgeksanolni olinishi). Ushbu holda ikkala reaksiya ishqor katalizatorligida yuqori temperaturada ($100\text{--}130^{\circ}\text{C}$) olib boriladi, reaksiya davomiyligi 0,5–1 soatni tashkil qiladi. Bunday jarayonning

afzalliklariga, jadallashtirishdan tashqari, reaktorlar sonining kam bo'lishi, reaksiyani qaytmasligi va xomashyoni to'liq mahsulotga aylanishi kiradi. Ushbu jarayonlar uchun turli xil reaktorlar qo'llaniladi - ilonsimon, tashqariga chiqarib sovutish bilan ishlaydigan ichi bo'sh kolonnalar va h.k.

3. Aldol kondensatsiyasi (bir reaktorda) bilan oksidlanish-qaytarilish Kannitsaro-Tishenko reaksiyalari (pentaeritrit, metriol, etriol sintezi) birlashtirilgan jarayonlar. Ushbu jarayonlarni boshqalardan farqi shundan iboratki, bunda hosil bo'ladigan chumoli kislotani bog'lash uchun ko'p miqdorda ishqor ishiltiladi. 30–50 °C reaksiya davomiyligi 1–2 soatdan iborat. Davriy ravishda olib boriladigan sintez uchun sovutish qobig'i ulangan aralashtirgichli reaktor, uzlusiz sintez uchun esa ushbu reaktorlar kaskadi qo'llaniladi.

2-etylgeksanol ishlab chiqarish (61-rasm). 1-reaktorga kelayotgan n-moy aldegidiga, reaktorga kiritishdan avval 40% li NaOH ($\approx 0,05\%$) qo'shiladi. Ajratiladigan issiqlik hisobiga reaktordagi temperatura 100–130 °C ushlab turiladi, ortiqcha issiqlik reaksiya massasini 2-sovutgich orqali sirkulatsiyalash bilan kamaytiriladi.



61-rasm. 2-etylgeksanol olish texnologik sxemasi:

1-reaktor; 2,3,11,14- sovutgichlar; 4,15- separatorlar; 5,6,17,18- rektifikatsiya kolonnalar; 7-deflegmatorlar; 8-qaynatgichlar; 9-nasos; 10,13- gidrirlash kolonnalar; 12- filtr; 16-drosselli ventil.

Reaktorda aldollah va aldolni degidratlash bilan 2-etylgeksanol olish jarayonlari sovutiladi va 4-separatorda pastki tomondan suv va tepe tomondan organik qatlam ajratiladi. Organik qatlam 5 va 6-kolonnalarda rektifikatsiyalanadi, bunda dastlab yengil fraksiya (reaksiya kirishmagan moy aldegi, suv qoldig'i va h.k.), so'ngra 2-etylgeksenal, 6-kolonna kubida oraliq og'ir mahsulotlar chiqariladi.

So'ngra 2-etylgeksenal gidrirlash uchun yuboriladi. Keyinchalik 2-etylgeksanol efirlari va polimer materiallari rangi qorayib qolmasligi uchun, gidrirlashni qo'sh bog'lar va aldegid guruhlarini yuqori to'yinish darajasiga erishguncha olib borish lozim. Shuning uchun gidrirlashni suyuq fazada 2-3 MPa bosim ostida ikki bosqichda olib boriladi.

Gidrirlashni birinchi bosqichi 10-kolonnada suyuqlik bilan aralashtirilgan metalloksid katalizatorlari ishtirokida olib boriladi. Reaksiya issiqligi vodorodni isitish, qisman bug'latish va aralashmani 11-sovutgich orqali o'tkazish uchun sarf bo'ladi. Ikkinci bosqich qo'zg'almas qatlamli Ni_xCr₂O₃ katalizatorli 13- gidrirlash kolonnasida adiabat sharoitida olib boriladi, shu bilan birga 10-reaktor zarrachalaridan tozalanadi. 13-reaktordan kelayotgan gaz-suyuqlik aralashmasi sovutgichdan so'ng 15-separatorda ajratiladi, shundan so'ng vodorodni ishchi bosimgacha siqiladi va birinchi bosqichli reaktorga qaytariladi, suyuqlik esa rektifikatsiyaga yuboriladi. Rektifikatsiya vakuum ostida 17 va 18-kolonnalarda olib boriladi. Avval yengil moddalar, so'ngra tekis toza 2-etylgeksanol ajratiladi.

Tayanch so'z va iboralar

Aldegid va ketonlar, kuchsiz kislotalar, atsetallar sintezi, prins reaksiyasi, olefinlar, izopren ishlab chiqarish.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Aldegid va ketonlarni turli asoslari bilan reaksiyalari.
2. Aldegid va ketonlar kuchsiz kislotalar bilan reaksiyalari.
3. Atsetallar sintezi.
4. Prins reaksiyasi.
5. Olefinlarni kondensatsiya reaksiyalari.
6. Izopren ishlab chiqarish texnologiyasi.
7. Izoprenni ikki bosqichda sintez qilish.
8. Izoprenni bir bosqichda sintez qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Соколов Р.С. Химическая технология, т. 1.,2 – М.: Владос, 2000. - 432 с.
2. Тимофеев В.С, Серафимов Л.А. Принципы технологии основного органического и нефтехимического синтеза. М.: «Высшая школа», 2003. -536 с.
3. Лебедев Н.Н. Химия и технология основного органического и нефтехимического синтеза. – М.: «Химия», 1988. - 592 с.

MUNDARIJA

So'z boshi	3
Kirish	5
 I bob. ASOSIY ORGANIK VA NEFT KIMYOSI SINTEZI UCHUN XOMASHYOLAR	
Parafinlar	8
Past parafinlar	8
Yuqori parafinlar.....	9
Olefinlar	13
Piroлиз va kreking jarayonlari texnologiyasi.....	15
Aromatik uglevodorodlar	22
Neft mahsulotlarini aromatlashtirish.....	23
Toshko'mirni kokslash.....	27
Aromatik birikmalarni ajratish va tozalash.....	31
Aromatik uglevodorodlar izomerlanish va dealkillash reaksiyalari bilan olish.....	32
Atsetilen	36
Atsetilenni kalsiy karbiddan olish texnologiyasi.....	38
Uglevodorodlardan atsetilen olish	41
Ublerod oksid va sintez gaz.....	45
Uglevodorodlarni katalitik konversiyasi.....	45
 II bob. GALOGENLASH JARAYONLARI	
Galogenlash reaksiyalari termodynamikasi.....	52
Radikal zanjirli xlorlash	54
Radikal zanjirli xlorlash reaksiyalari mexanizmi va kinetikasi....	56
Suyuq muhitda xlorlash texnologiyasi va olinadigan mahsulotlar.....	58
Gaz fazasida xlorlash texnologiyasi	63
Gaz fazasida xlorlash jarayonining shart-sharoitlari va reaktorlari	65
Ion katalitik galogenlash	67
Xlorgidrinlash reaksiyalari.	69
Gidrogalogenlash	72

**III bob. GIDROLIZ, GIDRATATSIYA,
DEGIDRATATSIYA, ETERIFIKATSIYA
JARAYONLARI**

Xlorli hosilalar gidrolizi va ishqoriy degidroxilash.....	76
Gidroliz jarayoni nazariy asoslari	88
Xlor olefinlar olish	89
Ishqor va gidrolyzlash usuli bilan spirtlar ishlab chiqarish.....	90
Bosim ostida xlorbenzolni ishqor bilan gidrotozalab fenol olish.	90
Nitrillar gidrolizi va eterifikatsiyasi.....	91
Gidratatsiya va degidratatsiya	92
Olefinlar gidratatsiyasi.....	93
Etanol ishlab chiqarish.....	94
Atsetilen gidratatsiyasi	95
Degidratatsiya jarayonlari	96
Oddiy efirlar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan degidratatsiya.....	97
Karbon kislotalar degidratatsiyasi.....	100
Eterifikatsiya	103
Karbon kislotalar efirlarini sintez qilish texnologiyasi.....	106
Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi.....	107

VI bob ALKILLASH JARAYONLARI

Alkillash jarayoni tavsifi.....	112
Alkillash jarayoni nazariy asoslari	114
Uglerod atomi bo'yicha alkillash	114
Kislotorod, otingugur va azot atomlari bo'yicha alkillash	115
Alkillovchi reagentlar va katafizatorlar.....	120
Aromatik uglevodoridlarni alkillash texnologiyasi	126
Vinillash.....	129
Formaldegid olish.....	133

V bob. SULFATLASH VA SULFIRLASH JARAYONLARI

Olefin va spirtlarni sulfatlash.....	138
Sulfat kislota bilan sulfatlash.....	142
Spirtlarni xlorsulfon kislota bilan sulfatlash.....	144
Aromatik birikmalarni sulfirlash.....	147
Nitrollash jarayonlari.....	152
Aromatik birikmalarni nitrollash.....	154
Parafinlarni nitrollash.....	155

VI bob. OKSIDLASH JARAYONLARI

Oksidlash jarayonlari tavsifi	161
Suyuq fazada oksidlash reaktorlari.....	169
Uglevodorodlarni gidroperoksidlargacha oksidlash.....	170
Parafinlarni oksidlash.....	175
n-parafinlarni spirtlargacha oksidlash.....	176
Parafinlarni karbon kislotalargacha oksidlanishi.....	176
Uglevodorodlar va ularning hosilalarini geterogen-katalitik oksidlash	179
Olefirlarni to'yingan uglerod atomi bo'yicha okidlash.....	183
Propilen oksidlash bilan akril kislota olish	183
Uglevodorodlarni oksidlanish-ammonoliz usuli.....	185
Aromatik karbon kislotalar ishlab chiqarish.....	187
Malein, ftal va boshqa siklik angidridlari sintezi.....	188
Ftal angidridi olish texnologiyasi.....	191
Tereftal kislotasi va uning efirlari.....	193
Toluoldan tereftal kislotasi va dimetil tereftalat olish.....	195

VII bob. DEGIDRIRLASH VA GIDRIRLASH JARAYONLARI

Degidrirlash reaksiyalarini va ularni sinflanishi.	200
Gidrirlash reaksiyalarini va ularni sinflanishi.....	202
Formaldegid ishlab chiqarish.....	204
Stirol va uning gomologlarini ishlab chiqarish.....	204
Parafin va olefinlarni degidrirlash.....	207
Parafinlarni monoolefinlarga degidrirlash.....	209

VIII bob. KARBONIL GURUHI BO'YICHA KONDENSATSIYA JARAYONLARI

Atsetallar sintezi va Prins reaksiyasi Izopren olish.....	215
Izoprenni ikki bosqichda sintez qilish texnologiyasi.....	218
Izoprenni bir bosqichda sintez qilish.....	220
Aldol kondensatsiyasi turidagi reaksiyalar.....	221
Aldol kondensatsiya jarayonlari texnologiyasi.....	223
Foydalanilga adabiyotlar	227